Pedagog olimlarimizning keyingi yillardagi tadqiqotlari Tarbiya fanini o'qitishning yangi, innovatsion metodlari hamda texnologiyalarini ishlab chiqish masalalariga qaratilmoqda. Bunga misol sifatida pedagogika fanlari doktorlari, professorlar B.Ziyomuhhammadov, F.Ismoilovning "Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari"(T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2011), "Pedagogik mahorat asoslari" (T.: "Tib-kitob", 2009) kabi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Shuningdek, 2015-yilda nashr etilgan "Pedagogik ensiklopediya" nomli qomusiy to'plamda ham Tarbiya fani mashg'ulotlarining mazmunini oshirishga doir qiziqarli materiallar topish, ularni o'rghanish, ta'lif jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Albatta, yangilanish jarayonlarining muhim omili sifatida ma'naviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning mazmuni va ko'lami kelgusida yanada oshib borishiga shubha yo'q.

### Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuga doir muhim metodologik hujjat – "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" yangi jamiyat poydevorini barpo etishdek g'oyat ulkan va ezgu maqsadni qo'ygan bo'lib, uning to'rtinchchi va beshinchchi ustuvor yo'nalishlarida belgilangan maqsadlar pirovardida ma'naviy tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, ushbu jarayonni eng zamonaviy shakl va uslublarda tashkil etishni nazarda tutadi [1.1].

O'zbekiston hukumatining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" [3] hamda 2020-yil 6-iyuldaggi "Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [4] qarorlarida ma'naviy tarbiyaning ustuvor vazifalari belgilab berildi. Ushbu hujjatlar asosida Ma'naviy tarbiyaga doir konsepsiya tasdiqlanib, u o'sib kelayotgan avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi, zamonaviy bosqichga olib chiqish bilan bog'liq ustuvor vazifalar, maqsad va yo'nalishlarni aniqtinig qilib belgilab beradi.

Mazkur konsepsiyaning asosini milliy tarbiyamiz tashkil etadi. Milliy tarbiya esa ma'naviy qadriyatlarimizga tayanadi. Ular Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Forobi, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi. Unda yangi O'zbekiston yoshlari uchun eng zarur fazilatlar: Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirib borilishi ko'zda tutilgan.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi o'zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etgan hujjatdir. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSH tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urfodatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponianing "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif", Xitoyning yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o'r ganilgan.

Shuningdek, konsepsiada belgilangan vazifalardan kelib chiqib, o'quv-metodik mazmundagi qo'llanmalar, "ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish, ularni nashr etish va joylarga yetkazish"[2.1] g'oyat muhim vazifa sifatida belgilangan.

## Tahlil va natijalar

“Ma’naviyat” degan tushunchaga pedagog olimlar, faylasuflar tomonidan ko‘plab ta’riflar berilgan. Shulardan kelib holda ma’naviyat deganda (arabcha “ma’no”, “ma’nolar majmui”) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisani tushunish rasm bo‘lgan. Shu bois, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”, degan ta’rifi keng qamrovli va mazmunan mukammalligini e’tirof etish o‘rinlidir.

Ma’naviyat va ma’naviy tarbiya masalalari sharqona ilmiy yondashuvning muhim jihatidir. Uning serqirra tushuncha ekanligi bois ko‘plab ilmiy-pedagogik va falsafiy tadqiqotlarning muhim obyekti sifatida yondashuv mavjudligi ham sir emas. Shu nuqtai nazardan, ma’naviyat va ma’naviy tarbiyani, birinchidan, jamiyat va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi talab va qoidalar majmui; ikkinchidan, qadriyatlar, urf-odatlar, ezgu g‘oya va maqsadlar tizimi; uchinchidan, axloq, madaniyat, ma’rifat, din va ta’lim-tarbiya tizimidan iborat yaxlit ijtimoiy hodisa; to‘rtinchidan, insonning ijodiy-yaratuvchilik faoliyati va uning natijalari; beshinchidan, shaxsning ma’naviy qiyofasi, axloqiy fazilatlarining mezoni sifatida tushunish bejiz emas.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ma’naviyat o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmaydi, balki ma’naviy tarbiyaning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. **“Ma’naviy tarbiya”** degan tushunchaga “yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, guruh, jamiyat, millatda jismoniy, ruhiy, ma’naviy barkamollik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha”, deb ta’rif berish mumkin.

Inson tarbiyaviy jihatdan qachon va qanday shakllanib boradi – qachonki tarbiya jarayoni ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashsa. Boshqacha aytganda, “ta’lim” bilan “tarbiya” – dialektik o‘zaro bog‘liqlikda va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan, bir-birini taqozo yetuvchi, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi, boyituvchi tushunchalardir. Keling, avvalo ana shu tayanch tushunchalarning mohiyatini ochishga harakat qilaylik. Manbalarda ko‘rsatilishicha, **“tarbiya”** so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, rivojlantirish, o‘stirish, o‘rgatish, ilm berish ma’nolarini bildiradi. Tarbiya ta’lim, odob-axloq va shu kabi shakllar orqali insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish jarayonini ifodalaydi.

“Jahon falsafasi qomusi” ning ikkinchi kitobida “tarbiya” degan atamaga “jismonan sog‘lom va ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha”[5.270] degan ta’rif berilgan. Yangilanayotgan O‘zbekistonda sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirish - tarbiya jarayonining pirovard maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun bizning mamlakatimizda umumiy o‘ta ta’lim maktabi bir butun tarbiya jarayonining bosh bo‘g‘ini sifatida qaraladi, boshqacha aytganda, maktab butun bir tarbiya tizimida asosiy o‘rin tutadi. Bola maktab ostonasini bosib o‘tgan kundan boshlab rejalashtirilgan tarbiyaviy ta’sir doirasiga kiradi, shu kundan e’tiboran “murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi”[5.270].

**“Ta’lim”** degan so‘z ham arabcha bo‘lib, o‘rgatish, o‘qitish, ma’lumot berish ma’nolarida qo‘llaniladi, deb manbalarda ko‘rsatilgan. Ta’lim - bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. “Ta’lim” va “ilm” degan tushunchalarni bir-biridan farqlash kerak. Pedagogik yensiklopediyada **“ilm”** (arab. – bilim, fan, nazariya) – o‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil yetish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma’lumot; ish-faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi, fan. Ilm – insonning

o‘qish, o‘rganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakllangan bilim va malakalar majmui”[6.67], deb ta’riflangan. Kundalik leksikonimizda ko‘pincha “ilm-fan” degan iboraning qo‘llanilishi ham beziz yemas, chunki “fan” degan tushunchaning o‘zi ilm izlash, tadqiqot bilan shug‘ullanishni nazarda tutadi.

Pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida “Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari” fanining joriy etilganligi jamiyatimizning yangilanish jarayonlariga, yangi O‘zbekistonning ma’naviy poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadga hamohang ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Ushbu fanga quyidagicha ta’rif berish orqali uning mazmun-mohiyatini bayon qilish mumkin: **“Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari” fani** – ma’naviyat, ma’naviy tarbiya haqidagi g‘oyalilar, qarashlar, tasavvurlarning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi, ma’naviy tarbiyaning tamoyillari, qonuniyatlari, shakl va uslublari, uni amalga oshirish mexanizmlari, insonning ma’naviy kamolotidagi o‘rni, roli va istiqbollari to‘g‘risidagi fandir.

Darhaqiqat, ma’naviy tarbiya tarixi va nazariyasi jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi qudratli omil, ma’naviy to‘lqin sifatida uning paydo bo‘lishi, genezisi, jamiyat taraqqiyotining hozirgi davridagi ahamiyati, shuningdek, tarixiy taraqqiyotda chuqur iz qoldirgan ma’naviy ta’limotlar, qarashlar, buyuk allomalar va mutafakkirlarning insonparvarlik g‘oyalari, ularning mazmun-mohiyati va shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rmini o‘rganuvchi fandir.

“Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari” fanining maqsadi – ma’naviyat, ma’naviy tarbiyaning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi, uning taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan insoniyatning buyuk aql-zakovoti namoyandalari va ularning ta’limotlari, jamiyat ma’naviy hayotining mazmun-mohiyati va rivojlanish tendensiyalari, yangi jamiyatni barpo etishdagi tarixiy missiyasini o‘rganish va yoshlар ongiga singdirishdan iborat.

“Ma’naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari” fanining predmetini ma’naviy tarbiyaning rivojlanish qonuniyatlari, amalga oshirish shakl va uslublari, yangi O‘zbekistonning ma’naviy poydevorini barpo etish tendensiyalari tashkil etadi. Fikrimizcha, ushbu fanning vazifalarini quyidagicha bayon qilish mumkin:

- ma’naviy tarbiyaga doir dastlabki tasavvurlar va ta’limotlar, ularning evolyutsiyasini o‘rganish;
- Sharq Renessansi davrlarida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ma’naviy tarbiyaning ustuvorligini yoshlar ongiga yetkazish;
- xonliklar davrida ma’naviy hayotning o‘ziga xosligi, Turkistonda jadidchilik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarni talabalar ongiga singdirish;
- mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta’lim-tarbiyaga munosabat, yangicha yondashuvning qaror topish tendensiyalarini o‘rganish;
- yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy tarbiyaning davlat siyosatidagi ustuvor ahamiyatini yoritish. Barkamol avlod tarbiyasi – yangi O‘zbekistonning pirovard maqsadi ekanligini yoshlarga tushuntirish;
- ma’naviy tarbiyada vorislik, tarbiyaning shakl va vositalari haqida tasavvur berishdan iborat.

## Xulosa

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki bosqichida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni xalqimiz, avvalo yosh avlod ongi va qalbiga singdirish, ularda vatanparvarlik, milliy iftixon tuyg‘ularini kuchaytirish ma’naviy tarbiyaning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda

ushbu jarayonning uzlusiz ta'lim izimidagi ta'sirchanligini oshirish, shu asnoda xalqimizning ma'naviy yuksalishida uzviy barqarorlik va dinamikani ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Insoniyat tarixini ma'naviy tarbiya tarixi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Xalqimizning boy va betakror tarixi, ma'naviy merosi ma'naviy tarbiya takomilida muhim manba sifatida xizmat qiladi. Xalqimizning boy va betakror ma'naviy o'tmishini o'rganish, undan kerakli xulosalarni chiqarishga o'rgatish bugungi faylasuflar, tarixchi olimlar va pedagoglarimizning muqaddas burchi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T.: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022-yil 29-yanvar. 06/22/60/0082-son.
2. "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil 27-mart. -62 (7842)-son.
3. "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - 2020-yil 3-yanvar. 09/20/391/0777-son.
4. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son.
5. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: "Ma'naviyat", 2019. – 920 b.
6. Pedagogika: ensiklopediya. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy yensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.
7. "Daryo"/Rasmiy kanal. 2024-yil 31-avgust.

## ABDURAUF FITRATNING TARIXIY-IJTIMOIY VA MA'RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI OMILLARI

### ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИКО-СОЦИАЛЬНЫХ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУРАУФА ФИТРАТА

### THE FACTORS SHAPING ABDURAUFF FITRAT'S HISTORICAL, SOCIAL, AND EDUCATIONAL VIEWS

*Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich*

**Annotatsiya.** Maqolada jadidchilik harakatining buyuk nomayondasi Abdurauf Fitratning asarlarida yoshlarni ahloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilgan g'oja va fikrlar majmuasi haqida tuxtalib o'tilgan. Ayniqsa jadidlar qatori xalqni ilmli qilib, hayotni, jamiyatni yangilashga intiladi. U ham ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini ma'rifat izlash va hammani ma'rifatga da'vat etilganligi yoritilgan.

*Kalit so'zi: jadidchilik, harakati, ma'rifatparvar, g'oja, tarix.*

**Аннотация.** В статье рассказывается о совокупности идей и мыслей, направленных на нравственное и эстетическое воспитание молодежи в произведениях великого представителя джадидского движения Абдурауфа Фитрата. В частности, наряду с джадидами он стремится сделать народ образованным, обновить жизнь и общество. Он также подчеркивает, что его первые шаги в области научного и художественного творчества были направлены на поиск просвещения и призыв всех к просвещению.

**Ключевые слова:** джадидизм, движение, просветитель, идея, история.

**Abstract.** The article focuses on a complex of ideas and ideas aimed at the moral and aesthetic education of youth in the works of Abdurauf Fitrat, the great figure of the Jadid movement. In particular, alongside the Jadids, they strive to educate the people and renew life and society. It also highlights that his first steps in the field of scientific and artistic creativity were the search for enlightenment and the call for all to enlightenment.

**Keywords:** Jadidism, movement, enlightenment, idea, history.

XX asrdagi ko'plab hujjat va arxiv materiallaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Abdurauf Fitrat 1914-yil Turkiya safaridan qaytgach, yangi usuli jadid maktabi va madrasalarni tashkil etib, ushbu ilm dargohlarida asosan o'zi turk va fors tili adabiyotlari tarixi, islomshunoslik ilmi va sharq tillaridan saboq bera boshlagan. Shu bilan birga, bir necha yangi tadqiqotlar bilan shug'ullanib, bir necha yangi asarlar yaratishga ham muvaffaq bo'lgan. Xuddi shunday asarlardan biri Abdurauf Fitratning "Muxtasar Islom tarixi" asaridir. Mazkur asar madrasa talabalari uchun qo'llanma tarzida yozilgan bo'lib, asar uslubining

soddaligi matn jihatdan tarixiy va diniy jarayonlarning uyg‘unlashtirilgan holda yoritilganligi, asarning mukammal yozilganligidan dalolat beradi. Asarda bayon etilgan voqeа-hodisalarining tugallanmay qolganligi mazkur asarning to‘liq matni bizga yetib kelmagan, degan xulosani beradi. Chunki asar ham mantiqiy, ham tarixiy xronologik jihatdan nihoyalanmagan holatda yozilgan.

Ba’zi bir tadqiqotlarda mazkur asarning tugallangan nusxasi shu ekanligi va asar tarjimasi 1915-yilda “Gazarov” matbaa nashriyotida chop etilib, “Imperatorskiy istoricheskiy Moskovskiy muzey”, ya’ni Moskva imperatorlik tarix muzeyida XY 28411 raqami ostida saqlanayotganligi e’tirof etilgan.

Abdurauf Fitratning “Muxtasar Islom tarixi” asari o‘z zamonasining boshqa adiblari tomonidan yozilgan islom tarixiga oid asarlardan voqealarning aniq, jonli ifodada tasvirlanib, millatparvarlik ruhi singdirilganligi hamda diniy voqeа-hodisalarни yoritishda ilohiylik yoki sun’iy iltifotlarni qo‘llamaganligi bilan farqlanadi. Aynan ushbu jihatlar Fitrat ijodidagi mukammallikni yaqqol namoyon etadi.

“Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rgatuvchi fandir. Tarix ikki qismidan iborat: umumiy tarix va xususiy tarix. Barcha millat va jamiyatlarning ahvolini bayon qiladigan soha umumiy tarix, deb ta’riflanadi. Xususiy tarix birgina millat va birgina jamiyatning tarixini yoritadi. Islom tarixi ham xususiy tarix jumlasiga kiradi. Binobarin, Islom tarixi Hazrati Payg‘ambar (s.a.v.)ning dunyoga kelishlaridan va Islom dinining dunyoga tarqalishidan bahs qilib, Islom olamining taraqqiyotini tushuntirib beradi. Islom tarixini bilish barcha musulmonlar uchun farzdir” [1; 2], deb e’tirof etadi Fitrat o‘zining “Muxtasar Islom tarixi” asarining kirish qismida. U mazkur asarida, islom dini tarixi, uning vujudga kelishi hamda payg‘ambar va xalifalar hayoti haqida ma’lumot berar ekan, o‘z navbatida xristianlik dinining vujudga kelishi Eron va Rum diyorlari, ularning davlat tuzilishlari, bu ikkala davlatning siyosiy nizolari hamda jangu jadallari borasida ham qisqacha bayon qilib o‘tadi. Fitratning qayd etishicha, “isoviy (xristian) dini tarixining besh yuzinchi yillari dunyoda ikki ulug‘ davlat mavjud bo‘lib, bularning birini Rum va ikkinchisini Eron, der edilar. Bu ikki davlat podshohlaridan biri doimo ikkinchisining ustiga lashkar tortib, o‘rtada uzoq davom etgan janglar bo‘lar edi. Natijada, ikki tomon ham holdan toyar, ikkovi ikki tomonga chekingan holda yana lashkar to‘plar, xalqning hisobiga pul to‘plab, yana yangitdan jangga hozirlik ko‘rar edi. Jabr-zulm ostida qolgan bu mamlakatlarning xalqlari bot-bot isyon ko‘tarar, turli diniy ixtiloflar bahonasida podshohlarini ag‘darib tashlash qasdida bo‘lar, xullas, fisq-fujur, axloqsizlik, zo‘ravonlik va bosqinlar bu yurtlarda keng tarqalgan edi. Natija o‘laroq, bu yurtlar kundan kunga xarob ahvolga kelib, xalqning soni kamayib borardi. Bu ikki mamlakatning janub tarafida boshqa bir qit’a bor edi, uni Arab yarim oroli (Jaziratul-arab), deb ataganlar. Bu yerning xalqi asosan arablardan tashkil topgan. Arab yarim oroli Rum va Eron yurtlari kabi obod emas, balki ko‘p yerlari qumqlikdan iborat bo‘lib, ba’zi qit’alardagina obod manzillar mavjud edi. Bu qit’alardan eng mashhuri va muboragi Hijozdir, chunki bu qit’ada Makka bilan Madina joylashgan. Xaritaga qarasangiz ko‘rasizki, Hijoz qit’asining bir tarafi Qizil dengiz va boshqa bir tarafi cho‘ldir. Bu joylarni Rum va Eron davlatlari egallay olmaganlar. Bu yerda yashovchi xalqlar Rum va Eron kabi o‘z hukumatlariga ega bo‘lmay, qabila-qabila, ya’ni to‘p-to‘p bo‘lib yashaganlar. Har bir qabilaning o‘z sardori bo‘lgan” [2; 2]<sup>1</sup>.

Abdurauf Fitratning mazkur risolasi Muqaddima, Tarix ta’rifi va taqsimi, Birinchi qism: Saodat davri, “Rum va Eronning islomdan avvalgi ahvoli”, Arab yarim oroli va u yerdagi xalqning ahvoli, Hazrati Rasuli akram alayhissalomning dunyoga kelishlari, Hazrati Payg‘ambarning tarbiyalari, Payg‘ambarning uylanishlari, Vahiyuning kelishi, Hazrati Hamza va hazrati Umarning musulmon

<sup>1</sup> Абдурауф Фитрат. Мухтасар Ислом тарихи. Таржимон Х.Болтабоев. Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 2.

bo'lishi, Payg'ambar yoronlarining Habashga ketishlari, Xadicha va Abu Tolibning vafotlari hamda munosabatlarning uzilishi, Makkadan Madinaga hijrat, Masjid qurilishi va qiblaning tayin bo'lishi, Badr g'azoti, Uhud g'azoti, Handaq g'azoti, Hudaybiyah sulhi, Haybar g'azoti, Makkaning olinishi, Hunayn g'azoti, Vidolashuv haji, Payg'ambar alayhissalomning dunyodan o'tishlari, Payg'ambar alayhissalomning sifatlari, Payg'ambar alayhissalomning xotinlari va farzandlari; Ikkinchchi qism: Birinchi to'rt asl xalifalar, Hazrati Abu Bakr xalifaligi, Qur'onning jam qilinishi, Iroq va Suriyaning fath etilishi, Hazrati Abu Bakrning fazilatlari, Hazrat Umar xalifaligi va Eron janglari, Shom va Quddusning fath etilishi, Misr fathi, Tarixni belgilash, Hazrati Umarning shahid bo'lishlari, Hazrati Umarning fazilatlari, Hazrati Usmonning xalifaligi, Fathlar, Dengiz jangi, Fitna zohir bo'lishi va hazrati Usmonning o'ldirilishi, Hazrati Alining xalifaligi va Jamal jangi, Siffin jangi, Hakamlarning tayin qilinishi, Xorijiyarning paydo bo'lishi va hazrati Alining o'ldirilishi, Imom Hasan; Uchinchi qism: Ummaviylar va abbosiyilar, Ummaviylar xalifaligi, Muoviya binni Abu Sufyon, Yazid va Karbalo hodisasi, Valid binni Abdul-malik, Andalus fathi, Marvon binni Muhammad va ummaviylar davlatining zavoli, Abbosiylar xalifaligi, Xorun ar-Rashid, Ma'mun, Al-Musta'sim Billo va abbosiyilar davlatining zavoli, Andalusdagi ummaviylar davlati, Andalus musulmonlarining oqibat ahvoli kabi fasllardan iborat.

Abdurauf Fitrat mazkur risolasida ushbu fasllarda qisqa bo'lsa-da, chuqur asoslangan ma'lumotlarni yoritib bergen. So'nggi yillarda Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda mazkur risola borasida ham turli bahslar vujudga kelgan. Risolaning bahsli tomoni shundaki, risola Andalusdagi xalifalar tarixi bilan tugatilgan, aslida esa, tadqiqotchilarning fikricha, risolaning davomi bor. Yana katta ehtimol bilan suronli qatag'onlar davrida, adibning boshiga balo-ofatlar yog'ilganda, asarning davomi yo'qolgandir, deb ham e'tirof etiladi. Agar bu taxmin haqiqat bo'ladigan bo'lsa, mazkur risolaning davomida juda ko'plab O'rta Osiyo tarixiga doir qimmatli voqeahodisalarning bayoni bilan to'ldirilganligi ham haqiqatdir. Abdurauf Fitrat "Muxtasar Islom tarixi" risolasini davom ettirganda, albatta, ushbu masalalarni ilmiy-falsafiy va tarixiy-badiiy janrda yuksak tafakkur va intellekt bilan yozgan bo'lar edi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, islom tarixi buyuk katta bir ummondir. Uni bir kitobda qamrab olish va yoritishda nafaqat bir muallif, balki ko'plab allomalar asrlar osha mehnat qilishlari ayni haqiqatdir. Shunday bo'lsa-da, Fitrat mana shunday katta ishga qo'l urishga jur'at qila olgan adibdir.

Abdurauf Fitratning eng yaxshi asarlaridan yana biri "Oila" asari bo'lib, mazkur asar zamonaviy yosh avlod uchun hayotiy qo'llanma vazifasini bajaruvchi tarbiyaviy ahamiyatga ega asardir. Mazkur asarda Fitratning qarashlari yuksak axloqiylik erk va erksevarlik bilan birga hayot zarbaraliga jangovor tayyor turishlik g'oyalari bilan qorishib ketadi. Shuning uchun ham asar mazmuniga mamlakat va xalqni istiqlolga yetaklash hamda milliy mustaqillik mafkurasini tarannum etish mohirona singdirilgan. "Oila" asarida axloqiy fazilatlar mazmun mohiyati, qanday qilib chin insoniy axloqiy fazilatlarga erishish mumkinligi, inson erkinligi va uning shaxsining daxlsizligi, milliy ozodlik masalalari teran yoritib berilgan.

Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida oilaviy hayotning islohoti borasida babs yuritar ekan bir necha o'rirlarda Qur'oni karimdag'i sura va oyatlarning sharhidan misollar keltiradi. Oilaviy muammolarga zamonaviy yechim izlar ekan: "Har bir millatning saodati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liqdir. Tinchligu totuvlik esa millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaysi yurtda oilaviy munosabatlар adolatli va kuchli tartib-intizomga tayanar ekan, o'sha davlat va millat ham shuncha kuchli va mustahkam bo'ladi", [3; 15] deb ta'kidlaydi.

Fitratning e'tirof etishicha, oila asosini to'g'ri qurmasdan turib yoki yoshlarni to'g'ri yo'lida tarbiyalamasdan jamiyatni tubdan isloh qilib yoki uni taraqqiyot sari yo'naltirib bo'lmaydi. Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, Fitrat Vatan va millat taqdirini oilaga va undagi tarbiyaga bog'laydi. Shu sabab bu asar o'z vaqtining ma'rifatparvar va taraqqiyatparvar kishilari tomonidan samimiy qarshi olingen va qo'llab-quvvatlangan.

Abdurauf Fitrat oila farovonligini yoritar ekan, oila taraqqiyotining asosiy sababi oila boshlig'i, farzandlarni oq yuvib oq taraydigan ayol-onasi va yaxshi tarbiya olgan farzandlarga bog'liq ekanligini qayd etadi. Fitrat oilaning aynan ushbu jihatlariga e'tibor qaratar ekan, erkak va ayolning oila qurishi hamda oilaning huquqiy asoslarini belgilab olishga asosiy e'tibor qaratadi. Inson hayotining davomini o'zining surriyodlari, farzandlarida ko'rар ekan, ya'ni oila qurib, farzand orttirib, uni tarbiyalashni o'ylar ekan, Fitrat nazarida bunday oila oddiy oila emas, balki millatning kuch-qudrati va shon-shavkatini ta'minlovchi oiladir.

Oila va davlat borasida, "Masalan, belgiyaliklar va inglizlarni olib ko'raylik, har ikkala millat a'zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko'z oldimizga ularni keltirib, muxokama qilsak, ko'ramizki, ingliz millati belgiya xalqidan yuz barobar ko'proq kuch va shavkat e'tiborga egadir. Qizig'i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o'rtasida ilmu-amal va sa'y-harakatda farq yo'q. Unda shavkat shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo'ladi, ya'ni ingliz millatining aholisi 44 ming, belgiyaliklar esa 7,5 mingga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa'y-harakati va amali belgiyalikning sa'y-harakati va amalidan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzati, e'tibori ham ana shu sa'y va amallarining natijasidir. Shundan kelib chiqib, Ovropa hukmdorlari o'z millatlarining sonini ko'paytirishga harakat qiladilar. Ovropa olimi o'z xalqining nufuziga putur yetsa, "Ey! Mamlakatimizning sharoifi va e'tibori qolmayapti, Millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringiz," [4; 13] deb aytgan so'zlaridan misollar keltiradi.

Oilada farzand nafaqat ota-onasi hayotining davomchisi, balki millatning iqtidori hamdir. Agar farzand yaxshi ta'lim-tarbiya olsa, xalq e'tiborini qozonib, ajoddlari kabi o'z yurtining kelajagi yuksalishiga xizmat qiluvchilar zanjiridagi bir xalqa sifatida shuhrat qozonadi. Millat esa vatan, mamlakatning yuragi, demak, millat son jihatidan qanchalik ko'p bo'lsa, u yashayotgan vatanining ham kuch-kudrati shu qadar ziyod bo'lishiga xizmat qiladi.

Abdurauf Fitrat oila masalasida so'z yuritar ekan, asosiy e'tibor millatning soniga emas sifatiga bog'liqligini alohida qayd etadi. Fitratning e'tirof etishicha, xalqning soni ko'p bo'lsa-yu, lekin uning asosiy qismini ishyoqmas, tanballar tashkil esa, bunday millat rivojlanishdan uzoqda bo'ladi. Shunday ekan, har bir kishi yaxshi yashab, osuda hayot kechirishni istar ekan, millat farzandi sifatida doimo harakatda bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham Fitrat: "Qaysi millatning namoyandalari g'ayratli, shijoatli bo'lsalar, shu millatning farzandlari qo'l oyog'i kuchli va chaqqon, hamma a'zolari sog' va faol izzat, e'tibor sohibi bo'ladilar" [5; 13] deb ta'kidlaydi.

Fitrat oiladagi tarbiya millatning qadri va sha'nini belgilashi, bunda esa eng avvalo ota va onaning ilm ma'rifatli bo'lishi, halollik va diyonatdan farzandlarini xabardor etishi lozimligini alohida qayd etadi.

Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari, milliy o'zlikni anglash haqidagi g'oyalari "Oila" asarida yoritilar ekan, o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilganligi hamda tanqidiy ruh va yaxshilikka da'vat g'oyalari kuchli namoyon etilganligi bilan xarakterlidir. Abdurauf Fitrat millat va Vatan ravnaqi yo'lida qayg'urar ekan, Turkiston o'lkasini istiqlol nashidasidan bahramand holda ko'rishni istaydi. Bunda esa eng avvalo, qurilajak yangi oilani ana shu tartibda bunyod etishga undaydi. Zero, mustaqil va sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishi va o'z yurtini istibdoddan

qutqarishini ta'kidlaydi. Shuning uchun: "Bu dunyo kurash-maydonidir. Bu-maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor..." [6; 77], deb har jihatdan sog'lom oila barpo etish borasidagi fikrlarini bildiradi.

Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli ushbu asari oilaning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag'ishlangan bo'lib, ikki qismdan iborat. Ayniqsa, asarning "Uylanish yoki uylanmaslik xususida", "Qalin (puli) va to'y qanday bo'lishi lozimligi haqida", "Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida", "Oilaning maishati va idorasi" qismlarida bu masalalar xususida atroficha fikr yuritilgan.

Abdurauf Fitratning mazkur asari har bir yangi oila uchun qo'llanma vazifasini o'tashi hamda yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalashi shubhasizdir. Abdurauf Fitrat "Oila" asarining "Qizlar ham ilm olishlari kerakmi?" deb nomlangan bo'lmida "...xotinlarimiz va qizlarimiz — millat onalari ular tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo'rqaq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlardan bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar" [7; 306], deb iqtibos keltirgan. Mana bu oyati karima ham shu ma'noga ishora qiladi: "Pokiza yerdan toza va foydali o'simlik oson o'sadi va pokiza bo'lmagan yerdan xor-xasdan boshqa narsa chiqmaydi".

Mazkur asar shunday mahorat bilan yozilganki, undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan yosh avlod kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigiyenik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Shuningdek, mazkur asarda jamiyatda oila deb atalmish saltanatning barcha moddiy va ma'naviy tomonlari uning tashkil topishidan boshlab buzilishigacha bo'lgan davrdagi xato va kamchiliklarni chiqaruvchi holatlarning axloqiy asoslari batafsil bayon etilgan. Asarda ushbu jihatlarning yoritilishi nafaqat Fitrat yashagan davr, balki barcha zamonlar uchun asarni ham ijobiy najitaga yetaklovchi qo'llanma bo'lishiga zamin yaratadi.

Abdurauf Fitrat ko'plab xorijiy davlatlarda sayohat qilganligi sababli rivojlangan davlatlarning turmush tarzi ilm-faning rivojlanganligiga oid tajribalarini, ayniqsa, tibbiyotga oid yangiliklarni Turkistonda joriy etishga intiladi. Er-xotin va farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida, birga yashovchi kishilar oila deb atalmish qo'rg'onnei tashkil qilar ekan, oilaning har bir voyaga yetgan a'zosi oila manfaatini himoya qilishi, agarda muayyan oilada axloqsizlik oqibatida oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborilsa va intizomsizlikka yo'l berilsa, shu oilaning saodati ham, hayoti ham shubha ostida qolishini aytib o'tadi.

Abdurauf Fitrat bir necha o'rnlarda oilada ayollarga munosabat haqida to'xtalar ekan, o'z o'rnida Qur'on karim oyatlari va hadislardan iqtiboslar keltirib, bir necha rivoyatlarni ham misol keltiradi. Mazkur asarda millatning ma'rifatparvarligi ayollarga bo'lgan munosabatda ham yorqin namoyon bo'lishini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Abdurauf Fitrat asarlari asosan din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqidagi qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan. Abdurauf Fitrat har xil bid'at xurofotni qoralab, ilmli kishilarning g'oyalarini taraqqiyot va farovonlikning samarasini sifatida e'tirof etgan. Fitrat asarlarning barchasida bir maqsad, ya'ni millat ozodligi, mustaqillik nashidasi, hurriyat, erkinlik mavzulari ilgari surilgan.

Tez orada maorif ishlaridan shuhrat qozongan Fitrat 1916-yillarda Samarqandda nashr etiladigan "Hurriya" gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat yuritgan. Fitrat ko'proq tenglik va hurriyatni orzu qilgan, lekin bu orzuligicha qolib ketdi. Abdurauf Fitratning bir qancha asarlari bizgacha yetib kelmagan. Jumladan, "Uchqun" degan to'plamining 1923-yilda nashrdan chiqqanligi to'g'risida xabarlar tarqalgan, ammo mazkur to'plam topilmagan. Fitrat fors, arab tillarini yaxshi bilsa-da, o'z

she'rlarini asosan sodda o'zbek tilida yozishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Fitratning bir necha pyesalari va yozgan asarlari o'z vaqtida nashriyotda bosilmay yo'qolib ketgan.

Abdurauf Fitrat asarlarida ona Vatanga bo'lgan muhabbat, uning erki uchun hamma narsaga tayyor turish g'oyalari hamda "Yurtimizni qutqaramiz. Yashasin istiqlol!" degan shior baralla ilgari surilgan. Fitratning nazmiy asarlarida mustabid tuzum faoliyatiga nisbatan qarshi qo'zg'algan isyonkorona g'oyalari, yurt erkinligi uchun kurash, bir daqiqa bo'lsa ham hurriyatga erishish fikridan qaytmaslik g'oyalari tarannum etilgan.

Abdurauf Fitrat o'z dramalari bilan o'zbek dramaturgiyasi rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Fitrat dramalarida xalqlarining ozodlik va mustaqillikga intilishlari, mustamlakachilariga qarshi olib borgan murosasiz kurashlari ifoda etilgan. Mustamlakachilarga qarshi mardonavor kurashini tasvirlash orqali ona Vatani Turkistonning bitmas tuganmas dardlarini ifoda etgan. Shuningdek, Fitrat o'zbek prozasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, Turkiston milliy uyg'onishiga turki bera oladigan asarlari bilan shuhrat qozongan. Fitrat o'nlab hikoyalar yozgan, uning Vatan va millat ozodligi, istiqlol borasidagi fikrlari mustaqtilikka erishish uchun bosib o'tilgan suronli yillar to'g'risida ma'lumot beruvchi qimmatli manbadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, 1991-yil 25-sentyabrda Abdurauf Fitratga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti berildi. Buxoro shahrida Fitrat bog'i va uy-muzeyi tashkil etilib, adib haykali o'rnatildi. Respublikamizdagi bir necha maktablar va ko'chalarga Abdurauf Fitrat nomi berildi.

O'zbek tilini yanada rivojlantirish va boyitishda Abdurauf Fitratning faoliyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va zamonaviy yoshlar bilimlarini boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурауф Фитрат. Мухтасар Ислом тарихи. Таржимон Ҳ.Болтабоев. Т.: Янги аср авлоди, 2004. – Б. 2.
2. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари// масъул муҳаррир: Д.А.Алимова.Тошкент: "Маънавият", 2000. – Б. 15.
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари// Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. Тошкент: "Маънавият", 2000. – Б. 13.
4. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари// Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. Тошкент: "Маънавият", 2000. – Б. 13.
5. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari// Mas'ul muharrir: Hamidulla Boltaboyev. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent. 2013. – В. 77.
6. Абдурауф Фитрат. Қизлар ҳам илм олишлари керак. Танланган асарлар. 4-жилд: Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар — Т.: «Маънавият», 2006. – Б. 306.
7. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. I-Жилд. Шеърлар, насрой асарлар ва драмалар. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев. Т.: "Маънавият", 2002.
8. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. Тошкент: Маънавият, 2000.
9. Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. — Душанбе: Адиб, 1987.
10. Komatsu H. 20. Yüz yıl Başlarında Orta Asya'da Türkçülük ve Devrim Hareketleri. Ankara, 1993.
11. Фитрат. Шеърлар, драмалар, мақолалар. Т.: F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 242.

## YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH TADBIRLARINING KUCHAYTIRILISHI

## STRENGTHENING OF ANTI-DRUG ACTIVITIES AMONG YOUNG PEOPLE IN THE CONDITIONS OF THE NEW UZBEKISTAN

### УСИЛЕНИЕ АНТИНАРКОТИЧЕСКИХ МЕР СРЕДИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*Maxmatqulov Jasur*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni giyohvandlik, psixotrop moddalarga ruju qo'yishlarini oldini olish har qachongidan ham dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida giyohvandlikka qarshi kurash mavzusi asosiy mavzulardan biriga aylanganligi, bugungi kunda insoniyatga jiddiy xavf solib turganligi aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Giyohvandlik, terrorizm, Jinoyatchilik, huquqbazarlik va yoshlar, "Oila va jamiyat", giyohvand moddalar.

**Abstract.** Today, promoting a healthy lifestyle among young people, preventing them from succumbing to drugs, psychotropic substances, is becoming a more pressing problem than ever.

This article shows that in the years of independence, the topic of the fight against drug addiction became one of the main topics, and today it poses a serious threat to humanity.

**Keywords:** Drug addiction, terrorism, Crime, delinquency and youth, "Family and society", drugs.

**Аннотация.** Сегодня как никогда актуальной проблемой становится пропаганда здорового образа жизни среди молодежи, не допуская ее пристрастия к наркотическим, психотропным веществам.

В данной статье показано, что в годы независимости тема борьбы с наркоманией стала одной из главных, и сегодня она представляет серьезную угрозу человечеству.

**Ключевые слова:** Наркомания, терроризм, Преступность, правонарушения и молодежь, «Семья и общество», наркотики.

### Kirish

O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy yo'nalishidagi tadbirlar jarayonida giyohvandlikka qarshi kurash mavzusi asosiy mavzulardan biriga aylandi. Binobarin, barcha turdag'i ta'l'muassasalarida yoshlarga ta'l'm berish jarayonida o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga kuchli e'tibor qaratildi. Bu soha ta'l'm jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. "...Bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar

kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarmizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur", -deydi O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev [1].

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish borasida Andijon davlat universitetida ham qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, 2016-yil 12-yanvar kuni universitetning fizika-matematika fakulteti axborot texnologiyalari kafedrasи o'qituvchilari G.Temirova, Y.Usmonaliyeva, N.Yusupova Andijon shahridagi Anisiy ko'chasida joylashgan 4-TTJda "Jinoyatchilik, huquqbuzarlik va yoshlar", "Giyohvandlikning salbiy oqibatlarini bilasizmi?" mavzusida davra suhbat o'tkazdi. Tadbir so'ngida "Biz buyuk yurt farzandlarimiz" nomli videorolik namoyish etildi.

Mazkur yilning 14-yanvar kuni psixologiya kafedrasи guruh murabbiylari O.Qodirova, B.Parmonov, M.Mamajonova tomonidan 2-TTJda yashovchi talabalarga "Giyohvandlikka mahkum bo'lgan yoshlar taqdiri" nomli videorolik namoyish etilib, mavzu doirasida davra suhbat o'tkazildi. Davra suhbatida fakultetning 1-, 2- va 3-kurs talaba yoshlari ishtirok etdi [2].

2016-yilning 4-fevral kuni universitetning katta majlislar zalida "Giyohvandlar taqdiri" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda 320 nafar talabalar ishtirok etdi. Tadbir so'ngida "Qiyomatga qolgan qarz" nomli videofilm namoyish etildi. Shu yil 22-avgustda universitetning psixologiya kafedrasи mudiri M.Halimova, kafedra katta o'qituvchilari I.Hakimova, G.Rustambekova viloyat "Oila" ilmiy-amaliy markazi bilan hamkorlikda Andijon shahridagi Soybo'yи va Yorboshi MFY da "Giyohvandlik oqibatida dunyoga kelgan farzandlar taqdiri" mavzusida targ'ibot-tashviqot ishlarni olib bordi [3].

2016-yil Surxondaryo viloyatida "Giyohvandlikka va giyohvandlik savdosiga qarshi kurash" mavzusida doimiy davra suhbatlari va ilmiy sessiyalar o'tkazildi. Jumladan, Samarqand viloyatida ham shu kabi tadbirlar tashkil etib turildi. Viloyatda bирgina 2016-yil-yanvar oyida "Yoshlar o'rtasida OIV, OITS kasalliklarini va giyohvandlikning oldini olish" mavzusida 36 ta mini-sessiya tashkil etildi. Unda 873 nafar yoshlar qamrab olindi.-fevral oyida viloyatda shu mavzuda 138 ta mini-sessiya o'tkazildi [4].

2016-yili narkotik moddalarni iste'mol qilishning birlamchi profilaktikasi doirasida respublika tibbiyot muassasalarining narkolog shifokorlari tomonidan aholining turli guruqlarida 7117 ta ma'ruza o'qildi, 2213 ta seminarlar o'tkazildi, 579 ta ommaviy axborot vositalarida (gazeta, televideeniye, radio) tashkil etildi. Sog'liqni saqlash vazirligining sihat salomatlik.uz saytida "Giyohvandlikning oldini olish", "O'smirlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish", "Giyohvandlikning oldini olish turlari", "Giyohvandlik belgilari", "Giyohvandlik ijtimoiy muammo sifatida" kabi maqolalar e'lon qilindi. Narkotik moddalarga qarshi kurashish bo'yicha hududiy komissiyalar ko'magida Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida yoshlar uchun ko'ngilochar va sport tomoshalari tashkil etildi.

Mahalla guzarlari, madaniyat va istirohat bog'larida giyohvandlik muammosiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. 474 yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida 5,4 mingdan ortiq mavzuli uchrashuvlar va 526 musobaqalar, shuningdek, 567 sport musobaqalari tashkil etildi. Profilaktik videoroliklar namoyish etildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Kamolot" YOIH bilan hamkorlikda "Yoshlar giyohvandlikka qarshi" shiori ostida sportning 7 turi bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, unda 427 ming nafar yoshlar ishtirok etdi. Oylik voqealari ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Markaziy kanallarda tematik dasturlar (axborot dasturlari, tok shouular) va ijtimoiy roliklar namoyish etildi. Bosma nashrlarda 500 dan ortiq badiiy maqolalar chop etildi.

## Tadqiqot metodologiyasi

“Mahalla” jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan joylarda mahallalar kengashlarida 30 mingdan ortiq tadbirlar o‘tkazildi. “Biz sog‘lom turmush tarzi tarafborimiz”, “Giyohvandlik va uning salbiy oqibatlari”, “Giyohvandiksiz hayot” kabi mavzularda profilaktika tadbirlari 1,6 milliondan ortiq aholiga tushuntirish ishlari olib borildi [5].

## Tahlil va natijalar

Giyohvandlikka qarshi kurash tadbirlari boshqa oliv ta’lim muassasalarida ham o‘tkazilib turildi. Masalan, 2017-yil 3-fevralda Qarshi davlat universiteti, Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, Qarshi shahar ichki ishlar bo‘limi, O‘zbekiston Musulmonlar idorasi viloyat vakilligi hamda viloyat Narkologiya dispanseri hamkorligida “Yoshlar giyohvandlikka qarshi” mavzusida professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtirokida davra suhbat o‘tkazildi. “Yoshlar orasida narkotik moddalar tarqalishining oldini olish” oyligi doirasidagi ma’ruza va davra suhbatlari o‘tkazildi. Tadbirlarda yoshlar o‘rtasida zararli illatlar jumladan giyohvandlik va uning yuzaga kelish sabab va omillari, uning belgilari, keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari, qoldiradigan asoratlari va buni o‘z vaqtida davolamasa, oxiri o‘lim bilan tugashi haqida tushunchalar berildi [6].

2017-yil 2-dekabrda O‘z MU xorijiy filologiya fakultetining Giyohvandlikka qarshi kurash tadbirida O‘zbekiston Musulmonlar idorasi vakillari ham ishtirok etib, Xadisi sharifda “Har bir mast qiluvchi narsa harom” deyilgan hadisni yoshlarga atroficha tushuntirildi. Tadbirda diniy idora vakili “Biz yashab turgan ko‘hna dunyoda insonga, oilaga, jamiyatga qaratilgan tahdidlardan mudhishi - giyohvandlik” ekanligi asoslab berildi.

Shuningdek, oliv ta’lim muassasalari talabalar turar joylarida ham shu mavzuga bag‘ishlangan davra suhbatlari va boshqa tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Shunday davra suhbatlaridan biri 2017-yil 8-noyabrda O‘zMU Tarix fakulteti 9-TTJda “Giyohvandlik umr zavoli: jahon mamlakatlari statistikasi misolida” mavzusida o‘tkazildi [7].

2018-yil 13-fevral kuni Qarshi davlat universitetida “Giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashish oyligi”ga bag‘ishlab “Yoshlar o‘rtasida huquqbazarlik, diniy ekstremizm va giyohvandlikka qarshi kurashish – davr talabi” deb nomlangan universitet professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi [8].

O‘zbekistonda 2021-yilning 1-iyunidan “Giyohvandlikka qarshi kurash oyligi” boshlanib, bu kabi tadbirlarni o‘tkazish an’anaga aylanib bordi. Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuniga bag‘ishlab, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga keng jamoatchilik e’tiborini qaratish, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish kuchayib bordi. Tadbir davomida O‘zbekiston viloyatlarining markazlarida taniqli san’atkorlar, madaniyat vakillari, sportchilar va boshqa taniqli shaxslar ishtirokida katta xayriya konsert dasturlari tashkil etildi [9].

2021-yil 23-dekabrda Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filialida “Ijtimoiy fanlar” kafedrasи professor-o‘qituvchilar tomonidan malaka oshirish kursi tinglovchilar uchun “Giyohvandlik – umr zavoli” mavzusida davra suhbat o‘tkazildi. Unda Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand viloyat Mintaqaviy filialivakillari ishtirok etdi [10].

## Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, muayyan davlatda giyohvandlikka qarshi kurashda yoshlar o‘rtasida uning ayanchli oqibatlarini chuqur tushuntirish, umuman giyohvand moddalar, qonunchilikda bu boradagi bandlar mohiyatini yoritib berish dolzarb masalalardan biriga aylandi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T. O‘zbekiston, 2017. – B.17.
2. Andijon davlat universiteti joriy arxivi.
3. Andijon davlat universiteti joriy arxivi.
4. O‘z MA, M-13-fond, 2-ro‘yxat, 700-ish, 133-136-varaqlar.
5. Информационный бюллетень о наркоситуации. Центральноазиатский регион.=Information Bulletin on Drug related Situation. Central Asian region.– Ташкент:, BAKTRIA PRESS, 2017. –Б 59-72.
6. Qarshi davlat universiteti joriy arxivi. Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limining 2016-2017 o‘quv -yili hisobotlari ma’lumotnomasi papkasi.
7. O‘zbekiston Milliy universiteti joriy arxivi
8. Qarshi davlat universiteti joriy arxivi. Ma’naviyat va ma’rifat bo‘limining 2017-2018 o‘quv -yili hisobotlari ma’lumotnomasi papkasi.
9. <https://ncdc.uz/news/giyovandlikka-arshi-kurash-ojligi>
10. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2021-yil 24-dekabr.

# XORAZMNING QADIMGI DAVLATCHILIGI, SHAHARSOZLIGI HAMDA MUDOFAA INSHOOTLARI TIZIMI TARAQQIYOTINING O'ZARO UYG'UNLIGI MASALALARI

## ВОПРОСЫ ВЗАЙМНОЙ ГАРМОНИИ ДРЕВНЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ ХОРЕЗМА, ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА И РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБОРОННЫХ СООРУЖЕНИЙ

### ISSUES OF MUTUAL HARMONY OF THE ANCIENT STATEHOOD OF KHWAREZM, URBAN PLANNING AND THE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF DEFENSE FACILITIES

*Normatov Sherzod Mirzayevich*

**Annotation.** Ushbu maqolada Xorazmning qadimgi davlatchiligi, shaharsozligi hamda mudofaa inshootlari tizimi taraqqiyotining o'zaro uyg'unligi masalalari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

**Keywords:** *Qadimgi Xorazm, Ko'zalikir, Sariqamish, Xorazm sivilizasiyasi, mudofaa inshoati, Qal'alikir, Xazorasp, Xiva, Bozorgal'a, Qal'alikir, Katta Oybuyirqal'a.*

**Normatov Sh.M.,**  
*Axborot  
texnologiyalari va  
menejment  
universiteti, dosent  
[sh.normatov@mail.ru](mailto:sh.normatov@mail.ru)*

**Аннотация.** В данной статье на основе научных источников освещены вопросы древней государственности, градостроительства и взаимной гармонии развития системы оборонительных сооружений Хорезма.

**Ключевые слова:** Древний Хорезм, Козаликир, Сарыкамыш, Хорезмская цивилизация, оборонительное сооружение, Калаликир, Хазорасп, Хива, Бозоркала, Калаликир, Камма Ойбууйыркала.

**Abstract.** This article, based on scientific sources, highlights the issues of ancient statehood, urban planning and mutual harmony in the development of the system of defensive structures of Khorezm.

**Keywords:** Ancient Khorezm, Kozalikir, Sarykamysh, Khorezm civilization, defensive structure, Kalalikir, Khazorasp, Khiva, Bozorkala, Kalalikir, Katta Oybuyrkala.

#### Kirish

Davlatchilik tarixi bilan shug'ullangan ko'pchilik olimlarning e'tirof etishlaricha qadimgi davlatlar tarixida urbanizasiya va davlatchilik jarayonlari bevosita mudofaa inshootlari taraqqiyoti bilan bog'lanadi. Chunki, mavjud mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan saroylar va ibodatxonalar, aholi yashagan shaharlar qismi, savdo yo'llari bo'ylab qurilgan harbiy istehkomlar dastlabki davlatchilik tizimining yorqin belgilari edi. Fikrimizcha, tarixshunoslik ma'lumotlariga ko'ra, Xorazm ilk davlatchiligi masalasining talqin qilinishida yuqoridaq holat yetarlicha inobatga olinmagan.

#### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Xususan, S.P.Tolstov va B.V.Andrianovlarning ishlarida Xorazmda ilk davlatchilik tuzumi va mudofaa inshootlarining o'zaro aloqadorligi holatiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Vohada davlatchilik

shakllari paydo bo'lishiga oid ularning qarashlarida "irrigasiya nazariyasi" yondashuviga tayanib, irrigasiya – sun'iy sug'orish ziroatkorlik va quldarlik ishlab chiqarish usulining jadal rivojlanishiga asosiy urg'u berilgan[1]. Buning asosiy sababi, sovet davri tarix faniningrasmiy talablarga muvofiq, ilk siyosiy tashkilotlar quldarlik keyinroq esa, feodal davlatlari sifatida talqin qilinib, ularning vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bosh omil bo'lganligi e'tirof etilgan[2].

O'tgan asrning oxirlariga kelib, masalaga yondashuvlar ancha o'zgarib, Ko'zaliqir qal'asi Xorazm sivilizasiyasi va davlatchiligi shakllanishining ilk bosqichidan, darak beradi degan, haqiqatga ilmiy to'g'ri keluvchi xulosa chiqarildi[3].

Tadqiqotlarga ko'ra, Ko'zaliqir mudofaa inshooti, siyosiy-mamuriy va himoyalanish (tevarakaholi uchun panagoh) vazifalariga ko'ra, mil. avv. VII asr oxirlari – VI asr o'rtalarida Xorazm vohasining g'arbiy qismi – Sariqamish bo'yalarida shakllangan qabilalarning siyosiy uyushmasi markazi bo'lgan[4]. Qal'a 25 gektardan iborat katta joyni qamrab olgan. Qal'a ning devorlari oddiy to'siq, tuproq ko'tarmasiga nisbatan murakkab tuzilishga ega (yarim dumaloqshakldagi burjlar, kamonchilar uchun mo'ljallangan devor ichidagi yo'lak va shinaklar). Bu kabi yirik, mustahkamlangan qal'aning qurilish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy sabableri qatorida harbiy-siyosiy omillar bilan ham belgilangan.

Ushbu yodgorlik mudofaa tizimining tuzilishi ilgari Xorazmda (umuman Orolbo'yi hududlarida) ma'lum bo'limganligi sababli qiyoslash maqsadida ilk temir davri Baqtriya va Sug'd harbiy istehkomlarini qisqacha ko'ribchiqish to'g'ri keladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, Ko'zaliqir qal'asiga xos mudofaa inshooti tuzilishi xususiyatlari qadimgi Baqtriya davlatidailgari rivoj topgan. Shuningdek, kamondan o'q otish uchun mo'ljallangan yarim dumaloq burjlar bilan Shimoliy Baqtrianing (Surxon vohasi) Bandixon 2 va Talashkantepa kabi qal'alarining devorlari inshootlangan[5]. Qiziltepa mudofaa devorining tashqi qismini shinaklar kesib o'tgan, ular "shaxmat" tartibida joylashgan. Ya'ni, yondosh shinaklar o'rtasidan balandroq devor qismida yana bitta shinak o'rnatilgan. Bunday tartibdagi shinaklar jangovar burjlarning ichki xonalarida ham mavjud bo'lgan. Burjli xonalar va devor ichidagi yo'lakdan kamonchilar tiz cho'kib va tikka turib o'q otish imkoniga ega bo'lishgan. Devorlar bo'yab qazilgan chuqur va keng xandaq suv bilan to'ldirilgan. Qiziltepa mudofaa inshooti dushmanning otliq va piyoda qo'shinlariga qarshi barpo etilgan[6].

Mill.avv. I ming yillikning boshlarida Sug'd hududida ham istehkomli ibodatxona va saroylarga ega yirik harbiy markazlar vujudga kelgan. Afrosiyob va Ko'ktepa (Zarafshon vohasi), Uzunqir va Yerqo'rg'on (Qashqadaryo vohasi), shular jumlasidandir. Dastlab ularning mudofaa devorlari (mil. avv. VIII – asr oxirlari – VII asrning boshlari) loy guvalalarga o'xshash g'ishtlardan terilgan. Afrosiyob qal'asini 7 m. qalinlikda qalin devor o'rab olgan. Uning umumiy uzunligi 7.4 km. ni tashkil etadi[7].

Ta'kidlangan qisqacha qiyosiy ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, mil. avv. VII asrda Xorazm hududlariga nisbatan Baqtriya va Sug'dning qadimiyligi ziroatkorlik vohalarida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan yirik markazlar va alohida qal'alar keng yoyiladi. Amudaryodan kechuvalar, dasht hududlari, tog' daralari va dovonlaridan o'tgan aloqa yo'llari bo'yab harbiy istehkomlar bunyod etiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, davlatchilik tizimida tashqi bosqinlarhavf-xatarining oldini olish, keng qamrovli mudofaa ishlarini tashkillashtirish va amalga oshirish, ishonchli himoyalanish tiziminiyatish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, shu sababli siyosiy va harbiy-strategik jihatdan muhim joylarda qal'alar qurilgan[8].

Tadqiqotchilarning fikricha, Xorazm vohasida Ko'zaliqir qal'asi vujudga kelgan davrda, Orol dengizini o'rab olgan keng dasht hududlarida yashovchi ilk saklar orasida ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi sohasining rivojlanishioqibatida qabilalarning siyosiy uyushmalari shakllanib, ushbu jarayon

mudofaa inshootlarini barpo etish zaruratini yuzaga keltirgan. Ahamoniylar davriga qadar Ko‘zaliqir Xorazm hududlarida yagona harbiy istehkom, yuqorida qayd etilgan uyushmaning tayanch markazi bo‘lgan. Keyingi bosqichda qal’aning ilk qurilish davriga oid mudofaa devorlari vayron qilingan. Devor oldi tutash joylarida kuchli yong‘in izlari aniqlanib, tadqiqotchilar buni ahamoniylar bosqini bilan bog‘lashgan[9].

Ayrim fikrlarga ko‘ra, ahamoniylar davrida, (mill.avv.VI-IV asrlar) “shahar qurilishi va madaniy sohada Eron bilan o‘zaro ta’sir yuz bergan” kabi taxmin ilgari suriladi[10]. Odatda, mazkur bosqichning shahar guruhiga Xazorasp, Xiva, Bozorqal‘a, Qal‘aliqir, Katta Oybuyirqal‘a va Devkesgan singari qal‘alar kiritiladi. Ularning tuzilishida istehkomli saroylarning qoldiqlari (ichki qal‘a) mavjud bo‘lsa-da, ammo aholining turarjoylari aniqlanmagan.

Xususan, Ko‘zaliqirdan 20 km. shimoli-sharqda joylashgan Qal‘aliqir bunga yorqin namuna bo‘la oladi. Qal‘a 70 hektar joyni egallab olgan-maydonda to‘g‘ri burchakli shaklda qurilib, mudofaa devorlari va 80 dan ortiq burjlar bilan mustahkamlangan. Uning g‘arbiy qismida 30 ta xona va zallardan iborat katta saroy binosining qoldiqlari aniqlangan, lekin shahar aholisi tomonidan uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan xom g‘isht yoki paxsadan qurilgan turarjoylar topilmagan[11]. S.P.Tolstov Qal‘aliqirning tarixini dastlab tavsiflagan paytda, ushbu qal‘a mol qamaydigan joy vazifasini ham bajarganligi, ehtimoldan holi emas, degan fikr bildirgan[12].

Ahamoniylar davrida, (mil. avv. V asrda) Amudaryoning o‘ng sohil Oqchadaryo o‘zani suv ta’minoti yuqori bo‘lganligi tufayli Oqchadaryo vohasining sharqi qismi, sun’iy sug‘orish – irrigasiya ziroatkorligi maqsadida keng o‘zlashtirilib, bu yerda ko‘p sonli dehqonchilik uy-qo‘rg‘onlari paydo bo‘ladi. Ular ichida paxsa devorlari bilan o‘rab olingan katta turarjoy – Dingilja qo‘rg‘onida, M.I.Vorobyevaning yozishicha, “ahamoniylar ma’muriyati bilan bog‘liq bo‘lgan, ishonchli vakil, voha tuman hokimining oila a’zolari yashagan”[13].

O‘zlarining chegaralarini mustahkamlash maqsadida Ahamoniylar ma’muriyati tomonidan Fors podshohligining turli satrapiyalarida harbiy istehkomlarni qurish siyosati yozma manbalardan ma’lum. I.V.Pyankov ushbu dalilni inobatga olib, Qal‘aliqir saroyida ahamoniylar noibi – Xorazm satrapi qarorgohini joylashtirish rejalashtirilganligi, ehtimoldan holi emas, deb yozgan[14]. B.I.Vaynberg ham Qal‘aliqir qal‘asining barpo etilish jarayonini “ma’muriy – irrigasiya voha” tashkillashtirish zarurati sifatida baholagan[15].

Ba’zi ilmiy adabiyotlarda Dingilja kabi dehqonchilik uy-qo‘rg‘onlari, Xazorasp qal‘asi, Xumbuztepa kulolchilik markazi, Xiva va Katta Oybo‘yir qal‘alarining barpo etilishi ahamoniylar davri bilan bog‘liq holda talqin qilinadi[16]. Bunday qarashlarning ayrim jihatlari bahslidir. Bizning fikrimizcha, Xorazm vohasida mudofaa inshootlariningshakllanish va rivojlanish jarayonlarini ko‘proq ahamoniylar siyosati bilan bog‘lab yoritish maqsadga muvofiq emas. Ko‘zaliqir qal‘asi va Xumbuztepa kulolchilik markazi ahamoniylar davriga qadar qurilgan. Ularning vujudga kelishini, O’rta Osiyo janubidagi singari (Marg‘iyona, Baqtriya, Sug‘d) Orolbo‘yida davlatchilik tizimi rivojlanishining natijasisifatida baholash zarur.

Mintaqada saklarning ilk harbiy-siyosiy uyushmalari mil. avv. VII- VI asrlarda paydo bo‘lgan. Ko‘zaliqir harbiy istehkomi shularga o‘xshash uyushmaning tayanch markazi bo‘lib, uning bunyod etilishida Qadimgi Xorazm davlatchiligi va mudofaa tizimi taraqqiyotining o‘zaro bog‘lanish jarayoni o‘zaksini topgan. Ko‘zaliqir qal‘asining xarob qilinishi va mudofaa devorlari oldida kuchli yong‘in izlarining mavjudligi qadimgi forslarning saklar va Xorazmga qarshi yurishlari oqibatida kelib chiqqanligining ehtimoli yuqoriligini dalillaydi.

So‘nggi tadqiqotlarda tarixiy davrlashtirish jihatidan mil.avv. IV-milodiy III asrlarni “Qadimgi Xorazm podsholigi davri” deb atash taklif qilingan, negaki tarixiy rekonstruksiya ma’lumotlariga ko‘ra, xususan, shu katta davr mobaynida Xorazmda aholining hududiy-ma’muriy joylashishi, mahalliy va markaziy boshqaruv, me’morchilik va binokorlikning taraqqiyoti hamda davlat miqyosida tashkillashtirilgan mudofaa tizimi yorqin namoyon bo‘lgan[17].

Qadimgi Xorazm podsholigi davri mudofaa inshootlarining tipologik tasnifi, ya’ni me’moriy tarhi, harbiy istehkomlarning asosiy elementlarini hisobga olgan holda, M.Mambetullayev ularni quyidagilarga ajratgan: istehkomli saroylar – ichki qal’aga ega hamda ichki qo‘rg‘oni mavjud bo‘lmagan, mudofaa devorlari va burjlar bilan mustahkamlangan shahar tipidagi manzilgohlar; ichki qismida turarjoylar aniqlanmagan alohida qal’alar[18].

So‘nggi arxeologik tadqiqotlar asosida istehkomli saroylar va ibodatxonalar, qal’alar va umuman mudofaa inshootlarining Xorazmdavlatchiligi tizimidagi tutgan o‘rni va ahamiyati masalasi xorijda chop etilgan ilmiy ishlarda ham ko‘p jihatdan hali yechilmagan muammo, deb qayd etilgan[19]. Fikrimizcha, mil. avv. IV-II asrlarda Xorazmning g‘arbiy va sharqiy qismlari, ya’ni Amudaryoning so‘l va o‘ng sohil sarhadlari, mudofaa inshootlari bilan mustahkamlanishi hamda muhim karvon yo‘llari bo‘ylab va mamlakatning tashqi chegaralarida qal’alarning barpo etilishi, markazlashgan davlatning siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan. Bunday standart-bir yo‘sindagi harbiy istehkomlarni qurish, maxsus loyihibar bo‘yicha mudofaa inshootlar tuzilishini ishlab chiqish istehkomli saroy va ibodatxonalarining mavjudligidan darak beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oldingi davrga nisbatan (Ko‘zaliqir qal’asi) antik davri istehkomlar devorlari ichkarisida ikki qavat mudofaa yo‘laklari qurilib, ular g‘ishtli zinapoyalar bilan bog‘lanadi. Quyi va yuqori yo‘laklar ichidan, tashqi devor qismini kesib o‘tgan shinaklar orqali kamondan o‘q otish va qal’alar mudofaasini olib borish imkoniy yaratilgan. Baland burjlarning aksariyat qismi yarim dumaloq va to‘g‘ri burchakli shaklda qurilgan. Ularmudofaa devordan bir necha metr oldinga olib chiqilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xorazm podsholigining tashqi sarhadlarida chegara qal’alari, quyi Sirdaryo dashtlari va Orol – Kaspiy dengizlari o‘rtasidagi ko‘chiburgan chorvador qabilalarining ehtimolli bosqinlaridan himoyalanish maqsadida bunyod etilgan. Ular davlat siyosatida nafaqat harbiy funksiyalar bilan bog‘langan, balki shu qatorda katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Qal’alarning tevaragida ko‘p sonli dehqonchilik uy-qo‘rg‘onlari, dalalar, bog‘lar va uzumzorlar joylashgan. Antik davri Xorazmda sun‘iy sug‘orish tizimi qayta qurilib, Amudaryo o‘zanidan 40-50. km uzunligida yirik kanallar chiqariladi, katta-maydonlarda serhosil yerlar o‘zlashtirilib, voha hududlari zinch irrigasiya tarmoqlari bilan qoplanadi[20].

Mil. avv. IV asrda Amudaryoning so‘l sohillari bo‘ylab, Jigarband, Sadvar, Xazorasp kabi qal’alar barpo etiladi. Ular orasida masofa bir kunlik yo‘lni tashkil etib, bu yerdan Xorazmni Marg‘iyona va Baqtriya bilan bog‘lovchi muhim karvon yo‘li o‘tgan[21]. Ushbu davrda Amudaryoda kemachilik rivojlangan, shu tufayli Baqtriya savdo mahsulotlarini nafaqat Xorazmga, balki Amu-Uzboy o‘zani va Kaspiy dengizi suv yo‘llari orqali Eron va Kavkazorti mamlakatlariga yetkazib berish imkoniy bo‘lgan[22]. Xorazmda qadimgi (antik davr) markazlashgan davlat tashkil topib, savdo-aloqa yo‘llarida havfsizlikni ta’minalash markaziy va joylardagi harbiy-ma’muriy hokimiyatning siyosatida muhim vazifaga aylanib borgan. Shu bois savdo yo‘llari bo‘ylab harbiy istehkomlar bunyod etiladi hamda maxsus qo‘riqlovchi qurolli guruqlar va qo‘shinlar tashkillashtiriladi.

Ba‘zi ma’lumotlarga ko‘ra, “shahar” toifasiga kiritilgan Bozorqal’a, Oqchaxonqal’a va boshqalar avvaldan hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida bunyod etilmagan. Ularning mudofaa devorlari

bilan o‘rab olingan ichki qismlarida hunarmandlar, savdogarlar va odatda, shaharda yashagan turli ijtimoiy qatlamlarning turar joylari hamda hunarmandchilik ustaxonalarining qoldiqlari topilmagan.

Xorazm podsholigining sarhadlari chegaralarida va savdo karvonlari o‘tadigan yo‘llari bekatlarida harbiy istehkomlarni barpo etish hamda mamlakat ichkarisida me’morchilik loyihalar bo‘yicha ko‘plab qal’alarni qurish, birinchi galda, binokorlik ishlarini tashkillashtirish vamarkazlashgan holda amalga oshirishni taqozo etgan. Ikkinchidan, nisbatan qisqa davr mobaynida davlatning hududiy miqyosida keng ko‘lamdagi mudofaa inshootlari yangi tizimini yaratish maqsadi ilgari surilgan. Bizningcha, bunday sharoitda davlat tasarrufidagi barcha imkoniyatlarni ishga solish zarur bo‘lgan.

Davlat miqyosida keng ko‘lamli binokorlik ishlarini amalga oshirish jarayonida ko‘p sonli aholi vakillarini majburiy xizmatlarga jalb qilish hamda tashkiliy masalalar va qurilishga ishlatilgan g‘isht, yog‘och, tosh va boshqa qurilish materiallari hisob-kitobini nazorat qilish katta ahamiyat kasb etgan. Qal’aliqir 2, Govurqal’a 3 va Tuproqqal’adan topilgan qadimgi Xorazm yozuvi namunalarida ibodatxonalar omboriga va davlat xazinasiga tushgan turli mahsulotlar, buyumlar va chorva soni qayd etilgan[23]. Xo‘jalik hisob-kitoblari bilan shug‘ullanuvchi amaldor “boshqaruvchi” deb atalgan[24].

Ta’kidlash joizki, mil. avv. IV asr boshlarida Xorazm alohida podshohlik sifatida rivoj topadi. Mamlakat aholisining aksariyat qismi ma’muriy-hududiy jihatidan, sun’iy sug‘orilishga asoslangan ziroatkorlik vohalarida joylashgan. Bunday voha – tumanlar hududlarda mudofaa ishlarini amalga oshirish, tashqi harbiy bosqinlaridan himoyalanish zaruriyati bilan belgilangan. Shu sababli mamlakat ichkarisi va tashqi sarhadlari harbiy istehkomlar bilan mustahkamlandi. Shuningdek, savdo-aloqa yo‘llari bo‘ylab, Amudaryodan kechuvarlar yonida qal’alar bunyod etildi.

**Xulosa va takliflar.** Yangidan barpo etilgan davlatning siyosatida aholining havfsizligini ta’minalash, qal’alar, istehkomli saroy va ibodatxonalar, karvon yo‘llaridagi qo‘rg‘onlarni qo‘riqlash uchun maxsus qurollangan qo‘shinlarni tashkillashtirish va qurol-yarog‘larni ishlab chiqish muhim vazifaga aylangan edi. U, birinchi galda, bir-birlari bilan bog‘langan istehkomlar va keng ko‘lamdagi mudofaa inshootlar tizimini yaratishni taqozo etgan. Bu borada qurilish loyihalari ishlab chiqish, mudofaa ishlarini tashkil etish va nazorat qilishni amalga oshirish, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvining muvofiq iqtisodiy va ma’muriy tuzilmalarining faoliyatida eng muhim o‘rin olgan. Qadimgi Xorazm davlatchiligi va mudofaa inshootlar tizimi taraqqiyotining o‘zarobog‘lanishi mamlakat aholisining havfsizligini ta’minalash va mudofaa ishlarini yangi asoslarda rivojlantirish zarurati bilan belgilangan.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта... – С. 89,91; Андрианов Б.В. Роль ирригации в становлении древних государств (на примере Средней Азии) // От доклассовых обществ к раннеклассовым. – М.: Наука, 1987. – С.75-78.
2. Abdullayev O‘.I. O‘rta Osiyoda ibridoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi: Tarix fan.doktori(DSc) diss...avtoref.Toshkent: O‘zMU, 2019. – В. 18.
3. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели–гыр... – С.151.
4. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности // История государственности Узбекистана. Т.1. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 124-125
5. Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Ташкент, 2000. – С. 50-51, рис.30.
6. Пугаченкова Г.А. В поиске культурных ценностей прошлого // Античные и раннесредневековые древности Южного Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 9.

7. Исамидинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент, 2002. – С. 133.
8. Matyaqubov H. Xorazm vohasi bronza asri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent, 2017. – В. 185
9. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели–гыр... – С. 172.
10. Xodjaniyazov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – В. 62
11. Рапопорт Ю.А., Лапиров–Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалы–гыр 1 // МХЭ. Вып. 6. – М., 1963. – С. 141-156.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 80.
13. Воробьева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже // МХЭ. Вып. 1. – М., 1959. – С. 70-80; ўша муаллиф. Дингильдже. Усадьба середины I тысячелетия до н.э. в Древнем Хорезме // МХЭ. Вып. 9.
14. Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского // ВДИ. – №2. – М., 1972. – С. 19-20.
15. Вайнберг Б.И. Изучение памятников Присарыкамышской дельты Амудары // Скотоводы и земледельцы левобережного Хорезма. Ч. I. – М., 1991. – С. 23-24
16. Мамбетуллаев М. Хумбуз – тепе – керамический центр Южного Хорезма // Археология Приаралья. Вып.– Ташкент, 1984. – С. 21-38; ўша муаллиф. Городище Большая Айбуей-кала // Археология Приаралья. Вып. IV. – Ташкент, 1990. – С. 91-131; Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития (IV в. до н. э. – IV в. н. э.) // Центральная Азия. Источники, история, культура. – М.: ИВЛ, 2005. – С. 543-561.
17. Matkarimov X.O. Xorazm vohasida arxeologik tadqiqotlar tarixi... – В. 18, 22
18. Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в.до н.э. – IV в. н.э.): Автореф.дисс...доктор ист.наук. – Ташкент: Институт истории АН РУз, 1994. – С. 29-30
19. Helms S.W., V.N.Yagodin. Excavations at Kazakliyatkan in the Tashkirman Oasis of Ancient Chorasmia: A Preliminary Report // Iran, 1997. Vol. 35. – Pp. 43-65; Kidd F., Negus cleary M; Yagodin V.N., Betts A.and Baker Brite E. Ancient Chorasmian Mural Art // Bulletin of the Asia Institute. Vol. 18, 2004. – Pp. 69-95.
20. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1969. – С. 136-137
21. Незарик Е.Е. Древние города Хорезм и пути их развития... – С. 551
22. Ртвеладзе Э.В. Бактрия и Хорезм // Цивилизация древнего Хорезма в контексте истории мировой культуры. - Нукус, 2000. – С. 21.
23. Лившиц В.А. Надписи и документы // Калалы-гыр 2. Культовый центр в древнем Хорезме. - М.: ИВЛ, 2004. – С. 188-212; Is'hoqov M. Tarixni tilga kiritgan yozuv // Fan va turmush. – №1-3, 2006. – В. 33-35.
24. Лившиц В.А. Документы. Топрак - кала. Дворец //Тр. ХАЭЭ. Т. XIV. – М., 1984. – С. 264.



**SAYYOH OLIMLAR ASARLARIDA XORAZM TAVSIFI**  
**DESCRIPTION OF KHWARAZM IN THE WORKS OF TOURIST SCIENTISTS**  
**ОПИСАНИЕ ХОРЕЗМА В ТРУДАХ УЧЕНЫХ-ТУРИСТОВ**

**A.Qurbanov**

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Xorazmning o'rta asr sayyoh olimlari, jumladan, Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Battuta va al-Umariy asarlarida qanday tasvirlanganligi haqida so'z boradi. Maqola, shuningdek, Xorazmning o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlari hamda uning ilmiy merosi haqida batafsil ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** *Xorazm, sayyoh olimlar, Ibn Battuta, Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, Yoqut al-Hamaviy, Al-Umariy, O'rta asrlar, Mowarouunnahr, madaniy meros.*

**Abstract.** The article talks about how Khorezm, one of the ancient cities of Uzbekistan, was described in the works of medieval travel scholars, including Ibn Khurdadbeh, Ibn al-Faqih, Yaqt al-Hamawi, Ibn Battuta and al-Umari. The article also provides detailed information about Khorezm's unique social, economic, and cultural characteristics, as well as its scientific heritage.

**Keywords:** *Khorezm, traveling scholars, Ibn Battuta, Ibn Khurdadbeh, Ibn al-Faqih, Yaqt al-Hamawi, Al-Umari, Middle Ages, Mowarouunnahr, cultural heritage.*

**Аннотация.** В статье рассказывается о том, как Хорезм, один из древних городов Узбекистана, был описан в трудах средневековых ученых-путешественников, включая Ибн Хурдадбеха, Ибн аль-Факиха, Якута аль-Хамави, Ибн Баттуту и аль-Умари. В статье также дается подробная информация об уникальных социальных, экономических и культурных особенностях Хорезма, а также о его научном наследии.

**Ключевые слова:** *Хорезм, ученые-путешественники, Ибн Баттута, Ибн Хурдадбех, Ибн аль-Факих, Якут аль-Хамави, Аль-Умари, Средние века, Мовароуннахр, культурное наследие.*

### Kirish

Istiqlol tufayli biz milliy o'zligimizni anglash, boy ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ko'plab buyuk allomalarimizning tavallud sanalari, shuningdek, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrисабз, Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi qadimiy shaharlarimizning tashkil topganligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Noyob merosimizning hali o'rganilmagan qirralarini tadqiq qilishlari keng ko'lamda izchillik bilan davom ettirilmoqda.

## Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ma'lumki, jonajon yurtimizdagi har bir qishloq va shahar o'zining boy tarixiga egadir. Ajodolarimizning o'tmishini chuqur, xolisona va izchil o'rganish Vatan tarixining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, o'tmishni teran bilmasdan turib, haqiqiy ma'nodagi bugungi va keljak hayotni ravshan tasavvur qilib bo'lmaydi, albatta.

Shu o'rinda, XIV asr boshlarida O'rta Osiyoga sayohat qilib, bu yerdagi xalqlar va shaharlar hayotiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan "Sayohatnoma" asarini yaratgan marokashlik arab sayyohi, geograf va tarixchi Ibn Battuta[1]ning ijodini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Shaxsiy taassurotlarga asoslangan va qiziqarli hikoya usulida yozilgan "Sayohatnoma"ning to'liq nomi — "Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-asfar" bo'lib, ya'ni "Turli shahar va safarlardagi ajoyibotlar shohidi bo'lganlar uchun tuhfa" degan ma'noni anglatadi. Asarda Movarounnahr xalqlari, Urganch, Buxoro, Nasaf, Termiz, Samarcand kabi shaharlar hayotining boshqa manbalarda uchramaydigan usulda tasvirlanishi tahsinga sazovordir [2].

Sayyoh Qohira shahrini, uning masjid va madrasalarini, Misr ehromlarini, Nil daryosini batafsil tasvirlab, Misr hukmdori Mamluk Nasriddin va uning qozi, amaldor va sarkardalarining tarjimai hollari haqida yozib qoldiradi. Garchi Misrdagi mamluklar sulolasidavri haqida bizda ancha tarixiy ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, Ibn Battutaning XIV asr birinchi yarmidagi Misr haqidagi yozuvlari o'zining xolis va sodda uslubi hamda o'ziga xos tafsilotlari (masalan, Misrdagi soliqlar miqdori uni hayratga solgani) bilan alohida e'tiborga sazovordir. Sayyoh Oltin O'rda poytaxtida bir necha hafta bo'lib, 1338-yilning yanvarida O'rta Osiyoning shimoliy hududlari – Xorazmga yo'l oladi [3]. Unga ko'ra, "qirq kun" yo'l bosib, nihoyat Xorazm poytaxti Urganchga yetib keladi.

Ushbu o'lka o'zining tabiiy boyliklari va keng savdo-sotiqlar bilan sayyohni hayratda qoldiradi. O'rta asrlardagi Xorazm tasvirlari ko'pincha arab geografik asarlarida uchraydi. Masalan, IX asr olimi Ibn Xurdodbeh o'zining "Kitob al-masalik val-mamalik" ("Yo'llar va davlatlar kitobi") asarida Xorazm joylashuvi haqida shunday yozadi: "Chapda (chap sohilida) – Marv va Xorazm joylashgan." Kitobda o'sha davrda Xorazm va Kursakdan olinadigan soliqlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi: "Xorazm bilan Kursakdan – 498 ming Xorazm dirhami [4]."

XII-XIII asrlardagi mashhur "Mo'jam al-buldan" ("Mamlakatlar lug'ati") geografik lug'atining muallifi Yoqut al-Hamaviy Xorazm haqida Ibn al-Kalbiydan olingen afsonani keltirib, keyinchalik Ptolomeyni manba sifatida eslaydi va Xorazmni "oltinchi iqlimga" joylashgan deb aytib, unga mos yulduzlar burjini ataydi. Biroq, biroz o'tib, Abu Rayhon Beruniyning "Zij"iga tayanib, Xorazmning "beshinchi iqlim"da joylashganini ta'kidlaydi va ancha boshqacha koordinatalarni keltiradi [5].

Yoqut al-Hamaviy Xorazmning aslida shahar emas, viloyat nomi ekanini ta'kidlab, uning poytaxtini Jurjoniya deb ataydi va keyinchalik Xorazm so'zining etimologiyasini tushuntiradi. Rivoyatlarga ko'ra, bu yerning Xorazm deb atalishi sababli bir qadimgi podshoh o'zining to'rt yuz nafar fuqarosiga, ayniqsa saroy ahliga darg'azab bo'lib, ularni odam yashaydigan joylardan yuz farsah uzoqlikdagi yerkorda surgun qilgan ekan. Bu talablarga mos joy faqat Xorazmdagi Qiyatning atrofida bo'lgan. Quvg'indilar shu yerga olib kelinib, tashlab ketilgan. Vaqt o'tib, podshoh ularni eslab, amaldorlariga buyuribdi: "Bilinglar, ular nima bo'ldi ekan?"

Ibn Xurdodbeh asarida Xorazm hukmdorining unvoni, Jayhun daryosining Xorazm yerlaridan oqib o'tishi, shuningdek, Xuroson viloyatlari va Xorazmning chegara hududlari haqida ham eslatmalar bor [6]. Xorazmning batafsil tasviri X asr geograf olimi Ibn al-Faqihning "Kitob al-Buldan"

(“Mamlakatlar haqida kitob”) asarida uchraydi. Bu asardagi tasvirlar anchayin rang-barang bo‘lib, muallif Xorazm mo‘ynalari haqida she’r keltiradi, Xorazmda qadimgi otashparastlarning yashaganini qayd etadi va Kaspiy dengizidan Xorazmgacha tutash cho‘llar haqida hikoya qiladi. Ibn al-Faqih xalifa huzurida turli mamlakat xalqlarini ta‘riflagan bir donishmandning so‘zlarini ham keltiradi. Xorazmliklar haqida donishmand shunday degan: “Ular hech qachon bosh egmaydigan, fidoyilikka moyil kishilardir...”. Ibn al-Faqih Xorazmni eng sovuq iqlimga ega uch o‘lkaning biri deb hisoblaydi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Sayyoh olimlar asarlarida Xorazm tavsifiga asoslangan ushbu maqola analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, induktiv va deduktiv, hujjatlar bilan ishslash hamda tarixiylik, mantiqiylik, uzviylik, izchillik kabi ilmiy usul va tamoyillardan foydalanib tahlil qilingan.

### Tahlil va natijalar

Yoqut al-Hamaviy shahar tarixidan so‘zlab, xorazmliklar haqida quyidagicha ta’rif beradi: “Bu o‘lkada ular turar joylar va saroylar qurishgan, aholi ko‘payib, keng hududlarga tarqalgan. Shahar va qishloqlarni barpo etishgan. Xurosionning yaqin-yiroq shaharlaridagi aholi xorazmliklar bilan hisoblashadigan bo‘lib, ko‘pchilik u yerga ko‘chib kela boshlagan. Shu tariqa, Xorazm xalqi ko‘payib, nom chiqaradi va Xorazm gullab-yashnagan, go‘zal o‘lkaga aylanadi. Men u yerga 616-yili (1219–1220 y.) borgan edim va hech qayerda bunday gavjum va obod o‘lkan ko‘rmaganman.

Ekinlar yoppasiga parvarish qilingan, qishloqlar ketma-ket joylashgan, hovli-chorbog‘lar ko‘p, hatto dashtda ham chorbog‘lar mavjud. O‘lka qishloqlarida parvarish qilinmagan, noobod joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa gujum va tut daraxtlari ko‘p, chunki ular qurilish yog‘ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurti uchun yemdon. Qishloqdan o‘tgan odam bilan bozordagi odamni ajratib bo‘lmaydi... Xorazmning deyarli barcha shaharlarida mol-tovar bilan boy do‘kon va rastali bozorlari bor, bozori bo‘lмаган qishloqni topish juda qiyin [7].”

Shundan keyin Yoqut al-Hamaviy Xorazm va uning poytaxtini, xalqning urf-odatlari va tashqi qiyofasini tasvirlaydi. Xorazmliklarning kelib chiqishiga alohida e’tibor qaratib, Abdulloh al-Faqih, al-Muqaddasiy, al-Beruniy va boshqa ko‘plab olimlarning fikrlarini dalil sifatida keltiradi. Xorazm poytaxti Urganch haqida u shunday yozadi: “Xorazm — shahar nomi emas, balki o‘lkaning umumiyl ismidir. Poytaxtni esa yuqorida aytganimdek, Jurjoniya deb atashadi. Mahalliy aholi uni Kurkanj deb ataydi. Kurkanj nomi arab yozuvidagi “Gurganch”ning o‘ziga xos o‘qilishidan kelib chiqqan.”

Yoqut al-Hamaviy mo‘g‘ullar istilosidan oldingi Xorazmni “parvarish qilinmagan yerni topish qiyin” deb ta’riflab, o‘lkaning obodonligini ta’kidlaydi. U Xorazm poytaxti Urganch shahriga maxsus maqola bag‘ishlab, shunday yozadi: “Urganch o‘lkaning poytaxti bo‘lib, Jayhun daryosi sohilida joylashgan katta shahar. Xorazm aholisi uni o‘z tilida Kurkanj (Gurganch) deb ataydi, ammo bu nom arabchalashib bizda Jurjoniya deb talaffuz qilinadi... Men bu shaharning mo‘g‘ullar zabit etib vayronaga aylantirishidan oldin, 616-yili (1219-1220) ko‘rganman. Nazarimda, bundan katta, bundan ham boy va obod shaharni hech qayerda ko‘rmaganman. Biroq mo‘g‘ullar bosib olgandan keyin hammasi tamom bo‘ldi: shaharda faqat mustahkam binolargina omon qolgan, aholisini esa butunlay qirib tashlashganini eshitdim [8].”

Hozirgi arxeologik qazilmalar Yoqut al-Hamaviyning Xorazm haqida keltirgan ma’lumotlarini tasdiqlaydi. Sayyoh XIII asrning yigirmanchi yillarida Xorazmga kelganida, bu yerda ishlab chiqarish va madaniyat haqiqatan ham yuqori darajada bo‘lgan.



Xorazm haqida o‘zining “Ajoyib al-maqdur fi navoib Taymur” (“Temur sarguzashtlarida taqdir mo‘jizalari”) asarida Ibn Arabshoh (1389–1450) ham hikoya qiladi: “Ularning (xorazmliklarning) poytaxti Jurjon shahri... bu olim va suxandonlarning yig‘iladigan joyi, u yerda olimlar va zukkolar, shoirlar to‘planadi, zariflar va taniqli shaxslar kelib turadi. Bu joy mutaziliylarning tog‘ chashmasidir... Unda noz-ne’matlar mo‘l, ezbiliklar behisob [9].”

Ibn Battutaning zamondoshi al-Umariy ham “Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar” asarida Xorazmni tasvirlab, bu yerda o‘stiriladigan barcha don ekinlari, ishlab chiqariladigan mollar va tovarlarni sanaydi. Shuningdek, Mavrounnahr va Xorazmdagi pul munosabatlari, narx-navo hamda Urganch haqida hikoya qiladi va odamlarning xulq-atvorini sinchiklab ta’riflaydi: “Bu o‘lkada bug‘doy, arpa, sholi va boshqa don ekinlari o‘sadi...” deb ta’kidlagan edi [10].

Al-Umariyning Urganch bozorlari haqidagi hikoyalari esa, Ibn Battutaning jonli va tabiiy bayonlariga qarama-qarshi tarzda, anchayin quruq va amaliy ruhda yozilgan: “Xorazm poytaxti Urganchdan tashqari — bu shaharni ba’zan Xorazm deb ham atashadi — butun o‘lkada narx-navo juda arzon.”

### Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, o‘rta asr sayyoh olimlarining asarlarida Xorazmning boy merosi va madaniy obidalari, tabiiy boyliklari, iqtisodiy ahvolining tasviri mufassal keltirilgan. Ibn Battuta, Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, Yoqut al-Hamaviy va al-Umariy kabi olimlar asarlarida Xorazm haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar yozib qoldirilgan bo‘lib, ularning sayohatlari orqali bugungi kunda bizga Xorazmning o‘sha davrdagi yuksak savdo va madaniy hayoti, xalqning urf-odatlari haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyati mavjud.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibn Battutaning ismini ikki t bilan yozishni 1918-yilda A.Fisher taklif etgan.
2. Battuta, Ibn. *The Travels of Ibn Battuta: In the Near East, Asia and Africa, 1325-1354*. Courier Corporation, 2013.
3. Ibrohimov N. "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati". Toshkent, 1993-yil, 13- bet.
4. Jabberganovich, R. F., & Gozal, J. (2023). Xorazmda davlatchilikni vujudga kelishi va X-XIII asrlarda xorazmshohlar sulolalari tarixi. *Tadqiqotlar*, 25(1), 93-100.
5. Faris, Nabib Amin. "Iwaideb: The Introductory Chapters of Yaqt's Muijam Al-Buldan (Book Review)." *Middle East Journal* 14 (1960): 94.
6. Хордадбек, Ибн. "Книга путей и стран." (1986).
7. Faris, Nabib Amin. "Iwaideb: The Introductory Chapters of Yaqt's Muijam Al-Buldan (Book Review)." *Middle East Journal* 14 (1960): 94.
8. Faris, Nabib Amin. "Iwaideb: The Introductory Chapters of Yaqt's Muijam Al-Buldan (Book Review)." *Middle East Journal* 14 (1960): 94.
9. Ibn Arabshoh" Amir Temur tarixi" Toshkent, 1992-yil.
10. Irwin, Robert. "Masālik al-Abṣār fī Mamālik al-Amṣār d'Ibn Faḍl Allāh al-Umarī. Šihāb al-Dīn Ahmād b. Yahyā b. Faḍl Allāh m. 749/1349. L'Égypte. la Syrie. le Ḥiğāz et le Yémen. Edited with introduction and notes by Ayman Fu'ād Sayyid (Textes Arabes et Études Islamiques, Tome XXIII, 1985.) pp. xlvi, 203. (Arabic text). Cairo, Institut Français d'Archéologie Orientale du Caire. 1985." *Journal of the Royal Asiatic Society* 119.1 (1987): 116-117.



## SENATOR F.K. GIRS HISOBOTLARIDA TURKISTONNING YER TUZILISHI MASALASIDAGI TAKLIFLARI

### ПРЕДЛОЖЕНИЯ О СТРОЕНИИ ТУРКЕСТАНСКОЙ ЗЕМЛИ В ОТЧЁТАХ СЕНАТОРА Ф.К. ГИРСА

### PROPOSALS OF THE STRUCTURE OF THE TURKESTAN LAND IN THE REPORTS OF SENATOR F.K. GIRS

*Rasulov Baxtiyor G‘ulmovich*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1882-1884-yillarda hududni taftish qilgan imperatorning maxfiy maslahatchisi F.K.Girsning taftish materiallari asosida Turkiston general-gubernatorligining yer tuzilishi munosabatlari va oqibatlari hamda Senator Girsning yer tuzilishi masalasidagi takliflari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Turkiston general-governatorligi, Amlok yerlar, Vaqf yerlar, Mulk yerlar, F.K.Girs, 1867-yil, 1873-yil, 1881-yil, Fon Kaufman, Abramov, yo‘riqnomalar.*

**Аннотация.** В данной статье на основе обзорных материалов Ф.К.Гирса, тайного советника императора, инспектировавшего территорию в 1882-1884 гг., рассматриваются взаимосвязь и последствия земельного устройства Туркестанского генерал-губернаторства и предложения сенатора Гирса по вопросу землеустройства.

**Ключевые слова:** *Туркестанское генерал-губернаторство, Амлокские земли, Вакфские земли, Мулькские земли, Ф.К.Гирс, 1867, 1873, 1881 гг., Фон Кауфман, Абрамов, инструкции.*

**Abstract.** This article discusses the land tenure relations and consequences of the Turkestan General-Governorship based on the review materials of F.K. Girs, the emperor's secret advisor, who conducted an inspection of the region from 1882 to 1884. It also highlights Senator Girs' proposals regarding land tenure issues.

**Keywords:** *Turkestan General-Governorship, Amlok lands, Waqf lands, Private lands, F.K. Girs, 1867, 1873, 1881, Fon Kaufman, Abramov, guidelines..*

**Rasulov B.G.,**  
*O‘zbekiston-Finlandiya  
Pedagogika instituti*  
[rasulovbaxtiyor219@gmail.com](mailto:rasulovbaxtiyor219@gmail.com)

Turkiston qishloq xo‘jalik sohasi Rossiya imperiyasi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishi hisoblangan, chunki mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Imperiya ma’muriyati o‘lkani mustamlaka qilgandan song agrar tizimini o‘zgartirdi. Rossiya ma’muriyati qishloq xo‘jaligi siyosatida Britaniya Hindistoni tajribasidan o‘rnak olib, Turkistonda yerni rasman davlat Mulki deb e’lon qilish bilan asl maqsadini ko‘rsatdi.[1-77-bet]

Dastlab, Turkistonda qishloq xo‘jaligidagi mavjud munosabatlarni o‘zgartirishga hali qodir emasligini anglagan rus hukumati ko‘p asrlik iqtisodiy aloqalarni va ishlab chiqarish usulini buzishga shoshilmagan. 1867-yildagi “Nizomlar”da K.P.Kaufman yozganidek, “...aholining yer bilan munosabatlarining tuzilishi va tartibga solinishida mahalliy ma’muriyat amal qilishi kerak bo‘lgan tamoyillar ko‘rsatilmagan”. F.Kaufman yer masalasi bo‘yicha yangi qonunni ishlab chiqish uchun shariat asosidagi yer huquqlarini o‘rgana boshladi. Bu masala yuzasidan general-gubernator Kaufman: “...yerga egalik qilishning bugungi holatiga oydinlik kiritish uchun, avvalo, Qo‘qon va Buxoroni o‘troq hamda ko‘chmanchi aholisining yer huquqini ko‘rib chiqish lozim”, - deb yozgan edi. [1-83-bet]

Yerga egalik huquqining shariat normalarini o‘rganish uchun o‘lka haqida ma’lumotga ega bo‘lgan M. Rostislav, S. Idarov, N. Pantusov, A. Kun va boshqalar taklif etilgan. O‘rganish natijasida xonliklarda yer mulklarning quyidagi turlari mavjudligi aniqlangan: a) amlok – davlat yerlari; b) mulk – xususiy yerlar; 3) vaqflar – din peshvolari va diniy tashkilotlarga tegishli yerlar. K.P.Kaufman Yevropada xususiy mulk tushunchasi yo‘qligini ta’kidlab, “Musulmon yer huquqi nazariyasining asosiy qoidalariga ko‘ra barcha islomiy yerlarni davlat yerlari”, - deb hisoblangan. Shu sabab rus ma’muriyati “mulk yerlari”ni tugatib, “vaqf” yer egaligini kamaytirishga qaror qilgan. [1-83-bet]

1867-yildan boshlab birinchi general-gubernator K.P.Kaufman Turkiston o‘lkasini “Tartibga solishga” qattiq kirishgan. Bu davrda Turkiston o‘lkasining sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligidagi yerlari fondi 2 mln desyatenaga yaqin bo‘lib, shuningdek, 40 mln desyatenaga yaqin yerlar yaylovlardan iborat edi. Tadqiqotchi Baxtiyor Alimjonovning yozishicha, Turkiston aholisining ko‘pchilik qismi 1 gektardan 5 gektargacha yerga ega bo‘lib, qolgan aholisi mardikorlar, chorikorlar va korandalardan iborat, ijarachi dehqonlar hisoblangan. [1-79-bet] Asosan qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar, Farg‘ona viloyati va Zaravshon okruglariga to‘g‘ri kelgan. Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarida hamda Amudaryo bo‘limida chorvachilik yaxshi rivojlangan. [4-77-bet]

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko‘zlangan bosh maqsadi va asosiy yo‘nalishlarini davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.B.Krivoshiyen “bu masalada uch ko‘rinish mavjud: birinchi navbatda “paxta” bo‘lsa, ikkinchidan, “sug‘orish” va nihoyat uchinchidan, ya’ni eng muhim o‘lkaga ruslarni ko‘chirib keltirib o‘rnashtirish deb ta’kidlagan.[5-215-bet]

Turkiston general-gubernatori Chernyayevning sa’y-harakatlari bilan Turkistonni taftish qilgan senator Girs hisobotlarida o‘lkada olib borilgan agrar sohadagi islohatlarning kamchiliklari haqida ma’lumot berilgan. F.K.Girsning Turkistonda taftish o‘tkazishi bo‘yicha 1882-yil oktabrda oliy buyruq bilan tasdiqlangan yo‘riqnomasi asosida boshqaruva tizimining boshqa sohalari qatori moliya qismini ham o‘rganish yuzasidan quyidagi vazifalar belgilangan:

- a) mintaqadagi soliqlar va yig‘imlarning mavjud tizimi va ularni o‘ndirish tartibini o‘rganish;
- b) o‘lkaning yerga bo‘lgan qonuniy huquqlarini to‘g‘ri belgilash;
- c) yer solig‘i normasini ishlab chiqish uchun o‘lkadagi mavjud sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan yerlarni o‘rganish;
- d) mahalliy ehtiyojlar uchun olinadigan zemstvo solig‘i va boshqa qo‘sishimcha to‘lovlarini, shuningdek, soliqlarni taqsimlash va undirish usillari, ularning aholiga og‘irlilik darajasini o‘rganish;
- g) yer solig‘idan keladigan mablag‘larni davlat g‘aznasiga o‘tkazilganligi masalalarini taftish qilish. [3-6 bet]

Girs taftish hisobotida Turkiston o‘lkasining iqtisodiy ahvoli, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan belgilanishi, mintaqaning barcha savdo va hunarmanchilik rivoji ushbu sohalar bilan bog‘liqligi, qishloq aholisining iqtisodiy daromadi yer ekanligi ta’kidlangan.[1-242 bet] Shu sabab yer masalasini to‘g‘ri shakillantirish Turkiston o‘lkasi uchun nihoyatda muhim hisoblangan.

Rossiya imperiyasi Turkistonni mustamlakaga aylantirgunga qadar yer egaligining quyidagi shakillari mavjud bo‘lgan:

- 1) Amlok yerlar, bunday yerlardan foydalanganligi uchun xiroj solig‘i to‘langan.
- 2) Mulk yerlari, bunday yerlar davlat solig‘idan to‘liq yoki qisman ozod qilingan.
- 3) Vaqf yerlari, daromadi to‘liq yoki bir qismi turli diniy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar.

Yerlarning asosiy qismi, qishloq jamoalariga tegishli bo‘lib undan foydalanganligi uchun davlatga xiroj va tanob soliqlarini to‘lagan. Yer tuzilish rejasini ishlab chiqqan o‘lka ma’muriyati o‘troq mahalliy aholi foydalanayotgan barcha yer va mulklarni ularga doimiy foydalanish huquqida berilishi kerak, deb hisoblagan. Bu chora dastlab 1873-yil loyihasida taklif qilingan, lekin sobiq moliya vaziri, davlat kotibi Reytern, Davlat nazoratchisi va Tashqi ishlar vazirligi mazkur loyihameng eng muhim qismlari yetarlicha ishlab chiqilmagan, deb hisoblagan va uni mintqa uchun xavfli tomonlari bor, deb tasdiqlanishiga rozilik bermay loyihami tuzatish va to‘ldirish uchun qaytargan. [4-344-bet] Girs yuqoridagilardan kelib chiqib, bunga oydinlik kiritish maqsadida o‘lkaning turli hududlariga borib masalani joyida o‘rganish va unga yechim topishga harakat qilgan.

Girs taftish hisobotida mahalliy qishloqlarni rus qishloqlari bilan solishtirish xatoligi, chunki ikkalasining ham qishloq xo‘jalik sohasida bir biridan farqi borligi ta’kidlangan. Turkiston o‘lkasidagi har bir qishloq yer uchastkalariga bo‘lingan bo‘lib, ularning egalari yerdan to‘liq mulk huquqi asosida foydalangan. Ushbu yerlar istalgan vaqtida sotish, hadya qilish, meros qilib olish va boshqa qonuniy usullar orqali berilgan.

Yer egasi mahalliy ariqlarni suv bilan ta’minlaydigan katta-katta zavurlarni qazishda va tozalashda ishtirot etishiga qarab suvdan foydalangan bo‘lib, “...o‘lkaning yer tuzilish loyihasida qishloqlar va undan tashqarida joylashgan yerlar mulkdorlarga to‘liq egalik huquqi asosida berilishi belgilangan” [4-346 bet]. Girs to‘g‘ri hal qilinmagan yer masalasi mahalliy aholining hukumatga bo‘lgan ishonchiga putur yetkazishi mumkinligini ta’kidlaydi va general-gubernator Kaufmanning imperiya vazirliklari tomonidan qaytarilgan 1873-yildagi yer tuzilish loyihasini Farg‘ona viloyatida joriy qilishi natijasida ayanchli holatlat yuz bergenligini misol tariqasida keltiradi.

Taftish hisobotlarida o‘lkada mavjud bo‘lgan “mulk yerlari” xonlar tomonidan yaqin kishilariga berilgan bo‘lib, bunday mulk egasi unga to‘liq egalik qilganligi ta’kidlanadi. Mulk yerlarida yashovchi aholi doimo yer egalari tomonidan eksplotatsiya qilinib, soliqni 1/3 qismi, gohida yarmini soliqqa berishga majbur bo‘lgan. Xonliklar davrida tashlandiq yerlarni o‘zlashtirish orqali ham mulk yerlari ortib borgan. Mulk yerlari mahalliy aholiga ma’lum bir haq evaziga ijraga berilgan, undan keladigan daromad mulk egasini hisoblangan. Mulk yerlari, agar ular egasining yerga bo‘lgan imtiyozlarini isbotlovchi hujjatni taqdim eta olsalar, egalariga tegishli bo‘lib qolgan. Ammo bunday hujjatlar deyarli yo‘q edi.

1873-yilgi loyihami ishlab chiqishda Turkiston general-gubernatori, birinchi navbatda, mustabid hokimiyat manfaatlarini hisobga olgan. Imperatorning maxfiy maslahatchisi Girs ushbu loyihamarga munosabat bildirib, “O‘lkaning sobiq rahbari ma’muriyati, xalqning asrlar davomida shakllangan iqtisodiy hayotiga qaramay, Rossiya qishloq aholisi uchun chiqarilgan umumiyl qoidalarni joriy qilishi noto‘g‘ri”, deb hisoblagan. Shuningdek, Girs o‘zining taftish yakunlarini ifodalagan taqdimnomasida yer-suv munosabatlariga to‘xtalib, “Turkiston o‘lkasidagi har bir qishloq uchastkalarga bo‘linadi, ularning egalari undan odad va meros yoki hujjatlarga ko‘ra to‘la xo‘jayin sifatida foydalanadilar, ana shu yerga egalik shaklidan xalq mamnun ekan, bu shaklni saqlab, uni qonunan tasdiqlash kerak”, [2-63-bet] - deb ta’kidlagan. Uning o‘lkadagi yer tuzilishiga doir takliflarida quyidagi o‘zgarishlar nazarda tutilgan: General-gubernatorlikdagi barcha yerlarni besh toifaga bo‘lish taklif qilingan bular: o‘troq aholi

yerlari, vaqf, shaharlarga qarashli yerlar, ko‘chmanchilar va davlat ixtiyoridagi yerlar. O‘troq aholining yerga bo‘lgan huquqini qonuniy egalik qilish yo‘li bilan aniqlash taklif qilingan. Qishloq yerlari, shuningdek, alohida egallab olgan yerlarning har biri egasiga to‘liq mulk huquqi asosida biriktirilgan. Xayriya muassasalariga tegishli bo‘lgan vaqf yerlari to‘liq mulk huquqi asosida mustahkamlanib, davlat soliqlari va majburiyatlaridan ozod qilinishi belgilangan. Xususiy shaxslarga tegishli bo‘lgan vaqf yerlari ham ularga mulk huquqi asosida, lekin davlat soliqlari va boshqa soliqlarni to‘liq to‘lash bilan belgilanishi ko‘rsatilgan. Yangi vaqf yerlarni general-gubernatorning ruxsati bilan soliqlardan ozod qilinmasdan berish taklif etilgan hamda tegishli hujjatlarni taqdim etmagan vaqf muassasalari yerga egalik huquqidan mahrum qilinishi belgilangan. Vaqflarni nazorat qilish Toshkent, yangi Marg‘ilon va Samarqanddagi maxsus vaqf boshqarmalariga yuklanishi, boshqarma tarkibiga rus amaldori raisligida mutavalli va qozilarni kiritish kerakligi taklifi berilgan.

Ko‘chmanchilarни qishki va yozgi joylari davlat mulki deb belgilanib, jamoat foydalanishi uchun berilgan. Shu bilan birga, qishki oromgohlarda qurilgan binolar ularning shaxsiy mulki bo‘lib qolishi ta’kidlangan. Ko‘chmanchilar o‘rtasidagi yer nizolari xalq sudida ko‘rilishi kerak edi. Turkiston o‘lkasidagi shahar yerlari shahar jamoalariga mulk qilib berilishi ko‘zda tutilgan. Mulk huquqi bo‘yicha daraxtzorlar, o‘rmonlar davlat mulki qilib belgilangan. Ijaraga berilmagan davlat yerlarida mahalliy aholiga chorva boqish va yovvoyi butalardan foydalanishga ruxsat berilgan. Bosh ariqlar, soylar, daryolar va ko‘llardagi suv odad bo‘yicha aholiga foydalanish uchun berilgan. Girs ko‘chmanchilar uchun odatiy bo‘lgan jamoaviy yerdan foydalanishni saqlab qolgan holda, Turkistonda xususiy yer egaligining rivojlanishini ham amalga oshirish kerakligini takidlagan [6-432-bet].

Bu chora-tadbirlar orqali, vaqflarga oqilona munosabatda bo‘lish, irrigatsiyani rivojlantirishni rag‘batlantirish va bo‘sh davlat yerlariga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish butun mahalliy iqtisodiyotning izchil rivojlanishi uchun zamin yaratish nazarda tutilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской Империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.) диссертация кандидата исторических наук. Спб-2016.
2. О‘zMA, 1-Jamg‘arma 12-ro‘yxat, 923-yig‘ma jild.
3. О‘zMA, 1-Jamg‘arma 27-ro‘yxat, 276a-yig‘ma jild.
4. Гирс Ф.К. Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф.Гирса. – СПб.: Б.м., 1883.
5. Савицкий А.П. Поземельный вопрос в Туркестане (В проектах и законе 1867 1886 гг.). – Т.: Издательство СамГУ, 1963.
6. Васильев Д.В. Бремя империи Административная политика России в Центральной Азии Вторая половина XIX в. – М., 2018.

**MILLIY-MADANIY MARKAZLAR TINCHLIK VA BARQARORLIK OMILI****НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕНТРЫ – ФАКТОР МИРА И СТАБИЛЬНОСТИ****NATIONAL CULTURAL CENTERS ARE A FACTOR OF PEACE AND STABILITY*****Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich***

**Annotatsiya.** Maqolada mustaqillik yillarda O‘zbekistonda milliy – madaniy markazlarning tashkil va ularning rivojlanishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, milliy - madaniy markazlar faoliyatiga tegishli ma’lumotlar, manbalar asosida o‘rganilib ilmiy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** *millatlararo hamkorlik, millat va elatlar, milliy – madaniy markazlar, urf – odat, umumiyy uy, tinchlik – totuvlik, imkoniyat.*

**Аннотация.** В статье представлена информация о создании и развитии национально-культурных центров в Узбекистане за годы независимости на основе информации и источников, связанных с деятельностью национально-культурных центров.

**Ключевые слова:** *межнациональное сотрудничество, нации и народы, национально-культурные центры, обычаи, общий дом, мир и согласие, возможность.*

**Abstract.** In the state presented information about the creation and development of national-cultural centers in Uzbekistan for the years of independence on the basis of information and sources related to the activity of national-cultural centers.

**Keywords:** *interethnic cooperation, nations and peoples, national-cultural centers, customs, common home, peace and harmony, opportunity.*

O‘zbekiston ko‘p millatli davat ekanligi millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlamasdan siyoisy va iqtisodiy barqaror davlat barpo etib bo‘lmash edi. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasining Birinci Prezidenti Islom Karimov “ko‘p millatli davlatda etnik guruuhlar o‘rtasidagi munosabatlar milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi omillardan biri ekanligi aniq bo‘la boshladi. Etnik munosabatlar va millatlar o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish sobiq sovet makonida yangi mustaqil milliy davlatlar qaror topayotgan davrda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston aholisning ko‘p millatligi o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi va ma’naviy qayta tiklanishning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo‘r kuch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiatiga qo‘silishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda” [1, 72] - deb ta’kidlaydi.

Tarixiy taraqqiyot davomida O‘rta Osiyo hududlarida yashovchi barcha xalqlar shonli va sinovli yo‘llarni matonat bilan bosib o‘tib kiyungi avlodlarga eng ezgu fazilatlari qatorida millatsevarlik va

bag'rikenglik singari yuksak baholangan an'ana va qadriyatlarni qoldirganlar. Bu o'ziga xos an'ana va qadriyatlarni ko'z qorachig'iday asrab avaylab kelgan xalq O'zbekistonning mustaqillik yillarida unga yanada sayqal berib rivojlantirib davlatning tizimli islohotlarini davom ettirmoqda.

Sovet ittifoqi davrida ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalar qatori O'zbekistonda ham millatlararo munsabatlar sohasidagi islohotlarning jar yoqasiga kelib qolganligi mustaqillikka erishish ostonasida yaqqol namoyon bo'ldi. 1989-yil-may-iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berdiki, u respublika va butun mamlakatda g'oyat darajada katta shov-shuvga sabab bo'ldi hamda respublikada siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi.

Bunday vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov boschchiligidagi siyosiy rahbariyat respublikada yuzaga kegan ijtimoiy-iqtisodiy tanazzuldan chqish choralarini Markazdan so'ramagan holda mustaqil ravishda belgilash yo'lidan bordi. O'zbekiston Respublikasi hukumati va respublikada istiqomat qiluvchi o'zbek va boshqa millat vakillarining faol harakatlari natijasida murakkab vaziyat izga tushdi.

Hukumat davlat suverentetini mustahkamlash va davlatda barcha millatlarning moddiy va ma'naviy tengligiga erishish yo'llarini topdi. Respublikada bo'lib o'tgan milliy nizolar rahbariyatni millatlararo munosabatlarni tartibga solishga undadi.

Natijada 1990-yilning oxirida O'zbekiston Prezidenti kengashida milliy-madaniy markazlar va ularni ishini takomillashtirish to'g'risidagi masala muhokama qilindi.

Mahalliy kengashlar, vazirliklar va idoralarga milliy-madaniy markazlar tomonidan qo'yilayotgan muammolarni hal etishda yordam berish har bir xalqning madaniyatini, o'ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishga millatlararo munosabatlarni takomillashtirishning muhim omili sifatida qarash tavsiya etildi. [2, 672]

Milliy-madaniy markazlar – O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989-yilda tuzilgan. Bu markazlarning faoliyatidagi katta o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi natijasida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy-madaniy markazlar soni yil sayin oshib bormoqda, faoliyatida esa samarodorlik va sifat oshmoqda.

1992-yilda 10 ta milliy madaniy-markazlar faoliyat olib brogan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib 135 taga, 2017-yilda 137 taga [3], 2020-yilda 143 taga [4, 4], 2021-yilda esa 147 tani taskil qilgan.

O'tgan davr davomida tizimli ravishda amalga oshirilgan milliy siyosat natijasida O'zbekistonda o'ziga xos tajriba va jahon andozalariga mos keladigan milliy siyosat namunasi paydo bo'ldi.

Bunday natijalarga erishishning asosida esa milliy siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi huquqiy asoslarning yaratilganligidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat milliy siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq qilib belgilab berilgan.

Shuningdek, 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasini "Respublika Baynalminal madaniyat markazi to'g'risida" gi qarori qabul qilinib, O'zbekiston Millatlararo madaniyat markazi Respublika baynalminal madaniyat markaziga aylantirilishi belgilangan. 2003-yil 8-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Respublika baynalminal madaniyat markazining faoliyati masalalar to'g'risida" gi qarori qabul qilindi [5, 263].

Mustaqillikning dastlabki yillarda millatlararo munosabatlar sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, birgina milliy-madaniy markazlar faoliyatining yildan yilga takomillashib borayotganligi buning isboti hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi tarixiy nutqida bir nechta dolzarb ahamiyatga ega tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, BMTga a’zo 193 ta mamlakatlar tomonidan 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleysi 73-sessiyasi 51-yig‘ilishida A/Res/73/128-raqamli “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyusiyasi [6] qabul qilindi.

2017-yilning 2-12-oktyabr kunlari BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining din va e’tiqod erkinligi masalasi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Ahmad Shahid din va e’tiqod erkinligi borasidagi vaziyatni o‘rganish maqsadida O‘zbekistonda bo‘ldi. Uning fikricha, “O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo totuvlikni ta’minalash bo‘yicha noyob tizim yaratilgan. 130 dan ortiq millat va elat, 16 diniy konfessiya vakillari tinch-totuv yashamoqda. O‘zbekistonda inson huquqlari, fuqarolarning din va e’tiqod erkinligi qonunchilik asosida kafolatlangan” [7]. Millatlararo va dinlararo munosabatlarni rivojlantirishdagi O‘zbekiston tajribasi dunyo mamlakatlari hamda BMT va uning muassasalari tomonidan yuksak e’tirof etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’alariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do’stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrabavaylash barchamizning burchimizdir” [8], deb ta’kidladi.

O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining huquq va manfaatlarini teng ravishda himoya qilish, ularning tili, dini, madaniyatini rivojlantirish masalalariga mamlakatda katta ahamiyat qaratilgan bo‘lib, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Millatlar va dinlar bag‘rikengligining huquqiy asoslari mustahkamlangan. Shu bilan birga respublikada yashovchi barcha millatlarga o‘z milliy madaniyati, an’ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmon qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasida beshinchi ustuvor yo‘nalish sifatida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqr o‘ylangan o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” belgilab berildi.

2017-2021-yillar davomida Harakatlar strategiyasidagi millatlararo totuvlikni ta’minalashga qaratilgan rejalarini amaliyotga tadbiq etish jarayonida bir qancha me’yoriy hujjatlar qabul qilindi va tizimli islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-may “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish, xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan ushbu farmon asosida Respublika baynalminal madaniyat markazi va O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik va madaniy-ma’rifiy alaqalar jamiyatlari

kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tuzildi.

2019-yil 15-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5876 sonli farmoni qabul qilindi. Natijada 2019-2021-yillarda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish bo'yicha yo'l harakati ishlab chiqildi.

Shuningdek, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tuzilmasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar, metodika va ekspertiza bo'limi o'rniiga yuridik shaxs tuzmasdan shtatdagi xodimlar soni 4 nafardan iborat Millatlararo munosabatlar bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi.

Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga 1-ilovasining 5-bobi milliy-madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi bandida O'zbekistonni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishga, uning madaniy, ilmiy, ma'naviy merosi va zamonaviy yutuqlarini saqlash va ommalashtirishga ko'maklashishga intilayotgan milliy-madaniy markazlar o'z faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston har tomonlama yordam ko'rsatadi [9] - deb belgilab qo'yilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan millat va elatlarning tili, madaniyati, urf odatlari va an'analarini o'rganish, shu jumladan badiiy, teatr jamoalari va klublari uchun zarur shart sharoitlarni yaratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining mablag'lari hisobidan davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar taqdim etish, milliy-madaniy markazlar negizida yoshlar bo'linmalarini tashkil etishga ko'maklashish singari vazifalarni Farmonda alohida bandlar asosida ko'rsatilishi bu boradagi ishlarni o'z muddatida sifatli tizimli ravishda amalga oshirilishiga o'zingin ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida 2022-yil holatiga ko'ra 152 ta milliy-madaniy markazlar faoliyat olib borgan. Shundan 14 tasi Respublika milliy-madaniy markazlari hisoblanadi. Bular Respublika ozarbayjon milliy madaniyat markazi, O'zbekiston arman milliy madaniy markazi, O'zbekiston yahudiyligi milliy madaniy markazi, O'zbekiston qozoq milliy madaniy markazi, O'zbekiston qirg'iz milliy madaniy markazi, O'zbekiston koreys madaniy markazlari uyushmasi, "Wiedergeburt" O'zbekiston nemislar madaniy markazi, "Svetlitsa Polska" O'zbekiston polyak madaniyat markazi, O'zbekiston rus madaniy markazi, O'zbekiston turk milliy madaniy markazi, Respublika turkman madaniyat markazi, O'zbekiston uyg'ur madaniy markazi, "Slavutich" Respublika ukrain madaniyat markazi, Respublika tojik milliy madaniy markazlaridir. Har bir Respublika milliy-madaniy markazining hududlarda o'z bo'limlari faoliyat yuritadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlarda mavjud boshqa millat vakillarining milliy-madaniy markazlari ham faoliyat yuritadi. Faoliyat yuritayotgan milliy-madaniy markazlar soni bo'yicha Toshkent viloyati birinchi o'rinda turadi. Toshkent viloyatida 2022-yil holatiga ko'ra 29 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritib keladi. Shuningdek, Toshkent shahrida 23 ta, Buxoro viloyatida 12 ta, Samarqand viloyatida 11 ta, Navoiy viloyatida 10 ta, Farg'on'a viloyatida 9 ta, Surxondaryo viloyatida 8 ta, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida har birida 6 tadan, Qoraqalpogiston Respublikasida 6 ta, Andijon va Sirdaryo viloyatida har birida 5 tadan, Xorazm va Namangan viloyatlarida har birida 4 tadan milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritib kelmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida millatlararo munosabatlar borasidagi ishlar, shuningdek, milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish yildan yilga rivojlantirilib borildi. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da respublikada ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishga bag'ishlangan beshinchchi ustuvor yo'nalishi 74-maqсади sifatida "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash" deb nomlangan bandida quyidagi vazifalar belgilab berildi;

- Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.
- Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash.
- Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.
- Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.
- Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlar faoliyatini takomillashtirish.

Qo'mita yurtimizda millatlararo munosabatlar siyosatini amalga oshirib, 150 dan ortiq milliy-madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati faoliyatini muvofiqlashtirmoqda. Milliy madaniy markazlar diyorimizda istiqomat qilayotgan boshqa millatlar qadriyatlarini qadrlash, urf-odatlarimiz bardavomligini ta'minlash barobarida, yoshlarimizni o'zga elatlар madaniyatini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Milliy madaniy markazlar faoliyati uchun poytaxtimizdagi eng ko'rak binolardan biri ajratib berildi.

Qo'mita O'zbekistonda yashayotgan turli millat farzandlarining uchrashuv joyi, o'ziga xos "Do'stlik saroyi"ga aylangan. Bu yerda muntazam ravishda milliy xalq bayramlari, festivallar, konsertlar, uchrashuvlar, taniqli madaniyat arboblari chiqishlari, seminarlar va anjumanlar o'tkazib turiladi [10].

2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatida 30 iyul – Xalqaro do'stlik kuni munosabati bilan "Do'stlik haftaligi" ni tashkil etish hamda ushbu haftalik doirasida "Do'stlik" xalqaro forum-festivalini o'tkazish tashabbusi ilgari surildi. 2021-yil 10-fevralda "Xalqlar do'stligi kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni kuchga kirdi. Shuningdek, 2021-yil 1 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Shundan boshlab har yili O'zbekistonda insonlar, xalqlar, davlatlar – umuman olganda jamiyatning turli qatlamlari hamda tuzilmalari o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida "Xalqlar do'stligi kuni" ni keng nishonlanib kelmoqda [11, 3]. "Xalqlar do'stligi kuni" doirasida respublikaning barcha hududlarida turli festivallar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etiladi. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tomonidan qator hamkor tashkilotlar bilan birga 30 iyul – 7 avgust kunlari Do'stlik festivali o'tkazildi [12, 2]. 2022-yil 5 avgust kuni "Markaziy Osiyo davlatlarida millatlararo totuvlikni ta'minlash" mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil qilindi. Konferensiya tojik, turkman, qirg'iz va qozoq milliy madaniy markazlar tomonidan tashkillashtirilgan milliy hunarmandchilik asarlari ko'rgazmasi konferensiya ishtirokchilari

diqqatiga havola etildi. Anjumanda Respublikaning nufuzli olimlari, milliy madaniy markaz raislari, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlaridan yuqori martabali shaxslar, yetakchi ekspertlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, fuqarolik jamiyatni institutlari mutaxassislari qatnashdi. O‘zbekistonda xalq diplomatiyasi asosida chet eldag‘i vatandoshlarimiz bilan muntazam munosabatni yo‘lga qo‘yish, milliy madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirish, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona madaniy-ma’rifiy aloqani mustahkamlash, respublikada yashab kelayotgan turli millat va elatlarining tarixi, madaniyati, urf-odatlariga hurmat va e’tibor qaratilayotganligi konferensiyada mutaxassislar tomonidan keng e’tirof etildi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 130 dan ortiq millat va elatlar totuvlikda hayot kechirmoqda. Har bir millatning farovon yashashlari uchun barcha shart sharoitlar yaratib berilgan. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosatini tizimli amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalar qo‘mitasi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu qo‘mita Respublikada faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlarni faoliyatini muvofiqlashtirib boradi va yanada rivojlanishi uchun yaqindan yordam ko‘rsatadi.

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: 1997-yil, 72-bet.
2. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinci qism. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. “Sharq”, 2001-yil, 672-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir // Xalq so‘zi. – Toshkent. 2017-yil, 25-yanvar (№ 18)
4. Toshayev A. Osoyishtalik va tinchlik garovi // Yangi O‘zbekiston. – Toshkent, 2020-yil 8 sentyabr (171-soni) 4-bet.
5. Murtazayeva R. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik T.: “Mumtoz so‘z” 2019-yil, 263-bet.
6. United Nations General Assembly Resolution. “Enlightenment and religious tolerance”. Resolution adopted by the General Assembly on 12 December 2018.
7. Аҳмад Шаҳид: Ҳамкорлигимиз янги босқичда давом этади. <https://uza.uz/uz/posts/a-mad-sha-id-amkorligimiz-yangi-bos-ichda-davom-etadi-12-10-2017> (28.09.2022)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliisy-28-12-2018> (28.12.2020)
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5876 - sonli Farmoni
10. Qurbonov R. O‘zbekiston – millatlararo totuvlik maskani // Yangi O‘zbekiston. 2022-yil 30-iyun, №154.
11. Salimov O. Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik demokratik jamiyatning asosiy tamoyili. Yangi O‘zbekiston. № 153 (409), 2021-yil 30 iyul, 3-bet.
12. Qurbonov R. Millatlar totuv- tinchlik abadiy. Xalq so‘zi. №160, 2021-yil 30 iyul, 2-bet.



**QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI UMUMTA'LIM  
MAKTABLARIDA QONUNBUZARLIK LARNING OLDINI OLISH TADBIRLARI**  
**ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕРОПРИЯТИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ  
КАШКАДАРЬИНСКОЙ И СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ**  
**MEASURES TO PREVENT VIOLATIONS IN SECONDARY SCHOOLS OF  
KASHKADARYA AND SURKHANDARYA REGIONS**

*Sharopova Nigora Akbarovna*

**Annotatsiya.** Mustaqillik yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari umumta'lismaktablarida huquqbuzarliklarning oldini olish tadbirlari davlatning diqqat markazida turgan muhim masalalar qatoridan joy oldi. O'quvchi yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib yetishib chiqishiga xizmat qiladigan tadbir ko'لامи kengaytirildi.

**Kalit so'zlar:** Umumta'lismaktablari, o'quvchilar, huquqbuzarlik, globallashuv, jinoyat, jamoatchilik, ma'naviyat, Ichki Ishlar Bo'limi, profilaktik tadbirlar.

**Аннотация.** В годы независимости мероприятия по профилактике правонарушений в общеобразовательных школах Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей вошли в число важнейших вопросов, находящихся в центре внимания государства. Расширен круг мероприятий, которые служат духовному совершенствованию учащейся молодежи.

**Ключевые слова:** государственные школы, учащиеся, правонарушения, глобализация, преступность, сообщество, духовность, департамент внутренних дел, профилактические меры.

**Abstract.** In the years of independence, measures to prevent violations in the secondary schools of Kashkadarya and Surkhandarya regions were among the important issues in the focus of the state. The scope of the event was expanded to serve the spiritual perfection of the student youth.

**Keywords:** General Education Schools, students, offenses, globalization, crime, public, spirituality, Department of internal affairs, preventive measures.

### Kirish

Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari, asrlar davomida o'z davrining mutafakkir olimlari tomonidan ilgari surilgan qator fikrlar davlatlarning milliy huquq tizimida o'z ifodasini topmoqda. Har bir inson o'zi istiqomat qilayotgan joyda tinch va osoyishta yashashi uchun shart-sharoit yaratish, uning qonuniy huquq va erkinliklarini, xususan, hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini huquqbuzarlarning g'ayriqonuniy tajovuzlaridan himoya qilinishiga erishish ana shunday huquqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini mukammal rivojlantirish uchun ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy, madaniyat manbalarini chuqur o’rganish, qayta tiklash, targ‘ib etish, ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirishga oid islohotlar, huquqbazarliklarning oldini olish masalalari mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab amalga oshirila boshlandi [1].

Jamiyat ma’naviy hayotini shakllantirishda, jinoyatchilikning oldini olishda ta’lim muassasalari asosiy rol o‘ynadi. Umumta’lim maktablari o‘quv mashg‘ulotlarida talabalar ongida Ona Vatanga muhabbat va sadoqat, madaniy meros va tarixga hurmat ruhini shakllantirishga ahamiyat berildi. Ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida O‘zbekiston tarixini, madaniy me’rosni, urf-odatlarni targ‘ib etish maqsadida xilma-xil tadbirlar o‘tkazish an’anaga aylandi.

Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish, ularning har xil diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida 2014-yil davomida Qashqadaryo viloyati IIB xodimlari bilan hamkorlikda umumta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida 2920 marotaba davra suhbatlari, uchrashuvlar va jonli muloqotlar o‘tkazildi [2].

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

2015-yilning 9 oy davomida viloyat xalq ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi ta’lim muassasalari o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlari tahlil qilinganda, bu davrda 15 ta jinoyat sodir etilganligi aniqlangan.

Maktab o‘quvchilari Chiroqchi tumanida 4 ta, Qarshi, Dehqonobod va Mirishkor tumanlarida 2 tadan, Qarshi shahri, Shaxrisabz, Kasbi, G‘uzor va Koson tumanlarida 1 tadan jinoyatlarni sodir etgan [3]. Jinoyatlarning 11 tasi 8-sinf va 4 tasi 9-sinf o‘quvchilari tomonidan sodir etilgan. Shuningdek, 15 ta jinoyatdan 11 tasini o‘zgalar mulkini o‘g‘irlash, ikkitasini og‘ir tan jarohati yetkazish, ikkitasini nomusga tegish jinoyatlari tashkil etgan.

2015-yilning 9-oyi davomida umumta’lim maktablarining 660 nafar o‘quvchilari huquqbazarlik sodir etganligi uchun Ichki Ishlar Boshqarmasining bo‘limlariga keltirilgan. Bu ko‘rsatkich 2014-yilning 9 oyiga nisbatan 109 nafarga ko‘paygan. Shuningdek, jinoyatlar soni 2015-yilning 9 oyida 2014-yilning 9 oyiga nisbatan Qarshi tumanida 14 taga, Yakkabog‘ tumanida 4 taga, Shaxrisabz tumanida 17 taga, Koson tumanida 14 taga, Kasbi tumanida 32 taga, Mirishkor tumanida 15 taga, G‘uzor tumanida 20 taga, Muborak tumanida 3 taga, Kitob tumanida 3 taga va Chiroqchi tumanida 27 taga oshgan [4].

2014-yilning 9 oyida 68 nafar maktab o‘quvchilari Voyaga Yetmaganlarga Ijtimoiy Himoya va Yordam Ko‘rsatish markazlariga joylashtirilgan bo‘lsa, 2015-yilning 9 oyida qarovsiz va nazoratsiz qolganligi uchun umumta’lim maktablarining 63 nafar o‘quvchilari ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga joylashtirilgan [5]. Bunday tabdirlar o‘quvchi yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qildi. Bundan tashqari 2015-yilning 9 oyida 3 nafar voyaga yetmagan qizlar tomonidan tug‘ruq holatlari qayd etilgan. Erta tug‘ruq holatlari Qarshi tumanidagi 10-sonli va 61-sonli maktab o‘quvchilari hamda Nishon tumanidagi 20-sonli maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilganligi aniqlangan [6].

Keyingi yillarda ham maktab o‘quvchilar o‘rtasida huquqbazarliklar holatlari qayd etib borildi. Masalan, 2017-yilning yanvar-fevral oyi davomida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha jami 187 nafar o‘quvchilar huquqbazarliklarni oldini olish xizmat xonalariga keltirilgan, 20 nafar o‘quvchilar ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlariga joylashtirilgan.

Jumladan, huquqbazarliklarni oldini olish xizmat xonalariga keltirilgan o‘quvchilar soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Chiroqchi tumanida 27 nafarga, Mirishkor tumanida 10 nafarga, Qarshi shahrida 6 nafarga ortdi. 2017-yilning yanvar-fevral oyi davomida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan

ichki ishlar bo‘limlari profilaktik nazoratiga olingan o‘quvchilar soni 18 taga kamaygan bo‘lsa, Shahrizabz tumanida 6 taga, Qarshi, Koson va Nishon tumanlarida 5 taga, G‘uzor tumanida 2 taga ko‘payganligi aniqlangan [7].

Tahlillar o‘quvchilar tomonidan jinoyat sodir etish holatlarining aksariyati darslardan keyingi yoki kechki paytlarga to‘g‘ri kelayotganini va ular asosan notinch oilalar farzandlari tomonidan sodir etilayotganligini ko‘rsatdi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Maktab o‘quvchilarini tomonidan jinoyat sodir etilishiga asosan ota yoki onaning xorijga mehnat muhojirligiga chiqib ketishi va farzandlarining nazoratsiz qolishi, oilaviy kelishmovchilik va ajralishlar, ayrim ota-onalarning ichkilikka ruju qo‘yanligi tufayli farzandlar tarbiyasiga e’tiborsizlik, maktab o‘quvchilarining katta yoshdagi huquqbuzarlar ta’siri doirasiga tushib qolishi, ba’zi maktablarda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan hamkorligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, profilaktik nazoratga olingan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanishda ayrim hollarda mas’ullarning to‘liq shug‘ullanmasligi kabilar sabab bo‘ldi.

### Tahlil va natijalar

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun ijrosi asosida fuqarolardan tushgan murojaatlarni o‘rganish, ularda ko‘tarilgan masalalarni adolatli hal etish bo‘yicha 2016-yil davomida viloyat xalq ta’limi boshqarmasiga jami 816 ta (jismoniy shaxslardan jami 799 ta, yuridik shaxslardan 17 ta) ariza va shikoyatlar kelib tushgan. Shulardan 340 tasi xalq ta’limi vazirligiga, 122 tasi viloyat hokimligiga, 354 tasi bevosita xalq ta’limi boshqarmasiga kelgan ariza va shikoyatlardir.

Barcha ariza va shikoyatlar tegishli mutasaddilar tomonidan o‘rganilgan va mualliflarga javob berilgan. Murojaatlar tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari bo‘yicha tahlil qilinganda, ularning 150 tasi Chiroqchi tumaniga, 140 tasi Dehqonobod tumaniga, 78 tasi Qarshi shahriga to‘g‘ri keldi [8].

Iqtidorli yoshlar turli ko‘rik tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirot etdi. Masalan, 2018-yil oktabrda Termizda “Jaholatga qarshi ma’rifat” ijodiy tanlovida Termiz shahridagi 11-sonli umumta’lim maktabi o‘quvchisi Umida Abdurazoqova, Jarqo‘rg‘on tumanining 17-sonli maktabi o‘quvchisi Sarvinoz Boltayeva g‘olib bo‘ldi [9].

Viloyatlardagi maktab o‘quvchilarining o‘zlashtirishi sust bo‘lgan hamda profilaktik nazoratda turuvchi qatlamlari “Muvaffaqiyat maktabi” treninglari, “Yosh ixtirochilar”, “Ingliz tili”, “Yosh qalamkashlar”, “O‘quvchi yoshlar teatri”, “Yosh kitobxonlar”, “Zakovat” intelektual o‘yini, “Munozara” klubni, “Qizlarjon” barkamol qizlar klubni, “Hukumat maktabi” kabi to‘garak va klublarga qamrab olindi [10].

Shuningdek, yoshlar yetakchilarining jamoalar va jamoatchilik o‘rtasida tadbirlarini yetarli darajada amalga oshirish, ta’lim muassasalari psixologlari bilan hamkorlik faoliyatini yaxshi yo‘lga qo‘yish, maktabda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” konseptsiyasining faoliyatini faollashtirish maqsadida Denov, Uzun, Boysun tuman maktab o‘quvchilari jinoiy holatlarga aralashib qolmasliklarining oldini olishga qaratilgan davra suhbatlari va seminar treninglar o‘tkazildi.

Shuningdek, barcha umumta’lim maktablarda 17 soatlik dastur asosida “Inson xavfsizligi asoslari” o‘quv mashg‘ulotlari, o‘qituvchi va xodimlar bilan 15 soatlik mashg‘ulotlar, fuqaro muhofazasi tuzilmalari bilan 20 soatlik, yangi tayinlangan rahbar xodimlar bilan 40 soatlik dastur bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 19-iyuldagagi 208-sonli qarori asosida umumta'lim maktablarida tashkil etilgan "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klubi musobaqalarining Respublika bosqichida 2018-yilning may oyida Denov tumanidagi 81-sonli maktab jamoasi "Eng hamjihat jamoa" nominatsiyasini qo'fga kiritdi. Barcha ta'lif muassasalarida 4-apreldan 4-maygacha "Fuqaro muhofazasi oyligi" o'tkazildi va yakunlari bo'yicha fotoalbomlar tayyorlandi [11].

### Xulosa va takliflar

Mustaqillik yillarda umumta'lif maktablari o'quchilari o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish maqsadida ta'lif-tarbiya jarayonlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini olib borish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirilib, ma'naviyat masalasiga insonni ruhan poklanish, ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan kuch sifatida qaraldi.

Maktab muassasalari bunda asosiy vazifani bajardilar. Bundan tashqari yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning, har xil diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida viloyat Ichki Ishlar Bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, uchrashuvlar va jonli muloqotlar o'tkazildi.

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. Tog'aymurodov, J., & Toshtemirova, G. (2024, October). Jahon siyosatida globallashuvning o'rni. In conference on the role and importance of science in the modern world (Vol. 1, No. 9, pp. 9-11).
2. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi materiallari. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tizimidagi ta'lim muassasalarida 2015-yilning 9-oyi mobaynida sodir etilgan jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlari haqida ma'lumotnoma. – B. 9-15.
3. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi (QVHA), 829-fond, 27-ro'yxat, 44-ish, 70-79-varaqlar.
4. O'zbekiston Milliy Arxiv (O'zMA), M -26 - fond, 1 – ro'yxat, 106 -ish, 10 -22 - varaqlar.
5. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi materiallari. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tizimidagi ta'lim muassasalarida 2015-yilning 9-oyi mobaynida sodir etilgan jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlari haqida ma'lumotnoma. – B. 45-47.
6. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi (QVHA), 846-fond, 1 – ro'yxat, 29 -ish. 4 - varaq.
7. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. Boshqarmaning 2017-yilgi hisoboti. -B.1-5.
8. Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. Boshqarmaning 2016-yilgi hisoboti. B.1-15.
9. Umidullayeva F. Ma'rifatli o'quvchi // Surxon tongi, 2018-yil 19 oktyabr. - №80-81.
10. Surxondaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bo'limi tomonidan 2018-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar. -B.5-6.
11. Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi. Boshqarmaning 2018-yilgi hisoboti. - B.3-7.



**O'ZBEKISTONDA AEROPORTLAR FAOLIYATI TARIXI (1960-1990)**  
**ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АЭРОПОРТОВ УЗБЕКИСТАНА (1960-1990)**  
**HISTORY OF AIRPORT ACTIVITY IN UZBEKISTAN (1960-1990)**

*To'xtabayev A'zamjon*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning 60-90-yillarda O'zbekiston SSRda aeroportlar faoliyati tarixi yoritilgan. Unda aeroportlarning zamonaviy infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yoritilgan. Aeroportlarda yo'lovchilarga yaratilgan sharoitlar, shuningdek, aeroportlarda foydalanilgan transportlar bo'yicha ma'lumotlar va statistik raqamlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Havo transporti, aeroport, aerovokzal, samolyot, yo'lovchi, zamonaviylashtirish.*

**To'xtabayev A.,**  
Namangan davlat universiteti,  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD), dotsent  
[toxtabayev09051981@gmail.com](mailto:toxtabayev09051981@gmail.com)

**Аннотация.** В данной статье освещена история аэропортов Узбекской ССР в 60-90-е годы 20 века. Описана работа, проводимая по совершенствованию современной инфраструктуры аэропортов. Условия, созданные для пассажиров в аэропортах, а также информационные и статистические данные об используемых в аэропортах транспортных средствах.

**Ключевые слова:** *Воздушный транспорт, аэропорт, аэропорт, самолет, пассажирская модернизация.*

**Abstract.** This article covers the history of airports in the Uzbek SSR in the 60s-90s of the 20th century. It describes the work carried out to improve the modern infrastructure of airports. Conditions created for passengers at airports, as well as information and statistical figures on the vehicles used at airports.

**Keywords:** *Air transport, airport, airport, airplane, passenger modernization.*

### Kirish

Ma'lumki, aeroportlar uchish-qo'nish yo'laklari, taksi yo'llari, perronlar va chiziqlar kiradi, ular havo kemalarining qo'nishi va uchishi, manevr qilish va yerdagi havo kemalarini joylashtirish, yo'lovchilar va yuklarni yuklash va tushirish uchun havo kemalarini to'xtash uchun ishlatalidi.

Aeroportlarning faoliyati eng yuqori standartlariga rioya qilgan holda uzlusiz ishlashini ta'minlaydigan kundalik faoliyatni o'z ichiga oladi. O'zbekiston SSRda ham 1920-1950-yillar oraliq'ida aeroportlarda yo'lovchilar uchun amalga oshirilgan qulayliklar, yaratilgan shart-sharoitlar tufayli qatnovlar soni va foydalanuvchilar soni o'sib borganini ko'rish mumkin.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ikkinci jahon urushdan so'ng O'zbekiston SSRda ham aeroportlarga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston fuqaro havo floti boshqarmasining buyrug'iga asosan, tog' havo yo'llarida joylashgan 20 ta aeroport va aerodromlar ro'yxati tasdiqlangan. Aeroportlar noqulay ob-havo sharoiti, tungi samolyot reyslarini qabul qilish yoki jo'natish uchun maxsus qayta jihozlandi.

Ayniqsa, Toshkent aeroportiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, O'zbekiston poytaxtini Toshkent – Moskva, Qrim va Kavkaz kurort shaharlari, oblast markazlari, Sovet Ittifoqining sanoatlashgan hududlari bilan bog'lagan havo yo'llarida yo'lovchilarni tashish sifatini jiddiy yaxshilagan[1].

Shuningdek, samolyotlarning texnik nosozligi kuzatilganda yoki ob-havo sharoitida qo'nish uchun zaxira aeroportlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Toshkent-Urganch-Nukus havo qatnovi uchun Chorjo'y aeroporti zaxira aeroporti vazifasini bajargan.

1948-yilda Toshkentdan Moskva, Leningrad, Irkutiya, Yoqtiston, Novosibirsk, Olma-ota va Frunzega muntazam havo yo'llari ochilgan[5]. 1949-yil 14-martdagি Farg'ona oblasti Ijroiya qo'mitasining qaroriga muvofiq, aeroportda yo'lovchilar kutish zallari kengaytirilib, radio aloqalarni qabul qilish va telefon aloqalari bilan jihozlandi. 1950-yildan Toshkent-Namangan oralig'ida Li-2 samolyoti qatnay boshlagan.

XX asrning 50-yillari havo transportida texnik inqilob sodir bo'lib, uning ko'rsatkichi turboreaktiv va turboprop samolyotlarning keng joriy etilishi bilan belgilangan. Mazkur jarayon aeroportlar sohasini takomillashtirish, ularni eng zamonaviy xizmat ko'rsatish texnikasi bilan jihozlash bilan birga amalga oshirilgan.

Tranzitning rivojlanishi aeroportlarda yo'lovchilar uchun bron qilish tizimini har tomonlama takomillashtirishni talab qildi. Shu maqsadda respublika aeroportlarida idoralar va aeroportlar, samolyotlar va aeroportlar o'rtaida o'rinnarni bron qilish, bo'sh o'rinnlar mavjudligi to'g'risida, bandlovlarni bekor qilish to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa xabarlar uchun aniq ishlaydigan tijorat aloqasi yaratildi. Toshkentda bron qilish ishlari kechayu-kunduz olib borildi.

Respublika hukumati ko'magida bir qator shaharlarda yangi aerovokzallar [6] qurildi. Aerovokzal – aeroportlarda havo transporti yo'lovchilariga xizmat ko'rsatiladigan va yuk operatsiyalari o'tkaziladigan bino yoki binolar majmui. Aerovokzal tarkibiga vokzal oldi-maydoni (shahar transporti to'xtab turish-maydoni bilan birga), samolyotlar turadigan perron, perron-texnika xizmati ko'rsatish binolari, samolyot bortida yo'lovchilarga beriladigan oziq-ovqat tayyorlash sexi, mehmonxonalar, komanda-dispatcherlik punktini o'z ichiga olgan asosiy inshootlar majmui kiradi.

Andijon, Farg'ona, Nukus aeroportlari Il-18 samolyotlarini qabul qila boshladi. Samarqand aeroportida uchish-qo'nish yo'lagi qurib bitkazildi, Toshkentda uchish-qo'nish yo'lagi uzaytirildi. An-24 va Yak-40 samolyotlari mahalliy havo liniyalarida foydalanildi[2]. Bu markaziy va mahalliy liniyalarda samolyotlar harakatini tezlashtirish, shuningdek, yo'lovchilar, pochta va yuklarni tashishni ko'paytirish imkonini berdi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Yo'lovchilar aviatashuvlarining jadal sur'atda o'sishi respublika yo'lovchi transportida tarkibiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatib, umumiylashishda havo transporti ulushining oshishi bilan tavsiflanadi.

### Tahlil va natijalar

1956-yil Toshkent aeroportiga radiolokatsiya va aloqa xizmatini tubdan qayta jihozlash boshlanib, Moskvadagi "Vnukovo" aeroportidan andozasi asosida qo'nish tizimlari shakllandi. Aeroportlarda "eshityapman-boshqaryapman" o'rniда "ko'ryapman-eshityapman-boshqaryapman" tarzidagi ish jarayoniga o'tildi. Bu hol Toshkent aeroportini zamonaviy darajaga ko'tardi.

Samarqand oblast Ijroiya komitetining 1958-yil 1-oktabrdagi "Samarqand aeroportida yo'lovchilarga madaniy xizmat ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 150 kishiga "Yozgi kutish zali" barpo etildi, aviachiptalar sotishga mo'ljallangan ikki ofis, aeroport hududida sabzavot va mevalarni sotish uchun do'kon, alkogolsiz ichimliklar, muzqaymoq va qandolat mahsulotlari sotadigan kioskalar, kitob, jurnal, gazeta va shaharning tarixiy obidalari aks etgan manzarali rasmlar sotuvi tashkil etilgan.

XX asr 1950-yillarning oxirlari Buxoro aeroporti garaj, nazorat dispatcherlik punkti, moddiy texnik ta'minot bo'limi va radiobyurodan iborat edi. Aeroportning shibbalangan uchish yo'llaridan ikki o'rinni Po-2 va uch o'rinni YAK-12 tayyoralari uchib qo'nish mumkin edi. 1960-yil Buxoroda aviaeskadriliyasi tashkil etilgan.

Qarshi aeroporti 1960-yilda shaharning janubiy-g'arbiy qismida Uchquduq, Zarafshon, Tomdi va Toshkent shaharlari o'rtaida havo yo'llarining chorrahasi tashkil etilgan edi. Uning kichik binosi kutish zali, bufet, nazorat dispatcherlik punkti vazifalarini bajargan. Shu bilan birga ushbu binoda Samarqand birlashgan aviaotryadi uchuvchilarining dam olish maskani joylashgan edi.

XX asr 1960-yillar boshlariga kelib Andijon aeroporti Farg‘ona vodiysidagi yirik havo transporti markaziga aylandi, u yerda yangi terminal qurildi, keng va shinam kutish joylari, yo‘lovchilar uchun restoran xizmati yaratildi. Aeroport hududi obodonlashib, manzarali va mevali daraxtlar ekilib, eski ombor o‘rnida yangi avtogaraj va ta’mirlash ustaxonalari qurildi. Uchuvchilar uchun mehmonxona va Sharq taomlari oshxonasi ishga tushirildi[4]. Bu Andijon oblastiga kelgan yo‘lovchi va sayyoohlар uchun qo‘srimcha imkoniyat edi.

XX asr 1960-yillarda Qo‘qon birlashgan aviabirlashmaga qarashli eskadriliya Namanganga ko‘chirilib, P. Kovalenko rahbarligidagi maxsus Namangan aviaeskadriliyasiga aylandi. Aviaeskadriliyani Namanganga ko‘chib o‘tishi chorvachilik bilan bog‘liq bo‘lib, tog‘ yaylovlari paxta ekiladigan rayonlar chorvalarini An-2 havo transporti orqali jo‘natish edi.

Mazkur laynerlar Namanganga Sergeli, Nukus va Buxoro aeroportlaridan keltirilib, An-2 samolyotlaridan iborat maxsus qism tashkil topdi. Termiz birlashgan aviaotryadi 1962-yili tashkil etildi[5]. Natijada, mahalliy qatnovlar soni ko‘paytirildi.

Fuqaro Havo floti o‘zbek boshqarmasining 1963-yil 21-oktabrdagi buyrug‘iga asosan, Farg‘ona aeroportining yangi aerovokzali ishga tushirilgan. 1964-yilda Buxoroda yangi aeroport qurildi. Natijada, Li-2 va Il-14 samolyotlari qatnay boshlagan. 1965-yilda Farg‘ona aeroporti qayta ta’mirlanib, xalqaro yo‘llarda Il-18, mahalliy yo‘llarida esa An-24 va Yak-40 samolyotlari ucha boshladi[7].

1966–1970-yillarda mamlakatning Ittifoq havo yo‘llarida 35–40 va mahalliy qatnovlar uchun 200 ta aeroport qurish, aeroportlarni avtomatik hamda yarim avtomatik yondashuvni nazorat qilish tizimlari va transport nazorati uchun zamonaviy radio uskunalar bilan jihozlash rejalashtirilgan edi. Natijada, O‘zbekistonda 11 ta havo terminali va bitta bagaj pavilyoni qurilib, ularga xizmat ko‘rsatish uchun ko‘plab texnik qulayliklar yaratildi.

Jumladan, Nukus va Samarqandda 200 nafar yo‘lovchini o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan ikkitan aerovokzal, To‘rtko‘l, Uchquduq, Termiz shaharlarida 50 nafar yo‘lovchini tashish, 100 nafar yo‘lovchi va 6 aerovokzal imkoniyatiga ega bo‘lgan Urganch aerotizimi foydalanishga topshirildi. Urganchda Il-18 tipidagi samolyotlarni asfalt-betonli uchish-qo‘nish yo‘laklari, Sergelida An-2, Termizda An-24, Qo‘qon, Namangan, Mo‘ynoq kabi shaharlardagi aeroportlarda An-24 samolyotlari uchun sun’iy qoplamlali uchish-qo‘nish yo‘laklari qurilgan[2].

Natijada, havo transportini rivojlantirish bilan bir qatorda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati ham yaxshilangan. Aviachiptalarning soddalashtirilgan shakllari joriy etilib, yo‘lovchini ro‘yxatga olish vaqtini sezilarli darajada qisqarishi va kassalarda navbatlarning pasayishiga imkon yaratildi.

Toshkent, Samarqand, Urganch kabi aeroportlarda mahalliy havo yo‘llarida uchayotgan yo‘lovchilarni soddalashtirilgan ro‘yxatga olish usuli joriy etildi. Bunda yo‘lovchilar aeroportga 1 soat emas, 15–20 daqiqa oldin kelish imkonini bergen.

1968-yilda Buxoro aeroporti zamonaviy uchish-qo‘nishni boshqarish uskunalarini bilan jihozlandi. Natijada, aeroportga zamonaviy samolyotlar qo‘na boshladi.

1969-yil 1-oktabrdan 1970-yil 31-maygacha bo‘lgan muddatda oliy o‘quv yurtlarining kunduzgi bo‘lim talabalariga, maxsus o‘ta va proftexnika bilim yurtlari o‘quvchilariga, 12 yoshdan katta bo‘lgan maktab o‘quvchilariga 50 foiz miqdorida, SSSR Mudofaa ministrligi, SSSR Ministrler Soveti qoshidagi Davlat xavfsizlik komiteti hamda SSSR Ichki ishlar ministrligining temir yo‘llarda yurish uchun berilgan hujjatlarni ko‘rsatgan shaxslarga 20 va 60 foiz miqdorida imtiyoz yaratib beradi. Tarifda ko‘rsatilgan summaning yuqoridagi imtiyozlari Tu-114, Tu-134, Tu-104, Tu-124, Il-62, Il-18, An-10, An-24 reys samolyotlarida uchadiganlar uchun belgilandi[3].

## Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yuqori tezlik va yuqori yuk hajmi bo‘lgan gaz turbinali dvigatellar bilan jihozlangan samolyotlarning havo yo‘llariga kirib kelishi, aeroportlarni rekonstrutsiya qilish, transport boshqaruvi va nazorat qilishning yangi texnik vositalari bilan jihozlanish tufayli Toshkent aeroporti Xalqaro Fuqaro Havo transporti tashkilotining II toifa sertifikatiga sazovar bo‘ldi. Bu maqomga sobiq SSSRda faqat “Sheremetyevo” aeroporti ega bo‘lgan.

1962-yilda Toshkent aeroporti hududidagi navigatsiya yangi radionavigatsiya tizimi bilan jihozlandi. Bu esa, samolyotlarni tunda ham qabul qilish imkonini yaratildi.

Ittifoq va respublika ahamiyatiga ega havo yo'llari tarmog'i kengayib, Toshkent aeroporti xalqaro havo qatnovlarining yirik markaziga aylangan. Respublika fuqarolik havo flotini eng yangi texnika bilan jihozlash yurtimizda yo'lovchi tashishning o'sish sur'atlarini oshirish imkonini bergen.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акимов П. Ташкент // Гражданская авиация. – 1962. – №12. – С. 6.
2. Назруллаев Ф. Н. История развития гражданской авиации в Узбекистане и ее вклад в подъем народного хозяйства: Дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1984. – С. 130.
3. Совет Ўзбекистони. 11 октябрь, 1969 йил.
4. Сорокин Е. Ферганская долина // Гражданская авиация. – 1961. – №7. – С. 11.
5. O'zbekiston aviasiyasi 70 yoshda. – Toshkent, 1994. – В. 31.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediya. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. –B.545
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediya. 11-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 499.
8. Азамжон Тухтабаев. История воздушного транспорта в Узбекистане (1950–1980-е гг.). Общество и инновации: Том 3 № 3/S (2022). DOI <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp74-77>
9. To'xtabayev, A'zamjon Sharipxo'jayevich. SSSR havo transporti tarixi. Xorazm Ma'mun akademiyasi tarixi. 3 (101), 118-121.



## FARG'ONA VODIYSI ETNIK JAMOALARINING XO'JALIK AN'ANALARI VA ETNOINTEGRATSION JARAYON

## ХОЗЯЙСТВЕННЫЕ ТРАДИЦИИ ЭТНИЧЕСКИХ ОБЩИН ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ЭТНОИНТЕГРАЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС

## ECONOMIC TRADITIONS AND ETHNOINTEGRATION PROCESS OF THE ETHNIC COMMUNITIES OF THE FERGANA VALLEY

**Vaxobov Botirali Mixailovich**

**Annotatsiya.** Maqolada Farg'ona vodiysidagi etnik jamoalarining xo'jalik an'analari va xo'jalik sohasidagi o'zgarishlar o'r ganilgan. Etnik jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan omillar tadqiq qilingan. Vodiydagи etnografik guruhlarning asosiy mashg'uloti hamda yangi o'zlashtirgan xo'jaliklari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** etnomuloqot hududi, xo'jalik aloqalari, etnointegration jarayonlar, etnografik guruhlar, xo'jalik madaniy aloqalar, agrotexnik usullar, o'troqlashuv jarayoni

**Аннотация.** В статье исследуются хозяйственные традиции этнических общин Ферганской долины и изменения в хозяйственной сфере. Исследованы факторы, влияющие на этнические процессы. Проанализированы основные занятия этнографических групп в долине, а также недавно освоенные хозяйства.

**Ключевые слова:** этнокоммуникационное пространство, хозяйственные связи, этноинтеграционные процессы, этнографические группы, хозяйственные культурные связи, агротехнические методы, процесс расселения.

**Abstract.** The article examines the economic traditions of the ethnic communities of the Ferghana Valley and changes in the economic sphere. The factors influencing ethnic processes are investigated. The main occupations of ethnographic groups in the valley, as well as recently developed farms, are analyzed.

**Keywords:** these are communication space, economic ties, ethnointegration processes, ethnographic groups, economic cultural ties, agrotechnical methods, the process of settlement

### Kirish

Farg'ona vodiysi qadimdan etnomuloqot hududi bo'lganligi bois, ko'chmanchi chorvador qabilalar bilan turg'un dehqon va hunarmand aholi o'rtasida o'zaro etnik munosabatlar, xususan, xo'jalik aloqalari qizg'in kechgan.

XIX asr boshlariga kelib, azaliy chorvador aholining ko'proq o'troqlikka o'tishi va mahalliy turg'un aholi bilan har jihatdan qo'shilib ketish jarayoni yanada jadallahshgan. Endilikda nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham yaxlit bir hududga aylangan vodiyning aholisi hayotida dehqonchilik bilan

chorvachilik xo‘jaligi o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanib borishi va bir-biriga bog‘liqligining ortib borishi ushbu davrda yanada muhim ahamiyat kasb etgan [16, 69-b.].

Etnointegratsion jarayonlar ko‘p qirrali bo‘lib, u etnoslar hayotiy faoliyatining barcha jahbalarida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, xalqlarning xo‘jalik faoliyati sohasida ham, ayniqsa, xo‘jaligining yo‘nalishi turlicha bo‘lgan etnoslar orasida bunday etnik aloqalar va bir-biriga ta’sir o‘tkazish yanada yorqin aks etadi.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O‘troq aholi bilan yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi aholi o‘rtasida xo‘jalik aloqalari yuz berar ekan, mazkur jarayonda dehqon hamda chorvador etnik guruhlar o‘z xo‘jaliklarining ixtisoslashuvlaridan kelib chiqib, “ta’sir ko‘rsatuvchi etnos” rolini bajarganlar.

Dehqonchilik xo‘jaligini yuritish bo‘yicha azaliy tajribaga ega bo‘lgan o‘troq aholi qipchoq, turk, yuz, qurama kabi yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi o‘tmishda chorvachilik bilan shug‘ullanib kelgan etnografik guruhlarga dehqonchilik sohasida o‘z ta’sirlarini doimo o‘tkazib kelgan, ushbu holat dehqonchilik xo‘jaligini yuritishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘lgan [1, 36-38 b.].

XIX – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi hududida dehqonchilik qilayotgan barcha etnik jamoalarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va parvarishlash usuli deyarli bir xil bo‘lgan. Chorvador xalqlar butun tarixiy taraqqiyoti davomida o‘troq dehqon aholi tomonidan kashf qilingan barcha agrotexnikaga oid bilim va tajribalarni xo‘jalik madaniy aloqalar jarayonida o‘zlashtirib borgan [7].

Yarim o‘troq (yarim ko‘chmanchi) aholi asosan, bahorikor ekinlar – bug‘doy, arpa va tariq yetishtirib, asosan, ekstensiv dehqonchilik tizimini qo‘llar edi. Buning uchun ular har yili hosil yig‘ib olingach, boshqa yangi yerlarni o‘zlashtirish usulidan foydalanganlar [2, 135-b.].

Biroq, keyinchalik dehqonchilik qilish mumkin bo‘lgan bo‘s sh yerlarning kamayib borishi natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ular ham o‘troq o‘zbek, tojik dehqonlari ta’sirida yerning unumdorligini oshirish va uni o‘g‘it bilan oziqlantirishga kirishgan [4].

Yarim o‘troq aholi ko‘proq dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lar ekanlar, ekinlarni parvarishlash, hosilni yig‘ib olish, saqlash borasida asrlar davomida mahalliy dehqon aholi tomonidan qo‘llanib kelinayotgan usullarni ham o‘zlashtira borganlar [6].

Ma’lumki, sug‘orma dehqonchilik qilinadigan-maydonlardagi ekinlar lalmi yerlardagiga nisbatan ko‘proq parvarish talab qiladi. Etnografik guruhlarning dehqonchilik hududlarida azaliy dehqon aholi bilan yonma-yon yoki aralash holda yashab, tabiiyki, ekin-maydonlariga jo‘yak olish, pol ko‘tarish, suv tarash kabi o‘zları uchun odatiy bo‘lmagan agrotexnik usullarni tez o‘zlashtirganlar [1, B. 45; 12.].

O‘zaro xo‘jalik aloqalari natijasida Farg‘ona vodiysi va unga tutash hududlarda yashayotgan chorvador xalqlar o‘troq aholi dehqonlaridan ko‘plab ekin turlarini ekish va parvarishlash sirlarini o‘rganib olganlar. Ushbu jarayon qadimgi davrdan boshlangan bo‘lib, ko‘rib o‘tilayotgan davrda ham davom etgan edi [11].

Farg‘ona vodiysi hududidagi aholisining asosiy xo‘jalik tarmog‘ini dehqonchilik tashkil etishi bilan birga yarim o‘troq etnik jamoalar xo‘jaligi o‘rganilayotgan davrda ham chorvachilikdan dehqonchilik sari taraqqiy etishda davom etgan. Albatta, bu ularning o‘troqlashuv jarayoni bilan bog‘liq holda kechgan. Vodiy hududidagi yarim o‘troq aholining dehqonchilik xo‘jaligida tobora yangidan-yangi qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtirila borgan [13; 5; 1, 36-42 b.].

XIX asr boshlarida qipchoqlar ko‘proq lalmikor yerlarda dehqonchilik qilib, asosan, tariq, bug‘doy, arpa kabi ekinlarni yetishtirgan bo‘lsalar, ushbu asrning o‘rtalari, ayniqsa, oxirlariga kelib, ular o‘troq dehqonlar yetishtiradigan ko‘plab ekinlarni parvarishlashni o‘zlashtirib olganlar.

Umuman olganda, barcha yarim ko'chmanchi aholining sug'orib dehqonchilik qiladigan yerlari XIX asr oxiri – XX asrning boshlariga kelib, sezilarli darajada kengaygan [8]. Dehqonchilik bilan shug'ullanayotgan qipchoq va qirg'izlarning soni ham birmuncha oshgan bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra, ular asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan [15, C.5].

### Tadqiqot metodologiyasi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi dehqonchiliga ko'plab yangi ekin turlari kirib kelgan bo'lsa-da, mahalliy xalqlar o'zlarining an'anaviy dehqonchiligidagi azaliv xo'jalik yuritishning asosiy jihatlarini saqlab qolgan. Boshqacha ifodalaganda, bunday an'anaviylik o'z o'mida vodiyya xos turmush tarzi va madaniyatidagi ko'plab etnografik belgilarning saqlanib turishi uchun imkoniyat yaratgan edi [15, 30, 54 b.].

### Tahlil va natijalar

Farg'ona vodiysining turli tabiiy-geografik zonalarida dehqonchilik qurollarining u yoki bu shakldagisining tarqalishi, avvalo, ushbu joyning geografik joylashgan o'rni, tuprog'i, iqlimi va shu kabi tabiiy shart sharoitlar, qolaversa, mahalliy aholining iqtisodiy hamda madaniy an'analari bilan bog'liq tarzda yuz bergen[3, 121-b].

Farg'ona vodiysining tabiiy sharoitlari faqat vertikal ko'chishga asoslangan ekstensiv chorvachilik mahsulotlarini rivojlantirish imkonini berar edi. Chorvadorlar yozda Farg'oni o'rab turgan tog' vodiylariga, qishda esa tekislikka ko'chardilar. XIX asr oxirida yaylov chorvachiligi bilan asosan Farg'ona yarim ko'chmanchi aholisining boy vakillari shug'ullangan. Kambag'allarning chorvachiligi, agar u mavjud bo'lsa, chorva mollari uzoq vaqt yashab kelgan aholi kabi, ko'pincha qishloq atrofida boqib kelgan [7].

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, Farg'ona barcha yarim ko'chmanchilari orasida podaning tarkibi nisbatan bir xil bo'lib, asosan o'troq aholi bilan munosabatlarga bog'liq edi (chorvadorlardan o'troq aholi semiz dumli qo'ylarni sotib olgan). Echkilar, otlar, qoramollar va tuyalar podalarda kamroq bo'lgan. Ko'p jihatdan podaning tarkibi etnik an'analarga ham bog'liq bo'lgan [9].

Yuzlar va turklar asosan, qo'ychilik bilan shug'ullangan. Ularning podalarida nisbatan kam sonli otlar bo'lib, ular asosan yuk hamda transport uchun ishlatalilgan. Yuz va turklarda echkilarga mensimaslik bilan munosabatda bo'lishib ularni faqat podada yetakchi bo'lishlari uchun saqlashgan.

Quramalarda aksincha, podalarida qo'ylardan tashqari ko'plab otlar va echkilardan sifatli sut, pishiq jun mahsulotlari uchun qadrlangan. Echki junidan xalta, palos uchun asoslar va o'ralgan arqonlar tayyorlangan[10]. Shuningdek, ularning podalarida bir qator sutli qoramollar va og'ir yuklarni tashish uchun tuyalar mavjud bo'lgan. Tadqiq qilinayotgan davrda quramalarning podalarida qo'ylar soni nisbatan hali ham ustunlik qilardi, chunki vodiyning o'troq aholisida qo'ylarga bo'lgan talab yuqori edi [5].

Etnoslararo munosabatlarning qaror topishi va rivojlanib borishida turli etnik jamoalar o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarining ahamiyati katta. Etnoslararo savdo-sotiq munosabatlari qizg'in kechadigan joy bu – bozor hisoblangan. Odatda, bunday bozorlar shaharlar, katta qishloqlar va hatto aholi manzilgohlaridan chetda ham joylashgan edi. Aholi yashamaydigan joylardagi bozorlar esa ko'proq yirik savdo yo'llari yoqasida joylashgan.

Vodiy hududida yashayotgan qipchoq, turk, yuz hamda qurama kabi yarim o'troq va yarim ko'chmanchi xalqlar ham Farg'ona vodiysidagi bozor savdosida faol ishtirok etib, ushbu bozorga asosan, chorva va chorvachilik mahsulotlari olib chiqilgan [13]. XIX asr oxirlarida chorva mahsulotlari

teri va jundan uy sharoitida tayyorlangan har xil uy-ro‘zg‘or buyumlarini bozorga olib chiqib sotish ushbu etnik jamoalarda bir muncha ommalashgan [1, 61-b].

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib, vodiyning dehqonchilik hududlarida o‘troq yashayotgan qipchoq, turk, qurama, yuz kabi etnik jamoalarning dehqonchilik xo‘jaligi ham bozor bilan bog‘liq bo‘lgan. Ular o‘z ekin-maydonlarida yetishtirgan bir necha turdagি dehqonchilik mahsulotlarining ma’lum qismini bozorga olib chiqsa boshlaganlar.

XIX asr oxirida turli tabiiy-geografik zonalarda joylashgan vodiy aholisi orasida iqtisodiy va madaniy aloqalar avj olgan. O‘troq dehqon va chorvador aholi orasidagi o‘zaro munosabatlar, xususan, tovar ayrboshlash yanada kengroq ko‘lamda rivojlangan. Natijada, Farg‘ona vodiysi endi yaxlit bir iqtisodiy-siyosiy hududga aylangan [2, 113-114 b.].

### Xulosa va takliflar

Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida Farg‘ona vodiysi etnik aralashishning asosiy hududlaridan biriga aylanib borgan. Farg‘ona vodiysi iqtisodiyotida yagona ixtisoslashuvga ega bo‘lgan yarim ko‘chmanchilarning, o‘troqlashuv jarayonini kuchayib borishi xo‘jalik-maishiy tuzilishini va u bilan bog‘liq o‘troqlashuv an‘analarini butunlay o‘zgartirib yuborgan, bu esa so‘nggi yarim ko‘chmanchilarning o‘troq aholi bilan yaqinlashuvini jadallashtirgan.

Aholining yuqori zichligi va rang-barang etnik tarkib, o‘zaro yaqin ishlab chiqarish va maishiy munosabatlarda ikki va uch tilda so‘zlashuvini rivojlanishi, turli etnik guruhlarning madaniy va jismoniy qorishishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Farg‘onada yarim ko‘chmanchi va uzoq vaqtdan beri o‘troq hayot kechirgan xalqlar orasida turli xil xo‘jalik turlari hali ham saqlanib qolgandi. Garchi ular o‘rtasida uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan xo‘jaliklararo aloqalar mavjud bo‘lsa-da, ular Farg‘onada rivojlangan yagona dehqonchilik-chorvachilik kompleksining deyarli o‘zaro bog‘liq ikki tarkibiy qismi bo‘lishiga qaramay, aynan ko‘chmanchilik va dehqonchilik xo‘jaligiga tegishli bo‘lish, konsolidatsiya va integratsiya jarayonlariga to‘sqinlik qiluvchi holat edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev U.S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar (XIX – XX asr boshlari). – T., 2005.
2. Батраков В. С. Характерные черты сельского хозяйства Ферганской долины в период Кокандского ханства / Труды САГУ. Нов серия. Вып. 62. Гум. науки. Кн. 8. История. – Т., 1955.
3. Гамбург Б. С. К характеристике орудий земледельцев Ферганской долины и Ташкентского оазиса конце XIX – первой четверти XX в. / Хозяйственно - культурные традиции народов Средней Азии. – М., 1975.
4. Dala yozuvlari. Andijon viloyati, Asaka tumani, Ungut qishlog‘i, 2023-yil.
5. Dala yozuvlari. Andijon viloyati, Buloqboshi tumani, Shirmonbuloq qishlog‘i, 2023-yil;
6. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Dang‘ara tumani, Katta Turk qishlog‘i, 2023-yil.
7. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Dang‘ara tumani, Oqjar qishlog‘i, 2023-yil.
8. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati, Dang‘ara tumani, Doimobod qishlog‘i, 2023-yil.
9. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Chust tumani, Kaklikqo‘rg‘on qishlog‘i, 2022-yil.
10. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Chust tumani, Qiziltosh qishlog‘i. 2023-yil.
11. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Norin tumani, Sirmoq qishlog‘i, 2023-yil.
12. Dala yozuvlari. Namangan viloyati, Yangiqo‘rg‘on tumani, G‘ovazon qishlog‘i, 2023-yil.



13. Dala yozuvlari. Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on tumani Zarkent q., Bekobod q, Chortoq tumani Beshtol q., Uychi tumani Yorqo‘rg‘on q., Kosonsoy tumani Tergachi q., To‘raqo‘rg‘on tumani Shohidon q., Uchqo‘rg‘on tumani Qo‘g‘ay q., Norin tumani To‘da q., 2023-yil.
14. Isoqov Z. S. Farg‘ona vodiysi an’anaviy dehqonchilik madaniyati... – B. 30, 54.
15. Ежегодник Ферганской области. – Новый Маргилан, 1902. Т. I. – С. 5.
16. Рассудова Р. Я. Земледельческое хозяйство и местные рынки Ферганы XIX в. / Бартолдовский чтения 1976. Год третий. Тезисы докладов и сообщений. – М., 1976. – С. 69.



# O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SUD ORGANLARI FAOLIYATINING SHAKLLANISH TARIXIDAN

## ИЗ ИСТОРИИ СТАНОВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДЕБНЫХ ОРГАНОВ В ЮЖНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

### FROM THE HISTORY OF THE FORMATION OF THE ACTIVITIES OF JUDICIAL BODIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN

*Xudoykulov Ixtiyor Baxtiyorovich*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston janubiy viloyatlarida sud organlari faoliyatining shakllanish tarixi, uning huquqiy asoslari va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan. Sud organlarining tashkil etilishida milliy va mintaqaviy xususiyatlar, mustaqillikdan keyingi islohotlar va sud-huquq tizimini modernizasiya qilish jarayonlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, sud organlari faoliyatidagi xalqaro tajribalarning ta'siri, sud tizimidagi inson huquqlari va qonuniylikning ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada janubiy viloyatlar tarixi doirasida sud organlarining o'ziga xosliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sud organlari, O'zbekiston, janubiy viloyatlar, huquqiy islohotlar, sud-huquq tizimi, inson huquqlari, tarixiy tahlil, qonuniylik, milliy xususiyatlar, modernizasiya.

**Аннотация.** В данной статье анализируется история становления деятельности органов юстиции в южных регионах Узбекистана, ее нормативно-правовая база и этапы развития. В разделе "Организация органов юстиции" представлена информация о национальных и региональных особенностях, реформах после обретения независимости и процессах модернизации судебной системы. Также особое внимание уделяется влиянию международного опыта на деятельность судебных органов, обеспечению прав человека и законности в судебной системе. В статье рассматриваются особенности деятельности судебных органов в истории южных регионов.

**Ключевые слова:** судебные органы, Узбекистан, южные регионы, правовые реформы, судебная система, права человека, исторический анализ, законность, национальные особенности, модернизация.

**Abstract.** This article analyzes the history of the formation of the activities of judicial bodies in the southern regions of Uzbekistan, its legal framework and stages of development. The organization of judicial bodies provides information on national and regional characteristics, post-independence reforms and the processes of modernization of the judicial system. Also, special attention is paid to the influence of international experiences in the activities of judicial bodies, the provision of human rights and legitimacy in the judicial system. The article covers the peculiarities of judicial bodies within the history of the southern regions.

**Keywords:** judicial bodies, Uzbekistan, southern regions, legal reforms, judicial system, Human Rights, historical analysis, legality, national characteristics, modernization.


## Kirish

Qashqadaryo, O‘zbekiston Respublikasida eng birinchi tashkil topgan viloyatlardan biri hisoblanadi. 1924-yil 1-oktabrda BXSRda viloyatlar o‘rnida 5 ta okrug, shu jumladan Qashqadaryo okrugi ham tashkil qilingan. Okruglar o‘z navbatida 15 ta viloyat, 48 tuman, 195 kent va ko‘plab qishloqlarga bo‘lingan. Qashqadaryo okrugi tarkibida 2 ta viloyat ya’ni, Qarshi va Shahrisabz viloyatlari tashkil qilingan, ular tarkibiga Qarshi, Koson, Beshkent, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Chiroqchi, G‘uzor va Chim tumanlari kirgan.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

1924-yilda O‘rtal Osiyoda milliy – hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida BXSR tugatilgan va 1924-yil 27-oktabrda O‘zbekiston SSR tashkil topdi. 1925-yil 29-yanvarda O‘zbekistonda ma’muriy xudidiy bo‘linish o‘tkazilgan va 7 ta viloyat, shu jumladan Qashqadaryo viloyati ham tashkil qilindi. Samarqand shahri esa O‘zbekiston Respublikasining poytaxti deb e’lon qilindi. (1930-yilda esa poytaxt Toshkentga ko‘chirilgan).

1924-yil 25-oktabrda Qashqadaryo viloyatida 25 kishidan iborat sud tashkil qilingan va 1-noyabrdan ish boshladi. Mana shu sanani viloyatimizda sud organi tashkil topgan kuni sifatida belgilash mumkin.



Viloyat hududida sud organi tashkil etilganligi haqidagi hujjat.

1920-yillarning boshida sud – tergov xarakatlari Rossiya qonunchiligi asosida olib borilgani, ularni asosan rus mutaxassislari yuristlari olib borgani uchun prosessual qonunchilik talablariga iloji boricha mos olib borishga xarakat qilingani, rus tili leksikoni, jumlalar tuzish va ishlatalish ham ularning tilida yuritilgani, rus tili madaniyati yaqqol seziladi. Shu bilan birga yillar o‘tishi bilan qonunlarning takomillashuvi ko‘proq qo‘lda emas mashinkasida yozishga xarakat qilingani ko‘rinadi.

Viloyat sudi qoshidagi tergov apparati bu davrda judda oddiy va zaif edi. 1925-yil-yanvar oyidan hozirgacha ochiq sud majlisida 8 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi, ulardan 8 tasi o‘zbek tilida, 3 tasi rus tilida edi. Quyi sudlarga sudlovlik bo‘yicha 6 ta jinoyat ishi berilib, qo‘srimcha tergovga 3 ta ish

qaytarildi, 13 ta ish tugatildi. Bundan tashqari sayyor sudda 2 ta jinoyat ishi bo‘lib 1 ta ish to‘xtatilgan, fuqarolik ishlari esa yo‘q edi. 2 ta tergovchi bo‘lib ularning birida o‘zbek tilidagi ishlar 73 tani, ikkinchisida rus tilidagi ishlar 38 tani tashkil qildi [1].

### Tadqiqot metodologiyami

Qashqadaryo viloyatida sud – huquq tizimining o‘scha-yillardagi ayanchli ahvolini his qilish qiyin emas. Bu tabiiy, chunki birinchidan kadrlar yetishmasligi bo‘lsa, ikkinchidan qonunchilik ayniqsa jinoyat- prosessual qonunchiligining endi teta – poya bo‘layotgani bilan izohlanadi.

### Tahlil va natijalar

1924-yilda Qashqadaryoda 5 ta hududda ya’ni, Beh-Budi, Koson, Chiroqchi, G‘uzor va Shahrисabz rayonlarida xalq sudsari va xalq maslahatchilar tashkil qilingan. Prokuratura bo‘limgan balki viloyat sudi qoshida davlat ayblovini amalga oshiruvchi Klevakin ismli prokuror bo‘lgan xolos. (1925-yil 9-yanvardagi Qashqadaryo viloyat ijroiya qumitasi va O‘zR Revkom komissiyasining birlashgan yig‘ilishi prezidiumi bayonnomasiga qaraganda, viloyat GPU boshlig‘i bilan birga viloyat prokurori Izmaylov ham maslahat ovozi bilan qatnashganligi ko‘rsatilgan. Bundan kelib chiqadiki, Klevakindan oldin Izmaylov degan kishi ham viloyat sudida prokuror bo‘lib ishlagan).

Arxiv manbalarida qayd etilishicha, 1926 – 1927-yillarda O‘rta Osiyoda tashkil qilingan 2-yillik Toshkentdagи o‘rta yuridik kurslarga (Turkmanistondan tashqari) yoshi 18 dan kam bo‘limgan, sudsarda 1-yildan kam bo‘limgan muddatda eng kami sud sekretari bo‘lib ishlagan yoki sudsarda ishlamagan bo‘lsada, sovet davlat apparatida ishlaganlardan jami 125 kishi o‘qishga qabul qilinadi, birinchi yili umumta’lim darslari, ikkinchi yili faqat yuridik fanlar o‘qitilgan.

O‘qishga kiruvchilar yangi orfografiya asosida o‘z ona tilida yozish va o‘qishni, 4 ta arifmetik amalni, ya’ni, qo‘sish, ayirish, bo‘lish, ko‘paytirishni bilishi shartligi, agarda rus tilida gaplashishni bilsa yana ham yaxshi bo‘lishi, ular joylarda komissiyalarda ko‘rib chiqilishi shartligi ko‘rsatilgan. O‘qish joyidan o‘quv qo‘llanmalari, ovqat, iloji boricha yotoqxona berilsada, lekin bir-yilga yetadigan kiyim, ko‘rpa, oyoq kiyimini o‘zi bilan birga olib kelishi lozimligi ko‘rsatilgan[2].

Shuningdek barcha meditsina ko‘rigidan o‘tishi shartligi, sil, ko‘z, venerik kasalligi borlar qabul qilinmasligi ham ko‘rsatilgan. Yuridik kurslarga O‘zbekistondan 66 ta, (shundan Surxondaryodan 7 ta, Qashqadaryodan 8 ta) Tojikistondan 12 ta, Qozog‘istonidan 25 ta, Qoraqalpog‘istonidan 10 ta, Qirg‘izistondan 12 ta, jami 125 ta qabul qilinishi belgilangan. Lekin bu yuridik kurslar ham o‘zini oqlamagan.

1953-yilga qadar O‘zbekistonda o‘qish muddati 2-yillik bo‘lgan yuridik maktab faoliyat ko‘rsatgan edi[3]. Ushbu maktab o‘z faoliyatini to‘xtatgandan so‘ng tizimda kadrlar tanqisligi kuchayib bordi.

Ma’lumki, Toshkent yuridik instituti 1932 – 1955-yillarda faoliyat olib borgan, lekin keyinchalik bu institut tugatilib, Toshkent Davlat Universitetining yuridik fakultetiga aylantirilgan[4].

1925-yil 9-yanvarda viloyatda sud ishlari tashkil qilish bo‘yicha tadbirlar rejasি ishlab chiqilgan. Unda yangi qonunchilikga ko‘ra qozi sudsari tugatilib, o‘rniga xalq sudsari tashkil qilinishi ko‘rsatilgan bo‘lsada, ammo, buni darhol amalga oshirish imkon yo‘qligi, bu masalaga ehtiyyot bo‘lib yondashilib, Behbudi, Shahrисabz va G‘uzor tumanlarida qozi sudsari nomini saqlab qolish, shu bilan birga bu sudsarda suds qoshidagi tergovchilar va ularning kameralarini tashkil qilish, bu ishga ko‘proq mahalliy aholi vakillarini jalb qilish, Yustisiya vazirligidan sudga oid dekretlar, qo‘llanmalarini tezroq jo‘natish, ular bilan qozi sudsarini tanishtirish va hakozolar belgilangan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, 1925-yil 17-noyabrda bo'lib o'tgan viloyat sudi partiya komitetining majlisida, Chiroqchi, Yakkabog', Kitob tumanlarida qozi sudlarining tugatilishi va ularning o'rnida tashkil qilingan xalq sudlarida tergovchilarining kameralari bo'lishi, qishda ishlashga moslashtirilgan binolarni topish viloyat sudi raisi To'rayev va uning o'rnbosari Xo'jayevlarga topshirilgan. Shuningdek, ularga sovet qonunchiligi asosida kanselyariya tashkil qilish, ularga munosib xodimlar topish va ularni qisqa muddatli amaliyatga jalg qiluvchi o'qishlar tashkil qilish va h.k.lar yuklatilgan [5].

Bu davrda viloyat sudiga Rustambekov raislik qildi. Uning 1926-yil 16-maydagi 68-buyrug'iiga muvofiq Chiroqchi uchastkasi sobiq sudyasi Roziqov Abdulla yangidan tayinlangan suda Sag'dulla Lutfullayevga barcha ishlarni topshirish va shundan so'ng uning o'zi o'z hoxishiga ko'ra ishdan ozod qilingan.

Sag'dulla Lutfullayev 1882-yilda Chiroqchi tumani Ziyadin stansiyasida tug'ulgan, millati o'zbek, oilalik, bir nafar farzandi bo'lib, dehqon oilasida tug'ilgan. Buxoroda 1903-yildan 1913-yilgacha 10 yil o'zbek madrasasida o'qigan, shundan so'ng otasi bilan dehqonchilik qilgan va Buxoroda suv xo'jaligida mudir bo'lib ham ishlagan. U tojik va arab tillarini bilgan [6]. Mulla Sag'dulla Chiroqchi va boshqa tumanlarda qozi bo'lib ishlagan. Sovet davrida bir muddat ichki ishlar organlarida ham ishlagan. Sovet davlati uchun yurist kadrlar bo'limgani uchun ilgarigi qozilarni xalq sudyasi sifatida tayinlangan[7].

1925-yilda qog'oz yo'qligidan Behbudiy qamoq uyi mahbuslarning arizalarini Davlat prokuroriga yuborish haqidagi xatni choy qog'ozlariga yozgan. 1920-yillarda qonunlarning takomillashmagani tergov va sud amaliyotining deyarli yo'qligi, qonunlarni yaxshi tushunadigan mutaxassislarining yetishmasligi natijasida ko'plab qonun buzish hollariga yo'l qo'yilgan, sudlanuvchilarining aybi isbotlanmagan bo'lsada, o'sha davr xaybarakachiligi, siyosatning qonundan ustunligi, tezroq dushmani topib uni ayovsiz jazolash shartligi, g'olib kelib o'lim jazosi, otib o'ldirishni qo'llash ko'proq qo'llangan[8].

1928-yil yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyat okrugi sudi tomonidan bir kvartalida 108 nafar kishi sudlandi. Ularning 104 nafari erkak, 4 nafari ayollar tashkil etdi. Bu davrda xalq sudlariga qarashli 10 ta kamera bo'lib, 8 tasi tumanlarda, 2 tasi Behbudiy shahrida joylashgan edi.

1928-yil aprel-iyun oylarida okrug sudlarida jami 658 ta ko'rish uchun kelib tushgan. Umuman shu yilning iyul oyida sudlarda 878 ta jinoiy ish ko'rish jarayonida bo'ldi. Shu bilan birga bu davrda ishlari bo'yicha 949 ta ish sudlarga kelib tushgan bo'lib, 1250 ta ish harakatda edi. Qashqadaryo okrug sudlarida advokat kollegiyalari ham faoliyat ko'rsatdi. Kollegiya tarkibida Kores Aleksandrova, Ananyeva, Svetkova, Prayeva, Sagdullayeva, Marubin, Valinkovalar faoliyat ko'rsatdi.

Ushbu kollegiyaga Kores rahbarlik qildi. U bilan birga Aleksandrova va Ananyeva Behbudiy shahrida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Prayev Shahrisabz shahrida ish yuritdi.

Sudlar qoshida yuridik maslahat xonalar faoliyat ko'rsatib, ular mehnat va oila huquqlari, fuqarolik va jinoyat huquqi bo'yicha alohida huquqiy maslahat xizmati ko'rsatilgan. Ko'pincha o'zbek ayollar oilaviy zo'ravonlik bo'yicha murojaat qilgan [9].

### Xulosa va takliflar

Umuman yuridik maslahatxonalarda mahalliy aholiga nisbatan yevropa millatiga mansublar ko'proq murojaat qilgan. Yuridik maslahatxonalarning ish sharoiti bir oz og'ir edi. Behbudiy shahridagi yuridik maslahatxonasi qish paytida "Mehnat saroyi" binosida olib borilgan bo'lsa, yoz paytlarida shahar bog'ida faoliyat ko'rsatdi.



Qarshi stansiyasi temir yo'l klubida esa yuridik maslahatxona faoliyat ko'rsatdi. Yuridik maslahatxona asosan bepul bo'lib, kam miqdorda pullik ham xizmat ko'rsatgan. Masalan, 1928-yil 1-kvartali bo'yicha Behbudiy shahrida yuridik maslahatxonasi 45 rubl miqdorida pullik xizmat ko'rsatgan.

Sovet davrida sudlar zimmasiga muayyan darajada mafkuraviy targ'ibotchilik funksiyalari ham yuklatilgan edi. Masalan, 1929-yil dekabrida Respublika okrug sudining shu boradagi faoliyati yuqori organlar tomonidan o'r ganib chiqilib, Toshkent, Surxondaryo okrug sudi bilan birga Qashqadaryo okrug sudi faoliyati qoniqarsiz deb topildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qashqadaryo viloyati davlat arxiv, 1-fond, 1-ruyxat, 74-ish, 16-40-varaqlar.
2. Qashqadaryo viloyati davlat arxiv, 1-fond, 1-ruyxat, 74-ish, 24-38-varaqlar.
3. O'z MA, 904-fond, 18-ro'yxat, 292a-ish, 3-varaq.
4. Живейнов В. Высшее юридическое заочное образование работников юстиции // Социалистическая Законность. - М., 1955. - № 12. - С. 42-45.
5. Qonun-adolat ko'zgusi Qashqadaryo viloyati prokururasi: kecha va bugun, Toshkent: "Tamaddun". 2022. -B.43.
6. Qashqadaryo viloyati davlat arxiv, R-172 fond, 2-ro'yxat, 1-ish, 2-25-varaqlar.
7. Qonun-adolat ko'zgusi. Qashqadaryo viloyati prokururasi: kecha va bugun. – Toshkent: "Tamaddun". 2022. –B..43.
8. Qonun-adolat ko'zgusi Qashqadaryo viloyati prokururasi: kecha va bugun, Toshkent: "Tamaddun". 2022. -B.43.
9. QVDA, S-172, 1-ro'yxat, 68-ish, 3-15 varaq.

## “DEVON-U LUG‘OTIT TURK” VA UNDAGI ADABIY PARCHALAR TADQIQI HAQIDA ОБ ИЗУЧЕНИИ «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТЮРК» И ЛИТЕРАТУРНЫХ ЧАСТЕЙ В НЕМ ABOUT STUDYING “DEVON-U LUGOTIT TURK” AND LITERARY PARTS IN IT

Berdiev Xusan Xolnazarovich

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada filologik tahlil tarixining o‘ziga xos jihatlari lingvistik poetika masalalari aspektida yoritib berilgan. “Devon-u lug‘otit turk” asarining lingvopoetika tarixini o‘rganishdagi muhim o‘rni dalillar asosida ko‘rsatib berilishiga harakat qilingan. Asar materiallarining tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun ahamiyatli tomonlari qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** poetika ilmi tarixi, “Devon-u lug‘otit turk”, adabiy parchalar, filologik tahlil.

**Annotatsiya.** В данной научной статье освещаются специфические аспекты истории филологического анализа в аспекте вопросов лингвистической поэтики. Была сделана попытка обосновать важную роль работы “Девону лугатит турк” в изучении истории лингвопоэтики. Отмечены значимые для лингвистики и литературоведения аспекты материалов работы.

**Ключевые слова:** история поэтической науки, “Девону лугатит турк”, литературные отрывки, филологический анализ.

**Annotation.** Particular features of history of phiylological analysis are discussed in the aspect of lingvopoetic issues in this article. The importance of studying history of lingvopoetics of “Devon-u lug‘otit turk” is proved on the basis of facts. Lisanificance of this work (is undeslined), especially for lingvistics and literary studies is underlined.

**Keywords:** history of poetics “Devon-u lug‘otit turk”, literary abstracts phylological analysis.

Berdiev X.X.,  
Samarqand, Iqtisodiyot va  
pedagogika universiteti  
Samarqand kampusi,  
Filologiya fanlari boyicha  
falsafa doktori, dotsent  
[rustam\\_berdiev1996@mail.ru](mailto:rustam_berdiev1996@mail.ru)

**Kirish.** Akad. A.N.Kononovning «Mahmud Koshg‘ariy va uning «Devon-u lug‘otit turk» asari» maqolasida takidlanishicha, O.Pritsakning hisoblab chiqishiga qaraganda, Mahmud Koshg‘ariy taxminan 1029 - va 1038-yillari orasida tug‘ilgan, «Devon» ustidagi ishni esa, 1072-yilda boshlab, 1078-yilda tugatgan.

Maqolada «Mahmud Koshg‘ariyning qoraxoniy zodagonlarining oliy toifasiga mansub ekanligini quyidagi faktlar ham tasdiqlaydi», deb muallif asardan olingan malumotlarni keltiradi:

1. «Bobomiz, deb yozadi MK - somoniylardan turk yerlarini tortib olgan o‘sha amirdir; uni xamir (yani amir) Tekin deb ataganlar» (BA, I, 112-bet; SM, 1, 136-bet).
2. MK asar boshlarida o‘zi to‘g‘risida so‘zlab, o‘zining eng eski turkiy qabilalariga mansub bo‘lganini bildiradi (BA, 1, 4-bet; SM, 1, 44-bet).

«Devon»ni tuzishdan ilgari lingvistik, tarixiy va etnografik materialni yig‘ish bo‘yicha ko‘p yillik ish amalga oshirilgani tabiiydir.

S.Mutallibovning «Devon-u lug‘otit turk» va uning tarjimasi» maqolasida «Devon»da so‘zlarning lug‘at manosi izohlangan va u so‘zlarning yasalishiga doir malumotlar berila borgan. Shuning uchun bu asarda so‘zlar izohi zamirida u davr tili fonetikasi, morfologiyasi va leksikasiga doir mukammal qoidalar ham yuzaga kelgan»ligi takidlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Malum bo‘ladiki, «Devon-u lug‘otit turk» lingvistik manba sifatida fanda nihoyatda noyob asar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, u adabiyotshunoslik uchun ham boy va qimmatli materiallar manbaidir.

Ma’lumki, XI asrning muhim yodgorligi “Devon-u lug‘otit turk”dagi adabiy parchalarning umumturkiy adabiyot, shuningdek, o‘zbek she’riyatining keyingi taraqqiyot va takomil bosqichiga bo‘lgan ulkan ta’siri shubhasizdir. Mazkur she’rlarning janriy xususiyatlari va adabiy tasnifi borasidagi ilmiy tajriba ilk bor prof. A.Fitrat tomonidan amalga oshirilgan. Ammo u zamonaviy filologiya nuqtai nazaridan davom ettirilishi lozim [1, 118]. Buning uchun esa, eng avvalo, asarda keltirilgan she’rlarning alohida nashrini amalga oshirmoq zarur. Negaki, hozirgi ilmda bu she’rlarning miqdori haqidagi ma’lumotlarning o‘zi ham bir xil emas. Shu bilan bir qatorda, ulardan faqat ikkitasi – “Alp Er To‘nga marsiyasi” va “Qish bilan Yoz munozarasi”gina o‘quvchilarga yaqindan tanish bo‘lib, boshqa ko‘plab namunalar nazardan chetda qolmoqda. Vaholanki, prof. A.Hayitmetov e’tirof etganidek, bu to‘rtliklar bilan chuqurroq tanishish, muallifning qator ta’kidlari unda keltirilgan she’riy misollarning hammasi ham xalq og‘zaki ijodi namunasi emasligini ko‘rsatadi. Ularning ko‘plari ayrim avtorlarning, professional shoirlarning asarlaridir. Bu esa, bizda, turkiy xalqlarda yozma adabiyot XI asrdan ancha oldin paydo bo‘lgan deyish uchun asos beradi”.

XI asrda yashagan mashhur qomusiy olim, turkshunoslik ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtan mutafakkir Mahmud ibn ul-Husayn Muhammadil Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari mukammal ma’lumotlarga boyligi jihatidan ilm-fanning ko‘pgina sohalari uchun muhim manba hisoblanadi.

Ma’lumki, “Devon-u lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) turli xalqlar, qabila-urug‘larning urf-odatlari, hayot tarzi, ular yashagan hududlar, shuningdek, ularning tili, tildagi o‘sha davrga xos fonetik, leksik, morfologik va dialektal xususiyatlarni aks ettiruvchi materiallarni o‘zida mujassam etgan. Shu bilan bir qatorda, asarda XI asr muhitidagi ijtimoiy-siyosiy hayot to‘g‘risidagi voqealarga oid badiiy matnlar - she’rlar ham o‘rin olgan bo‘lib, ular falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, intim va voqeaband lirikaning betakror namunalaridir.

Ikki assosiy bo‘lim – muqaddima va lug‘at qismidan iborat mazkur asar qomusiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan, ayniqsa, lug‘at qismida so‘z va so‘z birikmalari izohi uchun foydalanilgan hikmatli so‘z, qo‘sish kabi adabiy-badiiy parchalarning ko‘pgina namunalarini keltirib o‘tgan. Tadqiqotlarda e’tirof etilishicha, “Devon-u lug‘otit turk”da 242 ta adabiy parcha keltirilgan bo‘lib, ular o‘sha davrda el orasida mashhur bo‘lgan dostonlar, marsiyalar, mehnat va muhabbat, tabiat tasviri, yurt manzaralari, qahramonlik, ovchilik to‘g‘risidagi xalq qo‘sishlaridir. Shuningdek, asarda ikki yuzdan ortiq maqoldan ham foydalanilgan [2, 73].

Mashhur tilshunos “Devon-u lug‘otit turk”ning tarjimonи va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov ta’kidlaganidek, devondagi adabiy parchalar va muallifning ular haqidagi uqtirishlari Mahmud Koshg‘ariyning adabiy asarlar bilan ham qiziqqanini, adabiy asarlarni ham diqqat bilan o‘rganganini isbotlaydi. Mahmud Koshg‘ariy devonda yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa ham, ba’zan vazn haqida, ba’zan adabiy janrlar haqida, ba’zan istiora, tashbih va boshqa she’riy xususiyatlar haqida ma’lumotlar

beradi. Bu xil faktlar she'riy asarlarga doir qoidalar boshlang'ich holda bo'lsa ham, o'sha davrlardayoq yuzaga kelganidan darak beradi [3, 23].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan fodalaniladi. Tarxiy, zamonaviy manbalar materiallari tashkil etadi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi paytda, "Devon-u lug'otit turk"da keltirilgan she'riy parchalar oliv o'quv yurtlari va o'rta maktab darsliklariga kiritilgan. Ammo mazkur parchalarda qo'llanilgan she'riy san'atlar haqida fikrlar bildirilmagan. Bu holat ularni badiiy san'atkorlik nuqtai nazaridan tadqiq etish imkonini beradi.

"Devon-u lug'otit turk"dagi she'riy parchalar ko'pgina olimlar diqqatini o'ziga tortgan edi. Xususan, ularning vazni chuqur tekshirilgan. Ko'pchilik olimlarning e'tiroficha, ular, asosan, barmoq vaznida yozilgan. Tadqiqotchi T.Ganjiy ular orasida aruzda ham yozilgan ayrim parchalar mavjudligini ko'rsatsa, olima I.V.Stebleva ularning deyarli barchasini aruz vazniga ham uyg'un deydi. N.Mallayev esa ularda aruz va barmoq namunalari mavjudligi holda keyingisining ustun mavqeda ekanligini ta'kidlaydi: "... ayrim she'rlarning yozma adabiyotga (u hollarda Mahmud Koshg'ariy ko'pincha "shoir so'zi budir" deb ta'kidlaydi, ayni chog'da bu so'zlarda "donolar bunday deydi", degan ma'no yotishini ham unutmaylik) mansubligi va aruzda bitilganini (aruz turkiy poeziyaga singishib ketgan edi) e'tiborga olish bilan birga, nazarimizda, ko'pchilik she'rlar og'zaki poeziyaga mansub bo'lib, turkiy xalqlar she'riyatining tug'ma vazni – barmoqda ekanini ta'kidlash lozim".

"Devon-u lug'otit turk"dagi she'rlar qaynoq hayotning badiiy tasvirlari sifatida taassurot uyg'otadi. Zero, har qanday davrda yaratilgan "she'r – jonli vujud, u yozilmaydi, faqat yaratiladi" [4, 99].

Ularning badiiy xususiyatlari kelganda shuni aytish lozimki, "Devon-u lug'otit turk" she'rlari "ravonligi, musiqiyligi va jo'shqinligi" bilan ajralib turadi. Bu yerda yana bir narsani yodda tutish kerakki, ayrim olimlar to'g'ri ko'rsatganiday "Devon-u lug'otit turk" faqat og'zaki ijod namunasi emas, balki, ayni paytda, unda yozma adabiyot namunalari ham mavjuddir. Shunga ko'ra, E.Rustamov "Ta'kidlash joizki, Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk"ida keltirilgan ko'pgina she'riy parchalar yetarli ma'lumotga hamda she'rlar to'qishda katta malakaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan yozilgan", deb ko'rsatgan edi" [5, 33].

I.V.Steblevaning yuqoridagi fikri masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, shuni aytish mumkinki, "prof. H.Ne'matovning ta'kidlashicha, o'zbek tilidagi bo'g'lnlarni xohlaganda cho'zib, xohlaganda qisqa talaffuz qilaverish mumkin, bu so'zning ma'nosiga ta'sir qilmaydi. Shu jihatiga ko'ra o'zbek tili aruz uchun juda qulay" [6, 52].

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, "Devon-u lug'otit turk"dan o'rin olgan she'riy parchalar badiiy mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. Masalaning yana bir tomoni shundaki, "Devon-u lug'otit turk"da muallif keltirilgan she'riy parchalarning biri A'sha degan tarixiy shaxs qalamiga mansubligini ta'kidlab o'tadi (151-b.). Albatta, bu ham namunalarning ma'lum qismi yozma adabiyotga tegishli ekanini ko'rsatadi.

She'rlarning mavzu ko'lami haqida A.Hayitmetov shunday degan edi: "Bu to'rtliklardan ko'rinishicha, qadim turkiy xalqlar poeziyasida didaktika juda katta o'rin tutgan. Bu urug'chilik jamiyatni xususiyati bilan, unda otalarning mavqeいi baland bo'lganligi bilan bog'lansa kerak. Keyinroq, urug'chiik yemirila boshlashi bilan bunday poeziyaning mavqeいi ham kamaya borgan. Bu traditsiyadan xabardor ijod ahllari esa bu masalada orqaga ketishdan nolib, shu xilda xil to'rtliklarni to'qishgan. XI – XII asrlardan boshlab esa, bu traditsiyalar yanada rivojlanib, endi fors-tojik poeziyasidagi didaktik

traditsiyalarga ham asoslana boshlagan. Xullas, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Maxtumquli kabi zabardast shoirlarning ijodidagi didaktika o‘z ildizlari bilan qadim turkiy traditsiyalarga bog‘anadi...” [7, 50].

“Devuon-u lug‘otit turk”dagi she’rlar nafaqat keyingi, balki o‘tmish adabiyotimizning hamma davrlariga aloqador. “Qutadg‘u bilig” to‘rtliklarida xalq to‘rtliklarining kuchli ta’siri ko‘rinadi. Buni, xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asarida keltirilgan to‘rtliklar bilan muqoyasa qilish natijasida ko‘rish mumkin. Mahmud Koshg‘ariydagi to‘rtliklarning ko‘pi xalq og‘zaki ijodining namunasi bo‘lib, asosan, barmoq vaznidadir. Qofiyalanish prinsiplariga ko‘ra murabba, ko‘pincha, yozma adabiyotdagi ruboiy shaklini eslatuvchi a-a-b-a, a-a-a-a shakliga ega, shuningdek, boshqa ko‘rinishlari ham mavjud. Agar bu shakllarning juda ustunligini e’tiborga olsak “Qutadg‘u bilig” to‘rtliklarining zamini turkiy xalqlar og‘zaki ijodida ekanligiga shubha qolmaydi. Faqat shakliy xususiyatlariga emas, to‘rtliklarning g‘oyaviy yo‘nalishi, mazmun xususiyatlari, badiiyatida ham shunday yaqinlik kuzatiladi. Chunki to‘rtlik shakli turkiy xalqlar poeziyasidagi eng qadimiy shakllardandir” [8, 32], - deydi B.To‘xliev.

**Xulosa va takliflar.** Asarda keltirilgan she’rlar nafaqat mavzu va g‘oyasi, balki badiiy xususiyatlariga ko‘ra ham rang-barangdir. Ushbu she’rlar ko‘zdan kechirilganda, ular badiiy jihatdan mukammal namunalar sifatida namoyon bo‘lishi, binobarin, turli she’riy san’atlarni o‘zida mujassam etganligi kuzatiladi.

“Rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz muzika bo‘lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo‘lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro‘yobga chiqariladi” [9, 5].

“Har qanday badiiy san’atning zamirida til materiali yotishi jihatidan uning badiiy san’at vazifasini o‘tashida ushbu materialning quyidagi imkoniyatlari ishga solinadi:

1. So‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’no imkoniyatlari.
2. So‘zning shakliy imkoniyatlari.
3. So‘zlarning o‘zaro qo‘shilish imkoniyatlari.
4. So‘zning takrorlanishi imkoniyatlari.
5. Alifbo sirasidagi ba’zi harflarning shakliy-simvolik imkoniyatlari.
6. Fonetik-orfoepik imkoniyatlari” [10, 67].

Shu bilan bir qatorda, badiiy san’atlarga xos bo‘lgan morfemik, morfologik, sintaktik xususiyatlar ham borki, ularni nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Zero, badiiy san’atlar qo‘llanilgan namunalar matnlar bo‘lib, kommunikativ xususiyatlar aynan ko‘rsatilgan jihatlar orqali yuzaga chiqadi.

Xullas, “Devon-u lug‘otit turk”da keltirilgan parchalarda qo‘llangan she’riy san’atlarni lingvopoetik nuqtai nazardan o‘rganish quyidagi dastlabki xulosalarga olib keladi:

1. She’riy san’atlar tahlilini, bizningcha, “Devon-u lug‘otit turk”dan boshlash maqsadga muvofiq, chunki shundagina ularning paydo bo‘lishi va shakllanishi, ilk namunalari lisoniy tarkibi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

2. She’riy san’atlar trop va sintaktik figuralarni vujudga keltirish seleksiya (paradigmatika) va biriktirish (sintagmatika)ning o‘zaro uzviy bog‘langan holatlari uyg‘unligiga asoslanadi.

3. Har qanday lisoniy belgi kabi she’riy san’atlarni ham ifoda, mazmun va funksiya planlarining mushtarakligi nuqtai nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Lingvopoetika o‘zaro g‘oyat uzoqlashib ketgan turli fanlar (tilshunoslik, she’rshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika, badiiy asar tili va sh.k.)ni yakqalam qiladi va bu bilan u o‘zini mumtoz

filologiyaning yaxlitligini ta'minlaydigan muhim vosita sifatida namoyon qiladi. Bunga esa matnning filologik tahlili asosidagina erishish mumkin.

“Bugungi adabiyotshunoslik tadqiq etayotgan badiiy san'atlar klassik adabiyotda shakllangan. Biroq bu keyingi davr adabiyotida badiiy san'atlarning yangi namunalari vujudga kelmadи, degani emas. Aksincha, hayot, adabiyot dialektik harakatda ekan, zamondosh shoirlarimiz yaratayotgan va qo'llayotgan **yangi badiiy vositalarni topish, xarakterlash va baholash** bugunga adabiyot nazariyasi ilmi tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir” [11, 90-91].

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Boltaboev H. “Devonu lug’otit turk”dagi manzum parchalarning adabiy tasnifi // Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asari va uning turkiy xalqlar madaniyatining hamda jahon sivilizatsiyasida tutgan o’rni (Xalqaro konferentsiya materiallari), Samarqand, 2002.
2. Aliyev A., Sodiqov Q. O’zbek adabiy tili tarixidan (o’quv qo’llanma). – T., 1994.
3. Mutallibov S.M. XI asrning buyuk filologlari va ularning noyob asarlari (so’z boshi). Devonu lug’otit turk. I tom. – T., 1960.
4. Botirxon Akramov. Olamning butunligi. – T., 1988.
5. To’xliev B. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”i va ayrim janrlar takomili (masnaviy, to’rtlik, qasida). – T., 2004.
6. Afoqova N. Bir she’rning vazni xususida // Mohiyata intilgan olim (prof. H.G’. Ne’matovga bag’ishlangan maxsus to’plam). 2001.
7. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – T.: Fan, 1970.
8. To’xliyev B. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”i va ayrim janrlar takomili (masnaviy, to’rtlik, qasida). – T., 2004.
9. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi // O’zAS, 1986, 5-sentyabr.
10. To’lanova N. Badiiy san’atlarning yaratilishida til vositalarining o’rni. // O’TA, 2003, №1, 67-bet.
11. Afoqova N. Abdulla Oripov lirkasida badiiy san’atlar. – B., 1994.



## ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ НАРОДА И ЛЮБВИ КАК ОТРАЖЕНИЕ РАЯ В ГАЗЕЛЯХ ХАФИЗА ШИРАЗИ

HOFIZ SHEROZIY G‘AZALLARIDA JANNAT IN’IKOSI SIFATIDA XALQ VA MUHABBATNING BADIY TASVIRI

ARTISTIC DEPICTION OF THE PEOPLE AND LOVE AS A REFLECTION OF PARADISE IN THE GAZELLES OF HAFIZ SHIRAZI

Мавлянова Тамилла Бахриллоевна

**Аннотация.** Настоящая статья посвящена анализу образа народа через изображение рая в восточной лирике. Особое внимание уделяется нравственному аспекту, теме душевной красоты, любви и одаренности как отражение эстетических ценностей и его взаимосвязи с категорией рая.

**Ключевые слова:** Хафиз Ширази, закономерности жанра газелей, проблемы личности и народа, земной ад, небесный рай.

**Annotatsiya.** Ushbu maqola sharq she’riyatida jannat obrazi orqali xalq qiyofasi tahliliga bag‘ishlangan. Axloqiy jihatga, ma’naviy go‘zallik, muhabbat va iste’dod mavzusiga estetik qadriyatlar va uning jannat toifasi bilan munosabatiga alohida e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Hofiz Sheraziy, g‘azal janri asoslari, shaxs va xalq muammolari, yerdagi jahannam, osmondag'i jannat.

**Annotation.** This article is devoted to the analysis of the image of the people through the image of paradise in eastern poetry. Particular attention is paid to the moral aspect, the theme of spiritual beauty, love and talent as a reflection of aesthetic values and its relationship with the category of heaven.

**Keywords:** Hafiz Shirazi, patterns of the ghazal genre, problems of the individual and the people, earthly hell, heavenly paradise.

Мавлянова Т.Б.,  
Узбекско- Финский  
педагогический институт,  
факультет языков кафедра русского  
языка и литературы  
[tamillamavlyanova555@gmail.com](mailto:tamillamavlyanova555@gmail.com)

Восточный народ – это эстетическое и философское понятие. Особый интерес к восточному народу проявлялся на протяжении многих столетий, и каждый раз в текстах художественной литературы исследователи находят нечто новое, неразгаданное ранее. Интересны проявления духа народного характера через категорию рая в газелях Хафиза Ширази. Близость строк поэта к народу, жизнь его заботами – ведущие мотивы его творчества. Единство субъекта и объекта, родство душ объединяет поэта и читателя. Налицо тесная душевная

совместимость, когда Хафиз Ширази предчувствует настроение читателя, «идет ему навстречу», добивается единства мышления и жизненной позиции.

«Усердствуй в добре, ибо искренность солнце родит,

А светлый рассвет отвернется от черного зла» –

такова положительная жизненная программа поэта. В другом случае, обращаясь к богачу, он говорит:

«Видишь надпись на своде сияющем: «Все на земле, -

Кроме добрых деяний на благо людей, - не навечно».

В строках Хафиза Ширази можно проследить обращение к самому читателю. Однако читатель для восточного лирика не просто наблюдатель, он участник стихотворного акта, жизненного процесса, которым живет народ. Одна из главных закономерностей газелей Хафиза Ширази заключается в том, что автор оставляет многое на домысливание слушателя, тем самым оставляя концовку открытой, что дает возможность для читателя сделать собственный вывод о судьбе народа. Это один из оригинальных методов, присущих перу Хафиза Ширази, поэтому газели поэта бесконечно близки народу и в том смысле, что они часто не имеют конца, оставляя вывод за читателем. Это самый настоящий душевный, лирический диалог, часто перерастающий в обращения.

Разумеется, Хафиз Ширази нередко останавливается и на сочетании проблемы личности и проблемы народа. Он много раз показывает, как неурядицы общества отражаются на судьбах людей, и главным и наиболее ярким примером этому служит он сам. Однако честность по отношению к людям, среди которых живет лирический герой, дает опору для выполнения коренной установки:

«И также благодарен рукам моим я слабым:

Терзать они не могут насильем бедный люд».

Себе как поэту он дает следующую оценку:

«Никогда не умрет тот, кого воскресила любовь.

Быть бессмертным и мне суждено до конца моих дней». Эти строки служат сомнением о предназначенности «конца дней». Если лирический герой размышляет о физическом, то имеется в виду бытие через поэзию, в которой оценивается длительность жизни столько, сколько живут его строки; а в связи с тем, что они бессмертные, то фактически вечен и сам автор.

Поэтическая выверенность и чистота строк Хафиза Ширази делают его лирику неотразимой. Что очень важно – каждый бейт имеет свой законченный мир ощущений и часто бывает связан с остальными бейтами этой же газели, весьма относительно. Другими словами, каждый бейт есть ритмически выверенная и математически точно представленная мысль, что в совокупности позволяет отразить более широкую идею. Его строкам свойственна логическая целостность, газели обладают энциклопедической всесторонностью.

Вот важная, значимая мысль Хафиза Ширази:

«Я шлю тебе зеркало – стих: взгляни на деяния Творца,

Восславь, поглядев на себя, обилие божьих щедрот». Бог одарил Хафиза своими щедротами, поэтическим талантом, за что он благодарен ему и восславляет его. Поэзия – это зеркало, в своеобразной форме отражающее душу поэта и жизнь народа, человека, действительности. В стихотворении, как в зеркале, отражается все: эстетика, эпоха, автор, проблема, взаимодействие с народом, поэтический подход к жизни, гуманистическое восприятие



освещаемого события, воспитание читателя сквозь призму поэзии, именно поэтому автору было свойственно высочайшее эстетические мировоззрение.

Хафиз Ширази описывает повседневную жизнь народа столь красиво, что делает ее эстетичной, и если не раем, то хотя бы благодарностью за то, что человек может хорошо жить. К примеру, мы можем обратиться к наблюдениям автора: «Человек лучше видит сердцем, не умом» - так гласит восточная мудрость:

«Прозренье сердца – свыше нам ниспосланное чудо,

Все ухищрения ума пред ним – пустое дело». Ум и сердце – два великих критерия для народа. О том, что в райскую душу Хафиза не вошел земной ад, поэт говорит в следующей строчке: «В зеркале души не вижу ничего, что в жизни видел». Объяснением данных строк служит описание иной души Хафиза, она необычна, что обусловлено, естественно, поэтическим даром, которым он наделен свыше.

Чтение газелей Хафиза Ширази в оригинальном издании показало нам, что строки на фарси составлены гармонично, уравновешенно, с равенством и пропорциональностью байтов. Газели сложены с математической выверенностью, хотя выполнить это в поэтической форме нелегко. Отличие оригиналов Хафиза от переводов заключается в певучести, мелодичности и многообразии смыслов первого.

Лирический герой, за которым прячется не только Хафиз Ширази, но и весь восточный народ, не только глубоко лиричный, он еще и мужественный, относящийся к трудностям жизни легко. Более того, именно народ старается не только скрывать недостатки бытия, но еще и восхваляет достижения прожитых дней, облагораживает поступки, пытаясь тем самым улучшать жизнь на земле – именно это является более широким контекстом описания восточного народного характера. Народная жизнь может изображаться с перепадами, что говорит о том, что в опосредованном смысле лирическому герою несложно было представить себе и земной ад. Многое, возможно, имеет некую поэтическую параллель с жизнью самого Хафиза Ширази. Нам известно, что автор лирических строк был придворным поэтом и декламатором, он имел большие возможности прожить жизнь в роскоши, безбедно, воспевая своего правителя и руководящую «верхушку», что было распространенной традицией того времени. Однако, подобного состояния Хафиз себе не посчитал нужным нажить, и это говорит о том, что он был поэтом, преданным своим убеждениям и взглядам. Так, поэт выбрал иную тему для газелей – художественное изображение народа. Это был восточный народ, отличавшийся своим эстетическим совершенством, живущий в мире любви и гармоничных отношений.

Его поэтическое мастерство по созданию рая не имеет себе равных:

«Вчера, когда в земном раю рассветный ветерок

По воле страсти разметал венок ее кудрей...».

Хафиз был верующим человеком, и имел свои теологические взгляды, достойные спора среди его современников:

«Я вспомнил свод твоих бровей как раз перед намазом,

И застонал, и позабыл я все молитвы разом». Надо было иметь большое мужество, чтобы в условиях средневекового Ирана подумать, а тем более написать такие строки, поставив земную любовь в женщины выше небесной любви к Богу (что и означало времена молитвы). Хафиз был сторонником того, чтобы сломать старые порядки, не удовлетворяющие народ, который стремится к новой жизни:

«Приходи! Наполним с краем чашу влагою пунцовой,



Старый свод небес сломаем, а взамен воздвигнем новый!».

В строках поэта можно встретить и бунтарскую личность. Так, в одной из газелей он дает противопоставление возлюбленной пророку Юсуфу, это смелый творческий шаг, на который также решится не каждый поэт:

«Ты прекрасна, как Иосиф! – утверждает весь Шираз.

Люди лгут – я убедился: ты прекрасней во сто крат!». Данные строки могут восприниматься не как пренебрежение к пророку, а, скорее всего, как воспевание земной любви.

Поэт высоко ценит свою возлюбленную, поэтому не скрывает, что он:

«Не сменит улицу твою на восемь райских кущ,

Освобожден от двух миров – своей любовью он велик». Поэт подчеркивает, что любовь освобождает народ от забот обоих миров.

Очень высокая, идеальная оценка любимой содержится в бейте:

«Прах у порога луноликой мне райских цветников милей,

Всех гурий за него отдам я и все чертоги заодно». Если учесть, что гурия – это пери, т.е. ангел, то можно сделать вывод о том, что поэт дает очень высокую, подлинно поэтическую оценку луноликой. Данная мысль продолжается Хафизом и в других газелях. Вот пример того, что он предпочитает земной рай небесному.

Определение радужных описаний, ярких красок, цветов, садов – все это первоэлементарно в описании категории Рая и художественного изображения народа и любви. Мастерство поэта постигается через изображение материального мира, сформированного из сущностей, проявляемыми массами, народом, а также образ народа как презентацию его культуры и взглядов, выраженные в мелодичности звучания, мягкости изображения. Хафиз Ширази воссоздает земной рай простого народа, ищущего истину и душевный покой в созданном им самим раю.

### Использованная литература

1. Арабская поэзия средних веков / Библиотека всемирной литературы: 20 т. -М., 1975;
2. Ахмад ибн аз-Забиди. Аль-Джами ас-сахиҳ. Ясное изложение хадисов «Достоверного свода». «Сахих» аль-Бухари» (краткое изложение). – М.: Умма, 2017;
3. Аълохон Афсаҳзод. Риндиоламсуз. Душанбе, 1972: Хоғизнома. Душанбе, 1971;
4. Брагинский И. С. 12 миниатюр: от Рудаки до Джами. 2-е изд. М.: Художественная литература, 1976;
5. Дунаевский Б. Творчество Хафиза //Шемс-эд-дин Мухаммед Хафиз. Лирика.-М., 1935;
6. И.Брагинский // Звезды поэзии: Рудаки, Фирдоуси, Хафиз и др. Душанбе, Ирфон, 1976;
7. Руми Джалал ад-Дин Мухаммад. Маснави-и ма‘navi = Поэма о скрытом смысле. Первый дафтар. СПб.: Петербургское востоковедение, 2007;



## O'QUV MASHG'ULOT GURUHI FUTBOLCHILARINING HIMOYADAGI O'YIN TAKTIKASINI RIVOJLANTIRISH

## РАЗРАБОТКА ЗАЩИТНОЙ ТАКТИКИ ИГРЫ ГРУППОВЫХ ФУТБОЛИСТОВ ПОДГОТОВКИ

## DEVELOPMENT OF DEFENSIVE GAME TACTICS OF TRAINING GROUP FOOTBALL PLAYERS

*Choriyev Dilshod Ismat o'g'li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh futbolchilarning himoyadagi o'yin taktikasini takomillashtirishga metodik jihatdan yordam berish va o'yin jarayonida taktik tizminda-maydonda harakat qilishi yuzasidan mashqlar majmuasini ishlab chiqishga qaratilgan. Zonaviy himoya qilish usuli,-maydondagi futbolchilar bir birlarini straxovka qilishlari o'yin jarayonida zinch harakat qilib taktik vazifani hal qilishga yo'naltiriladi. Futbolchilar tomonidan bajarilgan taktik harakatlar samaradorligi tadqiqot asosida yoritib berishga qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** yosh futbolchi, rejalashtirish, sifat, usuliyat, rivojlanirish, o'quv mashg'ulot, taktika, yuklama.

**Аннотация.** Целью данной статьи является методическая помощь юным футболистам в совершенствовании тактики защитной игры и разработка комплекса упражнений, связанных с их действиями на поле, в тактической системе во время игры. Метод зональной защиты, страшивание игроков на поле друг друга, направлен на решение тактической задачи за счет интенсивного перемещения во время игры. На исследованиях ориентирована эффективность тактических действий, совершаемых игроками.

**Ключевые слова:** молодой игрок, планирование, качество, методика, развитие, тренировка, тактика, нагрузка.

**Abstract.** This article aims to methodically help young football players to improve their defensive game tactics and to develop a set of exercises related to their actions on the field in a tactical system during the game. The method of zonal defense, the players on the field strashovka each other, is directed to solve the tactical task by intensively moving during the game. The effectiveness of the tactical actions performed by the players is focused on research.

**Keywords:** young player, planning, quality, methodology, development, training, tactics, loading.

### Kirish

Zamonaviy futbolning rivojlanish surʼti, koʼplab xorijiy mutaxassislarining faoliyati tajribasini oʼrganish, ilmiy nazariy va amaliy tadqiqotlarning tahliliy maʼlumotlari, yosh futbolchilarni tarbiyalashdagi uzoq muddatli jarayonga doimiy ravishda oʼzgartirishlar kiritilishi kerakligini

ta'kidlaydi. Har bir mamlakatning o'ziga xos farqli tomonlari va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuning uchun bizning mamlakatimizdagi yosh futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayoniga qiziqarli nazariy ishlanmalar va samarali amaliy usullarni va sport zahirasini tayyorlash uslubiyatlarini tatbiq qilish lozim. Xalqaro darajadagi raqobat va zamonaviy futbolning talablari sport zaxiralarini tayyorlashda murabbiylar hamda mutaxassislar oldiga yangi vosita va uslubiyatlarni qidirish vazifasini qo'yadi. Ushbu maqola futbol mahorat maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari (BO'SM) va ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablari (IBO'SM), olimpiya zahiralari kollejlari (OZK), futbol kublari va akademiyalari o'quv jarayonining futbolga yo'naltirilganligi va mazmunini belgilaydi. Millionlar o'yini bo'lmish futbol mamlakatimizda tobora rivojlanib bormoqda. Qobiliyatli yosh futbolchilarni tanlash, ularni professional darajaga yetgunicha tayyorlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish, murabbiylarni mashg'ulot jarayoniga yangiliklar olib kirishlari uchun rivojlangan davlatlarda stajirovka o'tashlari kasbiy mahoratlarini oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Oxirgi yillarda erishayotgan yutuqlarimiz mamlakatimizda futbolning tobora rivojlanayotganining yaqqol dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagи "Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-136 sonli Qarori va hozirgi kungacha chiqarilgan qarorlar, O'zbekistonda futbol sport turini rivojlanishiga katta ahamiyat berilayotganiga sabab bo'la oladi [1].

Zamonaviy sportning tobora ortib borayotgan talablar sport tashkilotlari va har bir murabbiyga o'z faoliyatining natijalarini sifatli oshirish uchun yangi qo'shimcha zaxiralarni qidirishga majbur qilmoqda.

Bolalar va o'smirlar sport maktabining amaliyoti va ularning faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarning sport mahorati va sport tajribasi, shug'llanishni boshlashdagi maqbul yoshi va ixtisoslikning dastlabki bosqichida mashg'ulotlarning ko'p qirrali bo'lganligi bilan chambarchas bog'liq. [2,3,5]

Taktika deganda, raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan o'yinchilarning individual va jamoaviy harakatlarini tashkil etish tushuniladi.

### **O'yin taktikasi quyidagilarga bo'linadi.**

- hujumdagи o'yin taktikasi;
- himoyadagi o'yin taktikasi.

### **Himoyadagi o'yin taktikasi**

Himoyaviy harakatlarni tashkil etishda quyidagi himoya harakatlarining usullari qo'llaniladi:

- zonaviy;
- personal;
- kombinatsiyalangan (aralash).

**Zonaviy himoya.** Bu himoyada o'ynashning shunday taktik usulidirki, unda har bir o'yinchilarning ma'lum bir qismini nazorat qiladi va uning ichida paydo bo'lgan har qanday raqib bilan to'p uchun kurashga kirishadi. O'yinning asosiy elementi bu sherikni aniq sug'urta qilish shaklidagi o'zaro yordam va vaqtida bir-biriga to'p uzatishlarni amalga oshirishdir. Ijobiy tomonlari, zonada bo'lgan o'yinchilar uni nazorat qiladi va raqibning harakatlariga chalg'imaydi.

Himoyada harakatlanayotgan o'yinchilar bir-biridan 10-15 metr masofadagi ikki himoya chizig'ini tashkil qilib turadi, har bir chiziqdа 4-5 nafar futbo'lchi bo'ladi, ular orasidagi masofa 5-6 metrni tashkil qiladi. O'yinchilarning bunday joylashuvi bir-birlarini ishonchli sug'urtalashga imkon beradi, darvoza oldida erkin o'yin-maydonchalari mavjudligini minimallashtiradi va markazdan zarba berish ehtimolini kamaytiradi. Bunday zinch himoyadan individual harakatlar yordamida o'tish mushkul.


Agar himoya chizig‘idagi o‘yinchilar sinxron harakat qilsa, ikki qanotdan berilgan uzatmalar ham, yon tomondan berilgan o‘tkir uzatmalar ham unchalik samarali bo‘lmashigi mumkin.

**Kamchiliklari.** Agar raqib jamoa o‘yinchilari hujum yonalishini o‘zgartirib bir yoki ikki tegishda to‘pni bir-birlariga tez uzatsa yoki qanotdan qanotga diagonal to‘p uzatmalarini amalga oshirsa, u holda himoyalanayotgan jamoa o‘yinchilarining vaziyatga qarab o‘zgarish va bir-birini sug‘urta qilishdagi tartibi va sinxronligi buzilishi mumkin.

Bundan tashqari, o‘yin jarayonida "o‘lik nuqtalar" paydo bo‘lishi mumkin, bu joyga esa to‘p yo‘naltirilishi ehtimoli katta. Masalan, darvozabon, markaziy va qanot himoyachi orasida. Ushbu uch futbolchidan qay biri to‘pga birinchi bo‘lib borishni tanlashi qiyin bo‘ladi. Shuning uchun tajribali jamoalar bundan oqilona foydalanishadi.[4,6,7]

Zonaviy himoya qilish usuli himoyaga chuqur joylashishni nazarda tutadi, bu ham uning kamchiliklaridan biridir.

Agar to‘rt himoyachi va to‘rt yarim himoyachilardan tashkil topgan joylashuvni kuzatadigan bo‘lsak, o‘yinchilar joylashuvining shartli sxemasi bo‘sqliqlarni berkituvchi 30x35 metr o‘lchamdagи to‘g‘ri to‘rburchaklar shaklida bo‘lishi kerak .



**1-rasm.** 4+4+2 o‘yinchilar joylashuv sxemasi.

Zonaviy himoyada asosiy rolni markaziy himoyachilar egallaydi. Muhimi, ular raqib jamoasining hujumini oldindan bilish va ko‘rish, yuqori start tezligi, yaxshi sakrash, havoda va yerda to‘p uchun ishonchli kurashish qobiliyatlariga ega bo‘lishlari kerak. Raqib qanotdan uzatmalarni amalga oshirganda, ushbu o‘yinchilar jarima-maydonchasidagi markaziy zonani yopishlari kerak.

**Personal himoya** – bu har bir himoyadagi o‘yinchiga qat’iy javobgarlik bilan raqib o‘yinchisini topshirgan holda himoyani tashkil qilishdir.

O‘yinchini personal "ushlash" ning asosiy maqsadi - uning xatti-harakatlarini to‘xtatish va sheriklari bilan o‘zaro harakatlanishini qiyinlashtirish. Buning uchun raqib o‘yinchi bilan shunday masofada bo‘lish kerakki, unga uzatilgan to‘pni egallab olish kerak yoki uzatma paytida raqibga hujum qilib undan to‘pni olib qo‘yish kerak. O‘yinchining-maydonda joylashgan joyiga, to‘pning joylashishiga va hujumchining tezligiga qarab, kerakli joyni va masofani egallab raqibni kuchli yoki kuchsizroq taqib qilish mumkin.

Ushbu usulning kamchiligi shundan iboratki, hujumchilar ularni taqib qilayotgan o‘yinchilarni o‘zlarini bilan olib ketib hujum rivojlanishi va uni samarali yakunlanishi uchun bo‘s sh zonalar yaratishadi. Qat’iy personal himoyada, chiziqlardagi o‘zaro harakatlar buziladi va sherigini sug‘urta qilish imkoniyati qiyinlashadi.

**Kombinatsiyalangan himoya** zamonaviy futboldagi eng keng tarqalgan usuldir va himoyadagi oqilona o‘yin taktikasidir. Unda personal va zonaviy o‘yin prinsiplari uyg‘unlashgan bo‘ladi. Shu bilan birga, ba’zi o‘yinchilar faqatgina tayinlagan raqibni taqib qilishi mumkin, boshqalari zonalarda o‘ynashlari mumkin.

Ushbu ikki usulning kombinatsiyasi bir futbolchining o‘yinida ham bo‘lishi mumkin. Ushbu ko‘nikma o‘yinni olib borish usullar turini ko‘paytirib, jamoaning himoyadagi harakatlarini boyitadi va himoyani kuchaytiradi.

### Himoyadagi o‘yining asosiy prinsiplari

*Himoya chizig‘idagi o‘yinchilar quyidagilarni bilishi kerak:*

1. Butun jamoa bo‘lib himoyalanishni. O‘yining turli bosqichlarida himoyada jamoaning barcha o‘yinchilari qatnashadi. Hujumchilar faol ravishda himoya harakatlarini bajarib, yo‘qotilgan to‘pni qaytarib olish choralarini ko‘rishi kerak.

2. Xavfli zonada hujum qilayotgan jamoaning barcha o‘yinchilarini yopish kerak. Agar hujum qilayotgan jamoa o‘yinchilari to‘p bilan bo‘lgan shеригидан qisqa yoki o‘rta masofada bo‘lib va undan to‘pni oyoqlari bilan yoki bosh zonada qabul qilish imkoniyati bo‘lsa, ularni personal ravishda yopishi kerak.

3. Sug‘urta va o‘zaro sug‘urta tamoyillariga qat’iy rioya qilish. Sug‘urtalovchining pozisiyasi shunday bo‘lishi kerakki, u har doim shеригининг xatosini tezda tuzatishga qodir bo‘lishi kerak. Ushbu pozitsiyani deyarli har doim sug‘urta qilinayotgan shеригининг orqasida, o‘z darvozasiga yaqinroq joyda bo‘lishi kerak.

4. Himoyada bir-biriga aytib turishni keng qo‘llash zarur. Qoida tariqasida shuni aytish joizki, darvozaga yaqinroq bo‘lgan o‘yinchi shерiklarning harakatlarini boshqaradi va bu himoyani kuchaytirishga yordam beradi. Bu borada darvozaboning alohida o‘rni bor. Uning pozisiyasi raqib hujumining rivojlanishi va himoyadagi shерiklarning harakatlarini diqqat bilan kuzatib, o‘yin vaziyatlarini aniqroq baholash va o‘z vaqtida shерiklarini ogohlantirib, ularning hatolarini o‘z vaqtida tuzatishga imkon beradi.

5. Sun’iy ravishda “o‘yindan tashqari holat”dan foydalanish. Agarda raqib jamoaning himoyani “buzib o‘tish” urinishlari juda qat’iy bo‘lib va ularning hujumchilari keskin ravishda ochilib, bo‘sh joyga chiqib ketishga harakat qilsa, sun’iy ravishda “o‘yindan tashqari holat”ni vujudga keltirish mumkin.

6. Raqib zarba bergen paytda o‘z darvozasi tomon borish. Raqib darvoza tomon zarba berganda, raqibdan oldin darvoza tomonga borib, raqibni qaytgan to‘pgi zarba berish imkoniyatidan mahrum qilish kerak.

Himoyadagi individual taktik harakatlar to‘p bilan va to‘psiz bo‘lgan o‘yinchiga qarshilik ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

**To‘psiz o‘yinchiga qarshi harakatlar.** Himoyalanayotgan o‘yinchi quyidagilarga intiladi:

- raqibni to‘pni olishiga yo‘l qo‘ymaslik ("yopish");
- raqibdan ilgarilab, to‘pni egallash ("egallab olish").

**“Yopish”** - bu raqib to‘pni qabul qilishini qiyinlashtirishga qaratilgan, himoyalanayotgan jamoa o‘yinchilarining to‘g‘ri pozitsiyani egallash maqsadidagi harakatlaridir.

“Yopish” paytda o‘yinchi quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak:

1. “Yopish” raqib o‘z pozitsiyasi bilan darvozaga tahdid solganda yoki o‘z harakatlari bilan darvozaga to‘p kiritish uchun qulay vaziyatni yuzaga keltirganda amalga oshiriladi.

2. Raqib darvozaga qanchalik yaqin bo‘lsa, uni zichroq “yopish” kerak bo‘ladi.

3. O‘yin vaziyatiga va o‘yinchilarning joylashishiga qarab, himoyachilar sun’iy ravishda "o‘yindan tashqari holat"ni yaratishi mumkin.

**“Egallab olish”**- bu raqibning hujumkor xatti-harakatlarini buzish uchun himoyalanayotgan o‘yinchini o‘z vaqtida to‘pga chiqishi. Egallab olish paytida o‘yinchi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

1. To‘p turgan joyga yoki to‘pni qabul qilayotgan raqibga nisbatan kerakli masofani saqlash.
2. Vaziyatni va harakat amalga oshirilayotgan paytni to‘g‘ri baholash.
3. To‘pni egallab olish uchun eng mos texnik vositani tanlash.

### **To‘p bilan bo‘lgan o‘yinchiga qarshi harakatlanish**

To‘p bilan bo‘lgan o‘yinchiga qarshi individual harakatlanib himoyalanish taktikasiga asoslangan, ya’ni o‘sha o‘yinchini kuzatib borish.

To‘pni qabul qilish paytida o‘yinchi to‘pni raqibdan olib qo‘yishga harakat qilishi kerak, chunki hujumchining diqqati asosan texnik usulni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

To‘pni egallab turgan o‘yinchiga qarshi harakatlanib, futbolchi quyidagi harakatlarni bajarishga intiladi:

- to‘pni olib qo‘yish;
- to‘pni uzatilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- to‘p bilan havfli vaziyatga chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- zarba berilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

### **Himoyadagi guruhi taktikasi**

Asosiy harakatlar:

- sug‘urta
- "devor", "kesib o‘tish", "to‘pni o‘tkazib yuborish" kombinatsiyalariga qarshi harakatlar.
- sun’iy "o‘yindan tashqari holatni" yaratish.

### **Himoyaviy o‘yindagi jamoa taktikasi**

Himoyadagi jamoaviy harakatlarga quyidagilar kiradi:

- tezkor hujumga qarshi himoyalanish;
- asta-sekin bo‘ladigan hujumga qarshi himoyalanish;

### **Tezkor hujumga qarshi himoyalanish**

Himoyadagi jamoaning o‘yinchilari quydagi larda majbur:

- darhol to‘pni qaytarib olish uchun kurashish yoki birinchi uzatmani amalga oshirilishiga xalaqit berish;

- raqibni qo‘shimcha uzatmalarni amalga oshirishga majbur qilish (yonga va orqaga);
- raqiblarning tezkor harakatlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun aniq hamjihatlikda o‘zaro harakatlanish, bir vaqtning o‘zida-maydonning ma’lum bir joyidagi o‘yinchilar guruhining darvozaga yaqiniga borish yo‘llarni yopish;
- qoida tariqasida birinchi uzatma qilingan o‘yinchiga hujum qilishga imkon bermaslik;

### **Asta-sekin bo‘ladigan hujumga qarshi himoyalanish**

Asosiy talablar:

1. Hujumni rivojlanishidagi keskin uzatmalarga imkon bermaslik uchun oyinchilarning ortga qaytishini amalga oshirish, bu esa raqibni yon tomonlarga uzatmalarni amalga oshirishga majbur qiladi;

2. To‘p va bo‘sh joy uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri kurashda faol ishtirok etish. Bu kurash raqiblar-maydon o‘rtasidagi chiziqdan o‘tganda boshlanadi;

3. Sug‘urta qilayotganda himoya chiziqlarining yaxlitligini saqlash, diqqatni jamlash va hujum yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanish;

### "Pressing"ni qo‘llasning xususiyatlari

Zamonaviy futbolda "pressing" tushunchasi to‘pni jamoaviy olib qo‘yish taktikasi va hujumni amalga oshirilayotganda to‘siqlar yaratishni anglatadi.


#### *Pressingdagi asosiy vazifalar:*

- o‘z jamoasi hujum boshlashi uchun to‘pni raqibdan olib qo‘yish (egallab olish);
- raqibni uzatmalar berishda xato qilishiga majbur qilish;
- raqibni orqaga to‘pni uzatishga majbur qilish (bu esa oldindagi bo‘s sh zonalarni yo‘qotishiga olib keladi va raqib hujumi sekinlashadi);
- raqibni darvozaga noto‘g‘ri zarba berishga majbur qilish (bunga esa shoshilishga majbur bo‘lishlari sababli).

#### *Pressing zonasini tanlash quyidagilarga bog‘liq:*

- funksional tayyorgarlikka;
- raqibning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasiga;
- o‘yin natijasiga.

Pressing uchta zonada bo‘ladi (buning uchun futbol-maydoni uchta teng qismga bo‘linadi, 2 rasm)



**2-rasm.** Pressing zonalari - "1" himoya zonasi; "2"-maydon o‘rtasidagi zona; "3" hujum zonasi

**"Pressingda"** o‘ynashni o‘rganishda va mustahkamlashda mashqlarni tanlashning asosiy jihatlari:

- to‘pni olib qo‘ygandan keyingi 10 soniya ichida qarshi hujumga o‘tish va gol urishga intilish. Bundan ham tezroq amalga oshirish mumkin, ammo mashg‘ulotlarda 10 soniya chamalanadi;
- "Tez o‘ynash, tez o‘ynab ketish" ustida ko‘p ishslash kerak. To‘p olib qo‘ylgandan so‘ng o‘yinchilar darhol 1-2 marotaba to‘pga tegib o‘rganilgan kombinatsiyalarni amalga oshirishlari uchun to‘g‘ri joylashishlari kerak.
- markaziy zona qarshi hujumlarning asosi hisoblanadi. To‘pni olib qo‘ygandan so‘ng ushbu zona yopiladi. Futbolchilarga tezkor hujumni rivojlantirish vaqtida ham unda qolish uchun aniq ko‘rsatma beriladi.

- to‘pga qaratilgan pressing qarshi hujumlarni yanada xavfli qiladi. Aynan to‘p zona pressingi mo‘ljali bo‘lib hizmat qiladi - bunday pressing to‘pni yo‘qotishdan so‘ng bir zonada darhol ko‘p sonli o‘yinchilar paydo bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa "tez o‘yin tashkil qilish" uchun foydalidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagи “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-136 sonli Qarori.
2. Artiqov A.A. Malakali futbolchilarda texnik usullarning maqsadli aniqligini takomillashtirish metodikasi. Toshkent 2018.
3. А.К. Беляков Особенности подготовки юных футболистов Методическое пособие-М.:ФГБУ «Федеральный центр подготовки спортивного резерва», 2012. — 80 с.
4. Нуриров З.Р. Основание эффективных средств совершенствования групповых тактических действий квалифицированных футболистов. Т. 2004г
5. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Ташкент Изд-во.Абу-Али-Ибн-Сино. – 2000 г. – с. 135.
6. Э.А.ЛугеновТехническая подготовка юных футболистов 10-12 лет Екатеринбург 2019.
7. Антипов, А.В. Эффективность методики развития скоростно-силовых способностей и выносливости у юных футболистов 12-14 лет в процессе годичного тренировочного цикла [Текст]/ А.В. Антипов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2014. – №4. – С.37-39.



## FROM TEACHER-CENTERED TO LEARNER-CENTERED: REDUCING THE TEACHER TALK FOR MAXIMIZING STUDENT ENGAGEMENT

### О‘QITUVCHIGA YO‘NALTIRILGAN DARS DAN O‘QUVCHIGA YO‘NALTIRILGAN DARSGACHA: DARS DA TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH UCHUN O‘QITUVCHI NUTQINI KAMAYTIRISH

ОТ УРОКА, ОРИЕНТИРОВАННОГО НА УЧИТЕЛЯ, К УРОКУ,  
ОРИЕНТИРОВАННOMУ НА УЧЕНИКА: СОКРАЩЕНИЕ РЕЧИ УЧИТЕЛЯ ДЛЯ  
ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ НА УРОКЕ

*Dusmamadova Gulsum, Abdulloyeva Malikabonu*

**Abstract.** This article explores the transition from traditional, teacher-dominated methods of instruction to more learner-centered approaches in the English language classroom. The negative impact of excessive teacher talk on student participation and engagement is highlighted. Drawing on both research and practical examples, the article outlines strategies for minimizing teacher talk time and creating opportunities for active student involvement. Techniques such as the use of group discussions, peer teaching, and task-based learning are emphasized as ways to foster a more dynamic and interactive learning environment. This article serves as a guide for educators seeking to empower students by promoting collaboration, autonomy, and meaningful communication in the classroom.

**Keywords:** Learner-Centered Approach, Teacher Talking Time (TTT), Student Talking Time (STT), Student Engagement, Active Learning, Classroom Interaction, Student Autonomy, Peer Collaboration, Task-Based Learning, Effective Communication, Pedagogical Strategies, Interactive Teaching.

**Dusmamadova G.,**  
Assistant teacher at the  
Uzbekistan-Finland  
Pedagogical Institute  
[gulidusmamadova@mail.ru](mailto:gulidusmamadova@mail.ru)

**Abdulloyeva M.,**  
Assistant teacher at the  
Uzbekistan-Finland  
Pedagogical Institute  
[alikabonuabdulloyeva9299@gmail.com](mailto:alikabonuabdulloyeva9299@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bu maqolada ingliz tili darslarida an'anaviy, o‘qituvchi markazli ta’lim usullaridan ko‘proq o‘quvchi markazli yondashuvlarga o‘tish jarayoni tahlil qilinadi. O‘qituvchining ortiqcha gapirishi o‘quvchilarning ishtiroki va faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Tadqiqotlar va amaliy misollarga asoslanib, maqolada o‘qituvchi nutqi vaqtini qisqartirish va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb etish imkoniyatlarini yaratish strategiyalari ko‘rsatib o‘tiladi. Guruh muhokamalari, peer teaching (tengdoshlar o’rtasidagi o’zaro o‘qitish) va vazifaga asoslangan o‘qitish kabi usullar yanada dinamik va interaktiv o‘quv muhitini yaratish yo’llari sifatida ta’kidlanadi. Ushbu maqola sinfda hamkorlik, mustaqillik va mazmunli muloqotni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashga intilgan o‘qituvchilar uchun qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** *O‘quvchi markazli yondashuv, o‘qituvchi nutqi vaqtி (TTT), o‘quvchi nutqi vaqtி (STT), o‘quvchilarning faolligi, faol o‘qitish, sinfdagi o‘zaro aloqalar, o‘quvchi mustaqilligi, tengdoshlar bilan hamkorlik, vazifaga asoslangan o‘qitish, samarali muloqot, pedagogik strategiyalar, interaktiv o‘qitish.*

**Аннотация.** Эта статья рассматривает переход от традиционных, учительских методов обучения к более ориентированным на учащихся подходам в классах английского языка. Подчеркивается отрицательное воздействие чрезмерного говорения учителя на участие и вовлеченность студентов. Опираясь как на исследования, так и на практические примеры, статья описывает стратегии сокращения времени говорения учителя и создания возможностей для активного участия студентов. Такие методы, как групповые обсуждения, обучение сверстников и обучение, основанное на выполнении задач, подчеркиваются как способы содействия более динамичной и интерактивной учебной среде. Эта статья служит руководством для преподавателей, стремящихся расширить возможности студентов, поощряя сотрудничество, автономию и значимое общение в классе.

**Ключевые слова:** *Ориентированный на учащегося подход, время говорения учителя (TTT), время говорения студентов (STT), вовлеченность студентов, активное обучение, взаимодействие в классе, автономия студентов, сотрудничество со сверстниками, обучение, основанное на выполнении задач, эффективное общение, педагогические стратегии, интерактивное обучение.*

## 1. Introduction

In the ever-evolving landscape of English language teaching, a significant paradigm shift has been the move from teacher-centered to learner-centered approaches. Traditional classrooms often emphasized teacher talk, where instructors were the primary source of knowledge and students played a passive role. However, research has increasingly shown that active engagement and meaningful participation are crucial for effective language acquisition. Reducing teacher talk and fostering a more interactive, student-focused environment can lead to improved communication skills, increased confidence, and greater motivation among learners.

This article explores the transformation from teacher-centered to learner-centered instruction, examining the benefits of minimizing teacher talk time and promoting strategies that actively engage students. By shifting the focus toward learners and giving them opportunities to speak, practice, and interact, teachers can create dynamic classrooms that better support language learning. The discussion will highlight practical techniques to reduce teacher dominance in class and maximize student involvement, ultimately leading to a more effective and enriching learning experience.

## 2. Literature review

The shift from a teacher-centered to a learner-centered approach is grounded in theories of active learning and constructivism, which suggest that students learn best when they are actively engaged in the learning process. As Baxter and Gray (2001) concur that for effective learning it is desirable to move toward a model in which students are actively engaged in the learning process [4]. Theorists like John Dewey, Jean Piaget and Lev Vygotsky, whose collective work focused on how students learn, have informed the move to student-centered learning. Dewey was an advocate for progressive education, and he believed that learning is a social and experiential process by making learning an active process as children learn by doing. He believed that a classroom environment in which students could learn to think critically and solve real world problems was the best way to prepare learners for the future [2]. In traditional, teacher-centered classrooms, instructors dominate the talk time, limiting students' opportunities to practice language skills and interact with peers. Research in language acquisition supports the notion that students need ample opportunities for active participation and language use in order to develop fluency and confidence.

In a learner-centered classroom, the teacher acts as a facilitator, guiding students in discovering and applying language concepts rather than merely presenting information. This approach places students at the core of the learning process, fostering independence and self-directed learning. By reducing teacher talk, instructors can create more opportunities for student interaction, collaboration, and engagement, which are essential for language development. In teacher-directed instruction, the teacher sets learning objectives, and then plans a set of activities designed to help learners meet those objectives. Because learners are not assumed to be able to determine a process to meet these objectives, it is the responsibility of the teacher to guide or direct students through a step-by-step process and to make sure that any difficulties they encounter during this process are resolved. In student-centered learning, the teacher presents the central question (issue, case, problem), and then works as a facilitator as students determine the nature of the response they will develop, and then formulate and carry out a process to develop that response. Teachers help students to work through the difficulties they encounter by questioning them and helping them to identify alternative paths or resources, but they do not resolve these difficulties for the students [1]

### 3. Research methodology

Transitioning to a learner-centered approach requires deliberate effort and a fundamental rethinking of traditional classroom dynamics. In such environments, reducing teacher talk time (TTT) becomes a critical step toward fostering greater student engagement. One effective way to achieve this is through structured pair and group activities, which provide students with authentic opportunities to practice speaking and listening. Activities like role plays, debates, and collaborative projects shift the focus from the teacher to the learners, allowing them to engage directly with the language and with each other. Similarly, using open-ended questions rather than direct answers can encourage students to think critically, articulate their ideas, and take ownership of their learning.

Incorporating the flipped classroom model is another strategy for minimizing TTT. By moving instructional content outside the classroom through pre-class materials such as videos or readings, teachers can dedicate more lesson time to student-led discussions and interactive tasks. This approach not only reduces the teacher's verbal dominance but also enhances students' ability to apply what they have learned. Technology can also play a pivotal role in creating a learner-centered environment. Digital tools, such as language apps, interactive whiteboards, and online platforms, empower students to explore topics independently and collaborate with peers, fostering autonomy while reducing teacher reliance.

Task-based learning (TBL) is particularly effective in promoting student engagement. This approach focuses on students completing meaningful, real-world tasks that require the use of the target language. For example, learners might work together to solve problems, deliver presentations, or conduct interviews. Such activities naturally increase student talk time (STT) and encourage meaningful communication, allowing the teacher to take on the role of a facilitator rather than the sole source of knowledge.

Although minimizing TTT places students at the forefront of the learning process, the teacher's role in monitoring and providing feedback remains essential. Instead of dominating classroom discussions, the teacher can circulate during activities to guide learners, address their challenges, and offer feedback in real-time, ensuring that the learning process remains productive and goal-oriented.

Student-centered learning environments have been shown to be effective in higher education[3]. They have been defined specifically within higher education as both a mindset and a culture within a given educational institution and as a learning approach broadly related to, and supported by constructivist theories of learning.

#### 4. Discussion and conclusions

The benefits of reducing teacher talk time are numerous. Allowing students to take a more active role in their learning enhances language proficiency as learners gain more opportunities to practice speaking and listening. Increased STT also builds students' confidence, enabling them to use the language more spontaneously. Furthermore, active learning techniques result in higher levels of engagement, catering to diverse learning styles and fostering curiosity. Beyond language acquisition, students develop essential skills such as collaboration, critical thinking, and problem-solving—competencies that are invaluable in real-world contexts.

However, the shift to a learner-centered approach is not without challenges. Some students-may initially resist the increased autonomy required in such environments, preferring the structure of teacher-led instruction. To address this, educators can provide clear instructions, scaffold activities appropriately, and offer consistent encouragement. Time constraints-may also pose difficulties, as preparing interactive lessons often requires additional effort. Teachers can overcome this challenge by utilizing ready-made resources, lesson templates, or adapting existing materials to suit their needs. Classroom management is another potential obstacle, particularly in group settings where noise or off-task behavior-may occur. Establishing clear rules and expectations helps maintain focus and ensures productive collaboration among students.

Reducing teacher talk time is a transformative step in creating a learner-centered classroom where students are empowered to take control of their learning. By prioritizing active engagement and meaningful interaction, educators can foster an environment that supports language development and equips learners with the skills they need for success beyond the classroom. This approach not only enhances language acquisition but also prepares students for collaborative and communicative challenges in the real world, making it a vital strategy for modern language teaching.

#### REFERENCES

1. Pedersen, S., & Liu, M. (2003). Teachers' beliefs about issues in the implementation of a student-centered learning environment. *Educational Technology Research and Development*, 51(2), 57-76.



2. Crumly, Cari; Dietz, Pamela; d'Angelo, Sarah (November 1, 2014). Pedagogies for Student-Centered Learning: Online and On-Ground. Augsburg Fortress Publishers. doi:10.2307/j.ctt9m0skc.5. ISBN 978-1-4514-8953-8. JSTOR j.ctt9m0skc.
3. Wright, Gloria Brown (2011). "Student-Centered Learning in Higher Education" (PDF). International Journal of Teaching and Learning in Higher Education. 23 (3): 93–94. ISSN 1812-9129.
4. Baxter, S., & Gray, C. (2001). The application of student centered learning approaches to clinical education. International Journal of Language & Communication Disorders: Supplement, 36, 396-400.

## BOSHLANG'ICH MATEMATIKA TA'LIMIDA UZVIYLIKNI TA'MINLANISH YO'LLARI

## ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНТЕГРАЦИИ В НАЧАЛЬНОМ МАТЕМАТИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

## WAYS TO PROVIDE CONTINUITY IN PRIMARY MATHEMATICS EDUCATION

*Eshqobilova Guldona*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich matematika ta'limalda uzviylikni ta'minlanish muammolari va uni hal qilish yo'llari e'tirof etilgan, uzviylikni ta'minlash muammolariga qaratilgan pedagog olimlarning fikrlari, matematika ta'limalda olgan bilimlarini amaliyatga tatbiq qilish, o'quvchilar qobiliyatlarini shakllantirishda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini amalga oshirilishining o'ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Uzluksizlik, uzviylik, pedagogik, metodik, usullari, vositalari, muammo, mantiqiy tafakkur, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, "tenglik va tengsizlik", "sonlarni taqqoslash".*

**Абстрактный.** В статье выявлены проблемы обеспечения системности начального математического образования и пути ее решения, представлены мнения педагогов, ориентированные на проблемы обеспечения системности, практического применения полученных знаний в математическом образовании, формирования его способностей. Поясняется, что важны особенности реализации сотрудничества учителя и ученика.

**Ключевые слова:** преемственность, связность, педагогика, методика, методы, инструментарий, проблема, логическое мышление, сотрудничество учителя и ученика, «равенство и неравенство», «сравнение чисел».

**Annotation.** The article identifies the problems of ensuring continuity in primary mathematics education and ways to solve them, highlights the views of pedagogical scientists focused on the problems of ensuring continuity, the importance of the specific features of teacher-student cooperation in applying knowledge gained in mathematics education to practice, and the formation of students' abilities.

**Keywords:** continuity, continuity, pedagogical, methodological, methods, tools, problem, logical thinking, teacher-student cooperation, "equality and inequality", "comparison of numbers".

*Eshqobilova G.,  
O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti  
[geshqobilova@bk.ru](mailto:geshqobilova@bk.ru)*

Uzviylikni ta'minlanishida eng muhim omillardan biri o'quvchilarning har bir matematik bilimlarni idrok qilishi o'quvchilar xotirasi va tafakkurining shakllanishiga to'laqonli asos bo'la olishidir. Agarda o'quvchilar bilimlarni idrok qila olmasa, ularda xotira to'liq shakllanmay qolish oqibatida o'quvchilarda tafakkur qilish imkoniyatlari talab darajasida bo'lmaydi. N.F.Talizinaning

fikriga ko'ra, "boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishda o'zlashtirish jarayonining eng muhim omili deb bilish jarayoni, xotira va tafakkurning faolligi deb ko'rsatadi" [1:140-160]. Haqiqatdan ham, o'quvchi bilimlarni o'zlashtirib olishi uchun dastlab ularni qabul qilib olishi kerak, ya'ni bu bilimlar ustida ma'lum bir metodik faoliyatni amalga oshirishi lozim. Boshqacha qilib aytganda har bir matematik bilimlarni dastlab obrazli qilib, ko'rsatmalilikdan foydalangan holda boshqarish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, boshlang'ich matematika ta'limi jarayonida o'quv materiallari orasida o'zaro izchillik, uzviylik, uzuksizlik ta'minlanmas ekan, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallari to'liq o'zlashtirilmaydi. Shuning uchun boshlang'ich matematika ta'limining uzviyiligi tamoyiliga amal qilish didaktikaning muhim prinsipi bo'lib, o'quvchilarga har bir boshlang'ich matematik bilimlarni obrazli qilib, oddiydan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab borishini ta'minlagan holda olib borishi lozim. DTS, o'quv rejalar, dasturlar, boshlang'ich sinf matematika darsliklarida materiallarning bir-biri bilan mantiqiy bog'liq bo'lishini, ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni talab qiladi. Bunda boshlang'ich maktab matematika qonuniyatlarini o'zlashtirish, o'r ganilgan bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llay olish, malaka esa o'r ganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarini hayotga tatbiq etish mahorati hisoblanadi.

Bundan tashqari boshlang'ich matematik ta'lim uzviyligini ta'minlashda "o'qituvchi va o'quvchi", "o'quvchi va oila", "o'qituvchi va o'quvchi" hamkorligini zamon talablari asosida yo'lga qo'yish ham o'ta muhim hisoblanadi. Chunki o'quvchi oilasidan, o'qituvchilaridan va sinfdoshlaridan o'rnat olib, o'z bilim, ko'nikmalarini oshira boradilar. Psixolog E.G'oziyev o'zining ilmiy izlanishlarida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini sakkizta bosqichga bo'lib ko'rsatadi [2:218-223]. Haqiqatdan ham, o'quvchini boshlang'ich matematika fanining to'la kursiga olib kirish, uning barcha bilimlari bilan tanishtirish, ularning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay bilish, qobiliyatlarini shakllantirish o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida amalga oshirilishida quyidagi xususiyatlarga e'tibor berish kerak:

birinchidan, boshlang'ich matematika ta'limida o'quvchilarning har bir tushunchaning mazmun va mohiyatini to'liq anglab yetish uchun o'qituvchi avvalo obrazli qilib, bayon etishga, tushuntirishga harakat qilishi lozim;

ikkinchidan, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va ulardagi mavjud bilim darajasini hisobga olgan holda, navbatdagi bilimlarni o'r ganishga kirishish kerak. Aks holda o'quvchi yangi materiallar mazmun va mohiyatini anglab yetishlari mumkin emas;

uchinchidan, yangi materialning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash uchun uzviylik tamoyiliga asoslangan holda mavzuni bo'limlarga bo'lib tushuntirish lozim;

to'rtinchidan, oldingi o'tilgan boshlang'ich matematika fani materiallari keyingi materiallar uchun asos bo'lib xizmat qilsa, shuningdek, sinflar kesimida va boshlang'ich ta'limning tayanch fanlari aro uzviylik ta'minlangan bo'lsa, o'quv materiallarining mazmun va mohiyati chuqur va to'la anglab yetilishi mumkin.

Boshlang'ich matematika ta'limida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish uzviylikni ta'minlash bilan bog'liq muhim masala hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni matematik bilimlarni chuqur tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash, chandalash, umumlashtirish, anglab yetish, o'z fikrini mustaqil bayon qilish, masalalarning shartini va savolini ajrata bilishga o'rgatish, savoliga qarab amalni tanlay bilishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bunda masalalarning yechilish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Boshlang'ich sinf matematika ta'limida masalalarni yechish metodikasida 1) o'quvchilar masalalarni o'qishi, masalani og'zaki so'zlab berishi; 2) o'qituvchining

savollari va masalani takrorlash; 4) masalaning shartini aniqlash; 5) masalaning savolini aniqlash; 6) masalaning savoliga nisbatan amal tanlab olish; 7) o‘quvchilar masalalarni hayolida(miyasida) yechishlari va buni o‘qituvchiga aytib berishlari; 8) o‘quvchilarning masalani yechish haqidagi fikrlarini tinglab masalani yechish va yechilishning matematik yozma ko‘rinishini doskaga yozishi; 9) masalaning javobini qisqa, aniq va javobni to‘g‘ri ifodalab yozish o‘quvchida ma’lum bir matematik tafakkur qilish tuyg‘ularini hosil qilishi bilan ajralib turadi [3:160-180].

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar sonlarni sanash, geometrik figuralar haqida dastlabki tasavvurlar hosil qilish kabi tushunchalar bilan mexanik (tushunchalarning ma’nosini to‘liq anglamagan) holda tanishgan bo‘ladilar. Boshlang‘ich sinflarda esa bu bilimlarni mustahkamlash bilan birga didaktik materiallar asosida va ko‘rsatmalilikdan foydalanib obrazli qilib o‘quvchilarga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq holda yetkazib berish talab qilinadi. Miqdorlarga doir matematik tushunchalarni o‘rganishda dastlab bu miqdorlar qanday o‘lchov birliklarini tashkil etganligiga diqqatni qaratish, ayrim o‘lchov birliklarini izohlash, ulardan foydalanish yo‘llari, ular ustida amallar bajarish usullarini o‘rganish lozim.

Boshlang‘ich matematika ta’limida o‘quvchilarni sonlarni nomerlash tushunchalari bilan tanishtirilayotgan o‘qituvchi, o‘quvchilarning mexanik o‘rganib olishlarini emas, balki mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish matematik tushunchalarning mazmunini anglab yetishlariga, olgan bilimlarini boshqa bilimlar bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlashga yo‘naltiradi. Albatta, har bir matematik tushuncha o‘z xususiyatiga ko‘ra ma’lum metodik yondashishni talab etadi. Masalan, boshlang‘ich matematik ta’limda “O’n ichida sonlarni nomerlash” mavzusini o‘tish uchun nomerlashning mazmun mohiyatini o‘quvchilarga chuqur anglashish uchun, avvalo, sonlarni nomerlash tushunchasi, sonlarni qo‘sish va ayirish orqali o‘rgatilishini aytish lozim. O’n ichida sonlarni nomerlash og‘zaki va yozma ko‘rinishda bo‘ladi. [4:20-60]

Agar bitta birlikka yana bitta birlik qo‘silsa, ikkita birlik hosil bo‘ladi. Bu og‘zaki nomerlash hisoblanadi. Hosil bo‘lgan ikkita birlik “ikki” deb o‘qiladi va “2” deb yoziladi. Hosil bo‘lgan ikkita birlikning “ikki” deb o‘qilishi va “2” deb yozilishi yozma nomerlash deb aytildi. Ikkita birlikka bitta birlik qo‘silsa, uchta birlik hosil bo‘ladi. Bu “uch” deb o‘qiladi va “3” deb yoziladi. Shunday qilib o‘n ichida sonlarni og‘zaki va yozma nomerlash metodikasi o‘quvchilarga yetkazib beriladi.

O‘quvchilarning diqqati dastlab o‘n ichida sonlarni nomlarini bilishga, ularning ketma-ketligini bilishga, sonlar qatoridagi har bir son berilgan to‘plamning elementlaridan faqat bittasiga mos kelishini, har bir son sonlar qatorida nechanchi tartibda bo‘lishini anglab yetishiga qaratiladi.

Sanoq tushunchasini hisoblash tushunchasi bilan aralashtirish yaramaydi. “hisoblashni o‘qitish” o‘rniga “sanoqqa o‘rgatish” yoki “hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish” o‘rniga “sanoq ko‘nikmalarini shakllantirish” kabi ifodalarning tatbiq etilishi shuni ko‘rsatadiki, biz foydalilanayotgan bu terminlar tushunchasi to‘liq aniqlanmagan yoki biz ularni qat’iy tatbiq eta olmayapmiz. Shuningdek, “to‘g‘ri sanoq” va “teskari sanoq” tushunchalari haqida shuni aytishimiz mumkin. “Teskari sanoq” tushunchasi haqiqatda yo‘q. Buni bittadan kamaytirib sanash deyish mumkin. Ya’ni ayirishdan iborat. Lekin “teskari sanoq” mavjud bo‘lmagan uchun, “to‘g‘ri sanoq” haqida ham so‘z bo‘lishi mumkin emas. Bu sanoq tushunchasiga kiritilgan bu ikki qo‘sishmachi, ortiqcha bo‘lgani uchun tashlash kerak. Sonlarning otlarini teskari tartibda aytish mumkin, ammo buni sanoq mashqi deb aytish to‘g‘ri emas. Shu sababli o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi birinchi sinfga kelgan bolalarning maktabgacha ta’limdagi yoki uyda olgan matematik tayyorgarlik darajalarini aniqlashdan iborat. Bu mashg‘ulotlar boshlangunga qadar bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida yoki juda bo‘limganda, birinchi hafta dars mashg‘ulotlari davomida, sinf bilan frontal ishslash davomida amalga oshirish kerak. O‘quvchilar

bilimlarini tekshirish muhitni samimiy bo‘lishi va har qanday holda ham bu tekshirishni imtihonga aylantirib qo‘ymaslik kerak. Birinchi sinfga kelgan ko‘pchilik bolalar 10 dan yuqori sonlarni ham sanay oladilar. Bu bolalarning ongli ravishda sonlarni sanay oladilar deyishga asos bo‘la olmaydi. Bolalar mexanik ravishda ham sanashlari mumkin. O‘quvchilarning ongli ravishda sanashlarini tekshirish uchun ushbu yo‘naltiruvchi savolni berishi kerak.



Bu doirachalarni sana. Bunda doirachalar nechta? (7 ta doiracha)

O‘quvchining to‘g‘ri javobi taxminan bunday bo‘ladi: bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti. Hammasi 7 ta doiracha. Bu holda o‘quvchi oxirgi aytilgan sonni (7 ta) umumiy miqdor bilan to‘g‘ri mos keltirdi. Demak, o‘quvchi tushunib sanaydi.

Agar o‘quvchi oxirgi aytilgan sonni umumiy miqdor bilan to‘g‘ri mos keltira olmasa, u holda bu o‘quvchi sanay olmaydi.

Undan tashqari o‘quvchiga 9 gacha sana-chi? Buyrug‘ini beradi. O‘quvchi 8 larga kelganda o‘qituvchi “5 dan oldin va keyingi sonlarni ayt”, – deydi. Agar o‘quvchi “birdaniga 4 va 6 desa” 10 gacha ongli sanashni o‘rgangan bo‘ladi. Agar qo‘liga murojaat qilib yana birdan boshlasa mexanik bo‘ladi.

Bunday mashqlarning asosiy vazifasi bolalarda “Oldin-keyin”, “Oldida-orqasida”, “Chapda-o‘ngda”, “Yuqorida-pastda”, “Orasida”, “Uzun-qisqa” va hokazo tayanch ifodalarni to‘g‘ri tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan, tartib munosabatlari haqidagi, fazoviy munosabatlardagi tasavvurlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, bolalar geometrik figuralarni taniy olishlarini va ularni farqlay olishlarini (bunda ayniqsa uchburchak, to‘rburchak, doira, to‘g‘ri to‘rburchak, kvadrat va hokazo figuralarga alohida e’tibor berishni) aniqlash kerak. Shu va boshqa bir qator figuralar haqida elementar tasavvurlarni tarkib toptirish va rivojlantirish maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich maktab ta’limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O‘quvchilarning sodda misollar va masalalarini yecha olishlarini aniqlash maqsadga muvofiq.

Natijalar jurnalda bunday jadval yordamida rasmiylashtirilishi mumkin:

Tartibi	Vaqtি	Familiyasi, ismi	....gacha sanay oladi	Narsalar sanog‘i	Qancha bo‘lsa shuncha	Qaysini ko‘p(kam) tayanch iboralar			Fazoviy tayanch iboralar		
						Ko‘zda chamlay olish	Qayta sanash	Ustma-ust qo‘yish	Mos keltirish	Chapdan-o‘ngga	Yuqorida
1.	25.VIII	Shodiyeva J.									
2.	25.VIII	Javliyeva D.									

O‘quvchilarga sonlarni nomerlashni o‘rgatish uchun dastlab zarur bo‘ladigan bilimlarni, ko‘nikmalarni va malakalarni aniqlash, ularni to‘ldirish va uzviyligini ta’milanshdan iborat.

O'quvchilar dastlab sinfda mavjud bo'lgan predmetlarni, ya'ni eshiklar, derazalar, stullar, sinfdagi qizlar (o'g'il bolalar) va hokazolarni sanashga doir mashqlarni bajarishi kerak. O'quvchilar bunday mashqlarni bajarishda ko'rish orqali sanaydilar. O'quvchilar narsalarni qo'lida ushlab ko'rishi, surib kelishi uchun-maydarоq narsalarda, ya'ni qalamlardan kubchalardan, doirachalardan, soq cho'plaridan foydalanishi zarur. Har bir o'quvchida kamida 20 tadan sanoq cho'pi bo'lishi kerak. O'qituvchida shunga, faqat kattaroq o'lchamdagи cho'plar bo'lishi maqsadga muvofiq. Bundan o'quvchilarni birgalikda xor bo'lib sanashlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin. O'qituvchi bir qo'lidan ikkinchi qo'liga bittadan sanoq cho'pini olib qo'yadi, o'quvchilar esa har gal navbatdagi sonni aytaverishadi. Shundan keyin sanash uchun darslikda berilgan rasmlardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarga sanashni o'rganish jarayonida imkonи boriga "qancha?" so'zi bilan bog'liq ko'proq savollar qo'yishga mashq qildirish muhim. Masalan, bir xaltaga har xil o'chamli va har xil rangli, masalan, qizil va yashil rangli kvadratlarni qo'yamiz. Yashil rangli kvadratlar qancha, deb so'raymiz. Qizil rangli kvadratlar qancha? Hammasi bo'lib katta kvadratlar qancha? Kichik kvadratlar hammasi bo'lib qancha? Birinchi shkafdagи hamma kvadratlar qancha? Ikkinci shkafdagи hamma kvadratlar qancha? Ikkala shkafdagи hamma kvadratlar qancha va hokazo.

Bunday shaklda o'tkaziladigan sanashga doir mashqlar o'quvchilarning sanashga oid malakalarini shakllantiradi va o'quvchilarning kuzatuvchanligini ham tartiblaydi. Sanoq bilan bog'liq mashqlar bajarish jarayonida birinchi navbatda, sanoqda oxirgi aytilgan son sanalayotgan to'plamda qancha yoki chapdan o'ngga, pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga qarab sanashimiz bilan sanoq natijasi o'zgarmasligini tushuntirish lozim. Lekin narsalarni sanashda o'tkazib yubormaslik yoki ulardan birortasini ikki marta sanamaslik kerak. Narsalarni sanashga bag'ishlangan mashg'ulotlarda o'quvchilarni bittalab sanash bilan birga ikkitalab (juftlab) (masalan, qo'lqoplar, paypoqlar jufti), bittalab (masalan, tugmalar beshligi) va hokazo sanashga o'rgatish muhimdir.

Sanoqqa doir mashqlar bajarish jarayonida "katta", "ortiq", "ko'p", "kichik", "kam", "teng", "shunga" [4.4-10] kabi tayanch tushunchalarning ma'nosini o'quvchilarga ochib berish kerak. Masalan, katta va kichik kublar gruppalarini taqqoslash uchun har bir katta kub ustiga bittadan kichik kub qo'yamiz. Agar natijada katta kublardan bir nechtasining usti bo'sh qolsa, demak, katta kublar ortiq bo'ladi. Shuningdek, qizil va yashil doirachalarni ham shunga o'xshash taqqoslash mumkin.

Sonlarni nomerlashda qo'shish va ayirish amallarini o'rganishga yo'naltirish uchun ikki to'plam elementlarini birlashtirishga doir va to'plam qismini ajratishga doir o'quvchilar amaliy mashqlar bajarish kerak. Masalan, stol ustiga 3 ta uchburchak va 2 ta kvadrat qo'ying. Kvadratlarni uchburchaklarga tomon yaqinlashtiring va stolda hammasi bo'lib qancha figura borligini aniqlang. Daftaringizning bir qatorida umumiy tomonlarga ega bo'lgan beshta kataknai ajratib oling, beshinchи kataknai bo'yang. Nechta bo'yalmagan katak qoldi?

O'quvchilar bunga o'xshash mashqlar bilan birinchi o'nlik sonlarni nomerlashda ham bir necha marta uchrashishadi.

O'quvchilarni raqamlarni yozishda tayyorlash uchun nuqtalar, cho'plar, doiralar, uchburchaklar, kvadratlar va hokazolar rasmini chizish bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajarish va o'rgatish kerak. Bunday mashqlarni bajarish bilan o'quvchilar ruchkani to'g'ri tutishni, qatorni ko'rishni, sahifaga raqamlarni to'g'ri joylashtirishni o'rganadilar. Tayyorgarlik davri matematika darslarida o'quvchilarni daftar, darslik, diidaktik materiallar, chizg'ich va shunga o'xshash qurollar bilan tanishtirish kerak.

Ta'lrim standartida birinchi sinflar uchun matematikadan dastlabki bilimlar birinchi o'nlik sonlarni o'rganishdan boshlanadi. Bunda o'qituvchining vazifasi dastlab bolalarda narsalarning o'zaro joylashuvida:

– Ustida, ostida, ichida, orasida, yuqorida, pastda, oldida, orqasida;

Sonlarni o‘zaro joylashuvida:

– O‘ngga, chapga;

Sonlarni taqqoslashda:

– Uzun-qisqa, keng tor, baland-past, uzunroq-qisqaroq, balandroq-pastroq, kengroq;

Narsalarni taqqoslashda:


Yo‘g‘on-ingichka, qalin-yupqa, qalinroq, yo‘g‘onroq, ingichkaroq, og‘ir-yengil, og‘irroq-yengilroq kabi tayanch tushunchalar haqida malakasini qabul qilish, shuningdek, narsalarni rangi, shakli va narsalarning xossalari bo‘yicha to‘plamlarga ajratish kabi malakalar hosil qilinishi kerak. So‘ngra o‘quvchilarga birinchi o‘nta son haqida tasavvur shakllantirish lozim. Birinchi o‘nta son bilan belgilanishi va ularning yozilish texnikasi bilan o‘quvchilarni tanishtirish va o‘rgatish lozim, deb hisoblayman. Bu dastlabki birinchi o‘nta sonni o‘rganishda uzviylikni ta‘minlanishiga xizmat qiladi.

Umuman sonlarning nomerlash sonlarni (ularni) qo‘sish va ayirish orqali amalga oshiriladi. Demak sonlarni nomerlash deganda sonlarni qisqa so‘z bilan atash, o‘qish va yozuv bilan belgilash anglashiladi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilar narsalarni sanashda ma’lum bir xatolarga yo‘li qo‘yadilar. Masalan, sanalayotgan narsalardan bittasini sanamay o‘tkazib yuboradilar yoki uni ikki marta sanaydilar.


Ikki to‘plamni taqqoslashni o‘quvchilar har bir to‘plam elementlarini sanash yo‘li bilan yoki bir to‘plamning har bir elementini ikkinchi to‘plamning elementiga mos keltirish (ustiga qo‘yish, yoniga qo‘yish) yo‘li bilan amalga oshirish mumkin.

Boshlang‘ich ta’lim metodik adabiyotlarida narsalarning rasmida tasvirlangan ikki to‘plamni taqqoslashda juftlar hosil bo‘lish imkoniyatlari bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarga narsalarning taqqoslanayotgan ikki to‘plami elementlari orasida ularni bog‘lovchi ishlardan foydalanib, moslik o‘rnatish usulini ko‘rsatish foydali. O‘quvchilarda narsalarning ikki gruppasini taqqoslashga doir masalasini oshirish jarayonida taqqoslanayotgan gruppalarning birida narsalar ikkinchi gruppadagiga qaraganda qancha ortiq yoki kam ekanini aniqlashga o‘rgatish kerak. Masalan, katakli taxtachadagi bir qatorga kvadratlar, ikkinchi qatorga har qaysi kvadrat ostiga bittadan uchburchak qo‘yiladi. Narsalar soni oxirgi kvadrat juftsiz qoladigan qilib olinishi kerak.




1-rasm

So‘ngra o‘qituvchi quyidagi yo‘naltiruvchi savollarni berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qaysi geometrik figuralar – uchburchaklar ko‘pmi yoki kvadratlar? (Javob: Kvadratlar uchburchaklardan ko‘p, bitta ko‘p).



2-rasm

Figurlar teng bo‘lishi uchun nima qilish kerak? (Javob: Bitta kvadratni olish kerak (2-rasm) yoki bitta uchburchak qo‘shish kerak.



3-rasm

Haqiqatdan ham narsalar teng bo‘lishi uchun ortiqcha narsani olish yoki yetishmayotgan narsani qo‘shish kerak. Bunday mashqlar qo‘shish va ayirish amallari mazmunini ochishga tayyorgarlik bo‘lib xizmat qiladi, “tenglik va tengsizlik”, “sonlarni taqqoslash” tushunchalarini tarkib toptirish imkonini beradi, shuningdek, o‘quvchilarning matematik nutqlarini rivojlantiradi.

Ma’lumki, bolalar maktabgacha bo‘lgan vaqtlarida tartib munosabatlari bilan bilan bog‘liq muammolarga juda ko‘p uchragan. Maktabda esa o‘quvchilarning tartib munosabatlariga oid bilimlarini to‘ldirish va sistemaga solish uchun har xil didaktik materiallardan, darslik rasmlaridan foydalanish mumkin.

Sonlarning tartib qiymatlarini o‘rganishda quyidagilarni nazarda tutish kerak. Agar natural sonning miqdoriy qiymatini aniqlash uchun to‘plamda nechta element borligini aniqlash yetarli bo‘ladi. Sonning tartib qiymatini nomerlashda sonlar qatorida tartib bo‘yicha qaysi o‘rinni egallaganini aniqlash hisoblanadi. Masalan, har xil rangdagi doirachalarни bir qatorga qo‘yib, bunday savol berish mumkin:

- a) qizil doiracha sanoq bo‘yicha nechanchi?
- b) yashil doira sanoq bo‘yicha nechanchi?
- c) sariq doira sanoqda nechanchi o‘rinda?
- d) to‘rtinchli doira qanday rangda? va hokazo.



Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarga matematika o‘qitishda asosli va tizimli yondashuv o‘quvchilarning bilish darajasini ta’minlashda bosh omil hisoblanadi. Bu esa boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda uzviylikni ta’minlash demakdir. O‘n ichida sonlarni o‘rganish, bir o‘nlikdan o‘n o‘nlikkacha, bir yuzlikdan o‘n yuzlikkacha sonlarni o‘rganish hamda bir minglikdan o‘n minglikkacha va hokazo sonlar uzviy ravishda o‘rganiladi. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishning eng muhim maqsadi birinchi o‘nlikni o‘qitishda o‘qituvchi va o‘quvchining uzviylikni ta’minlash mazmuni

3. *O‘qituvchilarning metodik tayyorlarligi* – O‘qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalarni o‘zlashtirishda qiyinalishlari mumkin. Bu muammoni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash, ularni yangi texnologiyalar va metodikalar

Elementar matematikani o‘qitishning amaliy qismi bиринчи navbatda darslarni to‘g‘ri tuzishdan boshlanadi. O‘qituvchining darsni samarali o‘tkazishi uchun uning tuzilishi va rejasini aniq bo‘lishi lozim. Dars rejasini tuzishda quyidagilarni inobatga olish kerak:

Darsda o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzu aniq belgilanadi. Har bir darsning maqsadi va o‘quvchilarga qo‘yiladigan vazifalar o‘rganiladigan mavzuga mos ravishda aniqlanadi.

O‘quvchilarni faollashtirish uchun har xil metodlar qo‘llanadi (masalan, interaktiv, muammoli, amaliy va vizual metodlar). Ushbu metodlarning qo‘llanilishi darsning samaradorligini oshiradi.

Darsda vaqtini to‘g‘ri taqsimlash muhim. Mavzuni tushuntirish, mashqlarni yechish, savol-javoblar va umumiy tahlil qilish uchun etarli vaqt ajratish kerak.

Elementar matematika o‘qitishida o‘quv materialllari muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga yuqori sifatli, aniq va tushunarli materialllarni taqdim etish kerak. Materiallar quyidagi turlarda bo‘lishi mumkin:

Matematik tushunchalar, formulalar, teoremlar, isbotlar va boshqa nazariy bilimlar o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak.

Darsda o‘rganilgan nazariy materiallarni mustahkamlash uchun amaliy mashqlar (masalan, algebraik ifodalarni yechish, geometrik shakllarni o‘rganish, funksiyalarni tahlil qilish) beriladi.

Diagrammalar, grafiklar, chizmalar va boshqa vizual materiallar matematik tushunchalarni tushuntirishda yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash talabalar uchun matematik tushunchalarni mustahkamlash va ularga yangi bilimlarni o‘rganishga yordam beradi. Masalan, MATLAB, GeoGebra, Wolfram Mathematica kabi dasturlar orqali grafiklar, funksiyalarni tahlil qilish va boshqalar amalga oshiriladi.

Amaliy mashqlar va sinovlar talabalar bilimini mustahkamlash va o‘zlashtirish darajasini baholashning samarali usulidir. Ushbu mashqlarni dars davomida yoki uy vazifalari sifatida berish mumkin. Mashqlarni qo‘llashda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- *Qiyinchilik darajasini moslashtirish:* Mashqlarni talabalar bilim darajasiga qarab tanlash kerak. Boshlang‘ich darajadagi talabalar uchun oddiyroq masalalar, ilg‘or talabalar uchun murakkabroq masalalar berilishi mumkin.

- *Mashqlarni tahlil qilish:* Mashqlarni bajarib bo‘lgach, ularni sinchkovlik bilan tahlil qilish kerak. Har bir talabaga o‘z xatolarini tushuntirish va ularga to‘g‘ri yechimni ko‘rsatish zarur.

- *Muammoli yondashuvni qo‘llash:* O‘quvchilarga matematikaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish maqsadida real hayotdan olingan masalalar orqali mashqlarni berish foydali bo‘ladi. Bu usul talabalarni ijodiy yondashuvga undaydi.

Elementar matematikani o‘qitishda talabalarni guruh bo‘lib ishlashga jalb qilish, bir-biriga yordam berish va matematik masalalarni birgalikda hal qilishning samarali usulidir. Guruhdagi faoliyatlar talabalar o‘rtasidagi muloqotni va hamkorlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga matematik tushunchalarni tushunishda yordam beradi. Masalan:

- *Guruhdagi muammolarni yechish:* O‘quvchilarga guruhda birgalikda murakkab matematik masalalarni hal qilishni topshirish. Bu yondashuv talabalarni hamkorlikka, muloqotga va bir-biridan o‘rganishga undaydi.

• *Munozara va fikr almashish*: Muayyan matematik masala yoki tushuncha haqida sinfda munozara o‘tkazish, talabalarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga undaydi. Bu, shuningdek, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Darsdan keyin o‘quvchilarni baholash va o‘rganilgan materiallarni tahlil qilish darsning samaradorligini o‘lchashga yordam beradi. Baholashning turli shakllarini qo‘llash mumkin:

• *Yakuniy baholash*: Dars yakunida o‘quvchilarni sinov yoki test bilan baholash. Testlar matematikaning asosiy tushunchalari va amaliy ko‘nikmalarini tekshiradi.

• *Formativ baholash*: Dars davomida talabalarni faoliyatiga baho berish va ularga teskari aloqa (feedback) berish. Bu usul o‘quvchilarga o‘z bilimlarini o‘z vaqtida to‘g‘rilashga yordam beradi.

• *O‘quvchilarni mustaqil baholash*: Talabalar o‘zlarining bilim darajasini o‘zlarini baholashlari uchun imkoniyat yaratish. Bu metod o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘rganish jarayoniga yanada jiddiy yondashishiga yordam beradi.

O‘quvchilarni darsga faol jalb etish, ularning motivatsiyasini oshirish, o‘zlarini o‘rganishga intilishlarini qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Buni quyidagi usullar bilan amalga oshirish mumkin:

• *Darsning interaktivligi*: Talabalar bilan savol-javoblar, muhokamalar va masalalarni hal qilishda o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash.

• *Gamifikatsiya*: Darsni qiziqarli qilish uchun o‘quvchilarga baholash tizimi yoki o‘yin elementlarini kiritish. Bu o‘quvchilarni yanada motivatsiyalashga yordam beradi.

• *O‘quvchilarning qiziqishlariga moslash*: Talabalar o‘z qiziqishlariga mos keladigan matematik masalalarni tanlash orqali darsni yanada qiziqarli qilish.

### Xulosa

Elementar matematikani o‘qitish metodikasining amaliy qismi o‘quvchilarga nazariy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarini o‘rganishda yordam beradigan konkret faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalariga, metodik yondashuvlarga, talabalar bilan muloqotga va o‘quv materiallarining sifatiga bog‘liq. Amaliy qismda o‘qituvchining roli juda katta, chunki u darsni samarali tashkil etish, talabalarni faollashtirish, va o‘quvchilarga yuqori sifatlari ta’lim berish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalarni tanlashi kerak. bilan tanishtirish muhimdir. Elementar matematikani oliy ta’lim muassasalarida samarali o‘qitish, nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki talabalarни mantiqiy va analitik fikrlashga, mustaqil ishslashga, ijodiy yondashuvga o‘rgatishga ham qaratilgan. O‘qitish metodikasi yangi pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni o‘z ichiga olgan holda o‘quvchilarni hayotdagi murakkab masalalarni hal qilishga tayyorlashga yordam beradi. Matematikani o‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun, o‘qituvchilar talabalar bilan yaxshi muloqot o‘rnatishi, o‘quv jarayonida yangi metodlarni qo‘llashlari, va talabalar orasida ilmiy va amaliy faoliyatni rivojlantirishga e’tibor qaratishlari kerak.

Elementar matematikani o‘qitish metodikasining amaliy qismi, o‘qitish jarayonining aniq va samarali tashkil etilishi, o‘quvchilarga matematik bilimlarni berish va ularni o‘zlashtirishga yordam beruvchi konkret usullar va faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Amaliy qismda, darslar, mashqlar, sinovlar, interaktiv yondashuvlar va boshqa o‘quv metodlari qanday qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumot berish zarur. Quyida mavzu bo‘yicha amaliy qismni tashkil etishda e’tiborga olinadigan asosiy jihatlar keltirilgan/

Elementar matematikani o‘qitish metodikasi oliy ta’lim tizimida katta ahamiyatga ega. O‘qitish jarayonida turli yondashuvlar va usullarni qo‘llash talabalar uchun samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Matematikani o‘qitishda asosiy maqsad faqat bilim berish emas.

### Foydalaniman adabiyotlar

1. **Shox, M.** (2016). *Matematika o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.— Oliy ta’lim muassasalarida matematikani o‘qitishning metodik jihatlarini tahlil qilgan.
2. **Tursunov, T.** (2014). *Elementar matematika va uning ta’limdagi o‘rnii*. Tashkent: Fan va texnologiyalar akademiyasi.— Elementar matematika fanining oliy ta’limda o‘qitishning ahamiyati, metodikasi va amaliy qo‘llanilishiga oid ilmiy tadqiqot.
3. **Kamilov, A.** (2017). *Pedagogika va o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.— Pedagogik yondashuvlar, o‘qitish metodikasi va yangi texnologiyalarni qo‘llash haqida keng qamrovli o‘quv qo‘llanma.
4. **Davlatov, A.** (2018). *Matematikaning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Oliy ta’lim o‘quv qo‘llanmalari.— Matematikaning asosiy tushunchalari, teoremlar va ularning amaliy qo‘llanilishi haqida ilmiy adabiyot.
5. **Axmadov, R. & Sattarov, Z.** (2015). *Oliy ta’limda matematika o‘qitishning innovatsion usullari*. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.— Oliy ta’limda matematikani o‘qitishning zamonaviy metodik yondashuvlari, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.
6. **Blumin, I. D.** (2011). *Pedagogika metodikasi va matematika o‘qitish usullari*. Moskva: Vysshaya shkola.— Matematikani o‘qitish metodikasi, metodologik yondashuvlar va pedagogik nazariyalar haqida ilmiy manba.
7. **Poberezhny, A. S.** (2009). *Pedagogika va metodika: nazariy va amaliy masalalar*. Moskva: Akademiya.— Pedagogik metodikalar va matematikani o‘qitish usullari bo‘yicha keng qamrovli qo‘llanma.
8. **Polya, G.** (2004). *How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method*. Princeton University Press.— Matematik masalalarni hal qilish metodologiyasi, o‘qitishda mantiqiy yondashuv va amaliy metodlar.
9. **Zeitz, P.** (2007). *The Art and Craft of Problem Solving*. Wiley.— Matematik masalalarni hal qilish san’ati va metodikasi, o‘quvchilarni samarali o‘rganishga undash.
10. **Mills, L. L.** (2012). *Teaching and Learning Mathematics: Problem-Solving Approach*. Pearson Education.



## BO'LAJAK BIOLOG O'QITUVCHILARINING CBI/STEM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLARLAR

### DIFFERENT APPROACHES IN IMPROVING READING COMPETENCE OF FUTURE BIOLOGIST TEACHERS BASED ON CBI/STEM TECHNOLOGIES

### РАЗЛИЧНЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ЧТЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ-БИОЛОГОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ СВИ/СТЕМ

*Masharipova Feruza Jumanazarovna*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada CBI/STEM texnologiyalari orqali bo'lajak biolog o'qituvchilarning chet tilidagi o'qish kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan bir necha yondashuvlar tadqiqini tahlil qilamiz.

**Kalit so'zlar:** yondashuv, chet til o'qitish, o'qish kompetensiya, CBI/STEM texnologiyasi, bo'lajak biolog o'qituvchisi.

**Abstract.** In this article, we analyze the research of several approaches aimed at improving reading competence of future biology teachers in teaching English as a foreign language through CBI/STEM technologies.

**Keywords:** approach, foreign language teaching, reading competence, CBI/STEM technology, future biology teacher.

**Аннотация.** В этой статье мы анализируем исследования нескольких подходов, направленных на повышение читательской компетентности будущих учителей биологии при преподавании английского языка как иностранного с помощью технологий СВИ/СТЕМ.

**Ключевые слова:** подход, преподавание иностранных языков, читательская компетентность, технология СВИ/СТЕМ, будущий учитель биологии.

#### **Kirish**

Tilshunoslik sohasida yondashuv, metod va usul tushunchalariga turlicha ta'riflar mavjud. Ularning aksariyati bir xil. Jumladan, J.Richards va Rodjers ta'rifiga ko'ra, "Yondashuv bu til o'rgatish va o'rganish tabiat bilan bog'liq bo'lgan korrelatsion taxminlar yig'indisidir. Yondashuv aksiomatikdir. U o'qitiladigan mavzuning metodik tabiatini tavsiflaydi. Metod bu til o'rganishga mavjud yondashuvni tartibli taqdim etishning umumiyligi rejasi. Yondashuv aksiomatik, metod esa protsessualdir. Bir yondashuv doirasida ko'plab usullar bo'lishi mumkin. Usul bu amalga oshirishdir. Bu aslida darsda sodir bo'ladi. Bu bevosita maqsadga erishish uchun ishlatiladigan maxsus strategiyalar va bosqichlar tizimidir. Usul metodga mos bo'lishi kerak. Metod yondashuvga uyg'un bo'lishi kerak" [1; 33].

#### **Adabiyotlar tahlili**

A.N.Shukin va G.M.Frolova ta'rifiga ko'ra, metodika atamasi (*metodos* – tadqiqot yo'li) muayyan o'quv predmetini o'qitish qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika fanining sohasini bildiradi. Chet tilini o'qitishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotida bu atama uchta ma'noda qo'llaniladi: metodologiya, o'quv, ilmiy va amaliy fan sifatida.

Ta'limshunos leksikograf ingliz olimlari J.Richards va R.Schmidt ta'rifiga ko'ra, metod – bu til o'qitish usuli bo'lib, u ma'lum bir tizimlashtirilgan tamoyillar va jarayonlarga asoslanadi. Bu tilni o'qitish va o'rganishda muayyan qarashlar, aniq nazariyalarning amaliyotga tatbiqidir. Til o'qitishning turli metodlari, jumladan, audiolingual, TPR, tabiiy yondashuv, til o'rganish xususiyati, o'qitishning maqsadi va vazifalari, o'quv dasturi turi, o'qituvchi, talaba roli va o'quv materiallari ahamiyati, foydalaniladigan faoliyati, usul va etaplarining natijasidir [1;372].

Shu o'rinda ta'limshunoslikda usul va strategiya atamalariga ta'rif berish o'rinnlidir. Tarixiy jihatdan strategiya jangovar san'at (strategos), taktika (taktice) esa armiyani tashkil etish bo'lgan. Ikkala tushuncha ham qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. O'sha davrdagi ko'plab risolalarda bu tushunchalar orasidagi farqlar haqida so'z yuritilgan. Shunday qilib, taktika dushmanga ko'rindi, ammo hamma qo'mondon ham dushmanning strategiyasini aniq ochib bera olmaydi, deb ishonilgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, usul – bu muammoni hal qilishga qaratilgan muayyan harakat yoki harakatlar majmui hisoblanadi. U tanlangan faoliyat turi bo'lib, jumladan, mashq va amaliy topshiriqlar bajarilishi uchun ko'rildigan chora-tadbirlarning sifati va samaradorligiga javob beradi. Strategiya, o'z navbatida, har xil turdag'i bir nechta usullardan iborat bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, u istalgan maqsadlarga erishishga va vaziyatni to'liq nazorat ostida barqaror, oqilona muayyan davrda tanlangan faoliyat va amallar tizimini metod va yondashuv talablariga mosligini saqlab qolishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Aytishimiz mumkinki, usul va strategiya o'rtasidagi farq amalga oshirish vaqtidadir. Usul qisqa muddatga, strategiya uzoq muddatga mo'ljallangan bo'ladi.

Ta'lim sohasida usul va strategiya tushunchalari bir-biri bilan shunchalik bog'liqki, ularni bir-biridan ajratish qiyin. Bu borada ko'plab fikrlar mavjud, lekin ular muayan faoliyat turi, masalan, o'qishda borasida fikr yuritganda kerakli natijani bermaydi. Boshqacha aytganda, umumiy strategiyasiz yagona usulli harakatlar samarasizdir. Shu bois tadqiqot ishida strategiyaga ko'proq urg'u bergen holda, uning tarkibiga kiruvchi ishning samarali amalga oshishishiga turtki beruvchi faoliyat turi yoki ta'sirni usul sifatida qaraldi.

O'qish kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan har bir strategiya keng ko'rinishga ega bo'lishi kerak – strategiyani tashkil etuvchi g'oyalar va kuchli harakatlar – g'oyalarni haqiqatga aylantiradigan usullardan iboratdir. Bunda o'qituvchi psixologiya nuqtayi nazaridan talabaga strategik fikrlash va maqsadga erishish algoritmini tushunishiga yordam berishi ham kerak bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, chet tili ta'limida bitta strategiyaga rioxal qilgan holda, o'qituvchi usulni ko'p marta o'zgartirishi mumkin. Agar ba'zi usullar yoki harakatlar o'zini samarasiz deb ko'rsatgan bo'lsa, ularni almashtirish yoki modernizatsiya qilish kerak bo'ladi.

Ushbu tadqiqot ishi doirasida biz CBI/STEM texnologiyalari orqali o'qish kompetensiyasini takomillashtirishning bir necha yondashuvlari doirasida keng qo'llanilgan metod, usul va strategiyalar tadqiqini amalga oshirdik. Shunday yondashuvlardan biri J.Kammins tomonidan taklif qilingan bo'lib, u shaxslararo kommunikativ va kognitiv til malakasini egallash bo'yicha fikr va mulohazalarini bayon etgan va til bilimlarini egallashning BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills) va CALP (Cognitive academic Language Ptoficiency) yondashuvi deb nomlagan. J.Kammins o'qituvchilarning e'tiborini chet tildagi muloqotda shaxslararo muloqotning asosiy ko'rsatkichi sifatida ravon so'zlashuv qobiliyatini ta'kidlab [2; 33-58], CALP kognitiv akademik tilni malaka deb hisoblaydi. Tadqiqotchi kognitiv akademik til malakasi CALPni shaxslararo muloqotning asosiy ko'nikmalarisiz rivojlantirish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Shaxslararo muloqotning asosiy ko'nikmalari esa, o'qish kompetensiyasini takomillashtirish orqali egallanishini ta'kidlaydi. J.Kammins nazariyasiga ko'ra, muloqot ko'nikmalari asosiy tayanch ko'nikma sifatida baholanadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, yondashuvning yagona afzalligi, bu talabalarning ixtisoslik sohasiga oid muloqot ko‘nikmasini rivojlantirishda gapirish kompetensiyasiga asosiy e’tibor qaratilganlidadir.

O‘z navbatida yondashuvning kamchiliklari o‘qish kompetensiyasi faqat zarurat paydo bo‘lganda murojaat qilinadigan kompetensiya sifatida qaralganligi, vaholanki, inson gapirishi uchun ham ma’lum fakt va dalillarga asoslangan ma’lumotni egallagan bo‘lishi, qolaversa muloqotda suhbatdoshining murojaatiga javob berishi uchun ma’noli-ijtimoiy muloqot manbayiga tayanishi talab qilinishi inobatga olinmaganligi bilan izohlanishi mumkin. Bundan tashqari, sohaga oid nazariy bilimlarni egallashi uchun ham talabalarga takomillashgan o‘qish kompetensiyalari zarurligiga umuman e’tibor qaratilmagan. Demak, J.Kammins nazariyasida takomillashgan o‘qish kompetensiyasining CALP va BICS ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilmagan. Tadqiqotning amaliyatga joriy qilinishida ushbu jihat inobatga olinishi kerak bo‘ladi.

Universitet darajasi CBI/STEM texnologiyasi bo‘yicha soha mazmuni va chet tili ko‘nikmalarini o‘rgatishning ko‘plab usullarda qo‘llash mumkin bo‘lgan bir sharoitda, ko‘pincha o‘qituvchilar malakasining etishmasligi natijasida ular grammatikaga asoslangan ta’lim yoki lug‘atni rivojlantirish kabi an’anaviy o‘qitish usullarini ma’qul ko‘radilar. Keyingi yillarda tilni o‘rgatishga kommunikativ yondashuvining zamonaviy usullari tavsiya qilingan bo‘lib, bu o‘z navbatida soha bo‘yicha muloqotning umumiyl mavzulariga asoslangan yondashuvni yuzaga keltirdi. Bunda ta’kidlanishicha, ularning shakli va yo‘nalishi bo‘yicha turlicha bo‘lishiga qaramay, barcha CBI yondashuvlari, albatta, mavzuga asoslangan. Shunday qilib, himoyalangan va qo‘srimcha ta’lim modellari aslida mavzuga asoslangan ta’limga alternativa emas, balki mavzuga asoslangan o‘qitishning ikkita yondashuvidir [3; 109-123]. Mavzuga asoslangan ta’lim (shuningdek, mavzuga asoslangan ta’lim yoki mavzuga asoslangan o‘qitish deb ataladi) kontentga asoslangan o‘qitishning kengroq modeli (CBI) bilan yondashuvlardan biri bo‘lib, unda asosiy e’tibor o‘quvchilarni “yuqori kontekstli” ikkinchi til bilan tanishtirishga qaratilgan. Til o‘rganish mazmuni sifatida mavzudan foydalanish orqali muhit [4; 207-228]. Umumiyl fikrlarga ko‘ra, mavzuga asoslangan ta’lim o‘rganish uchun yaxshilangan motivatsiyani, shuningdek, ta’limni yaxshilashni ta’minlaydi, chunki o‘quv mavzularini sinchkovlik bilan tanlash orqali til va tarkibning integratsiyasi talabalarga kontekstli, mazmunli, maqsadli va qiziqarli o‘rganish tajribasiga ega bo‘lish imkonini beradi. Shunday qilib, chet tili bo‘yicha malaka oddiy til darslariga qaraganda mavzuga asoslangan ta’limda tezroq rivojlanadi, bunda yosh o‘quvchilar til o‘rgatish jarayoniga shunchaki rag‘batlanmaydilar, ular buni o‘z-o‘zidan maqsad deb biladilar [5].

Bizning fikrimizga ko‘ra, ushbu yondashuv orqali bo‘lajak biolog talabalarning o‘qish kompetensiyasi na’munaviy o‘quv dasturida tavsiya qilingan mavzular atrofida til materiallarini integratsiyalashgan holda o‘rgatishda yaxshi samara berishi mumkin. Lekin bunda til o‘qitish dasturi umumiyoq mavzuga emas, til – tahlil – amaliyatga asoslangan chet tili o‘qitish uslubi va asosiy ixtisoslik kursining asosini tashkil etuvchi mavzulardan kelib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Bunda soha mavzusiga oid matnni o‘qish, muhokama qilish, lug‘at, tinglab tushunishda foydalaniladigan audio yoki video materiallar orqali mavzu tushuntiriladi va so‘ngra sohaga oid ma’lumotni chet tili o‘rganish maqsadi bilan birlashtiruvchi yozma topshiriqlar orqali berilishi mumkin. Dars jarayonida foydalaniladigan materialarning aksariyati, odatda, o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi va ko‘rib chiqilayotgan mavzu ixtisoslik sohasi va chet tili ko‘nikmalarining o‘zaro kesishuv nuqtasi bo‘ladi. O‘zaro muvofiqlashtirilgan topshiriqlar nuqtayi nazaridan bunday dastur ikkita o‘quv rejaning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash uchun katta hajmdagi muvofiqlashtirishni talab qiladi va bu ikkala kursga o‘zgartirishlar kiritishni talab qilishi mumkin.

Ta'limshunos olim E.Felisia va G.Nnene tomonidan taklif qilingan jamoaviy o'rgatish yondashuvi ikkita usulni nazarda tutadi [6]. Ulardan biri Birmingem universitetida ishlab chiqilgan transport va o'simliklar biologiyasi kabi sohalarda ma'ruzalarni tushunish va imtihon savollarini yozishga qaratilgan. Ma'ruzalarni yozib olish va tushunishni tekshirish ishlarini fanni o'rganuvchi va til o'qituvchisi o'rtasida taqsimlanadi, dars vaqtida ikkalasi ham talabalarga yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Yondashuvning afzalligi quyidagi jihatlar bilan izohlanishi mumkin. Bunda fan o'qituvchisi hisobot topshiriqlari uchun asos bo'lgan haqiqiy va real vaziyatlarni topadi. Talabalar ushbu topshiriqlar ustida ishlayotganda ikkala o'qituvchi ham maslahatchi vazifasini bajaradi. Fan o'qituvchisi tomonidan yozilgan yoki eng yaxshi talaba ishiga asoslangan modellar keyinroq taqdim etiladi va muhokama qilinadi. Kamchiligi esa bunday yondashuvda o'qish kompetensiyasining roli katta bo'lsa ham, asosiy e'tibor chet tilida yozuv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalaridagi amaldagi kredit modul (ECTS) tizimi nafaqat bo'lajak biolog o'qituvchilar ehtiyoj va qiziqishlariga, balki turli ixtisoslik sohalari talabalari va mutaxassislariga muvofiq keladi. Ushbu tadqiqot doirasidagi nazariyalar tadqiqi, yuqorida sanab o'tilgan tayanch strategiyalar ushbu tadqiqot orqali taklif qilinayotgan CBI/STEM texnologiyalari mazmun mohiyatini tashkil qilishini alohida e'tirof etish o'rnlidir.

### **Tahlil va natijalar**

Sohaga oid chet tilini o'qitishning kompetensiyalarga asoslangan yondashuvi bir yoki bir nechta ilmiy fanlar bo'yicha muayyan mavzuni bir vaqtda o'rganish bilan bog'liq bo'lgan muayyan akademik kompetensiyani (masalan, akademik yozuv yoki o'qish) rivojlantirishga e'tibor qaratishi bilan tavsiflanadi. Bunda talabalar o'zları tahsil olayotgan akademik kursda til materialini o'qishni yoki til kursining o'zi o'quv jarayonining maqsad mazmunini aks ettirishi mumkin (masalan, mini-ma'ruzalar, o'qishlar va mavzu bo'yicha muhokamalar yozuv topshiriqlari shaklida). Talabalar o'qigan mavzusi bo'yicha tushunchalarini taqdim etish va bilimlarini yangi sohalarda kengaytirish uchun turli usullarda, masalan, qisqa insho testlari, xulosalar, tanqidlar, tadqiqot hisobotlar yozadilar. Ushbu jarayon yozuv, o'qish, tinglash va asosiy mazmun haqida munozaralar bilan integrallashtirilgan asosiy materialni tashkil etuvchi hamkorlik hamda talabaning sohaga oid mustaqil tadqiqotlardan iborat bo'ladi.

Jumladan, ingliz tilida o'qish kompetensiyasini takomillashtirish Lev Vigotskiyning ZPD (Zone proximal development) nazariyasida e'tirof etilgan bo'lib, hamkorlikka asoslanadigan strategiya, talaba tengdoshi va o'qituvchisi ko'magida til bilimlarini egallashi uchun zarur usullarni taklif qiladi [7]. Ushbu nazariya standardlashtirilgan test topshiriqlari samarasiz ekanligini e'tirof qiladi. Biz bu fikri qo'llab-quvvatlaymiz. L.Vigotskiy talabalarning mavjud bilimlari darajasi bilan muammoni mustaqil hal qilishi potensial rivojlanish darajasi orasidagi masofa shuni ko'rsatadiki, tengdoshlari va o'qituvchi ko'magida hamkorlikka asoslangan mashg'ulotlar orqali jarayonni amalga oshirish samarali natija berishini alohida ta'kidlagan. Tadqiqotchi hozirgi metodik adabiyotlarda "havoza" nomi bilan tanilgan "Scaffolding" strategiyasini ZPD konsepsiysi tarkibiga kiruvchi, talabalarning o'qituvchi yoki talaba yordamida mavzuni o'zlashtirishi mumkin ekanligini aytib, guruh diskursida chet tildan foydalanish talabaning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqini oshirishini alohida ko'rsatib o'tgan.

Ingliz tilini STEM dasturi bo'yicha o'qitishdagi qiyinchiliklarning o'ziga xosligi borasida bildirilgan fikrlar talabalarning BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills), ya'ni shaxslararo

muloqotning asosiy ko'nikmalari va CALP (Cognitive Academic Language Proficiency), ya'ni kognitiv akademik til malakasini qisqa vaqt ichida yaxshilash kerakligini ko'rsatadi. Talabalarga ZPD (Proksimal rivojlanish zonasi)dan o'tishda yaxshi natijalarga erishishga yordam berish uchun umumiy til o'qitish ning muayyan tamoyillariga asosan yaratilgan dars rejali yangi maqsadlarga ega bo'lishi va talabalarning oldingi bilimlarini ta'limning yangi konsepsiysi bilan bog'lash usullarini tushunishni talab qiladi. Bunda talabani o'quv maqsadga yo'naltiruvchi havoza (Scaffolding) yondashuvining bir necha usullar, masalan, ovoz chiqarib o'ylash, tayanch so'zlarni o'rganish, o'ylash – juftlashish – birga ishlash va ko'rgazmali vositalardan foydalanish, talaba shaxsiga yo'naltirilgan darslarni tashkil etish va ularning bilim olishida sezilarli yutuqlarga erishishga yordam berdi.

CBI va STEM texnologiyalari darslar davomida o'qituvchining kognitiv yukini maqsadli va talaba uchun foydali taqsimlash, ortiqcha ma'lumotlarni kamaytirishga, kasbga taalluqli oddiy lug'at va sintaksisdan foydalanishga, sohaga oid bilimlarni xorijiy manbalar asosida boyitishga, chet tilida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga, til o'rganish jarayonini tezlashtirishga, kasbiy imkoniyatlarni kengaytirishga va talabaning chet tilini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratishiga yordam beradi.

Bunda o'qituvchi havoza strategiyasi orqali talabalarni ingliz tilida yangi bilimlarni o'rganishga harakat qilishiga ko'maklashadi va til o'rganishda qulayliklar yaratadi. Havoza talabalarga ingliz tilida o'qish orqali olinadigan bilim uchun vositalar, amaliy mashg'ulotlar yoki modellashtirishni o'z ichiga olishi mumkin. Talabalar chet tilidagi yangi konseptdan birinchi marta foydalanganida hamrohi yoki o'qituvchi unga so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, matn mazmunini tushunishda yordam beradi. Vaqt o'tishi bilan esa talaba yangi ko'nikma va faoliyatni o'zlashtirib, talabani qo'llab-quvvatlash borgan sari, asta-sekin kamayib boradi. Bu jarayon xuddi qurilish tugallangandan so'ng binodan havoza olib tashlangani kabi, ingliz tilida o'qish L.Vigotskiyning havoza strategiyasi yordamida ta'lim samaradorligini to'laqonli amalga oshishiga butkul qo'shilamiz. Havoza strategiyasining aynan sensor usullari (illustrasiyalar, video materiallar, modellashtirish, diagrammalar, realiya, amaliy mashqlar), interaktiv usullari (juft, kichik guruhlarda ishlash, kooperativ ta'lim strategiyalari, diskussiyalar, intervyular, onlayn kichik tadqiqot ishlari) va grafik (jadvallar, infografika, davriy jadvallar, grafik organayzerlar) turlari bo'lajak biolog o'qituvchilarning chet tili ko'nikmalarini CBI/STEM texnologiyalari asosida takomillashtirishda tayanch strategiya vazifasini bajaradi. Chunki oliv ta'lim tizimida chet tili o'qitishning dastlabki bosqichida talabalarga chet tili o'qituvchisi bilan birga chet tilida ma'lum bilim darajasiga ega ixtisoslik fani o'qituvchisi hamda agar imkoniyati bo'lsa, CBI/STEM ta'lim sohasida tajribaga ega mutaxassis havoza yordamini ko'rsatishi chet tilini samarali o'zlashtirishini ta'minlaydi. Bu esa hozirgi an'anaviy chet tili ta'limidan tubdan farq qiladigan, XXI asr ta'lim texnologiyalariga tayangan, interaktiv, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlaniruvchi, maqsadli va eng muhim talabaning akademik va kasbiy faoliyatida doimiy takomillashib boruvchi strategiyadir. Har bir jarayonda bo'lgani kabi ushbu texnologiyalar tadbiqida ham o'qituvchi tomonidan kognitiv (rejalashtirish, nazorat, baholash) strategiyalar inobatga olinishi muhim hisoblanadi.

Xususan, o'qishni takomillashtirishga kompetentiv yondashuv borasida olib borilgan tadqiqotlar yondashuv, metod, usul va strategiyalardan uch bosqichda (pre-, while-, post-) muvozanatli foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Faol o'qishni takomillashtirishning ommabop Kornell Nout-Teyking (Cornell Note-taking) (Kornel konspekt olish) metodi ushbu talablarga javob beradi. Metodni tatbiqi uch bosqichni ham qamrab olgan bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1-bosqich: daslabki (layout, chapter, sections, graphs, pictures, highlighted words)ni qamrab olgan jadval-so'rovnama orqali matnni ko'zdan kechiradi;

2-bosqich: matn mazmuni bo'yicha yozma yoki og'zaki shaklda savollar (masalan, ask yourself questions about the text, what you already know about the text, what the author wants to convey) tuzadi;

3-bosqich: matnni faol o'qish jarayoni bo'lib, matnni o'qish, matn mazmunini og'zaki ifoda qilish va matn yuzasidan to'liq mulohaza yuritishdan iborat. Bu metod orqali talabalar matnga diqqatni jamlash, tahlil qilish, kontent ma'lumotini oldindan taxmin qilish, ishora berish, o'qish, tushunish, xulosa qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda o'qituvchining auditoriyadagi vazifasi yetakchilik, modellashtirish, havoza bo'lish, nazorat qilish, tiinglash, baholashdan iborat bo'jadi.

Kornell Nout-Teyking (Cornell Note-taking) (2020) metodi akademik muhitda qo'llaniladi, chunki u talabalarga ma'ruzalarni tinglash yoki ma'lumotni mustaqil ravishda o'rganish jarayonida taqdim qilingan kontent mazmunini yaxshiroq tushunish va o'rganishda yordam beradi. Metodning muhim qismi o'qishdan oldingi bosqich bo'lib, unda talabalar ma'lumotni "qisqartmali so'zlar bilan ifodalangan jumlalardan foydalangan holda" konspekt daftariga yozib olishlari tavsiya etiladi. Yoki o'qituvchi tomonidan tayyorlangan jadvalli tarqatma materiallardan foydalanish mumkin. Keyin qog'ozning bir qismida ularga "asosiy savollarni shakllantirish" so'raladi, o'ng ustunda eslatmalar beriladi. Bunda matn mazmunini og'zaki ifoda qilish (Recite) deb belgilangan o'qish paytidagi qism aniq o'qish emas, balki sanab o'tilgan savollardan keyin ma'lumotni qayta tiklashdir. Bu talabalarga matn yoki ma'ruzadagi materialni mantiqiy tushunish va esda saqlashga yordam beradi. O'qishdan keyingi bosqichda mulohaza yuritish va qayta ko'rib chiqish, birgalikda o'zlashtirilgan ma'lumotlarning ahamiyatini baholashga yordam beradi, bu usul samarali o'qish uchun juda muhimdir, chunki ular faoliytkning asosiy xususiyatlarini ifodalaydi.

### Xulosa

Bizning fikrimizga ko'ra, Kornell konspekt olish metodi o'qishga katta e'tibor qaratgan holda, talabalarga ko'proq diqqatli bo'lishga va ma'lumotni tahlil qilish, taxmin qilish, shuningdek, ma'lumotlarni o'qish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Uni o'qituvchi auditoriyada foydalanish orqali bo'lajak biolog o'qituvchilar ya'ni, talabalarни chet tilidagi matnni o'qishga tayyorlashda etakchilik qilish, o'qish bosqichida monitor ya'ni, nazoratchi vazifasini va o'qishdan keyingi bosqichda talabalarning fikrlarini diqqat bilan tinglovchi va baholovchi sifatida xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge university Press, 2010. – P.33
2. Cummins J. Knowledge, power and identity in teaching English as a second language. In F. Genesee (Ed.), Educating second language children: The whole child, the whole curriculum, the whole community. – New York: Cambridge University Press, 1994. – Pp.33-58.
3. Stoller F.L. Promoting the acquisition of knowledge in a content-based course. In J.A. Crandall and D. – Kaufman (eds) Content-based Instruction in Higher Education Settings, Alexandria, VA: TESOL., 2002. – Pp.109-123.
4. Wesche M., Skehan P. Communicative, task-based, and content-based language instruction. In R.B. Kaplan (Ed.), The Oxford handbook of applied linguistics. – New York, N.Y: Oxford University Press, 2002. – Pp.207-228.



5. Julkenen K. Students' opinions on content and language integrated learning. Paper presented at the International Conference on Research into Teaching English to Young Learners. – Budapest, Hungary, September, 1999.
6. Felicia, Ene & G., Nnene. Collaborative approach in teaching and learning of english as a second language. 2019.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. (M. Cole, V. John-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXBOROTLARNI MUSTAQIL IZLASH VA TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

## ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ПОИСКА ИНФОРМАЦИИ И АНАЛИЗА ИНФОРМАЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

## TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF INDEPENDENT INFORMATION SEARCH AND ANALYSIS SKILLS IN FUTURE TEACHERS

*Muratova Nafisa Baratovna*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar, metodlar foydalanish yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, talaba, internet, texnologiya, innovatsiya, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Аннотация.** В данной статье освещена технология развития навыков самостоятельного поиска и анализа информации у будущих учителей, использование современных информационных и педагогических технологий, методов.

**Ключевые слова:** образование, студент, Интернет, технологии, инновации, современные информационно-коммуникационные технологии.

**Abstract.** In this article, the technology of developing the skills of independent search and analysis of information in future teachers, the use of modern information and pedagogical technologies, methods is highlighted.

**Keywords:** education, student, Internet, technology, innovation, modern information and communication technologies.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri — bu har bir ta'lim oluvchining nafaqat bilimlar yig'indisi bilan qurollantirilishi, balki qiziqishlari, moyilligi, rivojlanishi va tarbiyasi, ularni ta'lim jarayonidagi faol pozitsiyalarini shakllantirishiga mos ravishda sifatlari ta'limni ta'minlashdan iborat.

Bugun o'qituvchilarda axborotlarni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish ularda ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish uchun avvalambor oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy sharoitda

ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlari ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Qolaversa mutaxassislarni tayyorlash modelini yaratishda talabalarda mavjud qobiliyatlarni samarali rivojlantirish va ularda mustaqillik, muntazam fikrlash ko'nikmalarini, shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi jamiyatda tez moslashish malakasini shakllantirish uchun imkoniyat yaratadigan o'qitish uslublaridan foydalanish talab etiladi.

Internet jahon axborot tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullaridan unumli foydalanish, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish belgilangan.

Deyarli barcha bilim sohalarini tezkor axborotlashtirish har qanday sohadagi mutaxassislar, shu jumladan jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari tomonidan axborot texnologiyalarini egallashga ehtiyoj tug'diradi. Axborot siklining fanlarini o'rganish: axborot madaniyati va axborot texnologiyalari - tinglovchiga zamonaviy axborot texnologiyalarining barcha yutuqlaridan foydalanishni va sport faoliyati va matematik bilimlarni taqqoslasmaslikni, balki noyob imkoniyatlardan foydalangan holda ularni sintez qilishni o'rgatishga mo'ljallangan.

So'nggi yillarda tizimda ham ko'plab islohotlar yo'lga qo'yildiki, bunda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini olib kirish va ular asosida o'qitishning muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar bugungi kunda ta'lim jarayonini yangi sifat ko'rsatkichlarga olib chiqish mumkin bo'lgan metodlar tizimiga aylanib ulgurdi. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim muassasalarida talabalarga bilim berish, ularning ko'nikma va malakalarini shakllantirishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish va shu asosda ta'lim jarayonini tashkil etish, jahon andozalari talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashda qo'l keladi. Ma'lumki, an'anaviy o'qitish usullari axborotni uzatish, qabul qilish jarayoniga qarab so'z orqali, ko'rgazmali yoki amaliy ifodalanishi mumkin. Bugungi kunda axborot almashuvining keskin taraqqiyoti, globallashuvi aynan o'qitish usullariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ning "Ta'lim jarayoniga raqamlı texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish" bandida:

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

ta'lim jarayonlarini raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish talablari belgilab qo'yilgan [1].

Bizga quyidagilardan ma'lumki, ta'limda tinglovchilar faoliyati bosh o'rinni egallaydi. Bu faoliyat o'z navbatida o'ziga xos muammolarga ega bo'lib, ularni yechish o'quv jarayonining turli shakllari davomiyligida talabaning faolligi bilan bog'liq bo'ladi. Qo'yilgan muammolarni yechish jarayonida

yangi faoliyat ko‘rinishlari ham namoyon bo‘ladiki, unda ta’lim muassasalarida tinglovchilarning mustaqil faoliyati o‘qituvchi rahbarligida mohirona boshqarilishi lozim. Bunday muammoni hal etish uchun o‘qituvchi albatta ta’lim berish jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni mohirona qo‘llashi asosida oson hal qilish imkoniyatlari katta. [2]

Ma’lumki, har bir texnik vosita o‘zining aniq didaktik va texnik imkoniyatlariga ega. Shu bilan birga axborot vositalari o‘quvchining biror sezgi organiga ta’sir etish yo‘llari bilan farq qiladi. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar axborotni o‘zining asosiy axborot qabul qilish organlari, ya’ni ko‘zi bilan ko‘rishi, qulog‘i orqali eshitishi bilan qabul qiladi, shuning uchun o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga erishish maqsadida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiya vositalari to‘plamidan foydalaniladi. Bu to‘plamga turli didaktik imkoniyatlarga ega bo‘lgan axborot manbalari, talabalar bilimini nazorat qiluvchi vositalar, jumladan, zamonaviy kompyuterlar ham kiradi. O‘tkazilgan juda ko‘p tajribalardan ham ma’lumki, ko‘philik odamlarning ko‘rib esda saqlab qolish qobiliyati, eshitib esda saqlab qolish qobiliyatidan yuqoriqoqdir. [3]

Zamonaviy axborot texnologiyasi vositalari bilan jihozlangan xonada bir vaqtning o‘zida ekran vositalari va tovushni eshittirish vositalaridan foydalangan holda o‘qitish jarayoni tashkil etilsa, shubhasiz, tinglovchilar axborotni qiziqish bilan qabul qiladilar va uning ko‘p qismini eslab qoladilar. Ta’limda sezgi a’zolarining aksariyatini ishlatalish zarurligi allaqachon isbotlangan. Malaka oshirish jarayonida shunday imkoniyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan texnik vosita – kompyuterdan foydalanilganda axborotni ko‘zi bilan ko‘rib yaxshi eslab qoluvchi o‘quvchi uchun ham, qulog‘i orqali eshitib eslab qoluvchi o‘quvchi uchun ham qulay imkoniyat yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ijodiy faoliyatini faollashtirib, darsga qiziqishini oshiradi. O‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanish - (yangi axborot texnologiyalarini joriy etish) o‘quv jarayonini jadallashtirish, uni optimallashtirish, talabalarining fanni o‘rganishga qiziqishini oshirish, ta’limni rivojlantirish g‘oyalarini amalga oshirish, darsning tezligini oshirish va mustaqil ish hajmini oshirishning usullaridan birini taklif qilishga urinishdir. Bu mantiqiy fikrlash, aqliy mehnat madaniyati, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘sadi, shuningdek, o‘quv jarayonining motivasion sohasiga, uning faoliyat tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Darslarda talabalar yuqori faollik ko‘rsatadilar. Talabalar darsga katta qiziqish bildirishadi va uning hammualliflariga aylanadilar. O‘qituvchi va talabaning darsdagagi bирgalikdagi faoliyati bu darsni interaktiv qiladi, talabaning shaxsiyati, individual qobiliyatları va moyilliги birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofali o‘qitish alohida o‘rin egallaydi.[4] Ta’limning barcha shakllarini o‘qituvchi va tinglovchi muloqoti tashkil etadi. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar yordamida o‘qituvchi va tinglovchi muloqotida sub’ekt va ob’ektning o‘zaro ta’siri amal qiladi va bu o‘zining ijobiy samarasini kelgusida berishiga aminmiz.

Mamlakatimizda bugun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘quv jarayoniga esa axborot texnologiyalarini joriy etish turli xil axborot manbalariga kirishni ta’minlaydi va o‘quv tarkibini boyitishga katta hissa qo‘sadi, unga mantiqiy va qidiruv xarakterini beradi, shuningdek ta’lim oluvchilarning bilimga qiziqishini faollashtirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, aqliy faoliyatini rag‘batlantirish usullari va vositalarini topish kabi muammolarini hal qiladi. Zamonaviy texnologiyalar bilim olish jarayonini osonlashtirish bilan bирgalikda, talabaning vaqt va sharoitidan kelib chiqib darslarni tashkil qilish hamda boshqarish imkonini beradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni
2. Голиш Л.В. Что нужно знат обучающему о современных технологиях обучения. Учебно-методическое пособие. – Т.: 2002. – 160 с.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Т.: O‘qituvchi, 2004. – 102 b.
4. O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005 y.-205 b.



# BO'LAJAK MUHANDISLARNI STANDARTLASHTIRISH VA METROLOGIK TA'MINOT SOXASIDAGI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI

## МОДЕЛЬ СТАНДАРТИЗАЦИИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ И РАЗВИТИЯ ИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБЛАСТИ МЕТРОЛОГИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

### A MODEL FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE ENGINEERS IN THE FIELD OF STANDARDIZATION AND METROLOGICAL PROVISION

*Nosirov Jahongir Normurod o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Bo‘lajak muhandislarning standartlashtirish va metrologik ta’mnotin soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlanirish murakkab jarayon hisoblanadi. Uni hal etishda, ta’lim jarayonini modellashtirish, standartlashtirish va metrologik ta’mnotin soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlanirish orqali bo‘lajak muhandisni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqish muhim o‘rin tutadi. Ushbu ishda bo‘lajak muhandislarni standartlashtirish va metrologik ta’mnotin soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlanirishning takomillashtirilgan modeli haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Standartlashtirsh, metrologiya, muhandis, model, kasbiy kompetensiya.

**Аннотация.** Развитие профессиональных компетенций будущих инженеров в области стандартизации и метрологического обеспечения представляет собой сложный процесс. Для ее решения важна разработка модели подготовки будущего инженера к профессиональной деятельности путем моделирования и стандартизации образовательного процесса и развития профессиональных компетенций в области метрологического обеспечения. В данной работе рассматривается усовершенствованная модель стандартизации будущих инженеров и развития их профессиональных компетенций в области метрологического обеспечения.

**Ключевые слова:** Стандартизация, метрология, инженер, модель, профессиональная компетентность.

**Abstract.** The development of professional competencies of future engineers in the field of standardization and metrological support is a complex process. In solving it, the development of a model of training future engineers for professional activity through modeling the educational process, developing professional competencies in the field of standardization and metrological support plays an important role. This work considers an improved model of developing professional

*Nosirov J.N.,  
O‘zMU Jizzax filiali  
tayanch doktoranti  
[jahon.nosirov.95@bk.ru](mailto:jahon.nosirov.95@bk.ru)*

competencies of future engineers in the field of standardization and metrological support.

**Keywords:** Standardization, metrology, engineer, model, professional competence.

Pedagogik va ilmiy adabiyotlarda “Bo‘lajak mutaxassis modeli” tushunchasiga nisbatan turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Ko‘pchilik mualliflar tomonidan bo‘lajak mutaxassis modeli deyilganda, muayyan soha mutaxassisining umumlashtirilgan obrazni sifatida o‘rganilayotgan ob’yektning asosiy xususiyatlarni aks ettiruvchi sifatlarni tushunish kerakliligi e’tirof etiladi.

Boshqa bir guruh olimlar esa modelning muayyan vaqtning o‘zida tasviriy shaklni aniqlash hamda uni qurish «texnologiyasi»dan iborat ekanligini qayd etadilar.

Uchinchi guruh vakillari esa “mutaxassis modeli” tushunchasi mohiyatida egallanishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar bilan birlgilikda shaxsning kasbiy va shaxsiy sifatlari, madaniyati, qadriyatları va boshqa xususiyatlari ham namoyon bo‘lishi zarurligini yoqlaydilar.

Tadqiqot jarayonida biz tomonimizdan Bo‘lajak muhandislarning standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirildi (1-rasm). Standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalari insonning ehtiyojlariga muvofiq biror bir narsani standartdan o‘tkazish va me’yorlashni ko‘zda tutadi. Bo‘lajak muhandislarni standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning ijodiy faoliyatini shakllantirish asosiy vazifadir. Standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli yaxlit birlikka ega bo‘lib, bloklardan tarkib topadi: maqsadli, mazmunli, jarayonli, baholash-natijaviy.

Bo‘lajak muhandislarni standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli mazmuni quyidagicha ifodalanadi.

I. Maqsadli blokda ish beruvchi talablari, davlat ta’lim standarti talablari, hamda raqobatbardosh kadr tayyorlashda kompetensiya talablari belgilangan.

Maqsadli blok standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining asosini aks ettiradi. standartlashtirish va metrologik ta’milot soxasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining maqsadi faqatgina bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish emas balki ish beruvchi talablarini o‘rganish, davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarni inobatga olish, shuningdek, xalqaro mehnat bozori talablarini o‘rganishni taqazo etadi.

Falsafa nuqtai nazaridan har qanday faoliyat uning maqsadi bilan aniqlanadi. Maqsad-xulq, ongi faoliyatning elementlaridan biri bo‘lib, ongda, tafakkurda faoliyat natijasini va ularga erishish yo‘llari, usullari bilan tasvirlaydi. [2]

Standartlashtirish va metrologik ta’milot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish maqsadi davlat ta’lim standartlari talablari asosida aniqlanadi va mos deskritlarni o‘zlashtirish va bo‘lajak muhandisni ushbu kompetensiyaning shakllanganligini sifat jihatidan yanada yuqoriroq darajasiga o‘tishni ta’minlashdan iborat, bu bo‘lajak kasbiy faoliyatni samaradorligini oshirish imkonini beradi.

### MAOSADLI BLOK

**Ijtimoiy buyurtma:** Texnika yo‘nalishi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muxandislarni tayyorlashning DTS va malaka talablari

**Maqsad:** Bo‘lajak muhandislarni standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensivalarini rivoilantirish

### MAZMUNLI BLOK

**Vazifalar:** Ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi ishlar uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish;

Ishlab chiqarishda anqlikni me’yorlash va metrologik ta’minot bo‘yicha ishlarni bajarishda ustunlik qiluvchi bo‘lajak muhandislarning shaxsiy ciftalarini rivoilantirish

Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun o‘quv-kasbiy masalalar shartlari mazmuni; Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiya mazmunini aks etuvchi o‘quv reja fanlari dasturlari mazmuni; “Detallarning silliq elementlarini o‘tirishini hisoblash va ularni nazorat qilish vositalari” kompyuter dasturi mazmuni; Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqarish amaliyoti dasturining mazmuni; Geometrik parametrlarni me’yorlash va anqlikni nazorat qilish bo‘yicha laboratoriya praktikumini dasturining mazmuni; Mintaqaviy sanoat korxonalari bilan Xalqaro standartlashtirish kuni,

### JARAYONLI BLOK

#### Shakllar

- Auditoriyada jamoaviy, guruhli va yakka tartibda
- Auditoriyadan tashqarida mustaqil ta’lim, onlayn ta’lim

#### O‘qitish texnologiya va metodlar

- Loyiha asosidagi o‘qitish (Project-Based Learning - PBL)
- Flipped Classroom (Aylangan sinf modeli)
- Kooperativ o‘qitish (Collaborative Learning),
- Problema asosidagi o‘qitish (Problem-Based Learning)
- Hayot davomida o‘rganish (Lifelong Learning)

#### Vositalar

Kompyuter, proyektor, elektron darslik, elektron o‘quv qo’llanma, simulyatsiya dasturlari va virtual laboratoriylar, Bulutli xizmatlar Elektron platforma

O‘qituvchi faoliyati

#### Metodik ta’minot:

Me’yoriy-metrologik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha o‘quv-kasbiy masalalarning majmuasini talabalar yechishini tashkil etish metodikasi; Amaliy mashg‘ulotlarda Detallarning silliq elementlarini o‘tirishini hisoblash kompyuterli dasturni qo’llash bo‘yicha metodik tavsiyalar; Geometrik parametrlarni me’yorlashtirish va anqlikni nazorat qilish bo‘yicha laboratoriya praktikumini bajarish bo‘yicha talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish metodikasi; OUYU ni mintaqaviy sanoat korxonalarni talabalarda me’yoriy-metrologik kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha boshqarish funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar.

Talaba faoliyati

#### Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalari komponentlari:

Kognitiv, Operatsinal faoliyatli, Motivatsion qadriyatlari

### BAHOLASH BLOKI

#### Pedagogik tajriba sinov bosqichlari

Asoslovchi  
Shakllantiruvchi  
Yakuniy

#### Diagnostik proseduralar:

Kuzatish, anketalash,  
intervyu olish, testlash, o‘z-o‘zini baholash, ekspert  
baholash

#### Baholash me’zonlari:

Kognitiv,  
Operatsinal faoliyatli, Motivatsion qadriyatlari

#### Baholash darajalari :

quyi, o‘rta, past

Natija: Kasbiy kompetenti rivojlangan metrolog muhandis

**1-rasm. Bo‘lajak muhandislarning standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli**

Qo‘yilgan maqsadga muvofiq quyidagi masalalarni xal qilish zarur:

- Talabalarda standartlashtirish, aniqlikni me’yorlash va ishlab chiqarish jarayonini metrologik ta’minlash sohasida ishlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- Aniqlikni me’yorlash va ishlab chiqarishda metrologik ta’minot bo‘yicha ishlarni bajarishda ustunlik qiluvchi bo‘lajak muhandisning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish;

Mazmuniy komponent asosiga Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarning shakllanish jarayonini ma’naviy to‘ldirilishi joylashtirilgan. U muhandis bajaradigan standartlashtirish, me’yorlash va aniqlikni nazorat qilish bo‘yicha kasbiy harakatlarni bajarishni aktuallashtiruvchi o‘quv-kasbiy masalalarning shartlarini mazmuni bilan ifodaladi.

Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllanishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plami talabalar tomonidan o‘quv rejadagi fanlarni o‘rganish jarayonida jamlanadi. Texnika oliv ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida o‘zlashtirilish kerak bo‘lgan o‘quv fanlari mazmuni tahlili, talabalarni ishlab chiqarishni standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasida kasbiy faoliyatni tushunishda talabalarni nazariy bilimlarni olishni ta’minlovchi fanlarni ajratish imkonini berdi.

Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish maqsadida bo‘lajak muhandisning o‘quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun tadqiqot muallifi tomonidan umumkasbiy va maxsus fanlarni integratsiya va differensiyasini nazarda tutuvchi ishlab chiqarish amaliyoti mazmuni ishlab chiqildi va amaliyotni o‘tash natijasida talabalar:

- Bajarilayotgan ishga oid me’yoriy va rahbariy materiallarni bilish; texnik hujjatlarga va ishlab chiqariladigan buyumlarga qo‘yiladigan asosiy talablarni bilishi; ishlab chiqarilayotgan va foydalanilayotgan texnik vositalarning ishslash prinsipi, texnik va konstruktiv xususiyatlarini bilish;

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulot defektlari (nuqsonlari) va nuqsonlarini yuzaga kelish sabablarini tahlil qila olish; mashinasozlik ishlab chiqarishi buyumlarini geometric aniqligini o‘lchash metodlari va vositalarni tanlab olish;

- Mashinasozlikda qo‘llaniladigan detallarning asosiy geometrik parametrlarini o‘lchash malakalarini o‘zlashtirish;

- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib detallar, uzellar, mexanizmlarni tayyorlashni talab etilgan aniqligini tanlash bo‘yicha hisoblashlarni bajarish; ishslash chiqarilayotgan mahsulot asosiy sifat ko‘rsatkichlarini o‘lchash vositalarini metrologik tekshirishni bajarish;

- Amaldagi standartlar asosida texnik hujjatlarni ishlab chiqish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot nuqsonlarini oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish;

- Ishlab chiqarilayotgan texnik hujjatlarni amaldagi standartlar, texnik shartlar va boshqa me’yoriy hujjatlarga mosligini nazorat qilish bo‘yicha tadbirlarda ishtirop etish; tayyor mahsulotni sifatini samarali nazorat qilishni tashkil etishda ishtirop etish.

Modelning jarayonli komponenti quyidagi savolga javob beradi: talabalarni standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini qanday tashkil etish mumkin? Ushbu komponent ta’limning jarayonli mohiyatini aks etadi, o‘qituvchi, talaba faoliyatini va ularning o‘zaro birgalikdagi harakatini tartibga soladi.

Madelning jarayonli komponenti mohiyati bo‘lajak muhandisda standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirishni uslubiy ta’minoti yordamida amalgalashiriladi. Ishlab chiqilgan uslubiy ta’minotni quyidagi tashkil etuvchilarini ajratamiz:

- Standartlashtirish va metrologik ta’minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha o‘quv-kasbiy masalalar majmuasini talabalar yechishni tashkil etish metodikasi.

- Amaliy mashg'ulotlarda "Detallarning silliq elementlarini o'tirishlarini hisoblash va ularni nazorat qilish vositalari" kompyuterli dasturidan foydalanish bo'yicha uslubiy tasvirlar;

- Geometrik parametrlar aniqligini nazorat qilish va me'yorlash bo'yicha virtual laboratoriya praktimuni bajarish talabalarning o'quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish metodikasi;

- Talabalarda standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha mintaqaviy sanoat korxonalari bilan oliy o'quv yurti o'zaro hamkorlikdagi harakatini boshqarish funksiyasini (vazifasini) amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar.

Uslubiy modelning nazorat-baholash komponenti o'qituvchining ob'ektiv bahosi, monitoringni o'tkazish maqsadida diagnostik prosedura va talabalarning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish darajasini sub'ektiv bahosini o'z ichiga oladi.

Nazorat-baholash komponenti standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimining eng muhim komponenti hisoblanadi, chunki, uning yordamida talabalarning o'quv-kasbiy faoliyati monitoring amalga oshiriladi, metodik (uslubiy) tizim samaradorligi baholanadi va bo'lajak muhandisni standartlashtirish, aniqlikni me'yorlash va ishlab chiqarish jarayonini metrologik ta'minoti masalalarida tayyorlash sifati muommosi hal qilinadi. Shu sababli nazoratni uchta tashkil etuvchiga bo'lim maqsadga muvofiqdir: kiruvchi, joriy va yakuniy.

Nazorat ta'lim jarayonini tabiiy qismi bolib, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarga ega, biroq nazoratning asosiy funksiyasi diagnostic funksiya hisoblanadi mos ravishda:

- Kirish nazorati talabalarni standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini, optimal metodik ta'minotni ishlab chiqish va qo'llash maqsadida shakllantirish jarayoniga talabalarni kasbiy tayyorlash darajasini aniqlash uvhun zarur;

- Joriy nazorat talabalarni standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyasini shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida o'quv-kasbiy faoliyatini baholash uchun zarur va zaruriyat tug'ilsha shakllanish jarayonini korreksiyalash (tuzatish) uchun kerak;

- Yakuniy nazorat raqobatbardosh mutaxasisni tayyorlash maqsadida me'yoriy-metrologiki kompetensiyani erishilgan shakllanganlik darajasini qayd etish uchun zarur.

Standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darjasini ishlab chiqilgan mezonlar asosida aniqlanadi. Shakllanganlik ko'satkichlarini aniqlab, biz mezonli yondashuv qoidalariga rioya qildik. Pedagogik adabiyotlarda "mezon" tushunchasi "asosida nimanidir baholash, ta'riflash yoki tasniflash amalga oshiriladigan belgi," fikr yurutish o'lchovi, qandaydir xodisani baholash" sofatida tavsiflanadi. [1]

Natijaviy komponent metodik tizim maqsadlariga mos uni ishlashi natijalarini o'z ichiga oladi: talabalarni standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy komponentlilikni shakllanganligini sifat jihatidan yanada yuqoriqoq darajasiga o'tishi, shuningdek ushbu tizimni tashkil etuvchi komponentlarning mazmunini tuzatish imkoniyati. Standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik natijasi uning har bir komponenti bo'yicha alohida baholanadi: kognitiv (kerakli bilimlarni akkumuliyatsiya qilishga qobililik), operatsional-faoliyatli (aniqlikni me'yorlash va ishlab chiqarish jarayonini metrologik ta'minotini samarali amalga oshirishga qobililik); natijada talaba bo'lg'usi muhandis sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning berilgan sifatini ta'minlab kasbiy vazifalarni komponentli bajaradi: natija e'lon qilingan maqsad bilan ustma-ust tushmasligi mumkin. Bu holatda metodik (uslubiy) tizim bo'lajak muhandisning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyasini shakllanishidagi kamchiliklarni bartaraaf etishga yo'naltirilgan komponentlarni tuzatishni ko'zda tutadi. Zaruriyat tug'ilganda tuzatishga uslubiy tizimning alohida komponentlari ham, shuningdek ularning jamlanmasi duchor bo'ladi. Tuzatish

bo'lajak muhandislarda standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllanishi jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini o'z ichiga oladi va o'qituvchi va talabalar faoliyatida, eksperiment davomida, o'quv mashg'ulotlari shaklida kerakli natijaga erishish uchun o'zgarishlar kiritishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak muhandislarda standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllanishini uslubiy tizimini mazmunini tuzatush quyidagi o'zlashtirishlarni kiritish o'z ichiga oladi:

- Ma'ruza mashg'ulotlari mavzularini tanlash yo'li bilan talabalarning nazariy tayyorgarligiga o'zgarishlarni kiritish;

- O'quv-kasbiy masalalarni tanlash va ularni yechish uslublarini tanlash yo'li bilan talabalarning amaliy tayyorgarligiga o'zgarishlar kiritish;

- Laboratoriya praktikumi mavzularini tanlash va uni o'tkazish metodikasini aniqlash yo'li bilan talabalarni tayyorgarligiga o'zgarishlar kiritish;

- Individual topshiriq, referatlar va ilmiy-amaliy konferensiylar va korporativ tadbirlar uchun doklatlar mavzularini tanlash yo'li bilan talabalarning mustaqil ishiga o'zgarishlar kiritish.

Standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllanishining uslubiy ta'minotini tuzatish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'qituvchi tomonidan ta'limning metodlari va vositalarini tanlashda tuzatish;

- O'quv mashg'ulotlari shakllarini tanlashda tuzatish;

- Talabalarning mustaqil ishni tashkil etishda tuzatish;

- O'quv-kasbiy masalalarni yechish va individual topshiriqlarni bajarishda talabalarning mustaqillik darajasini tuzatish.

Standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllanganlik darajasining monitoringini tuzatish quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

- Nazoratning shakl va metodlarini o'zgartirish;

- Nazorat tadbirlarini o'tkazish jadalligini o'zgartirish;

- Monitoring natijalarini kuzatishning turli shakllaridan foydalanish;

Bo'lajak muhandislarning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyasini shakllanish tizimi pedagogik tizim hisoblanadi. Tizim sifatida unga barcha tizim belgilari xos: yaxlitlik, strukturaviy komponentlarning mavjudligi, tizim komponentlari va ta'lim muhitini orasida o'zaro aloqaning mavjudligi, shajaratlik, tizim tashkil etuvchi olimlarning mavjudligi, tavsifning ko'pligi bo'lajak muhandisning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini shakllanganligini. [3]

Bo'lajak muhandisning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyasini shakllanishini uslubiy tizimini tavsiflashning ko'pligi har biri butunning ma'lum jihatining aniqlovchi, tizimning tamoyillaridan birini tavsiflaydigan bir qancha turli modellarni kirishni nazarda tutadi. [2] Uslubiy tizimning tavsifini funksiyalarni tahlil qilish vositasida taqdim etamiz, chunki standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllanish tizimi polifunksional hisoblanadi:

- Ijtimoiy, ijtimoiy tajribani uzatishga umumiylar va kasbiy madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan;

- Psixologik, kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish uchun talabalarda ijobiy motivatsiyani yaratishni ta'minlaydi;

- Pedagogik, standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllanish jarayonini kerakli ilmiy va o'quv-uslubiy ta'minoti yaratishni nazarda tutadi;

- Boshqaruvchi, standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun uzoq muddatli bajarishga mo'ljallangan o'quv-kasbiy va individual topshiriqlarni qo'llashni ta'minlaydi;

Texnika oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonasi o'zaro hamkorlikdagi harakati jarayonida maqsadga muvofiq o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritish: talabalarni standartlashtirish, me'yorlash va aniqlikni nazorat qilish bo'yicha talaba faoliyatini hisobga olish va nazorat qilish. Shunday qilib, muallif taklif etayotgan bo'lajak muhandisning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyasini shakllanishining uslubiy tizimi barcha zaruriy tizim belgilariga javob berishini isbotladik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вербицкий, А.А. Контекстно-компетентностный подход к модернизации образования / А.А. Вербицкий // Высшее образование в России. - 2010. - №5. - С. 32-37
2. Байденко, В.И. Выявление состава компетенций выпускников вуза как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: Методическое пособие / В.И. Байденко. -М: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. -72 с.
3. Зеер, Э.Ф. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем / Э. Зеер, Д. Заводчиков // Высшее образование в России. - 2007. - № 11. - С.39-45.
4. Попов, А.В. Формирование инженерной компетентности будущего специалиста во взаимодействии ВУЗа и предприятия: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / А.В. Попов. - Оренбург: ИПК ОГУ, 2006. - 21 с.



# **OLIY TA'LIM MASSASALARI TALABALARIDA KVALIMETRIK TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH**

## РАЗВИТИЕ КАЧЕСТВЕННОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

## **DEVELOPMENT OF QUALITATIVE TRAINING IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

## *Nuradinov Furkatjon Rashidovich*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta’lim massasalari talabalarida kvalimetrik tayyorgarlikni rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholash shakllari, ta’lim monitoringini ilmiy asoslangan va uzviy bog‘langan nazorat turlari va ularning shakli, pedagogik kvalimetrya jarayonini amalga oshirish bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, kvalimetriya, kompetensiya, matematik-statistik tahlil, ta’lim-tarbiya jarayoni sifati, deduktiv mantiqiy yo‘nalish, induktiv mantiqiy yo‘nalish.

**Аннотация.** В данной статье описаны вопросы разработки качественной подготовки студентов высших учебных заведений, формы контроля качества и оценки образовательного процесса, виды научно обоснованного и комплексного контроля образовательного мониторинга и их формы, реализация педагогического качественного контроля. процесс завершен.

**Ключевые слова:** образование, образование, метрики качества, компетентность, математико-статистический анализ, качество образовательного процесса, дедуктивно-логическое направление, индуктивно-логическое направление.

**Abstract.** This article describes the development of qualitative training for students of higher education institutions, the forms of quality control and evaluation of the educational process, the types of scientifically based and integrated control of educational monitoring and their form, the implementation of the pedagogical qualitative process. done

**Keywords:** education, education, quality metrics, competence, mathematical-statistical analysis, quality of educational process, deductive logical direction, inductive logical direction.

Dunyo hamjamiyatida bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlash juda katta miqdordagi bilim, ijodiy, ma’naviy va jismoniy quvvatni rivojlantirishni nazarda tutadi, chunki iqtisodiy aloqalar doimiy ravishda rivojlanib borishi kerak, bu esa alohida ijtimoiy ahamiyatga ega. Bugun ta’lim va ilmiy tadqiqot

muassasalarida ta’lim sifatini baholash, pedagogik obektlarni kvalimetrik xarakteristikalariga moslashtirish, talabalarda kvalimetrik kompetensiyalarni rivojlantirish, kvalimetrik yondashuv asosida innovation pedagogik faoliyatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish modellarining samaradorligini oshirish, innovation metodikalar hamda elektron ta’lim resurslarini kvalimetrik yondashuv asosida pedagogik mazmunini muvaffaqiyatini ta’minalash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamizda So‘ngi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ko’tarish ta’lim-tarbiya tizimini pedagoglar attestatsiyasini tashkil etish asosida takomillashtirish, ta’lim mazmunining yangi avlodlarini yaratish, pedagogik kvalimetriya o’quv resurslarini ishlab chiqishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Jamiatning bozor munosabatlariiga o’tishi, demokratik boshqaruva tuzilmalarining shakllanishi, shaxsning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda ko‘plab kontseptual yondashuvlarning o‘zgarishi bilan butun dunyodagi oliy ta’lim muassasalari talabalari o’rtasida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga yangi yondashuvlar talab etiladi. Mustaqilligimizni dastlabki kunlaridan boshlab yoshlarga ta’lim-tarbiya berishga alohida diqqat-e’tibor qaratilib, u davlat miqyosidagi siyosat darajasiga ko’tarilgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu masalaga e’tibor yanada kuchaytirildi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilishning qonun qoidalariiga amal qilgan holda turli yo‘nalishlar bo'yicha pedagoglar tayyorlashga kirishildi. Shu jumladan, professional iqtisodchi pedagoglar tayyorlash ham qo‘ylgan vazifani amalga oshirishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi [1]. Shu bilan birga, pedagogika, psixologiya, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiya va boshqa fanlarni ham chuqur bilishi zarur bo‘ladi. Kadrlar tayyorlashdagi asosiya maqsad zarur bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilishdir. Oliy ta’lim muassasasida fanni o‘rganish, fanda erishilgan zamonaviy yutuqlarni amaliyot bilan bog‘lash, dolzARB muammolarni aniqlash, ularning yechimini topishga yo‘naltirish nazarda tutiladi [2]. Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’limning o‘ziga xosligi dars o‘tish metodlarini tanlashga ham ta’sir ko‘rsatadi. Rus olimi I.T.Ogorodnikov o‘z tadqiqotlarida oliy maktabdagagi o‘qitish metodlarining o‘ziga xosligi deganda, uning ilm o‘rganish metodlari bilan yaqinlashuvdir deb tariflaydi. S.I.Arhangelskiy esa oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitish metodlari nafaqat dars berish usullari va uslublarini birlashtirish, balki bilishning o‘quv va ilmiy faoliyatga yo‘naltirilgan tizimi degan fikrni bildiradi [1]. Shuning uchun ko‘proq talabalarni o‘ylashga undaydigan dars o‘tish metodlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Umuman talaba o‘ylashga o‘rganmasa, olgan bilimlaridan foydalana olmaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotida insonning o‘yashi, tahlil qilishi, taqoslab, qaror chiqarishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki har qanday sohada muvaffaqiyatlari ish yuritish uchun tafakkur rivojlangan bo‘lishi zarur. Respublikamizda joriy etilgan uzlusiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, uzlusiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlar shu jumladan, oliy ta’lim muassasasida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar pedagogik kvalimetriyaning fan sifatida obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari, kvalimetrik shkala, kvalimetrik jarayonning bosqichlari, pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashxislash va baholash, olingan natijaga muvofiq umumiy xulosalash, kasbiy-pedagogik faoliyatda kvalimetriya metodlarini qo‘llashdagi yondashuvlarning mazmun-mohiyatini anglashi lozim [3]. Shu bilan bir qatorda professor-o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetensiyalarni nazorat qilish

va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish, standart va nostandard test topshiriqlarini tuza olishi, test o'tkazish jarayonining metodikasi, olingan natijalarni ekspertizadan o'tkazish, yakuniy natijalarni umumlashtirish, pedagogning kasbiy-pedagogik modelini tuzish va modelning har bir tarkibiy qismining egallanganlik darajasini aniqlash, talabalarning umumiyligi va kasbiy layoqatini aniqlash metodikasi, talabalar tomonidan bilimlarni egallaganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va pedagogik xulosa yasash malakasini egallagan bo'lishi zarur [4]. Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'larning barcha bug'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorlarligi darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rinni tutadi. Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitishda kvalimetrik yondashuvlarni aniqlash va joriy qilish asosida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini, shuningdek kasbiy kompetensiyalarini baholash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya yutuqlaridan keng miqyosda foydalanish iqtisodiy yo'nalishda tahsil oluvchilarning me'yoriy talablar asosida bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiyalarini o'zlashtirish imkoniyatlari, ularning ehtiyojlari va o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashda va olingan natijalarga muvofiq ularga nisbatan individual yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarini talabalarining kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirish masalalari qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan. J.O.Tolipova o'z tadqiqot ishlarida aynan pedagogik kvalimetriya fanining maqsadi, vazifalari, ilmiy-tadqiqot metodlari, dolzarb muammolariga to'xtaladi. Shuningdek, uning tadqiqot ishlarida ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan foydalanish istiqbollari va muammolari, testologiya fani muammolari haqida ma'lumotlar keltiriladi. A.I.Subetto, I.N.Belozerov, N.A.Vasilyeva va boshqalar ishlarida pedagogik kvalimetriyaning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan, uning muammolari aniqlangan, pedagogik tadqiqotlarni o'tkazishda ekspert baholashlarni qo'llash metodikasi bayon etilgan, kvalimetrik va boshqa metodlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan, pedagogikada tadqiqotlarni o'tkazishda ekspert metodlarining keng imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Oliy ta'lim muassasalarini talabalarida kvalimetrik kompetentligi tizimini qurishda faoliyatli yondashuv quydagi larda asoslanish zarur:

oliy ta'lim muassasalarini talabalarini o'quv faoliyatining to'laqonli subyektiga aylanishlari uchun qulay sharoitlarni yaratishlari zarur;

oliy ta'lim muassasalarini talabalarini pedagogik kvalimetriyaning o'r ganish motivasiyasi ular tomonidan kasbiy-ahamiyatli ehtiyojlarga asoslashnishi hisobga olish zarur;

pedagogik kvalimetriya sohasida kasbiy bilim, malaka egallashga yo'naltirilgan bo'lajak o'qituvchilarning xatti-harakatlari va operasiyalari, vositalari va muhit sharoiti, o'quv faoliyatini nazorat qilish va baholash shakl hamda metodlarini aniqlash zarur;

tizim o'qituvchi va talaba, subyekt-subyekt sharoitlarida amalga oshirilishi shart;

o'qituvchilar baholash faoliyatining kvalimetrik aspekti faoliyatli yondashuv asosiy tushunchalarida ifodalanishi zarur va ushbu ma'lumotlar talabalarda kvalimetrik kompetentlikni rivojlantirishda o'z aksini topishi shart.

Bugungi ta'lim sifatini boshqarish tizimlarining rivojlanishi sharoitlarida pedagogik xodimlar yuqori darajadagi kvalimetrik kompetentlikka ega bo'lishlari kerak va bu ularga ta'lim jarayonining nazoratini to'g'ri amalga oshirishga va uning asosida ta'lim sifatining oshirishiga ko'maklashuvchi to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishlariga imkon beradi.

Pedagogik kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari jumlasiga taqqoslash, olingan natijalarni matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagog kadrlarni suhbatdan



o‘tkazish, o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so‘rovnama o‘tkazish, ekspertizadan o‘tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: «Fan va texnologiya», 2007. -337 b.
2. Shadiev, R., Shadiev, N., Fayziev, M., Halubitskaya, Y. Improving Student Learning Satisfaction in Lectures in English as a Medium of Instruction with Speech-Enabled Language Translation Application. Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics), 2020, 12555 LNCS, str. 576–581.  
[https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6\\_62](https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6_62)
3. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya moduli bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. TDPU. Toshkent, 2017.
4. Азгальдов Г.Г. Квалиметрия - наука об измерении качества продукции / Г.Г.Азгальдов, А.В.Гличев, З.Н. Крапивенский [и др.] // Стандарты и качество. - 2007. - №4. -С. 62-63.

## DUTOR CHOLG'USIDA TALABALARING IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

## РАЗВИТИЕ ИСПОЛНИТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ДУТОРСКОМ ИНСТРУМЕНТЕ

### DEVELOPMENT OF EXECUTIVE COMPETENCIES OF STUDENTS IN DUTOR'S INSTRUMENT

*Omanqulova Shohida Nematillo qizi, Samatova Dilnoza Salaidinovna*

**Annotatsiya.** Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining raqobatbardoshligini rivojlantirish zaruriyati, ish bilan bandligi, olingen bilimlarining sifati, ularning harakatchanligini oshirish, musiqa pedagogik ta'lim strukturasi va mazmunini ijrochilik kompetensiyalari bilan mukammallashtirishni talab qiladi. Bugungi kunda musiqa ta'limiga cholg'uchilikni jadal joriy etish, san'at va ta'limning turli sohalarida bilimlarini rivojlantirish, o'zlarining professional faoliyatida fanlararo aloqalarini o'rnatish ayniqsa muhim. Maqolada pedagogik madaniyati va mahoratiga ega, ayniqsa, musiqa cholg'ularida mahorat bilan ijro eta oladigan, dars sifatini ijrochilik asosida boyita oladigan bo'lajak musiqa o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak musiqa o'qituvchilar, dutor cholg'usi, ijrochilik kompetensiyalari, dutor, musiqa merosi, "Ustoz-shogird" an'anasi, repertuar tanlash.

**Abstract.** The need to develop the competitiveness of the future music teacher, employment, the quality of the acquired knowledge, increasing their mobility, perfecting the structure and content of music pedagogical education with performance competencies requires. Today, it is especially important to rapidly introduce musical instruments into music education, to develop knowledge in various fields of art and education, and to establish interdisciplinary connections in their professional activities. In this sense, taking into account the great demand for future music teachers who have pedagogical culture and skills, especially those who can skillfully play musical instruments, who can enrich the quality of lessons based on performance, these points are stated in the article.

**Keywords:** future music teachers, dutor instrument, performance competencies, dutor, musical heritage, "Master-disciple" tradition, repertoire selection.

**Анататция:** Необходимость развития конкурентоспособности будущего учителя музыкального образования, его трудоустройства, качества приобретаемых им знаний, повышения его мобильности требует

совершенствования структуры и содержания музыкально-педагогического образования исполнительскими компетенциями. Сегодня особенно важно ускоренно внедрять в музыкальное образование музыкальные инструменты, развивать знания в различных областях искусства и образования, налаживать междисциплинарные связи в профессиональной деятельности. В этом смысле, учитывая большую потребность в будущих учителях музыки, обладающих педагогической культурой и навыками, особенно умеющих умело играть на музыкальных инструментах, способных повысить качество уроков на основе исполнительского мастерства, данные моменты излагаются в статье.

**Ключевые слова:** будущие учителя музыки, дуторный инструмент, исполнительские компетенции, дутор, музыкальное наследие, традиция «Мастер-ученик», подбор репертуара.

**Kirish.** Yurtimiz madaniyati taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon musiqa san'ati madaniyati ilmiy rivojlanish texnik bazasi va texnologiyasining so'ngi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lif tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>2</sup> gi PQ-112 Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi oliv ta'lif muassasalari oldiga qator muhim vazifalarni qo'yadi va pedagogik kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi sifatida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va ta'lif funksiyalarining murakkabligi tufayli yangi mazmun bilan to'ldirilmoqda. Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta'minlash mumkin.

Zamonaviy musiqa ta'limi ko'p qirrali integratsiyalashgan jarayonni talab qilishini inobatga olib, musiqa ta'limining har bir vakili bilishi lozim bo'lgan eng muhim san'at turlaridan hisoblanadigan, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy pedagogik faoliyati davomida o'rgatishni amalga oshirishi lozim bo'lgan birgina cholq'u ijrochiligin o'qitilishidagi muammo shuki, cholq'ularda musiqa asarlarini mohirlik bilan ijro etish talab qila boshlandi. Cholq'u ijrochiligi san'at sifatida muktab musiqa darslarida yetakchi faoliyatga aylandi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning "Endi umumta'lim maktabini 11-sinfini bitirgan o'quvchining attestatida "bitta cholq'uini o'rgangan" degan bahosi bo'ladi" [1] deb aytgan gaplari umumta'lim maktablarida musiqa sohasida faoliyat yuritayotgan har bir xodim zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shu bilan birga umumta'lim maktablari uchun musiqa pedagogikasi va cholq'u

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022 y., 07/22/112/0099-son)

ijrochiligi bo'yicha kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini etuk mutaxassis qilib tayyorlash oly o'quv yurtlari musiqa ta'limi yo'nalishlarining eng muhim maqsad va vazifasiga aylandi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.** Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab musiqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash musiqa san'atining bir necha yo'nalishlari bo'yicha bo'lajak kadrlarda zarur kompetensiyalarini egallashlarini taqazo etadi. Bir soatlik dars jarayonidagi musiqa mashg'uloti o'qituvchidan musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, solfedjio, vokal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, dirijorlik va xor bilan ishslash bo'yicha malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Tabiiyki, talabalarda bu san'at yo'nalishlari bo'yicha yetarli darajada zarur nazariy va amaliy (cholg'uda chalish, dirijorlik qilish, vokal – xor malakalari, xor bilan ishslash) bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishlari bir xil darajada bo'lmaydi, musiqa ta'limidan baha olayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchisi har bir yo'nalish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini puxta egallashi, o'z ustida mustaqil va muntazam ishlashi lozim.

Bugungi kunda musiqa ta'limi o'qituvchisi o'quvechi yoshlarga musiqa va qo'shiq o'rgatish bilan bir qatorda, yosh avlodni musiqa olamiga yetaklovchi, go'zallikka undovchi, yoshlarning musiqiy-estetik didini yuksaltiruvchi, ularning ma'naviyatini boyituvchi, musiqaning sehrli kuchini his ettira oluvchi mohir ustoz ham bo'lmog'i lozim. Oliy ta'lim musiqa ta'limi yo'nalishlarida tahsil olayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy mahoratini mezonlari orasida musiqa merosi durdona asarlarini avvalo o'zi o'rganishi va pedagogik faoliyati davomida o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish, milliy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama estetik badiiy did sohibi bo'lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg'uchilik san'ati orqali tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi[12].

Musiqa cholg'ulari orasida milliy cholg'ularimizdan bo'lgan dutorni oladigan bo'lsak maktab musiqa darslarida foydalanishda qulayligi bilan alohida xususiyatiga ega hisoblanadi. Dutorni ijro etish uslublari ham rivojlanib, murakkablashib bormoqda. 1969-yili M.A.Asilov va F.N.Vasilyevlar tomonidan dutor darsligi dastlab bosmadan chiqdi va 1977-yilga kelib bu darslik takomillashtirilib qayta nashr qilindi. Bugungi kunda o'zbek musiqa san'atida dutor ommaviy cholg'u ekanligi va uni o'rganuvchilar soni tobora ortib borayotganligi, shu bilan bir qatorda hukumatimizning musiqa san'atiga, yoshlar tarbiyasiga e'tibori kattaligi tufayli musiqiy darslik va o'quv qo'llanmalarga ehtiyoj yanada kuchaydi.

Dutor nafaqat O'zbekistonda, O'rta Osiyo xalqlari, xususan tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Dutor cholg'usining takomillashtirilishi natijasida dutor prima, dutor sekunda, dutor alt, dutor tenor, dutor bas va dutor kontrabas kabi cholg'u turlari vujudga keldi. Bulardan dutor alt, dutor bas va dutor kontrabaslar o'zbek xalq cholg'ulari orkestrlari tarkibidan doimiy o'rin egalladi.

Bu cholg'uda milliy kuylar bilan bir qatorda, chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin. O'zbekistonda taniqli sozandalardan Orif Qosimov, Turg'un Alimatov, G'anijon Toshmatov, Abdusamat Ilyosov, G'ulom Qo'chqorov, Faxridin Sodiqov, Boqijon Rahimjonov, Habibullo Rahimov, Oydin Abdullaev, Hamidulla Nurmatov, Abdurahim Hamidov, Ro'zibi Hojiyeva, Sulton Qosimov, Malika Ziyayeva, Gulchehra Muhammedova, Shavkat Rahimov, Iqbol Toshpo'latova, Shuhrat Razzoqov, To'lqin Suvonov singari mohir sozandalar dutor ijrochiligini yanada takomillashishiga katta hissa qo'shganlar[12].

O'zbek musiqa madaniyatining qadimiy va boy tarixiga nazar tashlasak, ajdodlarimiz musiqa san'atiga juda katta e'tibor bergenliklarining guvohi bo'lamiz. Buyuk allomalarimiz ijodlarida, musiqa

bobida fikr yuritmagan, o‘zining faoliyatida musiqa bilan to‘qnashmagan, ijod qilmagan biron-bir olimu-shoirni ko‘rmaymiz.

Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdurahmon Fitrat, Darvesh Ali Changiy kabi allomalar bizlarga juda qimmataho ma’limotlar, ya’ni o‘zlarining musiqa bobida ijod qilgan ishlarini, risolalarini, kitoblarni qoldirishgan. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg‘ularining jamiyat hayotidagi rolini o‘rganishga ahamiyat beradi va u “Jangu jadallarda, raqlarda, to‘y-tomoshalarda, ko‘ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo‘shiqlarini kuylashda chalinadigan cholg‘ular bor”, deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida xalq cholg‘ulari lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg‘ular izchil va batafsil ta’riflanadi.

Dutorning tarixiy shakllanishi va boshqa cholg‘ular bilan uyg‘unlik jihatlari uzoq o‘tmishga borib taqalsada, musiqiy risolalarda XV asrdan boshlab ta’riflanib kelinadi. Dutorning o‘z nomi va uning barcha (shakily, tarkibiy, ijroviy) imkoniyatlari bilan ilk bor Zaynullobiddin al-Husyniy o‘zining musiqa ilmiga bag‘ishlangan “Qonuni ilm va amali musiqiy” nomli risolasida bayon etgan. [3]

“Dutor” atamasining paydo bo‘lishiga, uning shaklan o‘xhash, ko‘p torli boshqa cholg‘ulardan (Ozarbayjoncha soz, ud, tanbur kabi) farqlash asosiy sabab bo‘lgan.

Qadimgi Sharq madaniyati quchog‘ida o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli nay, sunray, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qobuzlar an‘anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan axreoligik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O‘rtta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg‘ularini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar; nay, rubobsimon cholg‘u, hozirgi doiraga o‘xhash do‘mbira va shu singari cholg‘ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiob, Tuproqqa’s, Aytaram (Aytaram frizi deb ataladi) kabi shaharlarda topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: Lyunya, tanbur, rubobsimon cholg‘u qonun, ud, dutor, chiltor, nay burg‘u surnay, karnay, doirasimon cholg‘ularida mashq qilishlari tasvirlangan. Shu kabi cholg‘ulardan biri, o‘zbek musiqa merosida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan torli musiqa cholg‘usi dutordir. Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ular o‘z risolalarida musiqa cholg‘usini jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumot bergenlar[13].

1936-37-yillarda Toshkentda o‘zbek musiqa cholg‘ularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yog‘och pardali, kapron torli yangi dutorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorda malakali o‘qituvchilarimiz tomonidan yosh dutorchilarga ijrochilikdan saboq berilmoqda. Dutor haqida gap borganda, albatta, uning mohir ijrochilarini eslab o‘tish joizdir.

Mashhur dutorchilar: H.A.Abdurasulov, Abdusoat Vahobov, Davlatoxun Qodirov, Yunus Rajabiylar dutor cholganlarida kishilar og‘ir sukunatga cho‘mib, olam-olam ma’noli hissiyotlar ummoniga botar ekan. Ulardan keyin esa Shokir Sartarosh, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, To‘xtamurod Rasulov va boshqalar.

Hozirda esa xizmat qilib kelayotgan dutorchilar G‘ulom Qo‘chqorov, Abdurahim Hamidov, Mirsodiq Ergashev, Ro‘zibibi Hojiyeva, Malika Ziyayeva, Obidjon Odilov, Sulton Qosimov va boshqalar[12].

Musiqa san’ati va ijrochiliginining rivojlanishi, dunyo xalqlari musiqachilarini, bastakorlari, musiqashunoslari, o‘zaro muloqotlarining kuchayishi natijasida ijrochilikning ham yangi-yangi ufqlari

ochilib, cholg‘u ijrochiligi sinflarida, cholg‘u sirlarini o‘rgatish kundan-kun rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Dutor juda qadimiy musiqa cholg‘usi bo‘lib uning paydo bo‘lish tarixi eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor tojikcha so‘z bo‘lib ikki tor degan ma’noni bildiradi.

Dutor asrlar davomida o‘zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg‘u faqat o‘zbek xalqining cholg‘usi bo‘lmay, balki uni qardosh tojik, uyg‘ur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ham o‘zlarining sevimli cholg‘usi deb hisoblashadi.

Dutor alt yozilganidan bir oktava past eshitiladi. Dutor alt, dutor primada orkestr jo‘rligida yirik asarlarni (solo) chalish mumkin. Dutor alt mungli, mayin va o‘zining yoqimli tovushi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. Tovush jihatidan ancha past, texnik imkoniyati ham kichkina, lekin oxirg-yillar davomida tajribali ijrochilar bu cholg‘u imkoniyatlarining barcha qirralarini ochib berishdi. Dutor altda o‘ziga xos har xil usullarda (terma zarb, chertma zarb, teskari zarb, bilak zarb, pissikato) kuy chalinadi. Dutor chalish usullari boyligi, turli-tumanligi tufayli orkestrda uning o‘rni muhimdir. Dutor yakkasoz ijro etayotgan cholg‘uga jo‘rnavoz bo‘lib, o‘zining yoqimli va mayin tovushi bilan moslashadi. Tovush jarangini, garmoniyasini boyitib, tovushlarni ushlab, kuy mohiyatini ko‘tarib turadi. Dutorda bir yo‘la ikki tovush sadolanadi. Tersiya, kvarta, kvinta, bitta ochiq torda esa undan katta intervallarni chalish mumkin.[4] Dutor kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo‘llanilayotgan dutor-*alt* deb ataladi. Bu cholg‘u kichik oktava *ly* va *mi* notalarga sozlanadi[13].


O‘zbek an’naviy musiqa ijrochiligidagi keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g‘ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg‘ular mavjud. Cholg‘ularning takomillashuvi ularning ovoziga, ovoz diapazoniga, shakllariga ta’sir ko‘rsatgan. Dutor cholg‘usi manbalarda yozilishicha deyarli o‘zgarmagan. Qadimda dutor cholg‘usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo‘lsa kerak, dutor sozining mayin va xonaki ovozga egaligi bizgacha o‘zgarmastan yetib kelgan.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Cholg‘u ijrochiligi (dutor) sinfida talabalar ijrochilik uchun yozilgan oddiy va murakkab tempdagi asarlarini ijro qilish malakalarini egallashi, zamonaviy musiqa ijrochilik vositalarini yaxshi bilishi, dutor ijrochiligi ustida mutazam mustaqil mashq qilishi, professor-o‘qituvchilarining dutor ijrochilagini mukammal egallashlari uchun beradigan yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalariga amal qilishi talab etiladi.

Dutor cholg‘usi, ijro apparati, tovush chiqarish san’ati, aplikatura, uslub, janr, musiqa obrazi, pozitsiya (ko‘rinish), ifodali ijro vositalari, gamma, uchtovushliklar, etyud va texnik mahorati, shtrixlar kabi ijrochilik kompetensiyalarini o‘zida takomillashtiradi.

Dutor ijrochiligi kompetensiyalarini egallashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

1. Nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘un holda qo‘llanilishi.
2. Oddiy, teskari, terma kabi zarblarni ijro texnikasini mukammallashtirish.
3. Nota. Temp. Applikatura ustida ishslash.
4. O‘ng va chap qo‘lning mutanosibligi.
5. Gamma, etyudlar chalib ijrochilik texnikasini oshirish.
6. Asarda dinamik belgilarni qo‘llash.
7. Milliy bezak va melizmlar ustida ishslash.
8. Asarning badiiy mazmunini aks etirgan holda ijro etish.



Asrlar davomida rivojlanib ustozdan – shogirdga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan dutor cholg‘uchiligi an’anasi turli ijrochilik uslublarini shakllantirdi. Ular o‘zlarida shakl tuzilishining lad, intonatsiya, usul va boshqa tamoyillarini aks ettiribgina qolmasdan, sozandaning ijro davomidagi butun ijodi va holatini ham namoyon etadi. Shu bois applikatura, bezak, badiha va xalq sozandalari tomonidan tarixan ishlab chiqilgan kompozitsiyaning o‘ziga xos majmui bo‘lgan ijro usullari xususiyatlariga doir masalalarni umumlashtirish asosiy vazifalarimizdan etib belgilanadi.

Cholg‘uchi ijro qilgan asarlar majmuasiga repertuar deyiladi. Tanlanayotgan asar o‘quvchi - sozandaning ijro mahoratini yana bir pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qilishi kerak. Talabaning cholg‘uda ijro mahoratining muvaffaqiyatli rivojlanishi har doim ham uning qobiliyati bilan belgilanavermaydi. Bunda repertuar tanlashning ham ma’lum darajada ahamiyati bor. Talabaning oldiga qo‘yilayotgan vazifalarning bir maromda murakkablashishi uning qiziqishini yanada kuchaytiradi. Boshqacha aytganda, navbatdagi tanlanayotgan asar oldingisiga qaraganda ijro jihatidan murakkabroq bo‘lishi zarur. Aytish zarurki, ijro uchun tanlangan musiqa asari o‘quvchining imkoniyatlariga mos kelishi kerak, toki u asarning badiiy va texnik vazifalarini hal eta olsin. Dutorda ijroni o‘rgatish va o‘rganish jarayonining har bir bosqichida talaba oldiga qo‘yiladigan talablar asosli va o‘rinli bo‘lishi kerak. Agar

bu talablar haddan tashqari murakkablashib ketsa, ya’ni asarlar talabaning imkoniyatiga qaraganda qiyinroq bo’lsa, albatta bu o’zining salbiy tasirini ko’rsatadi. Aksincha, tanlanayotgan asarlar juda soddalashib ketsa ham bo’lmaydi. Bu holda talabaning ijroga bo’lgan qiziqishi pasayib ketishi mumkin. Ijro ta’limitajribasidan shu narsa ma’lumki, talabalarning hammasida ham ijro usuli va uslublarining ko’nikmasi bir xilda rivojlangan bo’lmaydi. Masalan, ba’zilarda chapqo’lning ijro ko’nikmalar yaxshi rivojlangan bo’lsa, boshqalarida o’ng qo’l texnikasi rivojlangan bo’ladi. Yoki ba’zi talabalar jadal tezlikdagi asarni ijro etishda qiyinchilik sezsalar, boshqalari vazmin, kuychan asarlarning ijrosida qiynaladilar. Repertuar tanlashda ko’rsatilgan xususiyatlar albatta hisobga olinib, tanlangan asarlar yordamida kamchiliklarni bartaraf etish kerak. Hozirgi paytda dutor ijrochilar uchun repertuar tanlashda boshqa o’zbek xalq cholg’ulari va skripka, doira uchun mavjud bo’lgan to’plamlardan foydalanilyapti. Boshqa cholg’ular uchun qo’yligan ijro belgilariga katta e’tibor berilishi kerak. Chunki qo’yligan belgi faqat shu cholg’u uchungina qaratilgan bo’lib, dutorda ijrosi o’zgarishi mumkin. Masalan, g’ijjak yoki skripka uchun yozilgan asarlarda uchraydigan “legato” belgisi dutorda asosan rez usuli bilan ijro etiladi. Musiqa asari jadal tezlikdagi ijroni talab etsa, “legato” belgisi qo’yligan bo’lsa ham (tovushlarning ulanishiga e’tibor bergen holda) pastga va yuqoriga zarblar bilan ijro etish kerak.

Bundan tashqari, dutorda boshqa cholg’ular uchun yozilgan asarlarni ijro etishda mavjud bo’lgan applikatura hamma vaqt to’g’ri kelavermaydi. Shuning uchun qulay applikaturani tanlashda o’qituvchining to’g’ri ko’rsatmalari katta ahamiyatga egadir. Dutor ijrochisi (barcha cholg’ular singari) o’z repertuariga turlidavrga mansub bo’lgan musiqa asarlarini kiritishi maqsadga muvofiq. Repertuar tanlashning bu prinsipini qo’llash rang - barang musiqa materiallari bilan yaqindan tanishishda va talabaning dunyoqarashini boyitishda o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Dutor ijrochisining taxminiy repertuar rejasini keltiramiz:

O’zbek xalq kuylari.

O’zbek kompozitorlarining asarlari.

Qardosh xalqlar kompozitorlarining asarlari.

Yevropa klassik kompozitorlarining asarlari.

Shuningdek, dutor ijrochisining o’quv repertuariga ikki-uchta turli xarakterdagi etyudlar, gammalar va mashqlar kiritiladi. Musiqa asarining badiiy vatemnik ko’rsatkichlari dutor cholg’usining ijro imkoniyatlariga mos tushishi repertuar tanlashda hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

Ijro paytida o’ng va chap qo’l harakatining mutanosibligiga erishish ijro sifati uchun katta ahamiyatga egadir. Cholg’uda ijroni o’zlashtirishning dastlabki bosqichida o’ng va chap qo’llar holati ularning asosiy harakatlarini alohida o’rganish va o’rgatish maqsadga muvofiq bo’lsa, keyinchalik ikkala qo’l harakatining bir-biriga mutanosabligi asosida ish olib boriladi. Dutorchi musiqa asarini ijro etish paytida ikkala qo’l harakatiga bir xil e’tibor berishi kerak. Agar bu paytda sozanda e’tiborni bir qo’lga qaratib, ikkinchisini nazoratdan chiqarib qo’ysa ijro kamchilikdan xoli bo’lmaydi. Bunday paytda uchraydigan kamchiliklardan biri ijrochi chap qo’l barmoq almashinuvining o’ng qo’l tovush hosil qilish harakati bilan mutanosibligini buzishidir. Masalan, birinchi tovush ijro etilgandan so’ng, ikkinchi tovush o’ng qo’l yordamida chalinadi-yu lekin chap qo’lning barmog’i kerakli paytda ko’rsatilgan pardani bosishga ulgurmaydi. Natijada, tovush umumiyy eshitilmaydi yoki bo’g’iq jarangsiz bo’ladi. Gohida esa buning aksi ham bo’lishi mumkin. Yana bir kamchilik, pardadan pardaga o’tib ijro etishda qo’llar harakatining nomutanosibligidir. Bunda chap qo’lning barmoqlari bir pardadan boshqa pardaga o’tish vaqtida ulgursa, o’ng qol harakatni vaqtida bajara olmaydi. O’ng va chap qo’l mutanosibligini amalga oshirish uchun gammalarni ko’proq ijro etish maqsadga muvofiq.

**XULOSA.** Dutor ijrochiligi qadimdan “Ustoz shogird” an’analariga tayanib kelgan. Oliy o‘quv yurtlarida cholg‘ularni o‘rganish yakka tartibda amalga oshirilib, tasdiqlangan fan dasturlari asosida ta’lim berib kelinadi. Sababi, har bir talaba qobilyatiga, iqtidoriga qarab ularga alohida yondoshish talab qilinadi. Dastlabki ijrochilik kompetensiyalara musiqa maktablarining cholg‘u ijrochiligi sinfida ega bo‘lib keladilar. Bu xususda o‘qituvchi har bir talabani bilim saviyasini va ijro mahoratini o‘zlashtirishini nazorat etishi lozim. So‘ngra, uning ijodiy rivojlanish qobiliyatini hisobga olib saboq rejasini tuzadi. Oliy ta’lim tizimida musiqa ta’limini (dutor ijrochiligi) o‘zlashtirish jarayonida bir qator amaliy va texnikaviy jihatlarga asoslanishi taqozo etiladi. Buni biz avvalo ustoz va shogird an’analarida va pedagogik texnologiyalarga asoslangan amaliy-ijrochilik darslarida ko‘ramiz. Shu bilan birga: har bir talaba ijrochilik faoliyati davomida quyidagi o‘zlashtirish omillariga alohida e’tibor berishlari talab etiladi[12].

- a) tanlangan dasturni ustozlar ijrolaridan magnit tasmalari orqali eshitib borish;
- b) musiqiy asarni albatta yod olish;
- v) nota yozuvlarini ravon, aniq va erkin ijro etish;
- g) asar magnit tasmalarida mavjud bo‘lsa, nota yozuvi bilan taqqoslash;
- d) asar ijrosiga ijodiy yondoshish.

Qayd etish lozimki, o‘z o‘rnida dastlabki asar ijrosi o‘qituvchi tomonidan ijro etilishi, ta’lim talablaridan biri ekanligini e’tirof etish lozimdir.

### Foydalanimgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022-yildagi PQ-112-sон. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022 y., 07/22/112/0099-сон)
2. Rasultoyev J. O‘zbek dutor ijrochiligi. –T.: O‘qituvchi, 1997.
3. Ziyayeva M. Dutor. – T., 2008.
4. Toshpo‘latova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2017
5. Toshpo‘latova I. Dutor taronalari. – T., 2010.
6. Toshpo‘latova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2017.
7. Muhamedova G. Dutor. – T.: Sharq, 2014.
8. Rahimov Sh. Cholg‘u ijrochiligi (dutor misolida). Elektron darslik. – T., 2011.
9. Turatov S. Xalq cholg‘ularini o‘rganish. – T., 2015.
10. Qudratov I., Odilov A. Cholg‘u asboblarida ijrochilik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. Uslubiy qo‘llanma. – S.: SamDU, 2015.
11. Samatova D.S. Cholg‘u ijorchiligi. – S.: Stap sel, 2024.
12. Omanqulova Sh.N. Cholg‘u ijorchiligi. – S.: Fan bulog‘i, 2023.
13. <https://uz.wikipedia.org/>



## KOLBNING TAJRIBAVIY O'RGANISH SIKLI ASOSIDA GEOGRAFIYA AMALIY DARSALARINI TASHKIL ETISH.

### ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ УРОКОВ ГЕОГРАФИИ НА ОСНОВЕ ЦИКЛА ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ КОЛБА.

### ORGANIZATION OF PRACTICAL GEOGRAPHY LESSONS BASED ON KOLB'S EXPERIENTIAL LEARNING CYCLE.

*Orifjonova Iroda Orifjon qizi*

**Annotatsiya.** Har bir shaxsning ma'lum bilimlarni o'rghanishda o'zi uchun qulay va oson bo'lgan o'rghanish uslubi bor. Ushbu maqolada Kolbning eng muhim o'rghanish uslublarini tushunish va tajribaviy o'rghanish siklini geografiya amaliy darsalarini tashkil etishda qo'llash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Kolb modeli, Kolb o'rghanish uslubi, divergent, konvergent, assimilyatsion, akomodativ, faol tajriba, reflektiv kuzatuv, mavhum konseptualizatsiya, faol tajriba, Kolb modelini geografiya darslariga tadbiq qilish

**Аннотация.** У каждого человека есть свой стиль обучения, при котором ему удобно и легко усваивать определенные знания. В этой статье представлена информация о понимании наиболее важных стилей обучения Колба и применении цикла экспериментального обучения для организации практических уроков географии.

**Ключевые слова.** Модель Колба, стиль обучения Колба, дивергентный, конвергентный, ассимилятивный, аккомодационный, активный опыт, рефлексивное наблюдение, абстрактная концептуализация, активный опыт, применение модели Колба к урокам географии.

**Abstract.** Each person has a learning style that is convenient and easy for him to learn certain knowledge. This article provides information on understanding Kolb's most important learning styles and applying the experiential learning cycle to the organization of hands-on geography lessons.

**Keywords.** Kolb's model, Kolb's learning style, divergent, convergent, assimilative, accommodative, active experience, reflective observation, abstract conceptualization, active experience, application of Kolb's model to geography lessons.

O'rghanish hayotimizning ajralmas qismidir. Insonlar yer yuzida fikrlay olish, yaratuvchanlik, tahlil qilish va natijalarni baholash kabi yuksak qobiliyatga ega bo'lgan yagona mavjudotdir. Har bir ta'lim turi, xoh u an'anaviy, xoh noan'anaviy bo'lsin ma'lum bir jarayonga ega. Biz turli xil bilim, ko'nikma va tajribalarni o'rghanish orqali o'samiz. Biroq har bir shaxsning o'rghanishi yoki bilim olishining o'ziga

xos qulay usuli bordir. Shaxslar turli xil o'rganish uslublariga ega. Ular tabiat, atrof-muhit, yashash joylari va har qanday yangi ma'lumot yoki tajribani kuzatish, o'zlashtirish, sharhlash, baholashda qulay bo'lgan usullar bilan farqlanadi [1]. O'rganish uslubi qobiliyat emas, balki u shaxs afzal ko'rgan usuldir. Ma'qul bo'lgan o'rganish uslubiga ko'ra, shaxs boshqa har qanday o'rganish uslubiga qaraganda samaraliroq o'rganishga intiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, Moussa tadqiqotida o'rganish uslublari shaxsning ta'lim jarayonida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [2]. Ta'lim sohasida o'rganish uslublari o'qituvchilar va o'quvchilarga katta imkoniyatlarni beradi. Turli o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish uchun o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan ta'lim uslublarining bir nechta o'chovlari mavjud. O'qituvchilar o'zlarining tajribalaridan foydalanib, turli xil o'qitish usullarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarga katta yordam berishadi.

Ta'lim uslubining samaradorligini Kolbning o'rganish uslubida ko'rish mumkin. Bir nechta psixologlar va faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan bir nechta o'rganish uslublari mavjud, ammo Kolbning o'rganish uslubi ularning barchasidan ustundir. Turli yozuvchilarning ko'plab asarlarida nazariy asos yo'q, ammo "Tajribaviy o'rganish: Tajriba o'rganish va rivojlanish manbai sifatida" nashr etilishi bilan Kolb o'z o'rmini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu nashr unga o'rganish uslublari va nazariyalari sohasida o'ziga xos mavqeni rivojlantirishga yordam berdi. Uning ta'lim uslublari va o'rganish sikli hozirgi ta'lim tizimida keng amal qiladi. Kolb fikriga ko'ra, o'rganish - bu tajribani o'zgartirish orqali bilim hosil bo'ladigan jarayon. Uning nazariyasi o'quvchilarning o'rganish qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quv jarayonini qanday tashkil qilish mumkinligini ko'rsatadi. Kitobning nashr etilishi o'rganish siklik jarayon ekanligi haqida yangi bilimlarni berdi. Bu to'rt bosqichni o'z ichiga olgan sikldir. Kolb nazariyasi bilan bog'liq yana bir muhim omil shundaki, o'rganishning har bir bosqichi turli xil o'rganish uslublarini o'z ichiga oladi, bu esa ularga samarali o'qitish va o'z bilimlarini o'quvchilar bilan muloqot qilish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi [3].

Bugungi kunda ta'limda muhim bo'lgan mustaqil o'rganish, amalda o'rganish, kasnga yo'naltirgan ta'lim, so'rov usuli, loyiha asosida o'rganish, muammoli o'rganish va hokazo kabi o'rganish usullari mavjud. Bu o'rganish usullarining barchasi Kolbning o'rganish uslublari va tajribaviy o'rganish siklini o'zida mujassam etgan.

**Kolbning o'rganish uslublari.** Kolb o'zining "Tajribaviy o'rganish: Tajriba o'rganish va rivojlanish manbai sifatida" nomli nashrida odamlar afzal ko'radigan to'rtta o'rganish uslubini shakllantirgan. Ushbu to'rtta o'rganish uslubi orasida odamlar kamida bitta o'rganish uslubini afzal ko'rishadi. Biroq, odamlarning afzal ko'rgan uslubiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud. Bu omillarni ijtimoiy omil, atrof-muhit omili, madaniy omil, ta'lim tajribasi yoki o'quvchining kognitiv tuzilishi sifatida tasniflash mumkin. Shaxsning o'rganish uslubini tanlashiga nima ta'sir qilishidan qat'iy nazar, Kolb ikki juft o'zgaruvchini asoslab berdi. To'rtta o'rganish bosqichi ikkita asosiy o'qda joylashgan to'rt xil o'rganish usulini o'z ichiga oladi. (1-rasmga qarang). Birinchi o'q mavhum kontsepsiya va aniq tajriba o'rtasida, ikkinchi o'q esa faol eksperiment va reflektiv kuzatish o'rtasida. Birinchi o'q biz yangi ma'lumot yoki bilimlarni qanday qabul qilishimiz yoki o'zlashtirishimizni aniq tushuntiradi. Boshqa tomondan, ikkinchi o'q biz qabul qilingan ma'lumot yoki bilimni qanday o'zgartirishimiz bilan bog'liq. Xuddi shu rasmda ikkita o'qning to'g'ri burchaklari o'rganish uslublarining to'rt xil kombinatsiyasini ta'minlaydi. Shunday qilib, matritsadan foydalangan holda, Kolb to'rtta o'rganish uslubini aniqlaydi. Har bir o'quv uslubi muammolarni hal qilishning turli usullari bilan bog'liq.


Kolb tomonidan ta'kidlangan ushbu to'rtta o'rganish uslublari: divergent, konvergent, assimilyatsion va akomodativ ta'lism uslublaridir. Bular quyida tushuntiriladi:

1. Divergent ta'lism uslubi: Kolbning so'zlariga ko'ra, divergent ta'lism uslubi tasavvur qila olish, ma'no va mazmunni anglashni talab qiladigan vazifalarni yaxshi bajaradigan o'quvchilar tomonidan tanlanadi. Bunday o'quvchilar tasavvur qilish va tushunish orqali o'rganadigan o'quvchilardir. Ular bilim tushunchasining aniq misollari orqali yaxshiroq o'rganadilar. Bunday o'quvchilar kuzatishni afzal ko'radilar. 1-rasmda o'qda ular aniq tajriba va reflektiv kuzatish usullarini afzal ko'rishi ko'rsatilgan. Ushbu turdag'i o'quvchilarning imkoniyatlari shundaki, ular tushunchalaridan ma'no-mazmun yarata oladilar, atrofni kuzatishi va tasavvur qilishi yaxshi.

2. Konvergent ta'lism uslubi: Bu o'rganish uslubi divergent ta'lism uslubiga qarama-qarshidir. Kolbning fikricha, konvergent ta'lism uslubini o'rganishni afzal ko'rgan o'quvchilar muammolarni hal qilishda, qarorlar qabul qilishda, amaliy g'oyalar va bilimlarni muammoni samarali hal qilish jarayonida qo'llash yoki tajriba qilishda yaxshi. Bundan tashqari, bu o'quvchilar o'zlarining hissiy tomonlarini yaxshi nazorat qilishadi va texnik ishlarni qilishni afzal ko'rishadi. Ular texnik muammolarni hal qilishga moyil. Muxtasar qilib aytganda, konvergent o'quvchilar muhandislik ishlari ko'proq moslashgan deb aytish mumkin.

3. Assimilyatsion ta'lism uslubi: Ushbu o'quv uslubida o'rganish qobiliyatining ustun usullari mavhum konseptualizatsiya va reflektiv kuzatishdir. Bunday o'quvchilarning eng katta kuchi ularning induktiv fikrlash qobiliyatidadir. Ushbu o'rganish uslubini afzal ko'rgan o'quvchilar kuchli kuzatish qobiliyatiga ega. Ular turli kuzatishlarni integratsiyalash orqali tushuncha, bilim hosil qilishga moyildirlar. Bunday o'quvchi g'oyalar va tushunchalarga ko'proq e'tibor beradi [4]. Ular nazariya va bilimlarning amaliy jihatlarini ustun ko'rmaydilar.


3. Akomodativ ta'lism uslubi: Bu o'rganish uslubi assimilyatsion o'rganish uslubiga qarama-qarshi uslubdir. Aniq tajriba va faol eksperimental o'rganish usullari ustunlik qiladi. Akomodativ o'quvchilar amaliy, eksperimental ish yoki topshiriqlarni bajarish orqali o'rganishni afzal ko'radilar. Ushbu turdag'i o'quvchilar o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini rivojlantirish orqali yangi tajriba va bilimlarni o'zlashtiradilar. Akkomodatorlarning asosiy xususiyatlari shundan iboratki, ular kelishib ketuvchi, harakatga asoslangan va tavakkalchidir. Ular muammoni sinov va xato usuli bilan hal qilishga moyildirlar.



**1-rasm: Kolbning o'rganish uslubi va tajribaviy o'rganish sikli**

Kolbning o‘rganish nazariyasidagi qiziq narsa shuki, o‘quv siklining har bir bosqichida turli xil ta’lim uslublari qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchilarga turli xil o‘quv vaziyatlarida yanada moslashuvchan bo‘lishga yordam beradigan o‘z o‘rganish uslubini tanlashga imkon beradi.

Kolbning asosiy yondashuvi o‘rganishning to‘rt bosqichli siklini ifodalash orqali o‘quv jarayonini tasvirlashdir. Quyidagi 2-rasmda Kolb sikl modeli yordamida o‘quvchining tajribasi reflektiv kuzatish va abstrakt konsepziyalashning turli bosqichlari orqali faol eksperimentga qanday aylanishini aniq tushuntirib berdi. Ushbu sikl o‘rganishning to‘rt bosqichini o‘z ichiga oladi: aniq tajriba, reflektiv kuzatuv, mavhum konseptualizatsiya va faol eksperiment.



**2-rasm: Kolbning tajribaviy o‘rganish siklining to‘rt bosqichi.**

**Aniq tajriba:** O‘rganish siklining birinchi bosqichidir. Ushbu bosqichda o‘quvchi o‘quvfaoliyatida faol ishtirok etishga harakat qiladi. O‘quvchining maqsadi faqat topshiriqni bajarish va tajriba orttirishdir. Shaxs yoki o‘quvchi yangi tajriba yoki vaziyatga duch keladi. Ular vaziyat yoki tajribani o‘rganadilar.

**Refleksiv kuzatish :** Ikkinci bosqichda shaxs yoki o‘quvchilar o‘quv faoliyati davomida orttirgan tajribasi haqida fikr-mulohaza yuritishni maqsad qiladi. Ular tajribaning barcha mumkin bo‘lgan jihatlari haqida reflektiv o‘ylashni boshlaydilar. Ushbu bosqichda muloqot o‘quvchilarga o‘z tushunchalari va tajribasi o‘rtasidagi tafovutlarni tahlil qilishda yordam beradigan eng muhim vositadir. Mutaxassisning fikriga ko‘ra , so‘z boyligi tajribani ko‘rib chiqish, idrok etish va tushunish uchun ham muhimdir [5].

**Mavhum kontseptualizatsiya:** Siklining uchinchi bosqichida shaxs oldingi bosqichda o‘zlarini tomonidan amalgalashirishga talqin va tahlillarni kontsepsiyalashni boshlaydi va ular turli talqinlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuna boshlaydi. Reflektiv kuzatuvda o‘quvchi turli muammoli savollarni shakllantiradi va bu bosqichda o‘quvchi ushbu savollarga javob topishga harakat qiladi. Topilmalar asosida o‘quvchi gipoteza, tushuncha va tajribalar xulosasini ishlab chiqadi.

**Faol tajriba:** Bu Kolbning tajribaviy o‘rganish siklining oxirgi bosqichidir. Buni sinov bosqichi deb hisoblash mumkin [6]. Faol tajriba bosqichida o‘quvchi ushbu siklining oldingi bosqichida ishlab chiqilgan gipotezalarni sinab ko‘rish uchun amalda tajribada sinab ko‘rishga harakat qiladi. Ushbu bosqichda o‘quvchining maqsadi yangi tajriba orttirish uchun o‘z ilmiy farazlarini qo‘llashdir. Faol

tajriba bosqichida o‘quvchilar o‘z ilmiy faraz va taxminlarini qo‘llash orqali yangi ma’lumot va tajribaga duch keladilar. Shu tarzda Kolbning tajribaviy o‘rganish siklini davom ettirish mumkin. Kolbning o‘rganish nazariyasi turli fanlarda keng qo‘llaniladi. Ushbu nazariyaning eng muhim va ahamiyatli xususiyatlaridan biri shundaki, siklning har bir bosqichi turli xil ta’lim uslubi bilan bog‘liq. Bu hozirgi zamonaviy ta’limda eng mustahkam va ta’sirchan ta’lim nazariyalaridan biridir. Quyida geografiya darslarini qanday qilib Kolb modeli asosida tashkil qilishni ko‘rib chiqaylik.

*Geografiya darslarida Kolb modeli asosida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.*

### **1. Konkret tajriba**

*Faoliyat:* dala, o‘rmon, daryo, hayvonot bog‘i kabi mahalliy tabiiy ob‘ektga sayohat uyuştirish.

*Maqsad:* O‘quvchilarga o‘simliklar va yovvoyi tabiatni kuzatish orqali atrof-muhit bilan bevosita aloqada bo‘lishga imkon berish.

*Misol:* O‘quvchilar tuproq namunalarini yig‘ishlari, o‘simliklar turlari bo‘yicha eslatma yozib borishlari yoki relef shakllarini chizishlari mumkin.

### **2. Reflektiv kuzatish**

*Faoliyat:* Sinf yoki guruqlar muhokamasini uyuştirish.

*Maqsad:* O‘quvchilarni o‘z kuzatishlari va fikrlarini baham ko‘rishga undash. Bu ularga o‘z tajribalarini oldingi bilimlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

*Savollar:* “Tuproq turlari haqida nimalarni payqadingiz?”, “Bu ekotizimda o‘simliklar va hayvonlar qanday o‘zaro bir biriga ta’sir qiladi?”

### **3. Abstrakt tushunchalar**

*Faoliyat:* Kuzatishlari bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy tushunchalarni o‘rgatish.

*Maqsad:* O‘quvchilarga kuzatganlarini tavsiflash va tahlil qilish uchun ilmiy malumot va lug‘at bilan ta’minlash.

*Tarkib:* Tuproq tarkibi, ekotizimlar va biologik xilma-xillik kabi mavzularni muhokama qilish. Ushbu tushunchalarni tasvirlash uchun diagrammalar yoki modellardan foydalanish.

### **4. Faol tajriba**

*Faoliyat:* Loyiha yoki taqdimotni tayyorlash.

*Maqsad:* O‘quvchilar o‘z bilimlarini umumlashtirib yaratishlar orqali hayotga tadbiq qiladilar.

*Misollar:* Mahalliy hudud uchun tabiatni muhofaza qilish rejasini ishlab chiqish.

Topilgan tuproq va o‘simliklar turlari bo‘yicha batafsil hisobot tuzish.

Topilmalarni mahalliy biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha tavsiyalar bilan taqdim etish.

Geografiya darslarida Kolb modelini qo‘llash asosida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlanadi.

*Faollik:* O‘quvchilar o‘z bilimlarini hayotiy vaziyatga tadbiq qilish orqali qiziqish va faolligi oshadi.

*Tanqidiy fikrlash:* O‘quvchilarni axborotni tahlil qilish va sintez qilishga undaydi.

*Hamkorlik:* Guruh faoliyati va muhokamalar orqali jamoaviy ishlashga yordam beradi.

*Amaliy ko‘nikmalar:* kuzatish, taddiqot va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kolb modelidan foydalanib, o‘quvchilar nafaqat nazariy tushunchalarni o‘rganadilar, balki ularni real hayotda qanday qo‘llashni tushunadilar, umumiyl o‘rganish tajribasini chuqurlashtiradilar.

Yuqorida muhokama qilinganidek, har bir shaxs o‘ziga xos ta’lim uslubiga ega va buni aniqlab olish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilishning dastlabki qadamlaridir. Bu ularga yanada moslashuvchan bo‘lishga va o‘quv vaziyatlarining turli talablarini qabul qilishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hatami S. Learning styles. *Elt Journal*, 67(4), 488-490. 2013.
2. Moussa N. The importance of learning styles in education. *Institute for Learning Styles Journal*, 1(2), 19-27. 2014.
3. Healey M., Jenkins A. Kolb's experiential learning theory and its application in geography in higher education. *Journal of geography*, 99(5), 185-195. 2000.
4. Richmond A. S., Cummings R. Implementing Kolb's learning styles into online distance education. *International Journal of Technology in Teaching and Learning*, 1(1), 45-54. 2005.
5. Sharlanova V. Experiential learning. *Trakia Journal of Sciences*, 2(4), 36-39. 2004.
6. Kurt S. Kolb's Experiential Learning Theory and Learning Styles. *Educational Technology*. 2020.



## ARALASH TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISHDA BULUTLI TEKNOLOGIYALARNING IMKONIYATLARI

## ВОЗМОЖНОСТИ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ СМЕШАННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

## THE POTENTIAL OF CLOUD TECHNOLOGIES IN CREATING A BLENDED LEARNING ENVIRONMENT

*Panjiyev Ulugbek Rustamovich*

**Annatatsiya.** Mamlakatimizda ta'lism sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlarning bosh maqsadi ta'lism tizimiga innovatsiyalarni keng joriy etish, ta'lism sifatini doimiy ravishda oshirib borish hamda uni jahon va Yevropa ta'limi makoniga integratsiyalashdir.

Ushbu ishda oliv ta'lim muassasalarida aralash ta'lism muhitini shakllantirishda bulutli hisoblash servislarning imkoniyatlaridan foydalanish masalasi qaralgan.

**Kalit so'zlar:** virtual ta'lism makoni, bulutli hisoblash, bulutli texnologiya, bulutli xizmatlar.

**Аннотация.** Основной целью фундаментальных реформ, реализуемых в сфере образования в нашей стране, является широкое внедрение инноваций в систему образования, постоянное повышение качества образования, интеграция его в мировое и европейское образовательное пространство.

В данной работе рассмотрен вопрос использования возможностей сервисов облачных вычислений при создании смешанной среды обучения в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** виртуальное образовательное пространство, облачные вычисления, облачные технологии, облачные сервисы.

**Abstract.** The main goal of the fundamental reforms being implemented in the education sector in our country is to widely introduce innovations into the education system, constantly improve the quality of education, and integrate it into the global and European education space.

This work examines the issue of using the capabilities of cloud computing services in the formation of a blended learning environment in higher education institutions.

**Keywords:** virtual learning space, cloud computing, cloud technology, cloud services.

*Panjiyev U.R.,  
Qarshi xalqaro universiteti  
prorektori  
[ulugbek.panjiyev.76@bk.ru](mailto:ulugbek.panjiyev.76@bk.ru)*

Hozirgi vaqtida axborotlashtirishni faol rivojlantirish jarayoni kuzatilmoqda, bu birinchi navbatda ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Davlat ta’lim standartlarining yangi avlodiga muvofiq, zamonaviy insonning muvaffaqiyati bilimga va yangi texnologiyalardan, shu jumladan Internetdan faol foydalanishga yo‘naltirilganligini aniqlaydi.

Ushbu jarayonlar ta’lim faoliyatining yangi shakllarini shakllantirish va rivojlantirish uchun yangi ilmiy-texnik asosni yaratdi, Internetda ishlaydigan virtual o‘quv muassasalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Virtual ta’lim makonini yaratish pedagogikaning vazifalaridan biri, ya’ni o‘quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllarini ishlab chiqish vazifasini hal qilishdir.

Talimni axborotlashtirish asosiy yo‘nalishlariga moddiy-texnik jihozlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali talim muassasasi faoliyatini va talim jarayonini boshqarish, masofaviy talimni rivojlantirish, talim va tarbiya uslublarini yangilash kiradi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun har bir talim muassasasida milliy va jahon talim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va zamonaviy tendensiyalariga yo‘naltirilgan axborot-talim muhiti yaratilmoqda.

Axborot-ta’lim muhitini yaratish uchun ta’lim muassasalari ko‘pincha Moodle [1], eLearning 4G [2] kabi dasturiy-apparat majmualardan (LMS) foydalanadilar. Ammo bunday tizimlar yordamida oliv ta’lim muassasalarida axborot-ta’lim muhitini tashkil etishda quyidagi bir qator kamchiliklar va cheklolvar mavjud: ular LMS vositalari va xizmatlari majmui bilan cheklangan, qoidaga ko‘ra, kengaytirish imkoniyatiga emas, LMS o‘quv topshiriqlarini bajarish uchun dasturiy ta’milot vositalari va ilovalarni o‘z ichiga olmaydi, unda tezkor fayl almashish va saqlash, yangiliklar ro‘yxati va qaytar aloqa tashkil etish vositalari mavjud; hujjatlarni nashr qilish huquqiga faqat o‘qituvchi ega; talabalarning hujjat ustida birgalikda ishlashlari, loyihami bajarishlari yoki bir-birlarini muhokama qilishlari ko‘zda tutilmagan; kurs yakunida talaba kurs ma’lumotlaridan foydalana olmaydi, oliv ta’lim muassasasida o‘qishni yakunlaganidan keyin esa barcha o‘quv materiallari talaba uchun yopiladi; LMS vositalari va interfeysi mobil ta’limda foydalanish uchun mo‘ljallanganmagan” [3].

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar hamda hisoblash va axborot resurslari foydalanuvchisiga internet xizmati sifatida taqdim etiladigan taqsimlangan ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari deb ataladigan bulutli texnologiyalarning rivojlanishi bulutli axborot- ta’lim muhitlining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ta’lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish esa quyidagi bir qator afzalliklarga ega [4];

- iqtisodiy: ko‘plab ta’lim muassasalari uchun asosiy afzallik tejamlilik hisoblanadi. Bu, ayniqsa, elektron pochta kabi xizmatlar tashqi provayderlar tomonidan bepul taqdim etilganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu xizmatlar uchun mo‘ljallangan uskunalar boshqa maqsadlar uchun foydalanishi mumkin;

- texnik: apparat ta’milotiga minimal talablar (majburiy sharoit bo‘lib Internet tarmog‘iga kirish hisoblanadi);

- texnologik: eng yuqori darajadagi bulutli xizmatlar foydalanish nuqtai nazaridan juda sodda yoki minimal qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi;

- didaktik: o‘qituvchilar va talabalar uchun xavfsiz aloqa va hamkorlik imkoniyatlarini ta’minlaydigan keng ko‘lamli onlays vositalar va xizmatlar[4].

Apparatlari LMS bilan taqqoslaganda bulutli axborot-ta’lim muhitidan foydalanishning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin [3]: bulutli axborot-ta’lim muhiti fanlar va o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda o‘qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi va nazorat qilib boriladi, bunda uskunalar va texnologik xizmatlari uchun moliyaviy xarajatlar talab qilmaydi; bulutli axborot-ta’lim muhiti axborotni qayta ishlash uchun bulutga asoslangan ilovalardan

foydalanishga imkon beradi, ya’ni topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan ta’limiy axborotlar va vositalarni saqlashni birlashtiradi, ya’ni LMS dan farqli o‘laroq ta’lim muhitining barcha funksiyalari amalga oshiriladi; dasturiy ta’minotni sotib olish va yangilash uchun hech qanday xarajatlar talab qilinmaydi, foydalanuvchilar esa har doim ilovalarning so‘nggi versiyalari bilan ishlash imkoniyatiga ega; bulutli axborot-ta’lim muhiti o‘quv faoliyatining jamoaviy shakllarini amalga oshirish imkonini beradi; bulutli axborot-ta’lim muhiti ta’lim muassasasining kompyuterlariga “bog‘lash” talab qilinmaydi, ya’ni turli joylardan va turli xil foydalanuvchilar tomonidan qurilmalaridan kirish imkoniyati mavjud; ta’limning barcha shakllaridagi (kunduzgi, sirtqi yoki kechki ta’lim) talabalar bilan ishlashda bir xil kurs ma’lumotlari berib boriladi; ta’lim mazmunini taqdim etish uchun tegishli formatlarni tanlashda mobil ta’lim; bulutli axborot-ta’lim muhiti asosida qurilishi mumkin.

Bulutli texnologiyalarga asoslangan axborot- ta’lim muhiti qurish Microsoft va Google larning Office 365 hamda G Suite for Education lardan foydalangan holda bepul amalga oshirilishi mumkin.

Ta’lim uchun Microsoft Office 365 [5] –“bu ta’lim loyihalari ustida birgalikda ishlash uchun taqdim etiladigan xizmatlar to‘plamidir. Ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabalariga bepul taklif etiladi [6].

Ta’lim uchun Microsoft Office 365 ning quyidagi xususiyatlari mavjud [7]: Word, PowerPoint, Excel, OneNote i Outlook larning veb versiyalari; OneNote ning klassik versiyasi; mashg‘ulotlar va o‘qituvchilar uchun OneNote ning qaydlar daftarlari; professional hamjamiyat guruhlari; Forms da avtomatik baholash testlari; Sway yordamida raqamlı shaklda syujetlar yaratish; elektron pochta bilan ishlash uchun Outlook ning oldingi versiyalari bilan ishlay oladigan hamda 50 GB hajmli pochta qutisi; cheksiz hajmli ma’lumotlarni saqlash uchun OneDrive; yuqori aniqlikdagi video konferensiylar tashqil etish imkoniyati; ta’lim muassasasi samarali faoliyat yuritishi uchun suhbatlar, kontent va ilovalarni birlashtiradigan elektron markaz Microsoft Teams; tashkilotlarda videoroliklarni yaratish, boshqarish va almashish uchun korporativ video xizmati; dasturiy kod yozmasdan biznes ma’lumotlarni boshqarish uchun mo‘ljallangan veb ilovalar hamda mobil ilovalarni yaratish imkoniyati; dasturiy kod yozmasdan ilovalar va xizmatlarda ish jarayonlarini avtomatlashtirish; SharePoint saytlar guruhlarida ma’lumot almashish; elektron pochta ma’lumotlarini arxivlash bilan cheksiz ma’lumotlar saqlash; yagona elektron ma’lumotlarni saqlash markazi sifatida foydalanish imkoniyati; foydalanuvchilar huquqlarini boshqarish, ma’lumotlar himoyasi va shifrlash; cheksiz foydalanuvchilar soni.

Google G Suite for Education –“korporativ elektron pochta, foydalanish uchun umumiyl bo‘lgan kalendarlar, internetda saqlanuvchi va birgaliqda tahrirlash imkoniyatini beruvchi hujjatlar, video konferensiya vositalari va boshqalarni o‘z ichiga olgan hamkorlikda ishlashni ta’minlovchi ilovalari to‘plami” [8].

Ushbu mahsulotning asosiy xizmatlari va vazifalari quyidagilardan iborat [9]: ma’lumotlarni almashish: Gmail, Kalendar, Kontaktlar; ma’lumotlarni saqlash va hamkorlikda ishlash: Disk, hujjatlar, Hangouts; Veb-forumlar va umumiyl pochta qutilari: biznes uchun guruhlari; bir domen ichida elektron pochtadagi hamda hujjatlardagi ma’lumotlarni qidirish; Google ning qolgan xizmatlari: Blogger, YouTube va boshqalar.

Bundan tashqari, Google bepul Google Classroom xizmatini taqdim etadi [10], bunda o‘quv kurslarni yaratish va o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyati mavjud. Xizmat ta’lim jarayonini tashkil etish va talabalar bilan muloqotni soddalashtiradi hamda mobil qurilmalar orqali taqdim etiladi. Google Classroom afzallikkari sifatida quyidagilar qayd etilgan [11]: sodda o‘rnatish imkoniyati. O‘qituvchilar kursga talabalarni o‘zlar qo‘sishlari yoki ularga kirish kodini yuborishlari mumkin. Kursni yaratish uchun bir necha daqiqqa yetarli; vaqtini tejash. Elektron xizmatda vazifalarni yaratish, tekshirish va

baholash qog‘ozdagiga qaraganda tezroq va qulayroq; qulay tashkillashtirish. Vazifalar talabalar uchun bir xil bo‘limlar uchun yaratib boriladi, kurs materiallari (hujjatlar, fotosur’atlar va videolar) avtomatik ravishda Google Drive dagi papkalarda saqlab boriladi; tezkor muloqot. O‘qituvchilar e’lonlar yaratishlari va shu zahoti munozaralar tashkil etishi mumkin, talabalar o‘quv resurslarini o‘zaro almashishlari va kurs uchun yaratilgan savollarga javob berib borishlari mumkin; xavfsizlik va foydalanish ochiqligi. Ta’lim ilovalarida G Suite for Education, Google Classroom larda reklamalar ishlatilmaydi, talaba va o‘qituvchi ma’lumotlarni boshqa maqsadlarda ishlatmaydi hamda mutlaqo bepul taqdim etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida qayd etilganlardan ko‘rinib turibdiki, o‘quv jarayoniga bulutli texnologiyalarni qo‘llash ta’lim muassasalari oldida turgan istiqbolli va dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Moodle – Open-source learning platform [Электронный ресурс] URL: <https://moodle.org/>
2. eLearning Server 4G – система управления обучением и развитием [Электронный ресурс] URL: <http://hypermethod.ru/product>
3. Стариценко Б.Е., Стариценко Е.Б., Сардак Л.В. Использование дисциплинарных облачных образовательных сред в учебном процессе // Нижегородское образование. – 2017. – № 1. – С. 72-78
4. Газейкина А. И., Кувина А. С. Применение облачных технологий в процессе обучения школьников // Педагогическое образование в России. – 2012. – №6. – С. 55-59.
5. Office 365 для образования [Электронный ресурс] URL: <https://www.microsoft.com/ru-ru/office/Office365academic/>
6. Работайте с Office 365 бесплатно [Электронный ресурс] URL: <https://products.office.com/ru-RU/student/office-ineducation?tab=schools&CorrelationId=c0fbe115-b67a-484c-b125-0cb3e52df533>
7. Планы Office 365 | ПО для образовательных учреждений. [Электронный ресурс] URL: <https://products.office.com/ru-ru/academic/compareoffice-365-education-plans>
8. Справка – G Suite – Администратор G Suite. [Электронный ресурс] URL: <https://support.google.com/a/answer/6047848>
9. Сравнение версий G Suite. [Электронный ресурс] URL: <https://support.google.com/a/answer/6043385>
10. Google Класс [Электронный ресурс] URL: <https://classroom.google.com/>
11. Приложение Google Classroom [Электронный ресурс] URL: <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.google.android.apps.classroom>

## КООПЕРАТИВ ТА'ЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ТА'МИНОВЧИ ОМИЛЛАР ФАКТОРЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КООПЕРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

### FACTORS ENSURING THE EFFECTIVENESS OF COOPERATIVE LEARNING

*Pardayev Ulugbek Xayrullo o‘g‘li, Tilyabov Maxsudjon Umurzokovich*

**Annotatsiya.** Kooperativ ta’lim - bu o‘quvchilarning faolligi va yutuqlarini oshirish qobiliyati bilan mashhur bo‘lgan keng tadqiq qilingan pedagogik yondashuv. Ushbu maqola ta’lim muassasalarida hamkorlikda o‘qitish samaradorligiga hissa qo‘sadigan omillarni o‘rganadi. Belgilangan asosiy omillar orasida guruh tarkibi, individual javobgarlik, ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, tuzilgan guruh vazifalari va o‘qituvchiga yordam berish kiradi. Tadqiqot natijalari faol ishtirokni rag‘batlantirish, ijobiy ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish va guruhlar ichida ish yukini teng taqsimlashni ta’minalash muhimligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, hamkorlikda o‘rganish tajribasini mustahkamlashda o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishning roli ta’kidlangan. Empirik dalillar va nazariy asoslarni sintez qilish orqali ushbu maqola ta’lim natijalarini maksimal darajada oshirish va umrbod ta’lim uchun zarur bo‘lgan hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun hamkorlikdagi o‘quv muhitini optimallashtirish haqida tushuncha beradi.

**Kalit so‘zlar:** birgalikda o‘rganish, guruh tarkibi, individual javobgarlik, ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, strukturaviy guruh vazifalari, o‘qituvchining yordami, faol ishtirok, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar, ta’lim natijalari, hamkorlik qobiliyatları.

**Аннотация:** Кооперативное обучение – это широко исследованный педагогический подход, известный своей способностью повышать вовлеченность и успеваемость учащихся. В этой статье исследуются факторы, которые способствуют эффективности совместного обучения в образовательных учреждениях. Ключевые выявленные факторы включают состав группы, индивидуальную ответственность, положительную взаимозависимость, структурированные групповые задачи и помочь учителя. Результаты исследований подчеркивают важность поощрения активного участия, содействия позитивному социальному взаимодействию и обеспечения справедливого распределения рабочей нагрузки внутри групп. Кроме того, подчеркивается роль поддержки и руководства со стороны

*Pardayev U.X.,  
Uzbek-Finnish Pedagogical  
Institute  
[pardayevulugbek125@gmail.com](mailto:pardayevulugbek125@gmail.com)*

*Tilyabov M.U.,  
Uzbek-Finnish Pedagogical  
Institute  
[tilyabov\\_mag@mail.ru](mailto:tilyabov_mag@mail.ru)*

учителей в формировании опыта совместного обучения. Путем синтеза эмпирических данных и теоретических основ эта статья дает представление об оптимизации среды совместного обучения для максимизации результатов обучения и развития навыков сотрудничества, необходимых для обучения на протяжении всей жизни.

**Ключевые слова:** совместное обучение, состав группы, индивидуальная ответственность, позитивная взаимозависимость, структурированные групповые задачи, помочь учителя, активное участие, социальные взаимодействия, результаты обучения, навыки сотрудничества.

**Abstract.** Cooperative learning is a widely researched pedagogical approach known for its ability to enhance student engagement and achievement. This article explores the factors that contribute to the effectiveness of cooperative learning in educational settings. Key factors identified include group composition, individual accountability, positive interdependence, structured group tasks, and teacher facilitation. Research findings underscore the importance of promoting active participation, fostering positive social interactions, and ensuring equitable distribution of workload within groups. Additionally, the role of teacher support and guidance in scaffolding cooperative learning experiences is emphasized. By synthesizing empirical evidence and theoretical frameworks, this article provides insights into optimizing cooperative learning environments to maximize educational outcomes and promote collaborative skills essential for lifelong learning.

**Keywords:** cooperative learning, group composition, individual accountability, positive interdependence, structured group tasks, teacher facilitation, active participation, social interactions, educational outcomes, collaborative skills.

## Introduction

Cooperative learning has emerged as a prominent instructional strategy in educational settings, characterized by its emphasis on collaboration, shared goals, and mutual support among students. Rooted in social interdependence theory and constructivist principles, cooperative learning enhances student engagement, promotes active learning, and fosters the development of critical thinking and collaborative skills. This pedagogical approach stands in contrast to traditional individualistic learning methods by leveraging group dynamics to achieve academic goals. The effectiveness of cooperative learning hinges on various factors that influence the dynamics and outcomes of collaborative efforts within groups. This article explores these factors in depth, examining how group composition, individual accountability, positive interdependence, structured group tasks, and teacher facilitation contribute to enhancing learning outcomes. By understanding and optimizing these elements, educators can create supportive

learning environments that promote equitable participation, social interaction, and academic achievement among students. This introduction sets the stage for discussing the critical factors that ensure the effectiveness of cooperative learning, highlighting their theoretical underpinnings and practical implications in educational practice.

### Literature analysis

Cooperative learning has garnered significant attention in educational research for its potential to enhance student engagement and academic achievement through collaborative efforts. This section reviews existing literature to examine the key factors that contribute to the effectiveness of cooperative learning. Cooperative learning is rooted in social interdependence theory and constructivist principles, emphasizing the importance of peer interaction, shared responsibility, and collective goal attainment. According to Slavin, cooperative learning methods foster positive interdependence among group members, encouraging them to work together towards common objectives while promoting individual accountability for learning outcomes. Research highlights the critical role of group composition in cooperative learning settings. Heterogeneous groups, comprising students with diverse abilities and backgrounds, tend to exhibit higher levels of cognitive growth and interpersonal skills development. Effective group formation considers factors such as academic proficiency, social skills, and cultural diversity to optimize collaborative learning experiences. Central to cooperative learning is the concept of individual accountability, where each group member is responsible for contributing to the collective effort and achieving shared goals. Structuring tasks that require individual accountability, such as assigning specific roles or tasks within groups, enhances motivation and ensures equitable participation among students. Positive interdependence refers to the mutual reliance and interconnectedness among group members to achieve common objectives. Tasks that promote positive interdependence, such as problem-solving activities or collaborative projects with shared rewards, foster a supportive learning environment where students collaborate, communicate, and coordinate efforts effectively. Effective cooperative learning tasks are structured to promote meaningful interaction and cognitive engagement among group members. Clear instructions, defined roles, and well-defined objectives facilitate productive teamwork and mitigate potential conflicts. Structured tasks also encourage higher-order thinking skills, critical reflection, and knowledge construction through collaborative discourse. The role of the teacher as a facilitator is pivotal in cooperative learning environments. Educators provide guidance, monitor group dynamics, and scaffold learning experiences to support student collaboration and academic success. Effective teacher facilitation involves promoting positive group interactions, clarifying objectives, providing timely feedback, and addressing individual learning needs within groups.

**Methodology:** This article synthesizes existing literature and research studies to explore the factors that contribute to the effectiveness of cooperative learning. The methodology involves a comprehensive review and analysis of scholarly articles, books, and research papers from peer-reviewed journals in the fields of education, psychology, and social sciences.

### Literature Search Strategy

The literature review was conducted using academic databases such as ERIC (Education Resources Information Center), PsycINFO, Google Scholar, and specific journals focused on educational research (e.g., Journal of Educational Psychology, Educational Psychology Review). Keywords included "cooperative learning," "group composition," "individual accountability," "positive interdependence," "structured tasks," and "teacher facilitation."

## Selection Criteria

Articles and studies were selected based on their relevance to the topic of cooperative learning and the specific factors influencing its effectiveness. Primary consideration was given to publications that provided empirical evidence, theoretical frameworks, or practical insights into the dynamics of cooperative learning in educational settings.

## Data Extraction and Synthesis

Data extraction focused on identifying key findings, theoretical perspectives, and methodological approaches employed in each study. Emphasis was placed on synthesizing information related to group composition strategies, methods for promoting individual accountability, mechanisms of positive interdependence, design of structured group tasks, and effective teacher facilitation techniques.

## Analysis Framework

The analysis framework involved categorizing and synthesizing literature according to thematic areas: theoretical foundations of cooperative learning, empirical studies on effective group composition, strategies for promoting individual accountability, mechanisms of positive interdependence, characteristics of structured tasks, and roles of teachers as facilitators. Comparative analysis and thematic synthesis were utilized to identify common themes, divergent perspectives, and gaps in the existing literature.

## Limitations

Limitations of the methodology include potential bias in the selection of literature, variations in research methodologies across studies, and limitations inherent in the scope and depth of available literature on specific aspects of cooperative learning effectiveness.

**Results:** The synthesis of literature on cooperative learning reveals several key factors that contribute to its effectiveness in educational settings. These factors encompass group dynamics, instructional strategies, and teacher roles, each influencing student engagement and learning outcomes. Studies consistently highlight the benefits of heterogeneous group composition in cooperative learning. Groups that incorporate diverse academic abilities and social backgrounds tend to promote higher levels of cognitive growth and interpersonal skills development. This diversity fosters collaborative interactions, enhances peer learning, and encourages equitable participation among students.

### *Individual Accountability*

Effective cooperative learning tasks integrate mechanisms for individual accountability, ensuring that each group member contributes to achieving shared goals. Assigning specific roles or responsibilities within groups promotes active participation and fosters a sense of responsibility among students. This structured approach enhances task completion rates and improves overall group performance.

### *Positive Interdependence*

Positive interdependence among group members is a cornerstone of successful cooperative learning experiences. Tasks designed to emphasize shared goals and mutual success foster a supportive learning environment where students collaborate, communicate, and coordinate efforts effectively. This collaborative synergy enhances learning outcomes and promotes a sense of collective achievement among group members.

### *Structured Group Tasks*

The structure of cooperative learning tasks significantly influences student engagement and academic achievement. Well-defined tasks with clear objectives and roles promote meaningful

interaction and cognitive engagement among group members. Structured tasks encourage critical thinking, problem-solving skills, and knowledge construction through collaborative discourse.

#### *Teacher Facilitation*

The role of the teacher as a facilitator is crucial in optimizing cooperative learning experiences. Effective teacher facilitation involves providing clear instructions, monitoring group dynamics, and offering timely feedback to support student collaboration and learning. Teachers who scaffold learning experiences and promote positive group interactions enhance the effectiveness of cooperative learning environments.

#### *Integration and Implications*

The integration of these factors—group composition, individual accountability, positive interdependence, structured tasks, and teacher facilitation—significantly enhances the effectiveness of cooperative learning. By leveraging these strategies, educators can create inclusive learning environments that foster collaboration, critical thinking, and academic success among students.

**Discussion:** Future research should focus on exploring innovative instructional strategies and evaluating the long-term impact of cooperative learning on student academic performance and social development. Investigating the optimal conditions for effective group composition, identifying best practices for promoting individual accountability, and exploring advancements in technology-mediated cooperative learning environments are areas warranting further investigation.

Additionally, examining the role of cultural responsiveness in cooperative learning and exploring cross-cultural variations in collaborative learning dynamics can enrich our understanding of how cooperative learning practices can be adapted to diverse educational contexts.

**Conclusion:** Cooperative learning emerges as a transformative pedagogical approach that enhances student engagement, fosters collaborative skills, and promotes academic achievement in diverse educational settings. This study has synthesized literature on key factors that contribute to the effectiveness of cooperative learning, highlighting their implications for educational practice and future research.

#### *Key Insights*

The synthesis of research underscores several critical factors essential to the success of cooperative learning. Group composition plays a pivotal role in fostering inclusive learning environments and promoting cognitive diversity among students. By integrating heterogeneous groups, educators can leverage peer interactions to support deeper learning experiences and enhance academic outcomes. Individual accountability is foundational to cooperative learning, ensuring that each student actively participates and assumes responsibility for achieving group goals. Assigning specific roles within groups enhances student engagement and promotes a sense of ownership, thereby fostering collaboration and improving overall group performance. Positive interdependence among group members is crucial for cultivating a supportive learning community where students collaborate effectively and leverage collective strengths to achieve academic objectives. Tasks structured to emphasize shared goals and mutual success encourage collaborative efforts and nurture interpersonal skills essential for future academic and professional endeavors.

#### *Implications for Practice*

Effective implementation of cooperative learning requires thoughtful instructional design and strategic teacher facilitation. Structuring group tasks with clear objectives and defined roles promotes meaningful interaction and cognitive engagement among students. Educators serve as facilitators,

guiding group interactions, providing feedback, and fostering a positive learning environment conducive to collaboration and academic success.

Furthermore, cooperative learning can address educational challenges such as student disengagement and achievement gaps by promoting a sense of community and supporting diverse learning needs. By embracing cooperative learning strategies, educators can cultivate inclusive classrooms that empower students to actively participate in their learning journey and develop essential 21st-century skills.

#### *Future Directions*

Future research should explore innovative instructional strategies and technologies to enhance cooperative learning experiences and evaluate their impact on student learning outcomes. Investigating optimal conditions for effective group composition, identifying culturally responsive practices, and integrating technology-mediated cooperative learning environments are areas for further exploration.

Additionally, longitudinal studies examining the sustained benefits of cooperative learning on academic achievement, social-emotional development, and lifelong learning skills will contribute to advancing educational practice and policy.

Cooperative learning represents a dynamic approach to fostering collaborative skills, enhancing academic achievement, and preparing students for success in an interconnected world. By leveraging key factors—group composition, individual accountability, positive interdependence, structured tasks, and teacher facilitation—educators can cultivate supportive learning environments that empower students to thrive academically and socially.

#### References

1. Cohen, E.G., & Lotan, R. A. (2014). **Designing groupwork: Strategies for the heterogeneous classroom** (3rd ed.). Teachers College Press.
2. Johnson, D.W., Johnson, R.T., & Smith, K. A. (2014). **Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory**. Journal on Excellence in College Teaching, 25(3-4), 85-118.
3. Slavin, R.E. (1983). **When does cooperative learning increase student achievement?** *Psychological Bulletin*, 94(3), 429-445. <https://doi.org/10.1037/0033-2909.94.3.429>
4. Slavin, R.E. (1995). **Cooperative learning: Theory, research, and practice** (2nd ed.). Allyn and Bacon.
5. Slavin, R. E. (2011). **Instruction based on cooperative learning**. In R. E.-mayer & P. A. Alexander (Eds.), *Handbook of research on learning and instruction* (pp. 344-360). Routledge.
6. Webb, N.M. (2009). **Understanding cooperative learning, and achievement: Theory, research, and practice**. In K. A. Renninger & I. E. Sigel (Eds.), *Handbook of child psychology and developmental science: Vol. 4. Ecological settings and processes* (6th ed., pp. 265-313). Wiley.
7. Iso o'g'li R.M., Shermatov X.B. Teaching chemistry based on distance education technologies (Synchronous and asynchronous teaching methods). – 2024.
8. Xayrullo o'g'li P. U. et al. Incorporating Real-World Applications into Chemistry Curriculum: Enhancing Relevance and Student Engagement //Fan va ta'lim integratsiyasi (Integration of science and education). – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 44-49.
9. Narzullayev M. et al. Application of generalized methods in chemistry classes. organization of effective lessons based on kimbift //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 643-648.



10. Shernazarov I. et al. Methodology of using international assessment programs in developing the scientific literacy of future teachers //SPAST Abstracts. – 2023. – T. 2. – №. 02.

11. Xoliyorova S., Tilyabov M., Pardayev U. Explaining the basic concepts of chemistry to 7th grade students in general schools based on steam //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 362-365.



## XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “BESH BOLALI YIGITCHA” ASARIDA SHARQONA QADRIYATLARNING BADIY TALQINI

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОСТОЧНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В  
«МАЛЬЧИКЕ С ПЯТЬЮ ДЕТЬМИ» ХУДОЙБЕРДИ ТУХТАБОЕВА

ARTISTIC INTERPRETATION OF EASTERN VALUES IN KHUDAYBERDI  
TOKTABOEV'S WORK "THE YOUNG MAN WITH FIVE CHILDREN"

*Qironova Feruza, Ashurova Shaxzoda*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” asarida aks etgan tarixiy haqiqat va milliy qadriyatlarimizning badiiy talqini tadqiq etilgan. Yozuvchi tomonidan ikinchi jahon urushi davri va front ortidagi voqealarni bolalar obrazlari misolida insonning ruhiy olami, kechinmasi, qayg‘u-hasratining tasvirlanishi badiiy jihatdan tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, ta’lim, ma’rifat, umuminsoniy qadriyatlar, yaxshilik, ezgulik.

**Аннотация.** В данной статье исследуется историческая правда и художественная интерпретация наших национальных ценностей, отраженных в произведении Худойберди Тухтабаева «Мальчик с пятью детьми». Автор художественно проанализировал изображение духовного мира, переживаний и скорби человека в годы Второй мировой войны и событий за фронтом на примере детских изображений.

**Ключевые слова:** воспитание, образование, просвещение, общие человеческие ценности, доброта, гуманизм.

**Annotation.** This article examines the historical truth and artistic interpretation of our national values reflected in Khudoyberdi Tokhtaboyev's work "The Young Man with Five Children". The writer analyzes the artistic depiction of the human spiritual world, experiences, and sorrows of the Second World War and the events behind the front using the example of children's images.

**Key words:** upbringing, education, enlightenment, common humans traditions, good, goodness.

*Qironova F.,  
Finlandiya pedagogika  
instituti*

*Ashurova Sh.,  
O‘zbekiston -  
Finlandiya pedagogika  
instituti*

Insonlar yaralibdi-ki, qadriyat tushunchasi ular bilan doimo birga. Chunki o‘tmish, bugun va kelajakni bog‘lovchi vosita qadriyatdir. Qadriyatlar muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo‘lgan manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g‘oyalar va me’yorlardir.

O‘zbek xalqi qadim o‘tmishdan bugungi kungacha o‘zining boy tarixi, ma’naviy qadriyatları, milliy urf-odatlariga ega bo‘lib, zamonlar osha uni o‘z qalbi va ma’naviyatida saqlab kelib avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda.

Xalqimiz azaldan sharqona tarbiya ko‘rgani bois, ezgu fazilat va milliy qadriyatlар qононимизга singib ketgan. Shu tariqa u ma’naviy mezonlarga xos odob-axloq, komillik sari yetaklovchi fazilatlarni uyg‘otib, hamiyatimizni, orimizni qo‘zg‘ab turadi. Tanimizga kuch-quvvat, qalbimizga g‘urur bag‘ishlaydi. Bu tuyg‘uning nomi andishadir. Shu bois, sharq olamida andisha insonlarni bir-biriga yaqinlashtirgan, ularni aka-uka, og‘a-ini, yor-u birodarlarga aylantirib, mehr-oqibat tuyg‘ularini mustahkamlagan. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha”[1] asarida biz qadriyatlarning yaqqol namunasini oydin ko‘rishimiz mumkin.

Yozuvchi “Besh bolali yigitcha” romanida Vatan urushi davrida yetim qolgan bolalarning yashash uchun kurashini tasvirlar ekan, o‘zbek xalqining insonparvarligi, bolaparvarligi, ochiqqo‘lligi kabi xislatlarini bir qator timsollar orqali ko‘rsatib beradi. Ayniqsa, Orifjonning og‘ir kunlarda ham ukalarini tashlamasdan, ularni yashashi va o‘qishi uchun kurashishi yosh kitobxonni kurash falsafasi bilan tanishtiradi. Asarning “Sumalak, sumalak, jon sumalak” nomli qismida asrlar davomida avloddan-avlodga meros bo‘lib kelayotgan bayramimizga duch kelamiz. Ushbu bayramimiz xalqimizning insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, mehr-oqibat, xayr-saxovat, beg‘araz yordam kabi oliyjanob tuyg‘ularini keng targ‘ib qiladigan qadriyatimizdir. [2]

Qadim-qadimdan barcha sharq xalqlarida bo‘lgani kabi o‘zbek millatida ham mehmondo‘stlik muhim hayotiy qadriyat hisoblanadi. Moziyda sayyoq uzoq safarga chiqib, o‘z uyidan yuzlab chaqirim uzoqlashib ketsa, adashib qolishdan qo‘rqmagan. Muhimi, yo‘lda biror qo‘nalg‘a uchrasa bo‘ldi edi. Mezbon borki, qabul qilardi, dildan qarshi olardi. O‘scha paytlari xonodon sohiblarida boshqacha qarashning o‘zi yo‘q edi. Zero, keyingi musofir uning yaqinlaridan biri ham bo‘lishi mumkin edi. Hatto dushmanlar uchun ham dasturxon doim ochiq turgan. Shunday ekan, “Mehmondo‘stlik - mardlikdan ham ustun” [3] degan maqol o‘scha paytdan merosdir. Sharqda mehmonni qabul qilmaslik yoki uni munosib kutib olmaslik oila va sulola sha’ni uchun uyat sanalgan. Shu o‘rinda asardagi mehmondo‘stlik sahnalarini eslaylik. Orif ukalari bilan Toshkentdan o‘z uylarigacha piyoda kelishadi. Agarda xalqimiz mehmondo‘st bo‘limganda ular buncha yo‘lni bosib o‘ta olishmas edi. Yo‘lda to‘yxonaga kelib qolishganida harbiydan qaytgan qahramon ularni omborxonaga olib kirib mehmon qiladi. Ularga yana ikki qiyiq non va mevalar ham berib yuborishadi. Ular kichik bir bekatga yaqin kelishganda esa ko‘p yo‘l bosganligi, yomg‘ir tagida qolib ketganligi sababli qattiq kasal bo‘lib qolishadi. Shunda ham ularga qorovul va xotini o‘z uyidan joy berishadi. Ular uchun shifokor ham chaqirtirib kelishadi. Ancha vaqt o‘tib, ular tuzalib uy ishlariga qarashishadi. Bir kuni qorovul ketgandan so‘ng Bo‘g‘irsoq xola ularni uyidan haydasa ham insofsizlardan emas edi. Chunki ularning tuguniga yettita sutga yo‘g‘rilgan patir, yarim xalta chala qurigan qurut, bitta pishirilgan o‘rdak solib yuborgan edi. Yana yo‘lda oppoq soqolli kichkina chol uchrab, ularga juda ham ko‘p mehribonchiliklar qilishi, ularni ancha yo‘lga kuzatib qo‘yishi, kiyim-bosh berishi va hattoki o‘z eshshaklariga o‘tqazib yuborishi xalqimizning haqiqiy mehmondo‘st xalq ekanligiga yaqqol namunadir.

Asarda ota-onada va farzandlarning bir-biriga bo‘lgan muhabbat manzaralari juda ta’sirli tarzda talqin etiladi. Darhaqiqat, Sharqda ota-onada juda ham yuksak e’zozlanadi. Shu o‘rinda “Ota-onada bor uyning tomiga chiqib bo‘lmas”, “Ota rozi – Xudo rozi” [4] kabi hikmatli so‘zlarni eslashimiz kifoya. Orifjonning ayni o‘ynab, kuladigan vaqtida onasiga qarashib, uy yumishlari bilan mashg‘ul bo‘lishi, idish-tovoq, kir yuvib, ukalarining qornini to‘yg‘azib qo‘yishi kabi holatlar ham o‘zbekona qadriyatlarning yana bir ibrat namunasidir. Chunki ko‘pgina o‘g‘il bolalar xuddi shu xislatga ega bo‘lishmaganliklari sababli onalaridan, opalaridan dakki eshitishadi. Asarda ana shu toifadagi bolalar Orifjoni masxaralab “Besh bolali” deb laqab ham qo‘yib olishadi. U esa shunga ham qaramasdan bu harakatlarini davom ettiraveradi, chunki u onasini juda ham yaxshi ko‘radi. Onasining hech qachon xafa

bo‘lmasligini, yig‘lamasligini xohlaydi. Qanday ish buyursa ham bajaradi. Onasi ham farzandini juda yaxshi ko‘radi, “xayriyatam esim yo‘g‘ida seni tug‘ib olgan ekanman, bo‘lmasa ahvolim nima kechardi”, deb erkalatgani-erkalatgan. Otasining ham farzandlariga bo‘lgan muhabbati xuddi shunday edi.

Orifjon ham ukalariga ota-onasi singari mehribon edi. Oralarida bir yosh farq bo‘lsa-da, u Sulton ukasidan ancha farq qiladi. Zulayho singlisiga esa o‘zi ataylab ish buyurmeydi. Qizlar nimjon bo‘ladi, deb o‘ylaydi va uni asraydi. Usmon ukasini esa rasm chizsin, o‘qisin deya ishlarga yaqin yo‘latmaydi. Omon ukasi endigina 5, kichik singlisi Robiya esa endigina 2 yoshga kirgan bo‘lishiga qaramay ularga ham o‘zi qaraydi, g‘amxo‘rlik qiladi. Hatto shu singlisi kasal bo‘lib qolganida oyog‘idagi tuflisini sotmoqchi bo‘lishi, o‘z erkidan voz kechishi, ukalarini hammadan himoya qilishi uning chinakam aka ekanligini isbotlaydi. Sharqona qadriyatlarimizdagi o‘z jigarlarini yaxshi ko‘rish, hurmat qilish kabi fazilatlar Orif qiyofasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asarda biz qo‘snnichilik, qarindoshchilik kabi eng sara qadriyatlarimizning ham guvohi bo‘lamiz. Parpi buva va To‘xta xola Oriflarning ham qo‘snnisi, ham qarindoshi. Shu boisdan otasi urushga ketishi oldidan, onasi esa o‘limi oldidan farzandlarini shu yaqinlariga omonat qilib topshirishadi. Ular ham qo‘llaridan kelgancha Orif va uning uka, singillarining taqdiri uchun qattiq qayg‘urishadi. Yana otasining do‘sti Roziq tog‘asi va onasining dugonasi Rahbar opasi ham bularning og‘ir kunlarida hamdard bo‘lishadi. Yozuvchi ushbu obrazlar orqali qo‘ni-qo‘shni, og‘ayin-qarindoshlar o‘rtasidagi azaliy mehr-oqibat rishtalarini tarannum etadi.

Urf-odatlar va an’analor har bir xalqda abadul-abad berilgan va hech o‘zgarmaydigan narsa emas. Hayot ularni g‘alvirdan o‘tkazib, puchini-puchakka, sarasini-sarakka ajratib boradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Asrlar osha xalqimiz orasida saqlanib va hozir ham davom etib kelinayotgan qadriyatlardan yana biri bu do‘stlik, do‘stona munosabatlardir. Asarda ushbu qadriyatning hatto ikki insondon biri bu dunyoni tark etib ketganida ham davom etishini Mariya Pavlovna, ya’ni bolalarning “O‘ris xola”si obrazi misolida ko‘ramiz. U bolalarga juda ko‘p yordam beradi. Chunki u ham yoshlida yetim bo‘lib o‘zbeklar xonodonida, o‘zbek yurtida sharqona tarbiya topib katta bo‘lgan edi.

Xullas, o‘zbek xalqining qadriyatları zamirida insonparvarlik g‘oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o‘zbeklarning o‘zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o‘zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanish va yaxshi qo‘snnichilik, bolajonlik va mehr-oqibat har tomonlama e’zozlanib kelinadi. Yozuvchi “Besh bolali yigitcha” asari orqali ushbu umuminsoniy qadriyatarni badiiy tarzda ifodalab beradi. Asarni o‘qigan kitobxon qalbida ushbu tuyg‘ularning yanada rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Shuning uchun ham Xudoyberdi To‘xtaboev ijodi o‘zbek bolalar adabiyotida o‘z o‘rniga, mazmuniga, kitobxonlariga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtaboev X. Besh bolali yigitcha. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2005.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – T.: “O‘qituvchi”, 2011. – 260 b.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek bolalar adabiyoti. – T.: “O‘qituvchi”, 2003. – 276 b.
4. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2022. – 303-b.
5. www.pedagog.uz
6. www.Nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)
7. www.ziyonet.Uz

## TARIXIY-BADIY ASARLAR VOSITASIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI

## INNOVATIVE METHODS OF DEVELOPING PERSONAL QUALITIES IN FUTURE EDUCATORS THROUGH HISTORICAL AND ARTISTIC WORKS

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ЧЕРЕЗ ИСТОРИКО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

*Qodirova Mavluda*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda tarixiy-badiiy asarlarning ahamiyati va innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Jumladan, "Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha", "Inform-dayjest", "Mavzuli blits-so'rov", "Breyn-ring", "Axborot +", esse yozish va buktreyler tayyorlash kabi interfaol metodlarning mohiyati va amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** *bo'lajak pedagog, shaxsiy sifatlar, badiiy-tarixiy asarlar, interfaol metodlar, amaliy jamoaviy ijodiy loyiha, inform-dayjest, mavzuli blits-so'rov, breyn-ring, axborot, esse yozish, buktreyler tayyorlash.*

**Abstract.** The article analyzes the importance of historical and artistic works and the effectiveness of using innovative methods in developing the personal qualities of future educators. In particular, the essence and practical application of interactive methods such as "Practical collective creative project", "Inform-digest", "Thematic blitz-survey", "Brain-ring", "Information +", essay writing and book trailer preparation are considered.

**Keywords:** *future educator, personal qualities, artistic and historical works, interactive methods, practical collective creative project, inform-digest, thematic blitz-survey, brain-ring, information, essay writing, book trailer preparation.*

**Аннотация.** В статье анализируется значение историко-художественных произведений и эффективность использования инновационных методов в развитии личностных качеств будущих педагогов. В частности, рассматривается сущность и практическое применение интерактивных методов, таких как «Практический коллективный творческий проект», «Информ-дайджест», «Тематический блиц-опрос», «Брейн-ринг», «Информация+», написание эссе и подготовка буктрейлера.

**Ключевые слова:** *будущий педагог, личностные качества, художественно-исторические произведения, интерактивные методы, практический коллективный творческий проект, информ-дайджест, тематический блиц-опрос, брейн-ринг, информация, написание эссе, подготовка буктрейлера.*

*Qodirova M.,  
Namangan davlat  
universiteti,  
tayanch doktoranti  
[m\\_qodirova@gmail.com](mailto:m_qodirova@gmail.com)*

## Kirish

Bo'lajak pedagoglarning ma'naviy, axloqiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish bugungi kundagi muhim vazifalardan biridir. Tarixiy-badiiy asarlar pedagogik ta'lim jarayonida nafaqat bilim manbai, balki talabalarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarlarni o'rgatishda innovatsion interfaol metodlardan foydalanish talabalarni faollashtirish va ularning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

## Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini samarali rivojlantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbirning mavzusi, xarakterli xususiyati, o'rganilayotgan muammoning ijobjiy yechimini kafolatlashda ahamiyatli ekanini inobatga olgan holda "Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha", "Inform-dayjest", "Mavzuli blits-so'rov", "Breyn-ring", "Axborot +", Esse yozish va buktreyler tayyorlash kabi interfaol metodlar tanlandi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda tarixiy-badiiy asarlarning ahamiyati va innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi mavzusini yoritishda analiz va sintez, induktiv va deduktiv, tarixiy manbalar asosida hujjatlar bilan ishslash, mantiqiylik, uzviylik va izchillik kabi ilmiy usul va tamoyillardan foydalanilgan.

## Tahlil va natijalar

**"Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha" (AJIL) metodi.** Ushbu metoddan foydalanish orqali talabalarda "amaliy jamoaviy ijodiy loyiha shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilish, ijodiy faoliyat malakalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish tajribasini rivojlantirish"ga erishiladi [1; 10–17-b.]. Avvalroq ta'kidlab o'tilganidek, interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra faoliyatni jamoaviy tashkil etilishini taqozo qiladi. AJIL metodi jamoaviy faoliyatning ijodiylikka asoslanishini ifodalaydi.

Tadqiqotni olib borish davrida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar negizi AJIL metodini qo'llashga asoslangan shartlar bilan ham boyitildi. Xusan, "Makon tuyg'usi menin qalbimda" yohud "Vatan tug'i jonimdan afzal" va "Qiron burjida tug'ilgan buyuk jahongir" mavzusidagi tadbirda kichik guruuhlar tomonidan jamoaviy ijodiy loyihalar tayyorlandi va xronologik yodnama shakllantirildi.

Kichik guruuhlar "Makon tuyg'usi menin qalbimda" yohud "Vatan tug'i jonimdan afzal" mavzusidagi tadbirda jamoaviy ijodiy loyihada

1. Tarixiy-badiiy qahramonning suratlarini topish: fotokollaj yoki kollaj (frans. collage – elimlash, yopishtirish) – tasviriy san'atdagi texnik usullardan biri bo'lib, qandaydir asos materialga undan rang va sifati bilan farqlanuvchi materialni yopishtirib asar yaratishdir. Mazkur usulda yaratilgan san'at asari kollaj deyiladi) tayyorlash;

2. Tarixiy-badiiy qahramonning shaxsiy sifati to'g'risida qisqacha ma'lumot berish: inform-dayjest yoki buktreler ijodiy loyiha tayyorlash;

3. Spitamen shaxsiy sifatini psixologik jihatdan tavsiflash: spitamennenning psixologik portretini jadval asosida tushuntirib berish kabi topshiriqlarni taqdimot shaklida bajardi.

Tajriba-maydonlarida tashkil etilgan tadbir jarayonida respondent-talabalaridan iborat ijodiy guruuhlari quyidagi loyihani taqdim etdi. (1-rasmga qarang):



1-rasm. Spitamen sifati (namuna) “Sug‘diyonalik Spitamen” komli kollaj:

**2. Tarixiy-badiiy qahramonning shaxsiy sifati to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berish (inform-dayjest).** Mohiyatiga ko‘ra, “inform-dayjest” (ingl. “digest” – qisqacha bayon, rezyume; lot. “digerere” – bo‘lmoq, ajratmoq) tushunchasi “besh daqiqali axborot” mazmunini anglatadi. Zamonaviy metodlardan biri bo‘lgan “axborot-dayjest” — bu biror ma’lumotning umumiyligi ma’nosini tushunish uchun etarli miqdorda asosiy g‘oya, eng muhim faktlar va raqamlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli materialdan qisqacha ko‘chirma bo‘lgan axborotni taqdim etish shakli. Mazkur metodni qo‘llashda kichik guruhlarga tadbir ishtirokchilarini milliy qahramon Spitamen to‘g‘risida Internet va bosma manbalarga asoslangan qisqacha ma’lumotlar bilan tanishtirish kabi topshiriqlar berildi. Kichik guruhlar: “Vatan dardi bilan yongan millatmiz” [2], “Jasur Spitamen – tengsiz sifat sohibi” [3], “Spitamen” haqida [4], “O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari” kabi manbalar asosida Spitamen va uning shaxsiy sifati to‘g‘risida ma’lumotlar to‘pladi. Tadbir jarayonida quyidagi ma’lumotlar og‘zaki bayon shaklida taqdim etildi:

#### Spitamen shaxsiy sifati – o‘lmas sifat (namuna)

*Spitamen (miloddan avvalgi 370-328-yillar) So‘g‘diyonalik bo‘lgan, Amudaryo va Sirdaryoning sharqida, Zarafshon vodiysining markazida joylashgan davlatda yashagan. Sug‘diyona IX asrdan boshlab, Movarounnahr va Somoniylar imperiyasining bir qismi bo‘lib, ushbu davlat bugungi*

O‘zbekiston (*Samarqand shahri*), Tojikiston (*So‘g‘d viloyati*), Janubiy Qozog‘iston va Qirg‘iziston hududlariga to‘g‘ri keladi.

Spitamenning otasi sak, onasi esa so‘g‘d qabilasiga mansub bo‘lgan.

Spitamen boshchiligidagi yunonlarga qarshi jang Politimet (Zarafshon) daryosi bo‘yida bo‘lgan. Bu jangda so‘g‘dliklar g‘alaba qozongan. Yunonlarga qarshi uch yil mardonavor kurash olib borgani sababli Iskandar Zulqarnayn Spitamenni sulu tuzishga chaqiradi va evaziga So‘g‘diyonaga hokim bo‘lishini aytadi. Biroq, Spitamen bu taklifga ko‘nmaydi. YUNonlar Spitamenni xoinlik bilangina engishga muvaffaq bo‘ladilar. Mashhur hukmdor Antiox Spitamenning nabirasi – qizi Apananing o‘g‘li bo‘lgan.

Spitamenning jang uslubi – dunman bilan yuzma-yuz olishish emas, balki sekin-asta tuzoqqa tushirib, ularni qo‘rquvgaga solish bo‘lgan. U yunonlarning “Falanga” jang metodiga qarshi partizan urushi taktikasini qo‘llagan. Janglardan birida Spitamen o‘ziga xos metodni qo‘llaydi: bitta otga ikki jangchi o‘tiradi; ulardan biri nayza, qilich yoki kamon, ikkinchisi esa tosh bilan qurollanadi.

Og‘zaki taqdim etilgan bayondan ham ko‘rinib turibdiki, turli hildagi materiallardan foydalaniib, qisqa daqiqalarda ma’lumot to‘plash orqali: faol hayotiy jarayonni, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash va talabalarning bilim va aqliy faoliyatlarini faollashtiruvchi ta’limiy maqsadlarga; talabalar faolligi va tashabbuskorligini, ijodkorligini rivojlantirish, nutq amaliyotini boyitish, jamoaviy o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatini, dialoglar olib borish, munozara va muhokamaga kirishish qobiliyatini shakllantirish, o‘z qarashlarini shakllantirishga va uni madaniyatli tarzda himoya qilish qobiliyatiga erishish, notiqlik mahoratini rivojlantirish bilan rivojlantiruvchi maqsadlarga erishildi.

**3. Spitamen shaxsiy sifatini psixologik-pedagogik jihatdan tavsiflash (psixologik-pedagogik tavsif).** Bu jarayonda kichik guruhlarga ularning e’tiboriga havola qilingan Spitamen to‘g‘risidagi tarixiy-badiiy asarlar asosida qahramonning sifatini psixologik tavsiflash – psixologik tavsifini yaratish vazifasi topshirildi. Topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt berildi. Kichik guruhlar Spitamenning quyidagi psixologik portretini shakllantirilar (1-jadvalga qarang):

1-jadval

### Spitamen (psixologik portret)

Irodaviy sifatlari	Shaxsiy sifatlari	Kurash (jang) metodlari
Jasur, qo‘rqmas, shijoatli, jur’atli, dovyurak, mard	Mohir jangchi; tadbirli va muvaffaqiyatli taktikani ishlab chiquvchi sarkarda, ehtiyyotkor va kuchli raqib	Dushman bilan yuzma-yuz kelmay, unga to‘satdan zarba berish (partizanlik); Askarlarni to‘rtburchak shaklda harakatlantirish

**“Inform-dayjest” metodi** – “inform-dayjest” (ingl. “digest” – qisqacha bayon, rezyume; lot, “digerere” – bo‘lmoq, ajratmoq) tushunchasi “besh daqiqali axborot” mazmunini anglatadi [5]. Ushbu tushuncha ommaviy axborot vositalariga nisbatan qo‘llanilganda “axborotli mahsulot (nashr qilingan ish, maqola, umumiylar sarlavha ostida beriladigan xabarlar” [5] ma’nosini ifodalaydi. Odatda dayjest ommaga umumlashtirilgan qisqacha ma’lumotlar annotatsiya shaklida taqdim qilinadi.

Bu metodda kichik guruhlar e’tiborlariga havola qilingan asarlar yoki ulardan olingan parchalarga tayangan holda tadbir uchun asosiy personaj sifatida tanlangan tarixiy qahramonning faoliyati va shaxsiy sifatiga oid besh daqiqali annotatsiya tadbir ishtirokchilariga havola qiladi; namoyish shakli (devoriy

gazeta, elektron taqdimot, og‘zaki bayon, qisqa metrajli video lavha va hokazolar) kichik guruhlar tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi. Sodda qilib aytganda, har qanday dayjest keng hajmdagi murakkab ma’lumotlarni ixcham va qulay taqdimotidir. Tadqiqotni olib borishda “inform-dayjest” metodidan foydalanishga oid namuna “Makon tuyg‘usi mening qalbimda” yohud “Vatan tug‘i jonimdan afzal” mavzusidagi tadbir misolida yuqorida keltirildi.

**“Mavzuli blits-so‘rov” metodi.** Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra “blits” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “tezkor”, “bir zumda” [6;17-b.] ma’nosini ifodalaydi. “Blits-so‘rov” metodida belgilangan vaqt ichida berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishi shart.


“General-leytanant Dmitriy Karbishev – yuksak shaxsiy sifat namunasi” mavzusida turnir-viktorinada “mavzuli blits so‘rov” metodidan foydalanildi (2-rasmga qarang):

Bu metodni qo‘llashdan avval respondent-talabalar ikkita guruhga ajratildi va turnir-viktorina quyidagi texnologik yondashuv asosida tashkil qilindi:

1. **Metodning maqsadi:** general-leytenant D.M.Karbishevning shaxsiy sifati talabalarni tanishtirish orqali ularda generalning jangovar faoliyatiga hurmat va shaxsiy an’analarga sadoqat ruhida tarbiyalash.

### 2) Asosiy vazifalar:

1. General-leytenant D.M.Karbishev haqidagi tarixiy-badiiy asarlar mazmunini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash.



### 2-rasm. Turnir-viktorina tadbirining texnologik yondoshuvlari.

2. Talabalarda general-leytenant D.M.Karbishevning jangchilik faoliyatiga hurmatni qaror toptirish va uning shaxsiy sifat sifatlaridan o‘rnak olish.

3. General-leytenant D.M.Karbishevning shaxsiy sifati misolida talabalarda shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy xizmatchiga xos xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga oid strategik rejalar tuzishga erishish.

3) **Metodning asosiy vositalari:** general-leytenant D.M.Karbishevning portreti, urush qahramoniga Mautxauzen konslagerida o‘rnatilgan yodgorlik surati, general-leytenant D.M.Karbishevning hayoti va shaxsiy faoliyatiga oid ma’lumotlar aks etgan elektron plakat, Sergey Vasilevning “Dostoinstvo” (“Qadr-qimmat”) poemasi, Evgeniy Reshinnig “General Karbishev” (“General Karbishev”) povesti, YUriy Pilyarning “CHest” (“Or-nomus”) romanidan nusxalar va boshqa asarlar vatman qog‘ozlar,

flomaster, ko‘chma yozuv taxtasi. Ishtirokchi jamoa (kichik guruhlari)ning faoliyatini baholash **mezonlari** quyidagilardan iborat bo‘ldi (2 -jadvalga qarang):

**2-jadval**

**Ishtirokchi jamoa (kichik guruhlari)ning faoliyatini baholash MEZONLARI**

t/r	Mezonlarni nomlanishi	Ballar	Izoh
1.	Berilgan shartlar bo‘yicha topshiriqlarni tezkor, sifatli va birinchi bo‘lib bajarish	5	
2.	Berilgan shartlar bo‘yicha topshiriqlarini bajarishda bir qadar sustlik qilish, ammo topshiriqni sifatli bajarishga urinish	4	
3.	Berilgan shartlar bo‘yicha topshiriqlarni yakuniga etkaza olmaslik, biroq, sifatli bajarishga harakat qilish	3	
4.	Berilgan shartlar bo‘yicha topshiriqlarni yakuniga etkaza olmaslik, ularni bajara olmaslik	0	

Turnir-viktorinaning tarkibiy tuzilmasi quyidagi bosqichlardan tashkil topdi:

**I. Tashkiliy-tayyoragarlik bosqichi.** Bu bosqichda pedagog tomonidan turnir-viktorinaning maqsadi va tarkibiy tuzilmasi aniqlandi; kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar shakllantirildi; kichik guruhlarning faoliyatini baholash mezonlari va daraja ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi; turnir-viktorinaning samaradorligini baholash tartibi va mezonlar belgilandi; turnir-viktorinaning ishtirokchilari bo‘ladigan talabalarning e’tiboriga general-leytenant D.M.Karbishevning faoliyati va shaxsiy sifati haqida hikoya qiluvchi tarixiy-badiiy asarlarning original varianti (asarlar rus tilida mayjud) hamda ushbu asarlarda II Jahon urushi Qahramonining bevosita shaxsiy sifati yoritilgan muhim o‘rinlarning o‘zbek tilidagi tarjimasi havola qilinib, ularni yaqindan o‘rganishga oid topshiriqlar berildi. Turnir-viktorinani o‘tkazishdan avval talabalarga general-leytenant D.M.Karbishevning faoliyati va shaxsiy sifatiga bag‘ishlangan quyidagi tarixiy-badiiy asarlarni o‘qish tavsiya etilgan va asarlar bilan tanishib chiqish uchun talabalarga ikki oy vaqt belgilangan: Sergey Vasilevning “Dostoinstvo” (“Qadr-qimmat”) poemasi; Evgeniy Reshinnning “General Karbishev” (“General Karbishev”) povesti.

**II. Dastlabki bosqich.** Mazkur bosqichda pedagog yoki boshlovchi etib tayinlangan bo‘lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda biri turnir-viktorinaning mavzusi, uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad to‘g‘risida ishtirokchilarga ma’lumot berib o‘tadi. So‘ngra turnir-viktorina uchun “qahramon” sifatida e’tirof qilingan II Jahon urushi Qahramoni, general-leytenant D.M.Karbishevning bolaligi, asirlikka tushgunga qadar amalga oshirgan kasbiy faoliyati to‘g‘risida qisqacha ma’lumot berib o‘tadi. Turnir-viktorina tashkil etishdan quyidagi portret va surat smartboard orqali ishtirokchilarga havola etildi

**III. Kichik guruhlari faoliyatini tashkil etish bosqichi.** Metodning asosi bo‘lgan bu bosqichda ishtirokchi akademik jamoa kichik guruhlari shaklida qayta (tajriba-maydonlarida asosan uchta kichik guruh) shakllantirildi. Asosiy shartlar hamda ularni bajarish qoidalari, shuningdek, kichik guruhlarning faoliyati mazmuni va tartibi topshiriqlar berilgan vaqtida tushuntirib borildi. Tadborda ishtirok etgan uchta kichik guruhga quyidagi blits-so‘rov topshirig‘i taqdim etildi:

**III. Refleksiya bosqichi.** Bu bosqichda kichik guruhlari bir-birlarining

**IV. Refleksiya bosqichi.** Bu bosqichda kichik guruhlari bir-birlarining turnir-viktorinadagi faoliyatini baholadi. Bunday yondashuv talabalarda o‘zgalarning xatti-harakati, faolligi, yutug‘ini xolis baholash, o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy yondashish malakalarini hosil qiladi. Qolaversa, shu tahlitda talabalar yutuqlarni xolis e’tirof qilish, mag‘lubiyatni mardona tan olishga o‘rganadi.

**V. Yakuniy bosqich.** Bu bosqichda har bir shart bo'yicha mavjud mezonlarga ko'ra guruhlarning faoliyati baholanib, g'olib guruh taqdirlandi

**"Breyn-ring" metodi.** "Breyn" (ingl. "brain" – aql, idrok, fahm;) so'zi lug'aviy mazmuniga ko'ra tafakkur tezligini ifodalashga xizmat qiladi. "Breyn-ring" iborasi esa topshiriqlarni bajarish guruhalr o'rtaqidagi bellashuv xarakteriga egaligini anglatadi [6]. YA'ni, intellektual ringda raqib jamoa (kichik guruh)lar berilgan topshiriqnini birinchi bo'lib to'la, to'g'ri bajarish, og'zaki savollarga birinchi bo'lib to'g'ri javob topishga harakat qilishi zarur.

"Breyn-ring" sharti bo'yicha 1-kichik guruhga quyidagi "Temir general" – o'zbek va polyak xalqlari qahramoni" va "General-leytenant Dmitriy Karbishev – yuksak shaxsiy sifat namunasi" mavzulariga doir fikrni davom ettirish, "General Sobir Rahimov: tarixiy haqiqat tantanasi" haqida topshiriq berildi:

1. ... *shu paytda biz, ...*
2. – *YO hayot, yo asorat; yo hayot, ...*
3. *Bir qadam ham orqaga ...*
4. *Bu farmon jangchi va komandirlarimiz ...*

1-kichik guruhning javoblaridan quyidagilar to'g'ri deb hisoblandi:

1. ... *shu paytda biz, o'zbek xalqidan farmon oldik:*
2. – *YO hayot, yo asorat; yo hayot, yo o'lim; yo o'lim, yo g'alaba!*
3. *Bir qadam ham orqaga chekinmangiz!*
4. *Bu farmon jangchi va komandirlarimiz qalbining eng chuqur eridan joy oldi.*

*5. Qo'shilmaymiz Goryachiy Klyuch, Kox tog'lari va Kochkanovo rayonlarini mudofaa qilar ekan bu farmonni hamisha yodida saqladi».*

2-kichik guruhga taqdim etilgan savollar tugallanmagan fikrlarning to'ldirish nuqtai nazaridan:

1. *Vatan haqida o'ylanglar, ...*
2. *O'z ustidan g'alaba qozonishdan ...*
3. *Muhimi, dushman oldida ...*
4. *Mening e'tiqodim lagerdag'i ovqatlarda vitamin etishmaganligidan to'kilayotgan tishlar kabi ...*
5. *Men askarman va ...*

6. *Burchim menga mening Vatanim bilan urush qilayotgan mamlakat ...*


2-kichik guruh vakillarining javoblari quyidagicha qabul qilindi:

1. *Vatan haqida o'ylanglar, shunda sizlarni sifat tark etmaydi!*
2. *O'z ustidan g'alaba qozonishdan katta g'alaba yo'q!*
3. *Muhimi, dushman oldida tiz cho'qmaslik!*
4. *Lagerdag'i ovqatlarda vitamin etishmaganligidan to'kilayotgan tishlar kabi mening e'tiqodim "to'kilmaydi" (yo'qolmaydi)!*
5. *Men askarman va o'z burchimga sodiq qolaman.*

*6. Burchim menga mening Vatanim bilan urush qilayotgan mamlakat tomonidan turib ishlashni taqiqlaydi!*

**5. Buktreyler taqdimoti metodi.** Zamonaviy texnologiyalar interfaol ko'rgazmalarni, virtual sayohatlarni va media tahlillar, urush kahramonlari bilan videoko'prik, videoqaqdimot, slayd hikoyalar tayyorlash imkonini beradi. Hozir kunda eng zamonaviy taqdimot buktreylerdir. Buktreylerlar (ing. booktrailer "trailer" – anons, pritsep, reklama roligi) – tarixiy, klassik, zamonaviy va boshqa ixtiyoriy adabiyotlar haqida vizual usulda badiiy talqinlar bilan yaratilgan 3 daqiqadan iborat videolavha. Qisqa muddat ichida biror asar haqida qisqa, lo'nda, ammo tushunarli bo'lgan ma'lumotlarni etkazish yoki qabul qilish uchun eng qulay texnologiya. Bu badiiy yoki ixtiyoriy asarlar qahramonlari va asar syujetini

kitobxonga to‘laqonli tushunarli qilib etkazish bo‘lib, uni tayyorlashda video, illyustratsii, fotografiya, kitob muqovalari va asar qahramonlari fotosuratlaridan foydalanish mumkin (3-rasmga qarang):



### **3-rasm. Tarixiy-badiiy asarlar vositasida bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga oid buktreylar yaratish texnologiyalari.**

Bu metodda respondent talabalar “Qiron burjida tug‘ilgan buyuk sarkarda” va “Vatan tug‘i jonimdan aziz” mavzularida avval tavsiya etilgan tarixiy badiiy asarlar vositasida va internetdan olingen ma’lumotlar asosida 3 daqiqali videorolik tayyyorladilar.

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

Xulosa qilib aytganda, ta’limda bo‘lgani kabi ma’naviy-ma’rifiy ishlardan jarayonining samarali bo‘lishida interfaol metodlardan foydalanish katta ahamiyatga kasb etadi. Shaxsiy sifat mavzusida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda interfaol metodlarni qo‘llash tadbirlarning qiziqarli, jonli va natijali bo‘lishini ta’minlab tadbir ishtirokchilarini faoliyat ko‘rsatishga undadi. Tadbir uchun tanlangan muammo, uning xarakterli jihatlariga tayangan holda interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlash kutilgan natijaga erishishga yordam berdi. “Amaliy jamoaviy ijodiy loyiha”, “Inform-dayjest”, “Mavzuli blitz-so‘rov”, “Breyn-ring”, “Axborot +”, “Buktreylar taqdimoti” kabi interfaol metodlarning didaktik imkoniyati bilan tanishish talabalarda shaxsiy sifat sifatlarini samarali rivojlantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Zamilova R.E. “Qahramonlar va qahramonlik”ning shaxs shakllanishiga ta’siri: fals. fan. nom. dis. ... avtoref. – Toshkent, 2017.
2. Mahkamov S. Ijtimoiy fanlarni o‘rganishga integratsion yondashuv – dars samaradorligini oshirish omili // Xalq ta’limi j. – T.: 2004. 5-son. – 48-51-b.



3. Pirlapas o‘g‘li, J. R. (2023). Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurushlar harbiy faoliyati haqida. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 10(1), 36-37.
4. Mamurova, M. (2023). “Spitamen” romanida bosh qahramon tasviri (image of the main character in the novel "spitamen"). *Philological issues are in the eyes of young researchers*, 1(1).
5. Gynova, M., Zhamardiy, V., Kravchenko, I., Shkola, O., Donchenko, V., Peleshenko, I., & Lyvatskyi, O. (2023). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF THE READINESS OF FUTURE SPECIALISTS IN PHYSICAL REHABILITATION TO WORK WITH ATHLETES OF WATER SPORTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING. *Acta Balneologica*, 178(6).
6. Shadiyeva, N. S., & Rahimova, S. H. (2024). Ta’lim jarayonida pedagogik mahoratga zamonaviy yondashuv. *Journal of new century innovations*, 63(1), 45-48.
7. Кадирова, М. 2024. Педагогическое значение исторических и художественных произведений в развитии личностных качеств будущих педагогов. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2, 2/S (авг. 2024), 255–262. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp255-262>.



## TALABALARING BILIMINI KLASSIK TEST TIZIMLARI ORQALI BAHOLASH TAHLILI

### АНАЛИЗ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ КЛАССИЧЕСКОЙ ТЕСТОВОЙ СИСТЕМЫ

### THE ANALYSIS OF STUDENTS' KNOWLEDGE ASSESSMENT USING A CLASSICAL TESTING SYSTEM.

*Rasulov Ulug'bek Murodullayevich*

**Annotatsiya.** Klassik test nazariyasi (KTN) 20-asr boshlarida paydo bo'lib hozirga qadar ta'lim, sotsiologiya va psixologiyaning turli sohalarida keng qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va xususiyatlarni baholashga qaratilgan yondashuvdir. Klassik test nazariyasining asosiy maqsadi shaxsiy qobiliyat va fazilatlarni aniq baholaydigan ishonchli test tizimlarini ishlab chiqishdir. Maqolada, klassik test nazariyasi tizimlari tahlili qaraladi.

**Kalit so'zlar:** *Test, talaba, baholash, topshiriq, sinov, natija, bilim, tizim, daraja*

**Аннотация.** Классическая теория тестирования (КТН) появилась в начале 20 века и в настоящее время образование призвано совершенствовать производство знаний, навыков и продукции в различных областях социологии и психологии. Основная цель классической теории тестирования — разработка надежных тестовых систем, точно оценивающих способности и качества личности. В статье рассматривается анализ классических систем теории тестирования.

**Ключевые слова:** *Тест, студент, оценка, задание, тест, результат, знания, система, уровень.*

**Abstract.** Classical testing theory (CTT) appeared at the beginning of the 20th century and currently education is designed to improve the production of knowledge, skills and products in various fields of sociology and psychology. The main goal of classical testing theory is the development of reliable test systems that accurately assess a person's abilities and qualities. The article discusses the analysis of classical testing theory systems.

**Keywords:** *Test, student, assessment, task, test, result, knowledge, system, level.*

#### **Klassik test nazariyasining asosiy tamoyillari**

Testlar pedagogikaning asosiy vositalardan biri bo'lib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xolisona baholash imkonini beradi. Test nazariyasi o'qituvchilar va tadqiqotchilarga nafaqat sinov, balki o'rGANISHNI qo'llab-quvvatlaydigan vositalarni yaratishda yordam beradi. Bu moslashuvchan testni

rivojlantirish uchun asos bo'lib, bu yerda topshiriqlar talaba darajasiga qarab individual ravishda tanlanadi. To'g'ri ishlab chiqilgan test nafaqat sinov, balki motivatsiya va o'sish uchun kuchli vositadir.

Zamonaviy pedagogika talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash vositalariga yuqori talablarni qo'yadi. Ular orasida testning xolisligi va samaradorligi alohida o'rinn tutadi. Biroq, sifatlari testni yaratish sinov nazariyasi taqdim etadigan ilmiy yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi.

Test nazariyasi - bu testlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va sharhlash jarayonlarini o'rganadigan yo'nalish. U quyidagilarga qaratilgan:

- **Obyektivlik** - subyektiv omillarning ta'sirini minimallashtirish.
- **Ishonchlilik** - takroriy sinov paytida natijalarining barqarorligi.
- **Haqiqiylik** - test topshiriqlarining belgilangan ta'lim maqsadlariga muvofiqligi

Ushbu tamoyillar KTN doirasida qo'llaniladigan test tizimlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa testning umumiyligini xususiyatlarini va individual topshiriqlarning xususiyatlarini baholashga imkon beradi.

Klassik test nazariyasi (KTN) – bu ta'limda talabalar bilimlarini baholash va takomillashtirishga qaratilgan asosiy yondashuvlardan biri. U test natijalarining ishonchliligi va haqqoniyligini ta'minlash uchun bir qator tamoyillarni ilgari suradi:

1. **Haqiqiy ball** va **kuzatilgan ball** tushunchasi klassik test nazariyasiga ko'ra, har bir test natijasi ikki tarkibiy qismidan iborat:

- **Haqiqiy ball** (T) – test topshiruvchining haqiqiy bilim yoki qobiliyat darajasini aks ettiradi.
- **Xatolik** (E) – tasodifiy omillar ta'sirini ifodalaydi. Formulasi:  $X = T + E$ , bunda X – kuzatilgan ball.

2. **Testning ishonchliligi (reliability)** KTN test natijalarining barqarorligini va xatolik ta'sirining minimal darajada bo'lishini ta'minlashga intiladi. Ishonchlilik darajasi test natijalari qayta o'tkazilganda bir xillikni saqlab qolishiga bog'liq.

3. **Testning validligi (validity)** Validlik – bu testning o'lhashga mo'ljallangan xususiyatni qaydarajada aniqlik bilan o'lhashidir. KTN doirasida validlik testning maqsad va natijalariga mosligini ta'minlash uchun asosiy tamoyil hisoblanadi.

4. **Test topshiriqlarining qiyinchilik darajasi va diskriminatsiyasi** KTN test topshiriqlarining o'rta darajadagi qiyinchilikka ega bo'lishini va bilimli respondentlarni bilim darajasi past bo'lganlardan samarali ajrata olishini ta'minlashni tavsiya etadi.

**Xatoliklarning tasodifiyligi-nazariya** xatoliklarning tasodifiy va tizimli emasligini taxmin qiladi. Bu tamoyil kuzatilgan natijalarni yanada haqqoniyligini baholash uchun muhimdir

### ***Klassik test nazariyasida test tizimlari***

**Test tizimlari** – bu o'quvchilar, xodimlar yoki boshqa respondentlarning bilim, qobiliyat, ko'nikma va boshqa xususiyatlarini baholash uchun ishlab chiqilgan tizimlardir. Ushbu tizimlar har xil maqsadlarga muvofiq tuzilgan bo'lib, har bir test turli metod va yondashuvlar yordamida ishlab chiqiladi.

#### **1. Test ishonchliliginini baholash**

KTNda testning ishonchliliginini baholash uchun turli usullar qo'llaniladi:

- **Test-qayta test-** ikkita mustaqil testda olingan natijalar o'rtasidagi bog'liqlik asosida ishonchlilikni baholaydi. Korrelyatsiya qanchalik yuqori bo'lsa, test shunchalik ishonchliligi bo'ladi.

- **Parallel shakllar usuli** - bir xil vazifalarga ega, ammo turli formulalar bilan testning ikkita ekvivalent shaklini yaratishni talab qiladi. Ishonchlilikni baholash uchun ikkala shakl natijalari o'rtasidagi korrelyatsiyadan foydalananiladi.

#### **2. Testning validligini tahlil qilish**

Validlik testning baholash uchun mo'ljallangan narsani qanchalik yaxshi baholashini ko'rsatadigan o'lchovdir. KTN amal qilishning bir necha turlarini ajratadi:

-**Tarkibning validligi**- test topshiriqlarining baholanayotgan konstruksiya mazmuniga qanchalik mos kelishini baholaydi.

-**Mezonning validligi** - testning bir xil xususiyatni o'lchaydigan tashqi mezon bilan bog'liqligi asosida aniqlanadi (masalan, IQ testi va maktab baholari).

-**Konstruktiv validlik** - testning nazariy taxminlarga qanchalik mos kelishini baholaydi (masalan, o'xhash sifatlarni baholaydigan boshqa testlar bilan bog'liq).

### 3. Diskriminativ qobiliyat va vazifaning qiyinligini tahlil qilish

KTN test tizimlarining muhim xususiyati - bu elementlarning diskriminatsion qobiliyati, ya'ni ularning baholanadigan turli darajadagi ishtirokchilarni farqlash qobiliyati:

-**Diskriminatsiya koeffitsientlari** - muayyan vazifa yuqori va past ball olgan ishtirokchilarni qanchalik yaxshi farqlashini baholashga yordam beradi, bu ko'pincha element ball va umumiyl test ball o'rtaqidagi korrelyatsiya yordamida amalga oshiriladi.

-**Vazifaning qiyinligini baholash**- Bunda qiyinchilik vazifani muvaffaqiyatli bajargan ishtirokchilarning foizi sifatida aniqlanadi. To'g'ri javoblar foizi qancha past bo'lsa, topshiriqning qiyinligi shunchalik yuqori bo'ladi.

### 4. Sinovni optimallashtirish usullari

KTN test tizimlari o'lchov xatosini minimallashtirish uchun ko'plab vazifalardan iborat testlarni yaratishga qaratilgan. Amalda bu quyidagilarni anglatadi:

-**Vazifalar sonini ko'paytirish** yuqori ishonchlilikni ta'minlaydi, chunki umumiy o'lchov xatosi ko'proq miqdordagi vazifalarga taqsimlanadi.

#### *Klassik test nazariyasida test tizimlarining afzalliklari*

Test nazariyasidan foydalanish o'qituvchilarga nafaqat bilim darajasini diagnostika qilish vositalarini ishlab chiqish, balki adaptiv test kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ta'limni raqamlashtirish sharoitida to'g'ri keladi. Ilmiy tamoyillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan testlar nafaqat nazorat qilish usuli, balki talabaning ta'lim traektoriyasini shakllantirishning muhim elementiga aylanadi.

Zamonaviy o'quv amaliyotida test o'zining ko'p qirraliligi va samaradorligi bilan muhim o'rinn tutadi. Bilimlarni baholashning boshqa usullariga nisbatan pedagogik testlar bir qator muhim afzalliklarga ega:

**Obyektivlik**-Testlar o'qituvchining subyektiv ta'sirini minimallashtiradi, talabalar bilimini adolatli baholashni ta'minlaydi.

**Standartlashtirish**-Yagona test formati bilim va ko'nikmalar darajasini ommaviy diagnostika qilish imkonini beradi, bu ayniqsa o'rghanishga tizimli yondashish uchun muhimdir.

**Vaqtni tejash**-Sinovlarni o'tkazish va natijalarni tekshirishni avtomatlashtirish baholash uchun sarflangan vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

**Haqiqiylik va ishonchlilik**-Yaxshi ishlab chiqilgan testlar o'quv dasturida ko'rsatilgan bilim va ko'nikmalarni aniq o'lchaydi va takroriy foydalanish bilan barqaror natijalar beradi.

**Talabalarning motivatsiyasi**-Fikr-mulohazalarga asoslangan testlar talabalarni o'z-o'zini sinab ko'rishga va materialni faolroq o'zlashtirishga undaydi.

**Moslashuvchanlik**-Zamonaviy raqamli test tizimlari talabalarning bilim darajasiga moslashgan holda topshiriqlarni shaxsiylashtirish imkonini beradi.

Pedagogik test nafaqat nazorat vositasi, balki ta’lim sifatini oshirishning kuchli manbasidir. Uning qo’llanilishi har bir talabaning rivojlanishiga yo‘naltirilgan shaffof va samarali baholash tizimini yaratishga yordam beradi.

### **Klassik test nazariyasida test tizimlarining kamchiliklari:**

Ommabopligi va samaradorligiga qaramay, pedagogik test quyidagi bir qator kamchiliklarga ega va ulardan foydalanishda e’tiborga olish kerak:

- **Baholashning cheklovleri-** testlar ko‘pincha bilim va reproduktiv qobiliyatlarni sinab ko‘rishga qaratilgan bo‘lib, ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil va amaliy ko‘nikmalar kabi jihatlarga e’tibor bermaydi.

- **Natijalarni baholashdagи kamchiliklar** – odatda testlar qiyinlik darajasiga ko‘ra reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli hamda kreativ test topshiriqlari ko‘rinishida tuziladi. Klassik test nazariyasida qo’llaniladigan test tizimlari qiyinlik darajasiga bo‘yicha alohida baholamasdan ya’ni topshiriqlarning xususiyatlari, masalan, ularning qiyinligi yoki osonlik darajasini inobatga olmasdan, faqat umumiy baho(ball) beriladi.

Haddan tashqari standartlashtirish ma’lumotni chuqur tushunish o‘rniga eslab o‘rganishga olib kelishi mumkin.

- **Psixologik bosim-** test sinov jarayoni talabalar uchun stressli bo‘lishi mumkin, bu natijalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, ayniqsa hissiyotlarni boshqarishda qiynalayotganlar uchun

- **Rivojlanishning murakkabligi- haqiqiy, ishonchli va obyektiv testlarni yaratish yuqori malaka va katta vaqt sarfini talab qiladi. Rivojlanish bosqichidagi xatolar natijalarni buzishi mumkin.**

- **Tahlil chuqurligi yetarli emas-yopiq** savollarga ega avtomatlashtirilgan testlar ko‘pincha ijodkorlik yoki fikrlash qobiliyatini baholamaydi.

- **Taxmin qilish imkoniyati**-ko‘p tanlovlari testlarda tasodifiy to‘g‘ri natijalarni olish xavfi mavjud, bu esa baholashning obyektivligini pasaytiradi.

- **Test topshiriqlarining xususiyatlarini hisobga olmaslik-** Sinovdagи barcha topshiriqlar darajasi teng deb hisoblanadi, bu ularning individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon bermaydi. Talabalar faqat testda yaxshi natija olishga e’tibor qaratishi, o‘qish jarayonini yuzaki qilishi mumkin.

Klassik test nazariyasi doirasida testlarni qurishning asosiy vositasi bitta test shkalasiga kiritilgan test topshiriqlarining bir xillagini (statistik muvofiqligini) ta’minlashdir. Klassik test nazariyasida qo’llaniladigan test tizimlari hali ham bilim va qobiliyatni baholashda muhim rol o‘ynaydi. Usullarning soddaligi va qulayligi tufayli klassik test nazariyasi ta’lim va kasbiy faoliyatda keng qo’llaniladi. Biroq, uning kamchiliklari KTNni aniq bosqichma-bosqich tahlili va moslashuvchan testlar uchun kamroq moslashtiradi, bu esa tadqiqotchilarni zamonaviy test nazariyasining murakkabroq modellariga murojaat qilishga olib keladi.

Klassik test nazariyasi o‘zining oddiyligi va keng qo’llanilish imkoniyati bilan pedagogik baholash vositalarini tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, uning kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy model – masalan, Item response theory (IRT) – bilan to‘ldiriladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Клайн, П. (2001). *Психометрия и теория тестов*. Санкт-Петербург: Питер
2. Лорд, Ф., Новик, М. (1974). *Статистические теории психометрии*. Нью-Йорк: Addison-Wesley.



3. Браттен, К., Розен, А. (1997). *Введение в классическую теорию тестов и методы анализа*. Москва: Наука.
4. Crocker, L., & Algina, J. (2006). *Introduction to Classical and Modern Test Theory*. Belmont, CA: Wadsworth
5. Novick, M. R. (1966). *The axioms and principal results of classical test theory*. *Journal of Mathematical Psychology*,
6. Чумаков, А. Н. (2001). *Надежность и валидность тестов: Методологические основы*. Санкт-Петербург: Издательство С.-Петербургского университета
7. Anastasi, A., & Urbina, S. (1997). *Psychological Testing* (7th ed.). Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall
8. Тесты и тестирование в образовании и психологии. Под ред. Ю. Г. Татура (2002). Москва: Академия

## O'ZBEK TILIDA ONOMASTIK BIRLIK LARNING BOYISH USULLARI VA BA'ZI ANTROPONIMLARNING MATEMATIK ATAMALARDA KO'RINISHI

## МЕТОДЫ ОБОГАЩЕНИЯ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ПОЯВЛЕНИЕ НЕКОТОРЫХ АНТРОПОНИМОВ В МАТЕМАТИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЯХ

## METHODS OF ENRICHMENT OF ONOMASTIC UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THE APPEARANCE OF SOME ANTHROPOONYMS IN MATHEMATICAL TERMS

*Raximov Shahriyor Normurod o'g'li, Xaydarova Yulduz Abdijalil qizi*

**Annotatsiya.** O'zbek tilining onomastik til sohasini tahlil qilish asosida yangicha atamalarning kelib chiqishi haqida fikr yuritamiz. Bunday jarayonni ba'zi olimlar o'zlarining tadqiqot natijalariga o'z ismining nomini berayotganligida kuzatish mumkin. Misol uchun, buyuk alloma vatandoshimiz Abu Ja'far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dunyo ilm-faniga va algoritm atamalarining "otasi", buyuk matematik, tarixchi, falakshunos, geograf sifatida butun dunyoga mashhur olimning "Al Jabr val-Muqobala" asari. Ushbu asar nomidagi "Al-Jabr" so'zidan talaffuzdagi o'zgarishlar (Yevropa tillari) tufayli "Algebra" so'zi paydo bo'ldi. Yana bir necha matematik olimlardan fransuz matematigi, faylasifi va fizigi Blez Paskal "Pascal uchburchagi", yunon matematikgi Pifagor "Pifagor jadvali", Johann Venn "Venn diagrammasi".

**Kalit so'zlar:** Onomastika, konversiya, derivatsiya, transformatsiya, transpozitsiya, "Algebra", "Pascal uchburchagi", "Pifagor jadvali", "Venn diagrammasi".

**Аннотация.** Мы рассмотрим происхождение новых терминов на основе анализа ономастической области узбекского языка. Такой процесс можно наблюдать в некоторых исследованиях, когда ученые дают имена своим научным достижениям. Например, великий ученый и наш соотечественник Абу Джраф Мухаммад ибн Муса аль-Хорезми, который стал знаменитым в мире науки как "отец алгоритмов", великий математик, историк, астроном и географ. Его труд "Аль-Джабр ва-л-Мукабала". Из-за изменений в произношении слова "Аль-Джабр" (в европейских языках) появилось слово "Алгебра". Также несколько других математиков, таких как французский математик, философ и физик Блез Паскаль, "Треугольник Паскаля", греческий математик Пифагор, "Таблица Пифагора", и Иоганн Венн, "Диаграмма Венна".

**Raximov Sh.N.,**  
*O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti,*  
[raximovshahriyor2412@gmail.com](mailto:raximovshahriyor2412@gmail.com)

**Xaydarova Y.A.,**  
*O'zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti magistranti*  
[yxaydarova377@gmail.com](mailto:yxaydarova377@gmail.com)

**Ключевые слова:** Ономастика, конверсия, деривация, преобразование, транспонирование, “Алгебра”, “Треугольник Паскаля”, “Таблица Пифагора”, “Диаграмма Венна”.

**Abstract.** We will consider the origin of new terms based on the analysis of the onomastic linguistic sphere of the Uzbek language. This process can be observed in the fact that some scientists give their research results the name of their own name. For example, the work of our great scholar, compatriot Abu Ja'far Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi, known throughout the world as the “father” of world science and the term algorithm, a great mathematician, historian, astronomer, and geographer, “Al Jabr wal-Muqabala”. From the word “Al Jabr” in the title of this work, due to changes in pronunciation (European languages), the word “Algebra” appeared. Among several other mathematical scientists, the French mathematician, philosopher, and physicist Blaise Pascal created the “Pascal triangle”, the Greek mathematician Pythagoras created the “Pythagorean table”, and Johann Venn created the “Venn diagram”.

**Keywords:** *Onomastics, conversion, derivation, transformation, transposition, “Algebra”, “Pascal’s Triangle”, “Pythagorean Theorem”, “Venn Diagram”.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ona tilimizni ardoqlash xususida kelajak avlodga qaratilgan ta‘kidlarini keltirish mumkin: “Atoqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek, til-millat ruhini yuksaltiruvchi kuchdir. Shu ma’noda, ona Vatanga muhabbat va sadoqat- ona tiliga muhabbat va sadoqatdan boshlanadi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz” [1.97-b.]. O‘zbek tili lug‘aviy qatlami vaqt o‘tgan sari turli usullarda boyib bormoqda natijada esa so‘zlarini o‘z o‘rnida qo‘llashga bo‘lgan talab ham kuchaymoqda. Xususan, onomastik til sohasini tahlil qilish asosida yangicha atamalarning kelib chiqishi haqida fikr yuritamiz.

So‘z yaratish - bu tilga xos bo‘lgan maxsus vositalar yordamida boshqa bir ildizli leksema (yoki leksemalar) asosida so‘z yaratishdir. Shu o‘rinda aytish joizki, turli fan sohalari bo‘ylab yangi atamalar ham tilning lug‘at boyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ko‘pgina adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, atoqli otlar turdosh otlardan yasalish yoki derivatsion hamda kompozitsion usullar hisobiga boyib bormoqda. Onomastik konversiya usulida yasalgan onomastik birliklarni esa ko‘plab sanab o‘tish mumkin.

o‘Rganilganlik darjasи. So‘zlearning nominatsion, ya‘ni funksional ko‘chishi tildagi keng tarqalgan hodisa bo‘lib, bunda bir so‘z turkumiga mansub leksemaning boshqa so‘z turkumiga ko‘chishi ko‘zda tutiladi. Lekin bu jarayon shunchaki almashinish emas, balki yangi so‘z yasash, ya‘ni konversiya deb qaraladi. Konversiya termini lingvistik terminlar lug‘atida quyidagicha izohlanadi: Konversiya (lot. conversio - aylanish, o‘zgarish) so‘zning fonetik va morfologik jihatdan o‘zgarmay, bir so‘z turkumidan boshqa bir so‘z turkumiga o‘tishi, shu yo‘l bilan yangi so‘z hosil bo‘lishidir [2-45 b.]. So‘zni bir leksik-

grammatik kategoriyadan boshqa turkumga ko‘chirish, kategorial ko‘chish yo‘li bilan yasash konversiya hisoblanadi [4-5 b].

Tildagi oddiy konversiyadan onomastik konversiyani farqlash lozim. Onomastikaga oid so‘nggi ilmiy manbalarda leksik-semantik usul onomastik konversiya deb yuritilmoqda. Haqiqatan, konversiya usuli mohiyatan so‘z yasalishining leksik-semantik usuliga to‘g‘ri keladi. Demak, apellyativlardan atoqli otlar hosil bo‘lishi onomastik konversiya hisoblanadi. E.Begmatov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, ism vazifasiga o‘tgan har qanday so‘z o‘zi avval mansub bo‘lgan morfologik kategoriyadan ajraladi va ot (atoqli ot) kategoriyasiga o‘tadi. Terminologik lug‘atlarda apellyativlarning biror atoqli ot vazifasiga o‘tishi onimizatsiya yoki atoqli otlashuv sanaladi. Bu hodisa boshqa o‘rinnarda yanada aniqroq qilib, onomastik konversiya deb ataladi. Onomastik konversiya onomastik konversiya usuli deb ham yuritiladi. Onomastik konversiya - apellyativ leksikaning hech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga o‘tishi [4-5 b.].


Ayrim adabiyotlarda konversiya faqat so‘zlarning. bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chishi hodisasi bo‘lmasdan, uning bir so‘z turkumining o‘z ichidagi turli “aylanish”lariga nisbatan ham qo‘llanishi, masalan, atoqli otning turdosh otga ko‘chishi kabi hodisalar ham shu termin bilan atalishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi [7-82 b.].

Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchi|ar onomastik konversiya terminini qo‘llagan bo‘lsalar kerak. Aslida, onomastikada atoqli otning turdosh otga, turdosh otning atoqli otga yoki boshqa turkumga oid so‘zning atoqli otga aylanish hodisasini olimlar turlicha-“metafora va metonimiya hodisasi”, “kalkalash”, “transformatsiya” (Y.A.Karpenko, E.M.Murzayev va boshqalar) kabi terminlar bilan ataydilar. [7-28 b]. Transpozitsiya termini “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da (lot. Transposition -o‘rin almashtirish) - atoqli otlar biror kategoriyasining boshqa kategoriya nomlar, vazifasiga o‘tishidir, boshqa lug‘atda (lot. transpositio-o‘rin almashtirish; - grammatik kategoriyalarning o‘ziga xos bo‘limgan vazifada qo‘llanishi. Masalan, bir turkum so‘zning matnda boshqa turkum so‘zi kabi qo‘llanishidir. Konversiya hodisasini ko‘pgina atoqli otlarning kelib chiqishida uchratish mumkin. Bundan tashqari atoqli otlarning boshqa turkum so‘zga o‘tishini nomlanish tamoyili sifatida ko‘rib chiqamiz.

Muhokama. Matematik atamalar, asosan, ilm-fan tarixida paydo bo‘lgan va turli madaniyatlar, davrlar va ilmiy kashfiyotlar orqali shakllangan tushunchalar va iboralardir. Matematik terminologiya o‘zining kelib chiqishida qadimgi yunonlardan tortib, arab ilmiy an'analarigacha, keyin esa Yevropa renessansi va zamonaviy matematikaning rivojlanishiga qadar uzluksiz o‘zgarib borgan. Xususan, atoqli otlar sifatida kelgan buyuk olimlarning nomlari matematika ta‘limotidagi terminlarga ham o‘tib, atamalar hisobini boyitib bormoqda. Misol uchun, matematik olim sifatida tanilgan olim Blez Paskal nomi qatnashgan yoki aynan shu nom bilan atalgan matematik atamalar mavjud.

Matematika olamidagi eng nafis ixtirolardan biri - Paskal uchburchagi bor. Paskal uchburchagi birikma sifatida qo‘llaniladi va boshqa bir atamalardan farqli ravishda aynan matematika misollarini oson ishslash yo‘lini targ‘ib qiluvchi uchburchak ko‘rinishidagi jadvalga nisbatan qo‘llaniladi.

### “Pascal uchburghagi”



Bundan tashqari B.Pascal tomonidan yaratilgan Pascal g‘ildiragi deb nomlanuvchi mexanik kalkulyator ham takrorlanmas nomlardan biridir.

Aynan xususiy atama sifatida keltirilgan Pascal dasturlash tilini misol qilib keltiramiz. Pascal (inglizcha: Pascal) - eng mashhur dasturlash tillaridan biri bo‘lib [9] o‘rta maktab hamda universitetlarning birinchi kurslarida dasturlashni o‘rgatishda qo‘llanadi. Ushbu dasturlash tili boshqa bir qator tillar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Pascal imperativ va protsessual dasturlash tili hisoblanadi. Ushbu dasturlash tili dasturlash va ma’lumotlar strukturasidan foydalangan holda yaxshi dasturlash amaliyotlarini rag‘batlantirish uchun kichik va samarali til sifatida ishlab chiqilgan. U fransuz matematigi, faylasufi va fizigi Blez Pascal sharafiga nomlangan. Shu qatorda bir necha misollarni ko‘rib o‘tamiz.

Buyuk alloma vatandoshimiz Abu Ja’far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dunyo ilm-faniga va algoritm atamalarining “otasi”, buyuk matematik, tarixchi, falakshunos, geograf sifatida butun dunyoga mashhur olimningning “Al Jabr val-Muqobala” asaridagi “Al-Jabr” so‘zining yevropacha talaffuzi bo‘lib, o‘zbek tilida tiklash, to‘ldirish ma‘nosini bildiradi. Algoritm - al - Xorazmiy nomining yevropalashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, qadam - baqadam degan ma’noni bildiradi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin: “Pifagor jadvali” nomi Pifagor (mil. avv. VI-asrda yashagan yunon matematikasi) nomidan olingan. Pifagor, asosan, o‘zining mashhur teoremasi bilan tanilgan bo‘lsa-da, ko‘plab matematikani rivojlantirishga katta hissa qo‘shtigan. Pifagor jadvali o’sha davrda ham matematik o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan va vaqt o’tishi bilan uning nomi Pifagor bilan bog‘lanib qoldi.

### “Pifagor jadvali”

.	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	2	4	6	8	10	12	14	16	18
3	3	6	9	12	15	18	21	24	27
4	4	8	12	16	20	24	28	32	36
5	5	10	15	20	25	30	35	40	45
6	6	12	18	24	30	36	42	48	54
7	7	14	21	28	35	42	49	56	63
8	8	16	24	32	40	48	56	64	72
9	9	18	27	36	45	54	63	72	81

“Venn diagrammasi” nomi 1880-yillarda matematik Johann Venn tomonidan kiritilgan. Venn, matematiklar va mantiqchilar uchun to‘plamlar va ularning munosabatlarini tasvirlash uchun diagramma yaratdi. “Eyler” (Euler) nomi esa, diagramma bilan bevosita bog‘liq emas, balki matematik Leonhard Eulerga tegishli. Euler ko‘plab matematik g‘oyalarni rivojlantirgan shaxs bo‘lib, uning nomi turli sohalarda, masalan, graf nazariyasi va to‘plamlar nazariyasida keng qo‘llaniladi.

XULOSA. Matematik terminologiyaning bugungi tili ko‘p jihatdan aniq va universal bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab qo‘llaniladi. Bu o‘z navbatida ko‘plab til va madaniyatlarning hamkorligi va ilmiy ishlanmalarining global rivojlanishini aks ettiradi. Shu tariqa, matematik atamalar tarixan turli madaniyatlarning ilmiy tajribalarini o‘z ichiga olgan va har bir davrning matematik yutuqlarini tasvirlaydigan elementlar sifatida shakllangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, matematik kashfiyotlarga xususiy nom berishda kashfiyotchining o‘z nomidan foydalanishi xalqaro tillarda bir xillikda muqobillashtirilishiga va qolaversa, olimlarning nomi avlodlar tilidan o‘chmasligiga ishora beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” -Toshkent, “O‘zbekiston” 2023, (413 b).
2. A.Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - T., 2002. - 168 b.
3. A.Hojiyev O‘zbek tili so‘z yasalish tizimi.
4. M.E.Jumayev, Z.G‘.Tadjiyeva “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi”. Darslik.Toshkent. “Fan va Texnologiya” 2005
5. R.S.Nuritdinova Onomastik konversiya - apellyativ leksikaning antroponimlarga o‘tish usuli. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi - 5/4 - 2022.
6. I.V.Repyova, Y.V.Zemlina. Umumiyo‘rtatila‘lim maktablarining 4 - sinf darsligi, 1 - 4 qismlar. - Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
7. O‘zbek tili garmmatikasi. 2 - tomli. Toshkent, “Fan”, 1975, 1 - tom, 82 - bet.
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Pascal\\_\(dasturlash\\_tili\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Pascal_(dasturlash_tili)).
9. [https://teletype.in/@terdu\\_df/Hk-XOADoS](https://teletype.in/@terdu_df/Hk-XOADoS).
10. Raximov Shahriyor Normurod o‘g‘li, & Mamatova Durdon Norbek qizi. (2023). THE ROLE OF DIDACTIC GAMES IN MAKING STUDENTS INTERESTED IN MATHEMATICS. *Academia Science Repository*, 4(5), 449–454. Retrieved from <https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/672>



**MUSTAQIL ISH JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOGNITIV  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА РЕДАКЦИОННОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ  
ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ  
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ**

**METHODOLOGY OF EDITORIAL IMPROVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF  
COGNITIVE COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS OF  
INDEPENDENT WORK**

*Raxmanova Maxsuda Usmanovna*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada talabanining o'zi va o'qituvchining, bevosita va bilvosita ishtiroti yordamida kognitiv faoliyatni rivojlanishiga mos keladigan tarkibiy qismlar o'chib berilgan. Talabalarni kognitiv faoliyati ular tomonidan to'plangan ta'limi yutuqlarini o'zlashtirish uchun amalga oshiriladigan shaxsiy faoliyatlari yoki tashqi kuchlar harakatlari tamonidan maxsus tashkil etilgan va o'zlashtirilgan bilimlar yig'indisidir degan xulosaga kelindi.

**Kalit so'zlar:** gnostik, gnostik, perzeptiv, analiz, sintez, kompetensiya, Interaktiv, refleksiv, strategiya, ekspert, mexanizm, model.

**Аннотация.** В данной статье раскрываются структура и компоненты, соответствующие развитию познавательной деятельности при прямом и опосредованном участии ученика и учителя. Познавательная деятельность учащихся специально организуется посредством личной деятельности или действий внешних сил, которые осуществляются для освоения созданных ими учебных и достижений. был сделан вывод, что это совокупность приобретенных и приобретенных знаний.

**Ключевые слова:** гностик, гностик, резервивность, анализ, синтез, комплексный, интерактивный, рефлексивный, стратегия, эксперт, механизм, модель.

**Abstract.** This article reveals the structure and components corresponding to the development of cognitive activity with the direct and indirect participation of the student and teacher. The cognitive activity of students is specially organized through personal activity or actions of external forces, which are carried out to master the educational and

*Raxmanova M.U.,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika  
instituti,  
[raxmanovamaxsuda4@gmail.com](mailto:raxmanovamaxsuda4@gmail.com)*

achievements created by them. It was concluded that this is a set of acquired and acquired knowledge.

**Keywords:** *gnostic, gnostic, redundancy, analysis, synthesis, complex, interactive, reflexive, strategy, expert, mechanism, model.*

Bugungi kunda talabalarning intellektual salohiyatini va axloqiy rivojlanish darajasini, ijodiy faoliyat tajribasini va atrofdagi dunyoga hissiy-irodaviy va qadriyatli munosabat tajribasini o‘zlashtirishni, shuningdek, bilim va idrokka bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu o‘qitishni kognitiv (gnostik) faoliyat sifatida tushunish g‘oyasi asosiy bo‘lib qoladi.

Bunda vazifalarini loyihalash bo‘yicha tajriba ishlarni olib borishda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish yo‘nalishiga biz tashqi va ichki kognitiv faoliyatlarni uyg‘unlashtirish tamoyiliga maqsadimizni qaratdik.

Biz ishimizda talabalarni ichki va tashqi kognitiv faoliyatini rivojlantirish uchun beriladigan topshiriq mavzularida:

- perceptiv (mulohaza yuritish, tinglash, kuzatish, tasvir, og‘zaki tavsif, aytish va boshqalar);
- aqliy, tashqi kuzatilmaydigan harakatlarni (analiz va sintez, aniqlash va farqlash, mavhumlashtirish va umumlashtirish, yo‘naltirish) kabi bilimlarni o‘zlashtirish taklif qilindi;
- mustaqil ish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari perceptiv, tahliliy, sintezli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ish topshiriqlari va innovatsion usullar orqali ustuvorlik berish asosida kengaytirilgan.

Bu bo‘lajak o‘qituvchilarini mustaqil ish jarayonida faoliyati subyektlari sifatida kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishning juda muhim vazifalarini hal qilish imkonini berdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tahlil, analiz-sentiz, taqqoslash, umumlashtirish kabi metodlar faoliyat jarayonida, fikrlashning aqliy kognitiv jarayonlarini yuqori darajada rivojlantirishni talab qiladi, chunki aks ettirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z ustida ishslash va o‘z-o‘zini baholashni amalga oshirish aqliy faoliyat operatsiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari mustaqil ishni tashkil etishning pedagogik jarayonida kasbiy va kognitiv faoliyatini rag‘batlantirish hamda talabalarning subektiv tajribasini hisobga olgan holda o‘zgarmas, o‘zgaruvchan va maqsadli o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘naltiruvchi texnologik bosqichlarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan. Shundan kelib chiqib, biz mustaqil ish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan pedagogik mexanizmlarini amalga oshirish metodikasi va uning strukturasini aniqlashtirdik.

Mustaqil ishlar ta’limning eng muhim metodi bo‘lib, tinglovchilarining mashg‘ulotlarga tayyorlanishdagi, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash jarayonidagi individual faolligini oshiradi.

Mustaqil ish jarayonida talabalarni bilim qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta’limda o‘quv jarayonini tashkil etish jarayonida asosiy omillardan biri sanalib, yangi bilimlarni olish uchun maqsadli va tizimli faoliyat hisoblanib, auditoriyada va audotoriyadan tashqarida amalga oshiriladi.

Mustaqil ish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan pedagogik mexanizmlarini amalga oshirish metodikasi va uning

har bir strukturasi talabalarни mustaqil fikrlash, tahlil qilish, va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Talabalarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim qismi sifatida mustaqil ish jarayonida bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishning bir nechta bosqichlarini ko‘rib chiqamiz:

1-bosqich: Tahlil va rejalshtirish.

Talablarni tahlil qilish: talabalar va o‘qitish jarayonini tahlil qilish, mavjud muammolar va ehtiyojlarni aniqlash; talabalarda kognitiv kompetensiyaning qaysi komponentini rivojlantirish zarurligini aniqlash. Bu bosqichda mavjud bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni tahlil qilish muhim hisoblanadi.

O‘quv rejasini ishlab chiqish: kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun maqsadli va samarali o‘quv rejasini yaratish. Bu reja mustaqil ishlar, topshiriqlar va loyihalar orqali amalga oshirilishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Takomillashtirish uchun strategiyalar va reja ishlab chiqish.

2-bosqich: Rejalshtirilgan o‘zgarishlarni joriy etish.

Yangi metodlar va texnologiyalarni sinab ko‘rish va amaliyotga joriy etish.

Resurslar va materiallarni tayyorlash, resurslar va materiallarni yangilash: ta’lim materiallarini ishlab chiqish; talabalarning mustaqil ishlashini qo‘llab-quvvatlaydigan materiallar tayyorlash, masalan, elektron resurslar, ma’ruzalar, qo‘llanmalar va testlar.

Texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalar va vositalardan (masalan, onlayn platformalar, ta’lim dasturlari) foydalanish orqali talabalarning mustaqil ishlarini qo‘llab-quvvatlash.

3-bosqich: Ta’lim texnikalarini takomillashtirish.

Metodikani takomillashtirish: kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali ta’lim metodlari va texnikalarini ishlab chiqish. Bu bosqichda interaktiv metodlar, muammoli o‘qitish, hamkorlikdagi o‘qish va boshqalar qo‘llanilishi mumkin.

Baholash va feedback: talabalarning mustaqil ishlarining natijalarini baholash va ularga konstruktiv fikr bildirish orqali rivojlanishga yordam berish.

4-bosqich: Tajriba va innovatsiyalarni qo‘llash.

Innovatsion usullarni joriy etish: ta’lim jarayonida yangi metodika va texnikalarni sinab ko‘rish, masalan, gamifikatsiya, projekt-based learning (loyihalarga asoslangan o‘qish) yoki flipped classroom (teskariga sinf) kabi usullar.

Tajriba almashish: o‘qituvchilar va talabalarning tajribalarini almashish, tajribali o‘qituvchilar bilan seminarlar o‘tkazish va tajribalarini baham ko‘rish orqali o‘qitish jarayonini takomillashtirish.

5-bosqich: Natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish.

Natijalarni baholash: yangi pedagogik yondashuvlarning samaradorligini kuzatish va baholash; mustaqil ishlarning natijalarini tahlil qilish va baholash, talabalarning o‘zgarishlarini kuzatish.

Istiqlol rejalar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish: olingan natijalar asosida o‘zgartirishlar kiritish va takomillashtirish; olingan natijalar asosida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va yangi strategiyalar ishlab chiqish.

6-bosqich: Joriy etish va tarqatish.

Yangi pedagogik mexanizmlarni kengaytirish va tarqatish.

Yangi tajribalarни amalda qo‘llash va joriy qilish.

Bu bosqichlar orqali talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmini samarali takomillashtirish va boshqarish mumkin. Har bir bosqich o‘ziga xos vazifalarni va

muammolarni hal qilishni talab qiladi, shuningdek, talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

### 1. Maqsadlar va mazmunni aniqlash hamda rejalashtirish.

Maqsadlarni aniqlash: kognitiv kompetensiyani rivojlantirishdagi aniq maqsadlarni belgilash. Bo‘lajak o‘qituvchilarining intellektual va bilish faoliyklarini rag‘batlantirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil ta’lim olish qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish; muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish, analitik fikrlashni rivojlantirish va kreativ yondashuvlarni qo‘llash.

Vazifalarни aniq belgilash: talabalar uchun aniq vazifalar yaratish. Bu vazifalar tadqiqot, analiz, kreativ yechimlar va muammolarni hal qilish kabi turli ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Mazmunni aniqlash: masofaviy o‘qitish kurslarida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv materiallar, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar.

Rejalashtirish: mustaqil ishning maqsadi, vazifalariga ko‘ra rejalshtirish, loyihalashtirish va natijalarini belgilash.

### 2. Pedagogik jarayon.

1. Talabalarning mustaqil ish haqidagi tushunchalarini aniqlash, nazariy va amaliy bilim olishda kognitiv kompetensiyasini faoliyatini tahlil qilish, mustaqil bilim olish ko‘lnikma va malakalarini o‘rganish asosida ularga bilim olishning ijtimoiy pedagogik ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot berish

Talabalarni mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji va unga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarni o‘rganish kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida mustaqil ish mazmunini ishlab chiqish

Ishlab chiqilgan mustaqil ish mazmuni asosida audatoriyada va audotoriyadan tashqarida mustaqil ta’lim olish o‘quv yuklamalari hamda vaqt meyyorlarini aniqlash

Didaktik jarayonni amalga oshirish maqsadida mustaqilishning tashkiliy shakllari, samarali metod va vositalarini tanlash

Ta’lim maqsadini amalga oshirish uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishga qiziqish va ehtiyojlarini e’tiborga olib, muayyan mavzular bo‘yicha topshiriqlar, ishlanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish

Talabalarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikma va malakalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash vazifalarini ishlab chiqish

Talabalarda mustaqil bilim olishda o‘quv va kognitiv kompetensiyasini rivojlanganlikdagi ko‘nikma va malakalarini shakllanganlik darajasini aniqlash

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik jarayonda kognitiv kompetensiyasini rivojantirishga doir mustaqil ish turlari sifatida quyidagilarni belgiladik:

1. O'quv materialini mustaqil o'rghanish. Bu quyidagi metodika asosida amalga oshiriladi: talabalar o'qituvchilar tomonidan berilgan materiallarni mustaqil ravishda o'rghanadi, ma'lumotlarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi; muayyan mavzular bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni o'qib, ularni tahlil qiladi. Ko'rindiki, mustaqil ta'limming asosiy metodi bo'lajak o'qituvchilar kognitiv faoliyatida adabiyotlar ustida individual ishslash metodidir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim o'quv materialiga oid axborotni topish, unga to'g'ri yondashish va baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

2. Berilgan namunalar bo'yicha mustaqil ishlar. Bunda quyidagi metodika shakllantiriladi: berilgan namunalar bo'yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni ko'rsatilgan namunalar orqali bajarish; turli mashqlarni namuna asosida yechish. Ular berilgan materialni aniq o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faolligini o'stirishga yordam bermaydi.

3. Konstruktiv-variativ topshiriqli mustaqil ishlar. Konstruktiv-variativ topshiriqli mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy bajarishni tavsiflaydi, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masalan, muammoni yechishda mavjud bilimlarni birgalikda qo'llashni ko'zda tutadi.

4. Evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlar. Evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlar ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar hamda seminarlarda qo'yilgan ayrim masala, mashq, muammolarni mustaqil bajarish bilan bog'liqdir. Bunda talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Tanqidiy va kreativ fikrlash: mustaqil ish jarayonida talabalar tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi; ular o'quv jarayonidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, yangi g'oyalar va yondashuvlar yaratadi.

5. Tadqiqot ishlarini bajarish. Bunda ijodiy-tadqiqiy mustaqil ishlar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: talabalar mustaqil ravishda tadqiqot mavzularini tanlaydi va ushbu mavzular bo'yicha ish olib boradi; ilmiy tadqiqotlar o'tkazib, ularning natijalarini tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi.

Ijodiy-tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko'ra olish, uni mustaqil ifodalash, amaliy farazni ilgari surish malakasini, muammoni hal qilish rejasini ishlab chiqadi va uni hal qilishni nazarda tutadi. Ijodiy tadqiqiy ishlarda asosiy vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini ta'minlaydigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatida tayyor namunalardan xoli bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment o'tkazishga, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalashga bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

6. Topshiriqlar va loyihamalar. Topshiriqlar va loyihamalar quyidagicha amalga oshiriladi: talabalar darslarda berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradi, ularni tahlil qiladi va o'z xulosalarini taqdim etadi; loyihamalar yaratish va ularni amalga oshirish, muammolarni hal qilish uchun kreativ va innovatsion yondashuvlarni qo'llash.

7. Amaliyot va tajriba. Amaliyot va tajribani amalga oshirish sxemasi: talabalar mustaqil ravishda laboratoriya ishlarini bajaradi; amaliyot o'tkazadi va o'z tajribalarini tahlil qiladi; o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qiladi.

3. Bo'lajak o'qituvchining kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mustaqil ishni tashkil qilish jarayoni.

Bu vazifalarni bajarishni biz tadqiqotimizda quyidagicha ifodalaymiz.

Birinchi faoliyat – o‘quv topshirig‘ini tahlil qilish. O‘qituvchidan mustaqil ishlash uchun o‘quv topshirig‘ini olgan holda, talabalar dastlab topshiriq matni bilan tanishadi va uni tahlil qilishni boshlaydilar: o‘quv topshirig‘ida berilgan mavjud vazifalarni ustuvorligiga ko‘ra tarkibiy qismlarga ajratadilar;

Ikkinci faoliyat – mustaqil ish jarayonida berilgan o‘quv topshirig‘ini bajarish usulini izlab topish. Topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim qobiliyatlarini talabalarning shaxsiyati bilan taqqoslagan holda uyg‘unlashtirish;

Uchinchi faoliyat – mustaqil ish jarayonida berilgan vazifani bajarish. Talabalar uchun mavjud bilim darajasi, ko‘nikma va malakalar o‘rtasidagi ziddiyatni hamda ushbu vazifani hal qilish uchun zarur darajani shakllantiradi. Belgilangan munosabatlar turi muayyan tasavvurlar shaklida ko‘rinadigan o‘quv topshirig‘ini bajarish usulini, mustaqil faoliyat modelini belgilaydi;

To‘rtinchi faoliyat – mustaqil ish jarayonida bajarilgan topshiriqni tekshirish. Bu bosqichda talabalarni topshiriqni bajarish jarayonidan olib tashlash, unga tashqi tomonidan qarash, natijada mustaqil ish uchun o‘quv topshirig‘ini bajarish usuli sxematik tarzda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi.

Beshinchi faoliyat – mustaqil ishlashtirish vazifasini o‘rganish. Bu bosqichda maqsad va shart-sharoitlarni aniqlashtirish, ular o‘rtasida tizimli va mantiqiy aloqalarni o‘rnatish va ushbu muammoni hal qilish usuli asosida tarkib toptirishni taqoza etadi.

Oltinchi faoliyat – mustaqil ish jarayonida bajarilgan topshiriqning natijasini shakllantirish. Taqdim etilgan harakatlar ketma-ketligini bajarishni nazorat qiladi, talabalarni muayyan natijaga olib keladi, hamda mustaqil ish uchun topshiriqni bajarishda talabalarga tayinlangan shaxsiy ta’lim mahsuloti ekanligini anglatadi.

Yettinchi faoliyat – mustaqil ishda ijro jarayonini tahlil qilish. Bu bosqichda o‘quv topshirig‘i nafaqat ta’lim mazmunini amalga oshirish shakli, balki ta’lim jarayonida o‘quv mustaqil faoliyatining shakllanishini ta’minlaydigan jarayon hisoblanadi.

Ushbu yetti bosqichdan beshtasi majburiydir va har qanday o‘quv topshirig‘ini bajarish jarayonida mavjud bo‘ladi. Qolgan ikki bosqich (o‘quv topshirig‘ini amalga oshirishni tadqiq qilish va tahlil qilish) ixtiyoriy bo‘lib, ko‘p vazifalarni bajarish jarayonida bu amalga oshmaydi.

#### 4. Pedagogik strategiyalar.

O‘qitish strategiyalari: hamkorlikda o‘qitish, o‘quv topshiriqlarini bajarish, tahlil qilish va sintez qilish.

Metodik o‘qitish yo‘nalishlari: mustaqil ishni tashkil qilish shakllari, interaktiv metodlar, o‘quv simulyatsiyalari, loyiha ishlari.

Mustaqil ishni tashkil qilish shakllari: tadqiqot ishlari (talabalarning ma'lum bir mavzu bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishi); loyihamalar (amaliy loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish); ijodiy ish (ma'lum bir mavzu bo‘yicha tahliliy-ijodiy ishlanma yaratish); refleksiya va o‘z-o‘zini baholash (o‘z-o‘zini baholash va tajribalarni yozish uchun jurnallar yuritish).

#### O‘qitish metodlari:

1) Ta’lim olish jarayonida professor-o‘qituvchilar bilan talabalarning birlashtirilgani faoliyatining minimal harakatlarini hisobga olgan holda ta’lim resurslarini mustaqil o‘qishni ta’minlashga qaratilgan metodlar.

Bu metodlar asosida mustaqil ish jarayonida o‘quv dasturdan kelib chiqib, modullar va mavzular bo‘yicha turli xil ta’lim resurslaridan foydalanan nazarda tutiladi. Bunga elektron darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, virtual laboratoriya ishlari, virtual trenajyorlar va boshqa tarmoq orqali taqdim etiluvchi materiallar kiradi.

2) Bir talabaning professor-o‘qituvchi yoki talabaning yakka yoki boshqa talabalar bilan o‘zaro muloqot qila olishidan iborat o‘qitish va o‘qishning individuallashtirilgan metodlari (yakka tartibdag‘i ta’lim metodi).

Bu metodlar mustaqil ish jarayonida telefon, elektron pochta, turli xil mavzudagi forumlar, interfaol hamkorlik qilish dasturlari asosida amalga oshiriladi.

3) Talabalar kommunikatsiyada faol rol o‘ynamaydigan, professor-o‘qituvchi tomonidan o‘quv materialini bayon etishga asoslangan metodlar (bir kishi ko‘pchilikni o‘qitish).

Bu metodlar an‘anaviy o‘qitish tizimiga xos bo‘lib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangicha rivojlanib bormoqda. Masalan, sinf-dars shaklida auditoriyada o‘tkaziladigan ma’ruzalar hozirgi kunda masofaviy o‘qitishda video va vebkonferensiya, vebinlar shakllarida o‘tkaziladigan ma’ruzalarga almashtiriladi.

4) O‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari orasidagi o‘zaro faol aloqa (“ko‘pchilik-ko‘pchilikka” ta’limi)ni tavsiflovchi metodlar.

Bu metodlardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanib borishi bilan bog‘liq ravishda sezilarli darajada o‘sib boradi. Bu metodlar talabalarning kichik guruhlarga bo‘linib birgalikda, hamkorlikda o‘qitishga yo‘naltirilganligi bilan mustaqil ish jarayonida katta qiziqish uyg‘otishga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ushbu metodlar shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish muammolarini yechishni samarali hal etishi mavjud tajribalardan ma’lum.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv faoliyatini rivojlantirish uchun tuzilgan mustaqil ish jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil ta’limning asosiy metodi bo‘lajak o‘qituvchilar kognitiv faoliyatida adabiyotlar ustida individual ishlash metodidir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim o‘quv materialiga oid axborotni topish, unga to‘g‘ri yondashish va baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo‘lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatda zarur bo‘ladigan sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlaydi.

Mustaqil ishni tashkil qilish uchun o‘quv topshiriqlari.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning audatoriyadan tashqari mustaqil ishlari uchun o‘quv topshiriqlari mazmunini ishlab chiqish va amalga oshirish, birinchi navbatda, kognitiv tajribani oshirishga qaratilgan bo‘lib, u faqat ma’lumot hajmini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, balki shaxsiy va professional o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Shu munosabat bilan biz o‘quv topshiriqlarining mustaqil ish jarayonida uch yo‘nalishga ajratamiz: o‘zgarmas, o‘zgaruvchan, maqsadli.

Zamonaviy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda o‘quv topshirig‘i ikki tomonlama ko‘rib chiqiladi. Bir tomonidan, o‘quv topshirig‘i aniq o‘quv maqsadi bilan bog‘liq va uni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘quv topshirig‘i talabalarga qaratilgan eng konsentratsiyalangan o‘quv maqsadidir. Boshqa tomonidan, o‘quv topshirig‘i ta’lim mazmunini amalga oshirish shaklidir. Shu nuqtai nazardan, o‘quv topshirig‘i ma’lum bir shaklda ishlangan, assimilyatsiya qilinadigan ta’lim mazmuni (o‘quv materiallari) qismidir. O‘quv materiallari bilan jihozlanishi mumkin bo‘lgan shakllar ta’lim topshiriqlarining turlari hisoblanadi. O‘quv materiallari bilan jihozlanishi mumkin bo‘lgan shakllar o‘quv topshiriqlarining turlari hisoblanadi.

Haqiqiy ta’lim jarayonida o‘quv topshirig‘i bir vaqtning o‘zida ikkala funksiyani ham bajaradi: talabalarga o‘quv topshirig‘ini bajarishni taklif qilish orqali o‘qituvchi nafaqat o‘rganishning ma’lum bir maqsadini amalga oshiradi, balki o‘quvchiga ular o‘rganishi kerak bo‘lgan o‘quv materialini taklif

qiladi. O'quv vazifasi o'quv jarayonida o'quv materialidan samarali foydalanish vositasi ekanligini ham alohida ta'kidlaymiz. Bizning tadqiqotimizda didaktik maqsadlarga qarab ma'lum o'quv vazifalari (o'zgarmas, o'zgaruvchan, maqsadli) qo'llaniladi.

**O'zgarmas** o'quv topshirig'i – mustaqil ishni bajarish jarayonida dars mavzusini o'rganish uchun standart talablar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Invariant topshiriqlar o'quvchilarga ularning ma'lum bir fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini hisobga olgan holda taqdim etiladi.

**O'zgaruvchan** o'quv topshirig'i – bu bo'lajak o'qituvchilarga mustaqil ishni bajarish jarayonida vazifalarning mohiyatini, harakat darajasini va usulini, qiziqish mavzusini tanlash huquqini beradigan va muammoni optimal hal qilish variantlarini topishga qaratilgan vazifalardir.

Ushbu turdag'i vazifalarning ahamiyati shundaki, ular mavzusini tanlash huquqini beradigan va muammoni optimal hal qilish variantlarini topishga qaratilgan vazifalardir. Ular bo'lajak o'qituvchilarga yaratilgan vaziyatlarda erkin, mustaqil va ijodiy harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan potensial imkoniyatlarini tekshirish va amalga oshirish imkonini beradi.

**Maqsadli** tashkil etilgan mustaqil ish bo'lajak o'qituvchilarning o'zaro bog'liq qadriyatlар va motivlar, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar yig'indisida mujassamlangan kognitiv kompetensiyasini yetarli darajada shakllantirish uchun asosiy talabni amalga oshirishni nazarda tutadi, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kognitiv faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fan modullarni uzlashtirishda xizmat qiladi .

Xulosa qilib aytganda mustaqil ishni tashkil etishda asosiy omil nazariy bilimlarni amaliy vazifalarga uyg'unlashtirishdir, chunki bosqichma-bosqich olib boriladigan mustaqil faoliyat bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda eng yuqori natijalarga erishadi. Shu bilan birga, bunday ishlar tizimli va doimiy bo'lishi nazarda tutiladi. Bu maqsadli vazifalarni amalga oshirishda bo'lajak o'qituvchilarni mustaqil ishlarini loyihalash, modellashtirish, dasturlash, kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi tarkibiy qismlarini amalda tadbiq qilish nazarda tutiladi. Vazifalarni bajarishda tuzilmaviy modulini takomillashtirish, raqamli ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy dasturiy vositalarni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir talabaga alohida moslasha oladigan o'quv materialini yaratish, hamda individual ta'limni loyihalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova Z.A. Zamonaviy o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2016. №5. – 56 b.
2. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 44 b.
3. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 104 b.
4. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003. – 192 b.
5. Azizzodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.



## KIMYO FANINI RAQAMLI TEXNALOGIYALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH METODLARI

## МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ

## METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES AND MODERN APPROACHES

*Sadikov Dilmurod Otamurodovich*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitish metodikasidagi asosiy yondashuvlar, interaktiv o'qitish texnologiyalari va zamonaviy usullar tahlil qilinadi. Kimyo fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilar bilimini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik strategiyalar ko'rib chiqiladi.

**Tayanch so'zlar:** *Virtual laboratoriyalar, PhET platformasi, ChemCollective platformasi, AR/VR (Augmented reality/Virtual reality) texnologiyalari, ChemDraw, Avogadro, va ChemSketch zamonaviy dasturlar.*

**Аннотация.** В данной статье анализируются основные подходы к методике преподавания химии, интерактивные технологии обучения и современные методы. Рассмотрены педагогические стратегии, направленные на укрепление знаний учащихся путем объединения теоретических и практических аспектов химии.

**Ключевые слова:** виртуальные лаборатории, платформа PhET, платформа ChemCollective, технологии AR/VR (дополненная реальность/виртуальная реальность), современные программы ChemDraw, Avogadro и ChemSketch.

**Annotation.** This article analyzes the main approaches, interactive teaching technologies and modern methods in the methodology of teaching chemistry. Pedagogical strategies aimed at strengthening students' knowledge by combining theoretical and practical aspects of chemistry are considered.

**Keywords:** *Virtual laboratories, PhET platform, ChemCollective platform, AR/VR (Augmented reality/Virtual reality) technologies, modern programs ChemDraw, Avogadro, and ChemSketch.*

Kimyo fani tabiatni tushunish, moddalar tuzilishi va ularning xossalari o'rganishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu fan, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarни shakllantirishni ham talab qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash orqali kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirish muhimdir.

Kimyo fanini o'qitishda samarali usullar bilan bir qatorda ko'plab yondashuvlar ham mavjuddir. Bu ta'lilda muhim ahamiyat kasb etadi. Kimyo fanini ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi metodlar keng qo'llaniladi:

**Nazariy yondashuv:** Atom va molekula tuzilishini tushuntirish uchun grafiklar va modellardan foydalanish.

**Amaliy yondashuv:** Laboratoriya mashg'ulotlari orqali kimyoviy tajribalarni o'rgatish. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni real hayotga tatbiq qilishni o'rghanadilar. Laboratoriya ishlari xavfsizlik qoidalarini o'rgatish va o'quvchilarning mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

**Muammoli ta'lim:** O'quvchilarga kimyoviy jarayonlarni tahlil qilish va yechim topish bo'yicha topshiriqlar berish.

**Interaktiv o'quv jarayonlari:** Guruhlarda laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish va birligida ishslash orqali o'quvchilar o'zaro tajriba almashadilar.

**Kross-kuratsiya metodikasi:** Kimyo bilan biologiya, ekologiya yoki fizika o'rtaсидаги bog'liqliklarni tushuntirish.

Kimyo fanini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o'qitish, an'anaviy ta'lim usullarini yanada samarali va interaktiv tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga kimyo fanini o'rghanishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi hamda fan bilan bog'liq murakkab tushunchalarni aniq va soddalashtirilgan tarzda tushunishga yordam beradi. Buning uchun bizlar virtual texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

"Virtuallik" atamasi lotincha "virtualis" so'zidan olingan bo'lib, "muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan", yoki mayjud bo'lmasagan, lekin amalga oshish ehtimoli mayjud bo'lgan jarayon kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu atama inson faoliyatining juda ko'p sohalarida uchraganligi uchun ham uni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarlicha asoslар mavjud[1].

**J.M.Sweeney** PhET va ChemCollective kabi virtual laboratoriylar yordamida o'quvchilarning murakkab kimyoviy jarayonlarni tushunish qobiliyati sezilarli darajada oshirilganligi haqida xabar bergen. Ular virtual muhitni o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali deb ta'riflagan[4].

**L.Vosniadou** virtual laboratoriylarning an'anaviy laboratoriylarga nisbatan samaradorligini tahlil qilgan. U shuni aniqladiki, virtual laboratoriylar vaqtini tejash, ko'proq ma'lumot berish va talabalarning ko'nikmalarini mustahkamlashda samaraliroq[5].

**A.Sarkisov** virtual laboratoriylar orqali har bir o'quvchiga individual tajriba o'tkazish imkoniyatini yaratish mumkinligi haqida fikr bildirgan. Bu yondashuv o'quvchilarning qobiliyatlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarni ishlab chiqishga yordam beradi[6].

Olimlar fikridan shu ma'lumki, kimyo fanidan virtual laboratoriylardan foydalanish o'quvchilarga juda ham samaralidir. Dars sifatini oshirishga xizmat qiladi. Endi, kimyo fanini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitishning asosiy yo'nalishlari va afzalliklari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

**Virtual laboratoriylar.** Kimyo fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari katta o'rin tutadi. Biroq, ayrim holatlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur materiallar yoki laboratoriya jihozlari bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun virtual laboratoriylar va animatsiyalar o'quvchilarga tajribalarni xavfsiz va qulay sharoitda bajarishga imkon beradi. Misol sifatida **PhET** va **ChemCollective** platformalari mavjud. Bu dasturlar kimyoviy reaksiyalarni animatsiya qilish, molekulalar o'rtaсидаги o'zaro ta'sirni vizual tarzda ko'rsatish imkoniyatini beradi. O'quvchilar bu platformalarda kimyoviy reaksiyalarni o'rghanish, atom tuzilishini tasavvur qilish, molekulalarni tahlil qilish va ularning xossalalarini amalda ko'rishlari mumkin.

**PhET** platformasida o‘quvchilar kislota va ishqorlarning neytrallanish reaksiyasini amalga oshirishni ko‘rishlari, molekulaning shaklini o‘zgartirib, yangi moddalar hosil qilish jarayonini kuzatishlari mumkin. Bu kabi vizual animatsiyalar o‘quvchilarga kimyo fanini aniq tushunish uchun imkoniyat yaratadi.

**AR/VR (Augmented reality/Virtual reality) texnologiyalari.** AR (*Kengaytirilgan haqiqat*) va VR (*Virtual haqiqat*) texnologiyalari kimyo o‘qitishida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. AR texnologiyasi yordamida o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan kimyoviy moddalar va reaksiyalarni o‘z qurilmalarida yoki taxta ustida ko‘rishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilar bir nechta molekulalar yoki kimyoviy elementlarni haqiqatdan ko‘ra yaxshiroq tushunishlari uchun o‘z qurilmalarida ularning uch o‘lchovli modellari va harakatlarini ko‘rishlari mumkin.

**VR texnologiyasi** yordamida o‘quvchilar kimyoviy laboratoriyalarni “virtual” ravishda boshdan kechiradilar, bu o‘z navbatida o‘quvchilarga tajriba o‘tkazish va kimyoviy jarayonlarni ko‘rish imkoniyatini beradi. Virtual laboratoriya o‘quvchilarga xavfsiz sharoitda kimyo amaliyotlarini bajarish imkoniyatini taqdim etadi, bu o‘quvchilarni haqiqiy laboratoriya muhitiga tayyorlashda yordam beradi.

**ChemDraw, Avogadro, va ChemSketch** kabi dasturlar kimyoviy molekulalar, reaksiya mexanizmlari va molekula tuzilishini modellashtirishda ishlatalidi. Bu dasturlar yordamida o‘quvchilar molekulalarning tuzilishini yaratib, reaksiya mexanizmlarini vizual ravishda tushunishlari mumkin. Bu dasturlarning interfeysi oddiy va intuitiv bo‘lib, o‘quvchilar uchun o‘rganish jarayonini soddalashtiradi.

Masalan, **ChemDraw** dasturida o‘quvchilar kimyoviy formula yozish, funksional guruuhlar va molekulalar strukturasini ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Bu dasturlar yordamida o‘quvchilar kimyo fanini samarali tarzda o‘rganadilar, chunki ular turli molekula shakllari va reaksiyalarni interaktiv ravishda tahlil qilishadi.

Kimyo fanini o‘qitish uchun masofaviy o‘qish platformalari (Google Classroom, Moodle, Edmodo) orqali o‘quvchilarga tezkor feedback, testlar va laboratoriya ishlarini yuborish mumkin. Masofaviy o‘qish tizimlari o‘quvchilarga darslarni o‘z vaqtida o‘rganish va o‘z bilimlarini mustahkamlash uchun zarur materiallarni taqdim etadi.

Virtual laboratoriyaning afzalliklari [3]:

- 1) interfaolligi;
- 2) maxsus laboratoriya xonalarga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlatalishi (kompyuter mavjud joyda ishlatalish imkoniyati);
- 3) o‘quv muassasasida bajarish mumkin bo‘lmagan yoki real vaqtida kuzatish mumkin bo‘lmagan hollarda obyekt, jarayon va hodisalarining modellashtirilishi;
- 4) Internetdan foydalanib, masofaviy ta’lim asosida topshiriqlarni amalga oshirish imkoniyati;
- 5) reaktivlar yetishmay qolganda;
- 6) hayot uchun xavfli bo‘lgan moddalar bilan tajribalarni bajarishda.

Bundan tashqari, o‘quvchilar onlayn kurslar va video darslar yordamida kimyo fanining murakkab bo‘limlarini o‘rganishlari mumkin. Video darsliklar va onlayn seminarlar o‘quvchilarga kimyo bo‘yicha turli mavzularni mukammal tushunish va mustahkamlash imkonini beradi.

Kimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning samarali usullaridan biri bu gamifikatsiya usuli hisoblanadi. Gamifikatsiya - bu o‘quvchilarni o‘qitish jarayoniga jalb qilishning samarali usuli. Kimyo fanini o‘qitishda turli xil o‘yinlar va interaktiv vazifalar orqali o‘quvchilarni motivatsiya qilish mumkin. Misol uchun, o‘quvchilar kimyoviy elementlarni va ularning xossalalarini eslab qolish uchun “Kimyo o‘yini” yoki “Kimyo viktorinası” kabi gamifikatsiyalashgan vazifalarni

bajarishlari mumkin. Gamifikatsiya yordamida o‘quvchilar kimyo faniga qiziqishlarini oshirib, turli kimyoviy elementlarni va reaksiyalarni o‘rganishga ko‘proq vaqt ajratadilar.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, kimyo fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash orqali bilim olish samaradorligini oshirish mumkin. Virtual laboratoriylar, interaktiv dasturlar va amaliy mashg‘ulotlarni keng joriy qilish, shuningdek, fanlararo bog‘liqlikni tushuntirish ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yondashuvlarni yanada rivojlantirish va keng tatbiq etish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ixtiyorova G., Jo‘raqulova N. Virtual laboratoriyyadagi uch o‘lchovli o‘zaro ta’sirning kimyo ta’limidagi o‘rni. // Pedagogik mahorat. №2, 2020. 146-151 bet.
2. Бердиқулов Р., Алимова Ф., Миркомилов Ш. Возможности компьютерных технологий при изучении основ технологических процессов химического производства. //Вопросы гуманитарных наук. №2(46). – Москва, 2010.
3. Xamidova M. Kimyo fanini virtual laboratoriyalardan va kompyuter dasturlaridan foydalanib o‘qitishning ahamiyati. //Academic research in educational sciences, Volume 2 | ISSUE 8 | 2021, 133-139.
4. Sweeney J.M., Clair St.R. *The Impact of Virtual Chemistry Labs on Learning Outcomes*. //Journal of Chemical Education, 97(4), 1234-1241. –2020.
5. Vosniadou L. *Comparing Traditional and Virtual Laboratories in Chemistry Education: A Meta-Analysis*. //International Journal of Science Education, 40(2), 240-259. 2018.
6. Sarkisov A. *Individual Learning Pathways in Virtual Chemistry Labs*. //Educational Research and Development, 66(3), 89-101. 2019.



## YOSH FUTBOLCHILARDA TEZKOR-KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ БЫСТРОСТИ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF QUICK-POWER QUALITY IN YOUNG  
FOOTBALL PLAYERS

*Safarov Aminjon Sunnatillo o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Maqolada yosh futbolchilarda tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirishning dolzarb muammolari, mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish zarurati, bolalar va o‘smlilar sport maktabidagi mashg‘ulot yuklamalari samaradorligini oshirish hamda tezkor-kuchlilik qobiliyatlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** futbolchilar tayyorgarligi, mashg‘ulot jarayoni, yuklama, sifatlar, tezkor-kuchlilik, usul, vosita, o‘yin harakatlari.

**Аннотация.** В статье описаны актуальные проблемы развития быстросиловых качеств у юных футболистов, необходимость совершенствования тренировочного процесса, рекомендации по повышению эффективности тренировочных нагрузок в детско-юношеских спортивных школах, совершенствованию быстросиловых навыков.

**Ключевые слова:** подготовка игроков, тренировочный процесс, нагрузка, качества, скоростно-силовые качества, метод, инструмент, игровые действия.

**Abstract.** The article describes the current problems of developing quick-strength qualities in young football players, the need to improve the training process, recommendations for increasing the effectiveness of training loads in sports schools for children and teenagers, and improving quick-strength skills.

**Keywords:** training of players, training process, loading, qualities, speed-strength, method, tool, game actions.

### Kirish

O‘zbekistonda futbolning ommaviyligi va unga katta qiziqish borligini, uning aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashdagi va jismoniy tarbiyani yaxshilashdagi muhim ahamiyatini, xalqaro-maydonidagi sport aloqalarini kengaytirishdagi keng imkoniyatlarini e’tiborga olish, futbolni rivojlantirish uchun yordam ko‘rsatish va zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida hukumat doirasida ko‘plab qarorlar qabul qilindi. Mamlakatimizda futbolni rivojlantirish va yuqori mahoratli futbolchilarni tayyorlashga juda katta e’tibor berilmoqda.[1] Lekin terma jamoalarimizning xalqaro musobaqlardagi ishtiroti maqtanarli darajada emas. Bu esa, o‘z navbatida yosh futbolchilarni tayyorgarlik jarayonini ilmiy yondoshgan holda rejalashtirish va yangi usul va vositalarni joriy qilish zaruriyati mavjudligidan dalolat

beradi. Ma'lumki, futbolchining o'yin faoliyati jarayonida kuch va tezlikni qisqa vaqt mobaynida namoyon bo'lishini talab qiladi.[2]

Shuning uchun kuchni tarbiyalash vositalarini tanlashda kuchni namoyon qilishning o'ziga xosligi va sharoitlari qandayligini aniq tasavvur qilish nihoyatda zarurdir. Nisbiy kuchning yuqori darajasi va uning tezkor-kuchlilik sifatlari darajasini oshishiga ta'siri odam bu tezlikni minimal vaqt oralig'idanamoyon qila oladigan tez harakatlardagina samarali bo'ladi. Futbol amaliyotida bu to'p bilan zarba berishda yorqin namoyon bo'ladi.[3-5-6] Shunday holatlar ko'p uchraydiki, oyoq muskullari mashqlangan futbolchilar bunday muskulaturaga ega bo'lmanan futbolchilarga qaraganda kuchliroq zarba berishadi. Balki bu ko'p holatlarda muskullararo muvozanatning rivojlanishi natijasida sodir bo'lar. To'p bilan zarba berishda boldirning orqa qism muskullari to'pga tegishidan avval ishga tushishi kerak, negaki ular boldirning oldingi qism muskullariga halaqit bermasligi lozim[4-7].

Futbol o'yini birinchi navbatda tezkor-kuchlilik sifatlarini talab qiladi, bu shubilan bog'liqliki, o'yinchilar to'p va to'psiz bajariladigan harakatlarda (zarbalar, startlar, sakrashlar, turtishlar) o'zlarining kuchlilik qobiliyatlarini juda qisqa vaqt oralig'ida namoyon qilishlari kerak. Kuchlilik sifatlarini tarbiyalashning asosiy metodlari – qaytarish va seriyali-intervalli metodlardir.

Futbolchining o'yin faoliyati jarayonida kuch qisqa vaqt mobaynida namoyon bo'lishi talab qilinadi. Aynan turli xil sakrash mashqlari (yugurib kelib va joyidan uzoqlikka sakrash, klassik uch tomonlama sakrash, balandlikka va ayniqsa chuqurlikka sakrash) tezkor-kuchlilik sifatlarini oshirish uchun ancha samarali hisoblanadi[8-9]. Futbolchining tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlanishi o'yin usullari samaradorligida katta ahamiyat kasb etadi. Futbolchi amaliyotida odatda kuchni kuchanishlar maksimumining 40-50% i og'irligidan foydalanib tarbiyalash 1-1.5 oydan ortiq olib borilmaydi, bu esa amalda kuchni oshirmasdan muskullararo muvofiqlikning yomonlashuviga olib keladi. Bunday mashg'ulotlarda, albatta, mutloq kuchning oshishi amalga oshadi, lekin ba'zi salbiy ta'sirlardan ham qo'chish mumkin emas. Birinchidan, futbolchining o'z og'irligi oshadi. Ikkinchidan, muskul ichi va muskullararo muvofiqlik yomonlashadi. Bu shu bilan bog'liqliki, og'irlik bilan olib boriladigan mashqlar jarayonida muskulning o'zida morfologik o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Kuchli doimiy ta'sirni his qilib, muskul tolalari bu ta'sirga qarshilik ko'rsatadi.

Nihoyat, erishilayotgan kuchning oshishi o'ziga xos harakatlarni bajarish tezligigaijobiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun kuchni tarbiyalash vositalarini tanlashda kuchni namoyon qilishning o'ziga xosligi va sharoitlari qandayligini aniq tasavvur qilish nihoyatda zarurdir. Nisbiy kuchning yuqori darajasi va uning tezkor-kuchlilik sifatlari darajasini oshishiga ta'siri odam bu tezlikni minimal vaqt oralig'ida namoyon qila oladigan tez harakatlardagina samarali bo'ladi. Futbol amaliyotida bu to'p bilan zarba berishda yorqin namoyon bo'ladi. Shunday holatlar ko'p uchraydiki, oyoq muskullari relefi chiqqan futbolchilar bunday muskulaturaga ega bo'lmanan futbolchilarga qaraganda kuchsizroq zarba berishadi. Balki bu ko'p holatlarda muskullararo muvozanatning buzilishi natijasida sodir bo'lar. To'p bilan zarba berishda boldirning orqa qism muskullari tovon to'pga tegishidan avval ishga tushishi kerak, negaki ular boldirning oldingi qism muskullariga halaqit bermaslin.

Shunday qilib, futbolchilarda tezlik va kuchlilikning organik birligiga erishish uchun va shu bilan koordinatsion imkoniyatlarni yomonlashtirmaslik va chidamlilikni pasaytirmaslik uchun futbolda harakat faoliyati talablariga mos keladigan mashg'ulotlarning usul va vositalaridan foydalanish kerak.

Zamonaviy futbol musobaqalarida raqobatni tobora keskinlashib borishi yosh futbolchilarni xujum va ximoyada yakka jamoa tarzida bajaradigan texnik-taktik usullar yuqori jismoniy tayyorgarlik va kombinatsiyalar shiddatini yanada jadallashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirishda quyidagi mashqlar samara beradi:

- 15 m ga joyidan yugurish,
- yurib kelib 15 m ga yugurish,
- joyidan 30 m ga yugurish,
- 180 m ga maksimal yugurish, joyidan balandlikka sakrash.

Tayyorgarlik jarayonida esa quyidagi bosqichlar alohida ahamiyatga ega.

### ***Birinchi umumtayyorgarlik bosqichi***

Tezkor-kuchlilik sifatlarini takomillashtirish, vositalar:

- ✓ to‘p bilan bajariladigan mashqlar, estafeta, to‘sinni aldab o‘tish, to‘p uzatish, aniq va tez bajarishga erishish;
- ✓ ikki tomonlama o‘yin, hamma sifatlarni rivojlantirish.

### ***Ikkinchchi maxsus tayyorgarlik bosqichi***

Tezkor-kuchlilik sifatlarini takomillashtirish, vositalar:

- ✓ umumrivojlantirish mashqlari;
- ✓ turli vaziyatlardan to‘p bilan startlar, harakat yo‘nalishini o‘zgartirib yugurish, to‘p bilan qayta yugurish, to‘p uzatish, darvozaga zarba yo‘llash, kvadratlar;
- ✓ qisqa, o‘rtalama va uzoq to‘p uzatishlarning turli variantlarini bajarish;
- ✓ chegaralangan vaqtsharoitida maksimal tezlik bilan va turli o‘yin mashqlarida aldab o‘tish.

### ***Uchinchi musobaqa bosqichi***

Tezkor-kuchlilik sifatlarini takomillashtirish, vositalar:

- ✓ umumrivojlantirish mashqlari;
- ✓ to‘p va to‘psiz tezkor-kuchlilik mashqlari, murakkab sharoitlarda yo‘naltirilgan harakat mashqlari. Hamma mashqlar maksimalliga yaqin qiyinchilikda bajariladi.

Tezkor-kuchlilik sifatlarini takomillashtirish, vositalar:

- ✓ URM.
- ✓ o‘yinchilarining kamchiliklari va kuchli tomonlarini hisobga olib ularning mohirligini takomillashtirish (juftliklardagi mashqlar, og‘ir o‘yin mashqlari). Bunda mashg‘ulotlarni davomiyligi 2 soatni tashkil qiladi.

Yuqori malakali sportchilarida maxsus tezkor-kuchlilik sifatlarini rivojlantirish birinchi navbatda zarus nerv va muvofiqlik munosabatlarini paydo bo‘lishi hisobiga sodir bo‘lishi haqida nazariy takliflarni bildirilgan va quyidagilar nazarda tutilgan:

- muskul kuchi muvofiqligi; uning yaxshilanishi ko‘p miqdordagi harakat birliklarini qisqa muddatli ishga jalgan qilishga yordam beradi, alohida muskulning “portlash kuchi” ni oshiradi;
- muskul muvofiqligi; uning yaxshilanishi bilan hamma asosiy yuklamaga dosh berish, muskullarning “portlash kuchi” ning namoyon bo‘lishi kattaligi oshadi.

Tezkor-kuchlilik sifatlarini yaxshilash uchun hamma mashqlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- ✓ O‘ziga xos bo‘lmagan ta’sir ko‘rsatuvchi mashqlar;
- ✓ Berilgan sport turi uchun muskul guruhini rivojlantirishga yo‘naltirilgan analitik mashqlar;
- ✓ Asosiy sport bilimlari doirasida kuchni takomillashtiruvchi mashqlar;

Kuchni tarbiyalashda qarshilikning kattaligiga e’tibor berish va kuchni tarbiyalashda quyidagiasosiy metodlardan foydalnish samarali hisoblanadi:

- ✓ Berilgan harakatda ildamlikni bir butunligicha tarbiyalash;
- ✓ Maksimal harakat tezligini aniqlovchi faktorlarni analitik takomillashtirish;

Tezkor-kuchlilik sifatlarini takomillashtirish metodlari haqidagi savolga to‘xtalib, tayyorgarlikning boshlang‘ich bosqichida har tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi tezkor-kuchlilik mashqlaridan foydalanish

taklif etiladi, keyinchalik esa mashg'ulotlar ancha ixtisoslashgan yo'naliш kasb etadi, o'zining xarakateri va formasi bo'yicha asosiy mashqlar spetsifikasiga yaqinlashadi.

Maxsus tezkor-kuchlilik sifatlarini tarbiyalash jarayonida ikki masala hal etiladi:

- spetsifik muskul guruhining tezkor-kuchlilik potensialini oshirish;
- asosiy mashqlarni bajarishda undan foydalanish darajasini oshirish.

Maxsus kuchni rivojlantirish:

- uzoqlikka to'p tepish, to'p uchun kurashga to'pni kiritish. Tezlikni rivojlantirish uchun davomiyligi 5-10 sek bo'lgan, uzlusiz va maksimal tezlik bilan bajariladigan maxsus mashqlarnitaklif etadi (joyida yugurish, yugurgandek qo'l harakatlarini bajarish);
- bundan tashqari, yugurishdagi tezlik mashqlari va kuchni rivojlantirish mashqlarini (shtanga bilan) birgalikda olib borish taklif etiladi.

Harakat tezligini oshirishda turli mashqlar:

- joyida ikki oyoqda sakrash, o'tirib turish (bukilgan tizza bilan) va yuqoriga sakrash.
- oldinga va orqaga ikki oyoqda sakrash.
- joyidan uzoqlikka to'xtamasdan sakrab borish va hokazolar.

Musobaqa jarayonini to'g'ri qurish uchun sezilarli yugurish jadalligiga va birinchi navbatda maksimal tezlik bilan yugurishni oshirishga e'tibor berish zarur. Kuch tayyorgarligiga kelganda esa, mualif shtanga bilan olib boriladigan sistematik mashqlarni taklif etadi. Bu mashqlar futbolchi harakatlari va uning harakatlari samaradorligini oshirish xarakteriga mos tanlanadi. Futbolchilarni jismoniy tayyorlashning vositalari orasida birinchi o'rinni kuchni rivojlantirish mashqlari egallaydi deb hisoblaydi. Butun yil davomida futbolchilarni tayyorlash mashg'ulotlarida kuchni va tezlikni har tomonlama rivojlantirish va shu bilan jismoniy tayyorgarlik vositalari hisobiga ularni tanlash imkoniyatlarini ancha kengaytirish uchun kuch va tezkor-kuchlilik mashqlaridan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.

Yengillashtirilgan og'irlilik bilan olib boriladigan mashqlarni bajarishda esa aksincha, ko'proq muskul koordinatsiyasi takomillashadi, negaki harakatlar davomiyligi musobaqa harakatlariga nisbatan kamayadi, alohida muskullar quvvati esa pasayadi, shuning uchun shunday metodlardan foydalanish zarurki, bular futbolchi harakatlarining spetsifik tarkibi sharoitlarida tezkor-kuchlilik sifatlarining alohida parametrlarini sintetik, analitik va variant sharoitlarda ancha samarali rivojlantirishga imkon bersin. Tezkor-kuchlilik xarakteridagi mashqlarni quyidagi tartiblarda bajarish tavsiya qilinadi:

- Mashqlar davomiyligi 10 sek gacha;
- Intensivlik – maksimal;
- Qaytarishlar soni 6-7, birinchi seriyada 5-6 qaytarish;
- Dam olish intervali mashqlardan so'ng 1-2 min, mashqlar orasida 3-5 min.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mashg'ulotlarning yillik sikli tarkibida o'quv-mashg'ulot mashqlarining katta hajmini (har oyda 90% gacha) maxsus (to'p bilan) mashqlar bilan olib borilishiga e'tibor qaratilishi, yosh futbolchilarning tezlik va tezkor-kuchlilik sifatlarini tarbiyalash nuqtai-nazaridan har doim ham ma'qullanmaydi. Bunda futbolchilarni yil davomidagi ko'p musobaqalarda ishtiroy etishini hisobga olsak, o'quv-mashg'ulotlarida tezkor-kuchlilik sifatlarini oshirishga doimiy e'tibor qaratish zarur.

Pedagogik tajriba natijalari tahlili shunday xulosa qilishga imkon beradiki, kuchni rivojlantirishning asosiy spetsifik vositasi kuch mashqlari hisoblanadi. Ularningbarchasi og'irlashtirish turidan kelib chiqib, uch guruhga bo'linadi:

–tashqi og‘irlashtirishlar bilan mashqlar (shtanga, turli xil jismlar, sherik, trenajermoslamalari va h.k.); tashqi og‘irlashtirishni me’yorlashda amaliyatda yo maksimal og‘irlashtirishdan foizda, yo oxirgi chegaragacha qaytarish soni – ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi;

–o‘zining gavdasini og‘irligida og‘irlashtirilgan mashqlar;

–o‘zini qarshiligi bilan mashqlar, odatda statik tartibda antagonist – muskullarni irodaviy kuchlanish bilan aksentlashtirilib namoyon bo‘lishi.

Tezkorlik qobiliyatlarini majmuaviy ko‘rinishda rivojlantirish uchun esa uch guruh mashqlar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq: tezlik reaksiyasini rivojlantirish uchun foydalaniladigan mashqlar; alohida harakatlarni tezkorligini rivojlantirishchun foydalaniladigan mashqlar, jumladan, turli xil qisqa bo‘laklada (10 m dan 100 m gacha) harakatlanish uchun ham foydalaniladi; portlash xarakteridagi tavsiflanadigan mashqlar.

Futbolchilar tayyorgarligining tezkor-kuchlilik va texnik-taktik tomonlariga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatish uchun quyidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

### Amaliy tavsiyalar

- to‘plar ustidan sakrab o‘tish va havoda bosh bilan zarba berishni taqlid qilish (10 dona, masofa 1 m), ikki oyoqda besh martadan, chap va o‘ng oyoqda almashlab bajarish;
- baryerlar ustidan sakrab o‘tish va havoda bosh bilan zarba berishni taqlid qilish (10 dona, masofa 1.5 m), ikki oyoqda besh martadan sakrash bilan;
- keyinchalik yuqoriga sakrash bilan 40-60 sm balandlikdan “chuqurlikka” sakrash, va havoda bosh bilan zarba berishni taqlid qilish (10 marta bir seriyada);
- iloji boricha tezroq masofani bosib o‘tishga intilib, uzoqlikka oyoqdan oyoqqa sakrash (30-40 m masofada);
- keyinchalik yuqoriga 10-15 marta ketma-ket sakrash bilan shtanga bilan o‘tirib- turish;
- yelkada shtanga bilan ikki oyoqda 10-15 marta ketma-ket sakrash;
- 30 m yoki undan uzoq masofadan ko‘rsatilgan maqsad bo‘yicha to‘p uzatish (boshga, ko‘krakka, qoringa, boldirga, sheringining oyog‘iga va hokazo);
- sakrashdagi passiv va faol qarshilik bilan bosh bilan o‘ynash – 10-15 marta;
- to‘ldirilgan to‘plarni boshidan uzoqlikka uloqtirish (2-3 kg), bir seriyada 10 martadan (joyidan- turib, o‘tirib, yugurib kelib);
- turli o‘lchamdagisi to‘g‘ri to‘rtburchaklarda 2x2, 3x2, 4x4 o‘yin mashqlari – 10-15 minutdan.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib, yosh futbolchilarning tezkor-kuchlilik tayyorgarligi darajasini oshirish uchun yuqorida tavsiya etilgan mashqlar samarallekanligini aytish mumkin.

### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida ularning har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashiga, sog‘lig‘ini mustahkamlash mutanosib rivojlanishiga, xilma-xil ko‘nikma va malakalarni egallab olishiga, futbol o‘yini texnikasi va taktikasining boshlang‘ich asoslarini o‘rganishiga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtdagi vazifasi, avvalo, yosh futbolchilarning harakat funksiyalarini (kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillik), shuningdek o‘z harakatlarini vaqt oralig‘ida (havoda va mushaklarning zo‘r berishi darajasiga ko‘ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy komponentlaridir) shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e’tibor berish kerak. Chunki bolalik va o‘smyrlilik yoshida ana shu eng muhim jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir. Yosh futbolchilarning kuch imkoniyatlari umumiylashtirish uchun ko‘proq takroriy zo‘r berish uslubi qo‘llaniladi. Bu

uslubda mushakning nisbatan ko‘p ishlashi modda almashinuvini anchagina yaxshilaydi. Bundan tashqari, takroriy zo‘riqishuslubidan foydalanganda, haddan tashqari kuch sarflash ehtimoli kamayadi.

13-14 yoshda og‘irliklar bilan ishlashda maksimal darajada zo‘riqishga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuning uchun og‘ir jismning optimal vaznni aniqlashda yosh futbolchining maksimal imkoniyatlarini emas, balki uning shaxsiy og‘irligini e’tiborga olish kerak. Og‘irliklar bilan bajariladigan mashqlardan tashqari, mashg‘ulotlarda juft-juft bo‘lib va guruhli ravishda qarshilik ko‘rsatib bajariladigan mashqlardan, snaryadda ijro etiladigan gimnastikadan, harakatli o‘yinlar va hokazolardan foydalaniladi. Kuchni oshirishga oid u yoki bu mashqning murakkabligi har bir alohida holda shug‘ullanuvchilarning yoshi va tayyorgarligiga qarab belgilanadi. Sport tayyorgarligi bosqichida futbolchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda asosiy yuklama tushadigan mushaklar guruhini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Turgan gapki, bunda sportchining butun gavda mushaklarini mustahkamlash borasidagi ishlar to‘xtatilmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘sishma chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-115 sonli Qarori.
2. Choriyev D.I. Physical performance in the annual cycle of the preparatory period of training of qualified football players. //Eurasian Journal of Sport Science 2024; 1(2): 203-206 <https://eajss.uz>.
3. Нуриров З.Р. Основание эффективных средств совершенствования групповых тактических действий квалифицированных футболистов. –Т., 2004.
4. Беляков А.К. Особенности подготовки юных футболистов Методи-ческое пособие. –М.: ФГБУ «Федеральный центр подготовки спортивного резерва», 2012. – 80 с.
5. Choriyev D.I. 13-14 yoshdagи futbolchilarda optimallashtirilgan texnik tayyorgarlikning maxsus harakat sifatlariga ta’siri. //Integration of science and education. november 2024 ISSN: 2992-9210.
6. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. – Ташкент: “Абу-Али-Ибн-Сино”, 2000. – С. 135.
7. Лугенов Э.А. Техническая подготовка юных футболистов 10-12 лет. – Екатеринбург, 2019.
8. Антипов А.В. Эффективность методики развития скоростно-силовых способностей и выносливости у юных футболистов 12-14 лет в процессе годичного тренировочного цикла [Текст]/ А.В. Антипов // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2014. – №4. – С.37-39.
9. Голомазов С.В. Футбол [Текст] / С.В. Голомазов. – М.: “Спорт Академ Пресс”, 2014. – 216-281 с.



## THE USE OF GAME-BASED LEARNING TO DEVELOP STUDENTS' ORAL SPEECH SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

**INGLIZ TILI DARSALARIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTIQ  
KO'NIKMLARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN O'YINGA ASOSLANGAN TA'LIMDAN  
FOYDALANISH**

*Samanova Shakhlo Baxtiyarovna*

**Abstract.** This article explores how game-based learning can enhance English language classes. The article highlights the various ways in which games can promote active learning, collaboration, and flexibility in language classes, as well as the value of immediate and personalized feedback through games. Additionally, the article emphasizes how games can provide a fun and engaging way to learn English, which can enhance students' motivation and retention of the language. Overall, this article underscores the potential of game-based learning in promoting a more effective and enjoyable learning experience of the English language.

**Keywords:** Game educational technology, oral speech skills, English language classes, engagement, motivation, confidence, fluency, instant feedback.

**Аннотация.** В этой статье рассматривается, как игровое обучение может улучшить занятия по английскому языку. В статье освещаются различные способы, с помощью которых игры могут способствовать активному обучению, сотрудничеству и гибкости на занятиях по языку, а также ценность немедленной и персонализированной обратной связи через игры. Кроме того, в статье подчеркивается, как игры могут обеспечить увлекательный и интересный способ изучения английского языка, что может повысить мотивацию и удержание языка студентами. В целом, в этой статье подчеркивается потенциал игрового обучения в содействии более эффективному и приятному обучению английскому языку.

**Ключевые слова:** игровые образовательные технологии, навыки устной речи, занятия по английскому языку, вовлеченность, мотивация, уверенность, беглость, мгновенная обратная связь.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tili darslarini o'yining asoslangan ta'larning afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, chet tili darslarida o'yinlar yordamida tilni faol tarzda va hamkorlik asosida o'rGANISHNING turli usullari, va darslarda o'yin muhitini yaratishning

**Samanova Sh.B.,**  
Lecturer of Uzbekistan State  
World Languages University  
[shaxlosamanova@gmail.com](mailto:shaxlosamanova@gmail.com)

ahamiyati ta'kidlangan. Bundan tashqari, maqlolada o'yinlar ingliz tilini qiziqarli tarzda o'rganishda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi oshirishiga urg'u beradi. Umuman olganda, ingliz tilini yanada samarali va qiziqarli o'rganish tajribasini targ'ib qilishda o'yinga asoslangan o'rganish imkoniyatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'yin ta'lif texnologiyasi, og'zaki nutq ko'nikmalari, ingliz tili darslari, faoliyat, motivatsiya, ishonch, ravonlik, tezkor fikr-mulohaza.

## Introduction

Learning English language is an important aspect of education. Oral speech skill is an essential part of communication for anyone who wants to use English in a variety of contexts. Many students struggle with developing strong oral speech skills, but using game educational technology in English language classes can provide an engaging and effective means of development. However, using this method presents a socio-pedagogical problem that requires careful consideration and management to ensure that all students benefit from the experience.

## Literature review

The use of game educational technology in English language classes is not without its challenges. It requires a lot of planning and organization to create activities that are both engaging and educational. In addition, some students-may be more naturally inclined to participate in games, while others-may need extra encouragement or assistance [1].

Another challenge of using game educational technology in English classes is the potential for distraction. While games can be a great way to engage students and facilitate learning, they can also be a source of distraction if not used carefully. Teachers must ensure that games are used appropriately and that they are not a distraction from the learning objectives of the lesson.

Furthermore, there are socio-economic factors that must be considered when using game educational technology in English language classes. Not all students-may have access to technology outside of the classroom, which puts them at a disadvantage compared to their peers. Teachers must ensure that all students have an opportunity to participate and that no students are excluded because of their socio-economic status [1].

Despite the challenges, the use of game educational technology in English language classes can be an effective means of developing oral speech skills. When implemented effectively, game-based learning engages students and motivates them to participate. It also provides opportunities for students to practice their English language skills in a fun and engaging way.

## Research methodology

To ensure that game-based learning is used effectively, teachers must carefully plan and organize their lessons. They must select games that are appropriate for their students' level of English proficiency and that align with the learning objectives of the lesson. In addition, teachers must ensure that all students have access to the necessary technology and that the games are used in a way that supports their learning.

## Result and analysis

To address the socio-economic factors, teachers can provide alternative methods for students without access to technology outside of the classroom. For example, they can provide additional

opportunities for in-class participation or assign homework that does not require technology. Game educational technology can help in developing oral speech skills in English language classes in several ways.

Firstly, games can provide an engaging and motivating environment for students to practice their oral speech skills. When students are invested in a game, they are more willing to participate and take risks in speaking. This, in turn, helps to build their confidence and fluency in speaking English.[7]

Secondly, games can be specifically designed to target oral speech skills. For example, a game that requires students to give instructions or describe a picture can help to develop their ability to use descriptive language and give clear directions. Similarly, a game that involves debate or discussion can help to develop students' critical thinking and argumentation skills, which are essential for effective oral communication [2].

Thirdly, games can provide an opportunity for interaction and collaboration among students. By playing games together, students must communicate with each other and cooperate to achieve a common goal. This can help to develop their interpersonal skills and ability to work in a team, both of which are important in oral communication.

Moreover, game educational technology provides instant feedback to students. As they play, they receive immediate information about their performance in the game, which can help them to identify areas for improvement and to adjust their speaking accordingly. This feedback can be particularly helpful for developing pronunciation, intonation, and fluency.

Furthermore, game educational technology can be adapted to meet the needs of individual students. Teachers can provide individualized feedback to students, based on their performance in the game, and provide targeted practice exercises to help them improve their specific areas of weakness [4].

Game-based learning can enhance English language classes in several ways:

1. Engagement and motivation: Games can create an entertaining and immersive learning environment that can keep the students motivated and focused on learning the English language.

2. Active learning: Games encourage students to be active participants in their learning. They learn by doing, instead of just listening, reading, or writing. This can make learning English more enjoyable and memorable.

3. Practice: Games can provide ample opportunity for practice. English language learners can practice their skills in a safe and supportive environment, such as a game, before they transfer them to the real world.

4. Feedback: Games provide immediate and personalized feedback, which can be a powerful learning tool. Students can learn from their mistakes and improve their English language skills. Feedback can also be tailored to the learner's level of proficiency [3].

5. Collaboration: Games can promote group learning and collaboration. English language learners can work together to solve problems and complete tasks that require communication and cooperation.

6. Flexibility: Games can be customized to fit the needs of learners at different levels of proficiency. Teachers can provide adaptable games that cater to a range of learners' abilities and needs.

7. Improves retention: Since games are fun and engaging, students are likely to remember information presented in the game long after they have played. This can lead to better retention of knowledge and reinforcement of language skills [6].

Game-based learning has many advantages that can enhance English language classes. From engagement and motivation to personalized feedback and flexibility, games have the potential to provide a fun and effective way to learn English.

## Conclusion

In conclusion, game educational technology can be an effective means of developing oral speech skills in English language classes. By providing an engaging and motivational environment, specifically designed to develop oral speech skills, and instant feedback, it can help students to build their confidence and fluency in speaking English, develop critical thinking and argumentation skills, work on their interpersonal and team-working abilities, and improve their pronunciation, intonation, and fluency.

The use of game educational technology in English language classes is a valuable means of developing oral speech skills, but it presents a socio-pedagogical problem that must be managed effectively. Teachers must carefully plan and organize their lessons to ensure that games align with the learning objectives of the lesson, are appropriate for the students' proficiency levels, and are used in a way that supports learning. They must also address socio-economic factors by providing alternative methods of participation for students without access to technology outside of the classroom. With careful management, game educational technology can be a valuable tool for developing oral speech skills in English language classes.

## References

1. DeHaan, J. (2005). The effects of multiplayer online role-playing games on English second language learners' motivation and speaking skills. *ReCALL*, 17(02), 249-262.
2. Garris, R., Ahlers, R., & Driskell, J. E. (2002). Games, motivation, and learning: A research and practice model. *Simulation & gaming*, 33(4), 441-467.
3. Katayama, A. D. (2014). Digital gaming + language learning = increased effectiveness. In *Handbook of research on educational communications and technology* (pp. 485-497). Springer, New York, NY.
4. Lee, J., & Hammer, J. (2011). Gamification in education: What, how, why bother?. *Academic exchange quarterly*, 15(2), 1-5.
5. Miller, M. A. (2018). The impact of game-based learning on the development of language proficiency in English language learners: A synthesis of emerging research. *Journal of Research on Technology in Education*, 50(3), 240-259.
6. Papert, S. (1998). Does easy do it? Children, games and learning. *Game Developer*, 5(4), 31-37.
7. Prensky, M. (2003). Digital game-based learning. *Computers in Entertainment (CIE)*, 1(1), 21-21.
8. Sánchez-Castro, V. & Mora-Gutiérrez, J. (2016). Enhancing educational strategies with gamification: Online, collaborative and mobile scenarios. In *Handbook of research on emerging technologies for effective project management* (pp. 1-29). IGI Global.
9. Sarimsakova D. M. Developing the sociolinguistic competence of future English teachers through the use of case studies //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – C. 54-65.
10. Sarimsakova D. Communicative competence as a result of elf teaching and learning //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – C. 166-169.



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛARNI TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH METODIKASI

TO CHILDREN'S FINE ARTS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS TEACHING

ДЕТСКОМУ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ДОШКОЛЬНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ ОБУЧЕНИЕ

*Shavqiyev Elyor Raxmonberdiyevich*

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lism tashkilotlarining oldiga-yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Bu esa hozirgi vaqtida maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko'rsatib berilgan. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni tasviriy san'atga o'rgatish metodikasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *ta'lim-tarbiya, tasavvur, tayyorlov guruh, tasviriy faoliyat, yartuvchanlik, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san'at asarlari.*

**Abstract.** The achievement of independence of the Republic of Uzbekistan placed before preschool educational organizations an important task - to form citizens of a new democratic state. This is currently the types of visual activities in pre-school educational organizations, their content, the development of mental, moral, aesthetic education in children in the process of visual activities, the qualities of the will - to complete the work that has been started, to set a goal in front of it, and strive to achieve it, understanding of such characteristics as overcoming difficulties and helping one's friends is shown. Also, in this article, it is mentioned in detail about teaching children to visual arts in pre-school educational organizations.

**Keywords:** *education, imagination, preparatory group, visual activity, creativity, artistic creativity, painting, aesthetic sense, works of art.*

**Аннотация.** Достижение независимости Республики Узбекистан поставило перед дошкольными образовательными организациями важную задачу – формирование граждан нового демократического государства. В настоящее время это виды изобразительной деятельности в дошкольных образовательных организациях, их содержание, развитие умственного, нравственного, эстетического воспитания у детей в процессе изобразительной деятельности, качества воли - к завершению начатого дела, ставить перед собой цель и стремиться к ее достижению, показано понимание таких особенностей, как преодоление трудностей и помочь друзьям. Также в данной статье подробно говорится о приучении детей

*Shavqiyev E.R.,  
Samaraqand davlat  
universiteti  
Kattaqo 'rg'on filiali,  
Pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)  
[elyorshavqiyeve@gmail.com](mailto:elyorshavqiyeve@gmail.com)*

к изобразительному искусству в дошкольном возрасте. Школьные образовательные организации.

**Ключевые слова:** воспитание, воображение, подготовительная группа, изобразительная деятельность, творчество, художественное творчество, живопись, эстетическое чувство, произведения искусства.

**Kirish.** Bolalarni san'atga oshno qilish, ularga go'zallik tuyg'usini singdirish ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqoal talabalarida maktabgacha yoshdag'i bolalaming tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilishning maqsad va vazifalari, badiiy faoliyat qobiliyatlari va ijodini tarbiyalash, oilada va maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilish usullari, rasm chizish, loy ishi, applikatsiya va qurish-yasashga o'rgatish usullari, tasviriy san'at bilan tanishtirish metodikasi haqidagi bilimlarini boyitishga yordam beradi.

O'lsib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mayjud muammolarni hal etish ta'lif va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lif-tarbiyaning mohiti mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha tarbiya tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

**Adabiyotlar tahlili.** "Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi" o'qitishiga doir eng qadimgi va o'rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, qadimgi Rim) ma'lumotlar va ularning xarakteri. Tasviriy san'at o'qitish metodikasini rivojlantirishda uyg'onish davri rassomlarining xizmatlari (Ch. Chennini, Alberti, Leonarlo da Vinchi, A. Dyurer). XVII-XIX asrlarda g'arbiy Evropada rasm chizish va chizmachilikni o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlar. XVIII-XIX asrlarda Rossianing pedagogika o'quv yurtlarida tasviriy san'atning o'rni. I.D.Preysler, A.G.Sapoynikov, G.A.Gipiuslarning tasviriy san'at o'qitish metodlarining rivojlanishidagi ro'li. I.A.Rastovsev, A. A. Kuzin, I.Beda, A.Suxomlinskiy, B.Neminskiy, Sakulina, Kamorova va boshqalarning pedagogik qarashlari. O'zbek olimlaridan R.Hasanov, S.Bulatov, S.Abdurasulov, H.Egamov va boshqalarning tasviriy san'atni o'rgatish uslublari.

Sharq miniatyura maktablarining rivojlanishi va ularning uslublari. Kitoblarga bezak ishslash maktabi (K.Beqzod). O'zbekistonda XX asr boshlarida tasviriy san'atni o'qitilishi. O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitilishining shakllanishi. XX-XI asrda tasviriy san'atning zamonoviy turlari va yangiliklar. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash. Tasviriy san'at o'qituvchilarini o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi. [9.3]

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda bolalarning aqliy, estetik rivojlanishi uchun maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlab shug'ullanish zarurligi isbotlab berilgan. Tasviriy faoliyat bilan, jumladan applikatsiyalar bajarish bilan ham umumta'lif mакtablarining boshlang'ich sinflarida o'rinli foydalanish imkoniyatlari juda ko'p. Buni boshlang'ich sinflarning darsliklarini tahlil qilish orqali ko'rish mumkin.

Applikatsiyalardan texnologiya fani o'qituvchilarini to'garak faoliyatlarida foydalanishlari, ayniqsa, noan'anaviy applikatsiya turlaridan foydalanishi o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyalarini rivojlanishib, estetik didlarini yuqori darajaga ko'taradi. [10.5]

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan 2022-yilda pedagoglar Sh.I.Botirova, M.S.Achillovalar hammullifligida chop etilgan "Maktabgacha ta'lifda tasviriy faoliyat"

nomli o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan edi. Hozirgi kunda ushbu qo‘llanma pedagogika oily o‘quv yurtlarida Tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi fanini o‘qitish, uning imkoniyatlari, afzalliklari, ushbu fanni o‘qitishda qo‘llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar tavsifi, Tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi fanini o‘qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish masalalari, ushbu fanni o‘qitishga doir qimmatli metodik taklif va tavsiyalar, g‘oya va yo‘nalishlarni o‘zida mujassamlagan manba bo‘lib, fan o‘qituvchilari uchun metodik ko‘mak berib kelmoqda.

Tasviriy faoliyatga o‘rgatish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning mazmuni va ko‘lami kelgusida yanada oshib borishiga shubha yo‘q.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuga doir muhim metodologik hujjat – “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” yangi jamiyat poydevorini barpo etishdek g‘oyat ulkan va ezgu maqsadni qo‘yan bo‘lib, uning to‘rtinchi va beshinchi ustuvor yo‘nalishlarida belgilangan maqsadlar pirovardida ma’naviy tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, ushbu jarayonni eng zamonaviy shakl va uslublarda tashkil etishni nazarda tutadi. [1.1]

O‘zbekiston hukumatining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzlucksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3] hamda 2020-yil 6-iyuldagagi Tadqiqot olib borilayotgan faoliyat va texnologiyalarni bolalarda qay darajada o‘zlashtira olish va ularni bu faoliyatni o‘zlashtirishdagi qulayliklar va qiyinchiliklarni o‘rganishdan keyingi ta’sir qilishini tahlil qilish uchun 13 ta ilmiy maqoladan iborat korpus yaratildi. (4 tasi boloalarga tasviriy faoliyatni o‘rgatishda kelib chiqadigan muammolar va 9 tasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatdan foydalanishning afzalliklari bo‘yicha maqolalar). Yig‘ilgan maqolalar 2019-2023-yillar oralig‘ida xalqaro va milliy akademik jurnallarda chop etilgan. Bu maqolalar tahlil qilindi va qiyosiy tahlil olindi.

**Tahlil va natijalar.** To‘plangan materiallar o‘rganilish natijasida tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga ega ekanligi afzalliklari bo‘yicha tahlil qilingan ilmiy maqolalar bolalarga tasviriy faoliyatni o‘rgatishda kelib chiqadigan muammolarga qaratilgan maqolalarga qaraganda ko‘proq jalb qilish kontingentiga tayanadi. Ikkala o‘rganish natijalari bo‘yicha mualliflar Bolalarga tasviriy faoliyatni o‘rgatish jarayonida umumiy bilim va tajribalarga tayangan holda yosh bola bilan muloqot qiladi ammo tasviriy faoliyatini an‘anaviy ravishda o‘qitishga qaraganda ushbu maqolada qo‘llangan metodlardan qo‘llash tarbiyachi e’tiborni faol ravishda yo‘naltiradi va sharhlar orqali ularga bevosita murojaat qiladi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda bolalarga tasavvurni kengaytirish, tasviriy faoliyatni va va yaratuvchanlikni oshirish oson va qulaydir.

O‘zbekistonda sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonining pirovard maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun bizning mamlakatimizda umumiy o‘rtta ta’lim maktabi bir butun tarbiya jarayonining bosh bo‘g‘ini sifatida qaraladi, boshqacha aytganda, maktab butun bir tarbiya tizimida asosiy o‘rin tutadi. Bola maktab ostonasini bosib o‘tgan kundan boshlab rejalashtirilgan tarbiyaviy ta’sir doirasiga kiradi, shu kundan e’tiboran “murg‘ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi”.

Respublikamizda maktabgacha ta’lim tizimini qaytadan qurish borasida olib borilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar, amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar ertangi kunimiz, qolaversa, kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yorqin ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorining ikkinchi paragrafida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniyligi jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ushbu konsepsiyasida Maktabgacha yoshdagi bolalarни intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

So'ngi yillarda respublikamizda ta'lim tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, uzlusiz ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

Bunda bolalarda vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyojkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tasviriy faoliyat bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi bolalarda tevarak atrofga nisbatan qiziqishni uyg'otish estetik munosabatni tarbiyalash, ijodiy qobiliyat va tasvirlashni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, ilmiy-nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy san'at bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy san'at bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy san'at mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo'lsada, ularni bir yo'naliş, maqsad bo'yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o'ziga xos ko'rinishlardagi tasviri) birlashadilar. Tasviriy san'at bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdag'i mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi lozim. Tasviriy san'at bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog'i lozim. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari – bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha guruhlarida aniq bir vaqtida, kun tartibi asosida uyushtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga bo'linadi:– mashg'ulotning boshlanishi-topshiriqni tushuntirish; – mashg'ulotning borishi-topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi; – mashg'ulotning yakuni–bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rasm faoliyatini san'at markazlarida rejalashtiriladi.

Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ularish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazzam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rasm chizishga o'rgatish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushslash va qog'oz ustida yuritishga o'rganadi. Lekin bu prosessda rivojlanmaydi, bola

qalamni to‘g‘ri ushlashni bilmaydi, tarbiyachi asta sekin to‘g‘ri ushslashga odatlantiradi, bolani bajarayotganligini emas balki, qalamning harakatini uning uchi bilan qog‘oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to‘g‘ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog‘oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqlar asta sekin murakkablashadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san’at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish, maktabda esa tasviriy san’atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san’at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, aplikatsiya, qurishyasash mashg‘ulotlari hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keltirilgan faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyatlari bilan uzviy ravishda olib boriladi

Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyatlarda, qalam hamda mo‘yqalamdan erkin foydalanishga o‘z xarakterini va qo‘l kuchini idora etishga o‘rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo‘lini yengil, erkin bir tekisdagi xarakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proportsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo‘nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakatlanishga o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo‘llarini rejalahtirishga o‘rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko‘rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o‘sadi va bu orqali maktabda o‘qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar, ularning oziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko‘rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari muhim pedagogik ahamiyatga ega ilmiy maqolalar mualliflari tomonidan juda ko‘p murojat qilingan bo‘lib, aksariyatida tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagি bolalarga o‘rgatish juda qulay, har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga ega ekanligi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarga tasviriy faoliyatni tushuntirishdagi qulayliklar tasavvur qilish, chizish va yasashni o‘rgatish jarayonida muhim ahamiyati ko‘rsatilgan bu esa o‘z o‘rnida global bilimlarni rivojlantirish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2022-yil 29-yanvar. 06/22/60/0082-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020-yil 3-yanvar. 09/20/391/0777-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni O‘RQ-637-coh 23.09.2020. 8-moddasi.
5. “Maktabgacha ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” //Xalq so‘zi gazetasi 30.09.2020.



6. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. –Toshkent 2018-yil ( Maktabgacha talim vazirligi).
7. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish” //Science and Education” Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1.
8. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. –T.: //Tafakkur bo‘stoni, 2013.
9. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. –T.: “Cho‘lpon”, 2010.
10. Xaydarova M.D. Applikatsiya ishlarini bajarish metodikasi. – BuxDU, 2022.

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA EKSKURSIYALARING IMKONIYATLARI

### ВОЗМОЖНОСТИ ЭКСКУРСИЙ В ОБУЧЕНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

### OPPORTUNITIES OF EXCURSIONS IN TRAINING FUTURE PRIMARY TEACHERS

*Shodiyev Narzikul, Shadiyev Rustam*

**Annotasiya.** Maqolada talabalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha uyuştiriladigan mavzuli va kompleks ekskursiyalar obyektlarini tanlash, tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish metodikasi bilan bog'liq professor-o'qituvchilar faoliyati qaralgan. Unda OTM boshlang'ich ta'lim yo'nalishi fanlari bo'yicha mavzuli va fanlararo ekskursiyalar obyektlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekskursiya, kompleks ekskursiya, metodika, ma'naviy tarbiya, tasavvuf.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы, связанные с педагогической деятельностью преподавателей по подбору объектов тематических и комплексных экскурсий, методикой их организации, подготовкой и проведением экскурсий по духовному воспитанию студентов. В нём представлены объекты тематических и комплексных экскурсий по предметам учебного плана педвуза.

**Ключевые слова:** экскурсия, комплекс экскурсий, методика, духовное воспитание, масаввүф.

**Abstract.** the article examines issues related to the pedagogical activity of teachers in selecting objects for thematic and complex excursions, methods for organizing them, preparing and conducting excursions on the spiritual education of students. It presents objects of thematic and complex excursions on subjects of the curriculum of the pedagogical university.

**Keywords:** excursion, complex of excursions, methodology, spiritual education, sufism.

O'quv predmetlari bo'yicha tarixiy va madaniy yodgorliklarga uyuştiriladigan ekskursiyalarning asosiy maqsadi talabalarni buyuk ajdodlarimizning insoniyat taraqqiyotiga, xususan, diniy va dunyoviy ilmlar, ma'naviyat va ma'rifatning yuksalishiga qo'shgan ulkan hissalarini, temuriylar va boburiylar tomonidan yaratilgan o'zbek davlatchiligi, ular tomonidan barpo etilgan muhtasham obida (madrasa, rasadxona, ansambl va h.k.)lar bilan tanishtirish orqali ularda hayratlanish his-tuyg'ularini, ezu maqsadlarga, ma'naviy yuksalishga intilishni, pirovard natijada, sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirishdir. Respublikamizdagi ilg'or oliy o'quv yurtlari tajribalarini o'rganish shundan dalolat beradiki, kafedra o'qituvchilari talabalarni ma'naviy shakllantirish bo'yicha o'zlarining amaliy faoliyatlari samarasini oshirishda faqat mavzuli ekskursiya, bunda alohida bir o'quv predmetining

xususiy masalalari, uning tarixiylik prinsipga asoslanganma'naviy yo'naltirilganligini kuchaytirish va kompleks bir vaqtning o'zida bir necha fanlarning ma'naviy tarbiyaviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan kompleks ekskursiyalar, balki talabalarga tarixiy obidalar, madrasalar, maqbaralar, ansamblar, muzeylar va h.k. haqida umumiy tasavvurlar berish, buyuk tariximizning turli davrlarida hukmdorlarning ularga bo'lgan munosabatlari hamda mustaqillik yillarda ularni ta'mirlash, yangi eksponavtlar bilan to'ldirish, boyitish, yo'qolib ketganlarini qayta tiklash bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati haqida tasavvurlar beradigan tanishtirish ekskursiyalarini o'tkazmoqdalar.

Oliy ta'lim muassasi (OTM)da o'quv yurtlarida mo'ljallanadigan ekskursiyalar talabalarga ta'lim va tarbiya berish bo'yicha o'z vazifasini to'g'ri va samarali bajarishi ko'p jihatdan uni tashkil etish, tayyorlash va o'tkazishning obdon o'ylangan ma'lum tizimi shakllanganligiga bog'liq. Mazkur tizimni ishlab chiqish uchun nafaqat kafedra, predmet o'qituvchilar, balki kafedralar orasida butun professor-o'qituvchilar jamoalarining o'zaro aloqalarini kuchaytirish zarur.

Ayni paytda nafaqat ijtimoiy-gumanitar o'quv fanlari, balki umum kasbiy va maxsus fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiquvchi yetakchi mutaxassislarining fan asoslari bo'yicha ekskursiyalar uyushtirish masalasiga munosabat hali shakllanmagan, desak xato bo'lmaydi. Chunki, ayrim o'quv predmetlari hisobga olimmaganda, aksariyat ko'pchilik predmetlar bo'yicha o'quv dasturlarida mutaxassis kadrlar bilim, ko'nikma, malaka saviyasini oshirishga, ularni tayyorlash sifatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishiga qaramay ekskursiyalarining o'rni hanuzgacha aniqlanmagan.

O'quv dasturlarini ishlab chiqishdagi ushbu kamchiliklar hamda ekskursiyalarni tashkil etish, tayyorlash va o'tkazishda hal qilinishi lozim bo'lgan metodik vazifalarning turli-tumanligi va murakkabligi, shubhasiz, kafedra professor-o'qituvchilar o'rtasida ma'lum qiyinchiliklar to'g'diradi. Ekskursiyani tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish jarayonida talabalarni ma'naviy shakllantirish vazifasini hal qilish qo'shimcha muammoni vujudga keltirishini yoddan chiqarmasligimiz kerak.

Talabalarni ma'naviy shakllantirishga yo'g'irilgan ekskursiya yuqori samara berishi uchun unga yetarli darajada tayyorgarlik ko'rish zarur. Ya'ni, ekskursiya o'zining yuksak ma'naviy tarbiyaviy ahamiyatini kasb etishi uchun, unga oddiy vaqt o'tkazish va oddiy ko'ngil ochar sayr qilish deb qaramasdan, balki juda yaxshi tayyorgarlik ko'rish zarur. Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olib ekskursiya obyektini tayyor etish, uni o'tkazish bo'yicha o'qituvchining asosiy faoliyat turlari namoyon qilindi.

Tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklar, muzeylar va h.k. ga uyushtiriladigan ekskursiyalarni yaxshi tayyorlash uchun kafedra professor-o'qituvchilaridan ekskursiya obyektlarining barcha jihatlarini eng kichik tafsilotlarigacha oldindan yaxshi o'rganishni taqozo etadi. Shu boisdan ham kafedralar o'qituvchilar ekskursiyaning maqsadini ifodalagach, uni tayyorlash va o'tkazish rejalarini tuzadilar, mazkur ekskursiya obyektida tamosha qilish (ko'zdan kechirish)ga alohida e'tibor berishlari zarur bo'lgan tarixiy, moddiy va madaniy ashyolar (bezaklar, taqinchoqlar, naqshlar, davlatlararo diplomatik hujjalilar, xattotlik namunalari va h.k.) ni aniqlanishi, bevosita ko'rish-kuzatish qiyin bo'lgan yoki muloqotga kirishib bo'lmaydigan predmet, hodisa va tarixiy jarayonlarning qaysi muhim jihatlariga va qanday qilib e'tibor berish kerakligi, bunda ta'limning qaysi usullaridan foydalanishni maqsadga muvofiqligi, ekskursiya marshruti bo'yicha qaysi bir obyektda talabalarga ular haqida eksponavt, nodir topilmalar, moddiy ashyolar haqida gapirib berish va ularni ko'rsatishni o'zi kifoya qilishi, boshqasida esa ularni kuzatish barobarida ekskursiya boshlovchisi bilan talabalar o'rtasida albatta savol-javob tariqasida suhbat o'tkazishga ehtiyoj borligi oldindan aniqlab olinadi. Bu ekskursiyaga tayyorgarlik

ko‘rishning bir tomoni bo‘lsa, uning ikkinchi tomoni talabalarni ekskursiya obyektlarini idrok etishga, tushunishga hamda fan asoslari bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni amalda tekshirib ko‘rishga, pirovard natijada ularning mazkur fanlarga bo‘lgan qiziqishini hamda ma’naviy ehtiyojini qondirishga intilishini o‘stirishdir. Shu boisdan ham professor-o‘qituvchilarning ekskursiyaga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha faoliyatida o‘quv fani dasturi asosida ekskursiya obyektini yanada batafsilroq, chuqurroq yoritishga qaratilgan o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning naqadar to‘liq va to‘g‘ri bajarilganligini nazorat qilish masalalari alohida o‘rin egallashi kerak. Boshqacha aytganda, ekskursiyalar jarayonida talabalar erkin xarakat qilishlari va faoliyat ko‘rsatishlari uchun qulay sharoit yaratish joiz.

O‘qituvchi (ekskursiya boshlovchisi) ekskursiya obyektlari haqidagi ma’lumotlar mazmunini shunday bayon qilishi hamda talabalarga beriladigan o‘quv topshiriqlarni shunday tanlashi kerakki, u bo‘lajak o‘qituvchilarni mantiqiy mushohada yuritishga undashi, mustaqil fikrlash hamda o‘rganilayotgan hodisa, jarayon, predmetlarga o‘z qarashlarini bayon etish uchun imkoniyat yaratishi lozim.

Respublikamiz oliy o‘quv yurtlari kafedralari o‘qituvchilar pedagogik faoliyatlarini tahlili va ekskursiyalar obyektlariga yuqorida ko‘rsatilgan talablarni hisobga olish asosida tarixiy obidalar, me’moriy binolar kabi moddiy va ma’naviy qadriyatlarimizga uyuştiriladigan ekskursiyalar ma’lum tizimga solindi. Jumladan, “Boshlang‘ich ta’lim va tarbiya, sport” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejaga kiritilgan “Pedagogika nazariyasi va tarixi” kursining mavzulari bo‘yicha “Mahmudxo‘ja Behbudiy haykali va uning muborak nomi berilgan viloyat pedagogik xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti” ga; “Alisher Navoiy muzeyi”ga; “Matematika”, “Matematika va uni o‘qitish metodikasi”, “Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi” [9] fanlari bo‘yicha “Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi va uning muzeyi” ga kompleks ekskursiya; “Mehnat ta’limi va uni o‘qitish metodikasi”; “Ona tili”, “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi” predmetlari bo‘yicha xalq milliy hunarmandchilik markazi, kulolchilik, kashtachilik sexlariga kompleks ekskursiyalarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar ma’naviyatini shakllantirish vazifasini samarali xal qilish uchun o‘quv rejaga kiritilgan boshqa umumkasbiy va maxsus fanlar uchun ham ekskursiya obyektlarini obdon o‘ylab, to‘g‘ri tanlab olish juda muhimdir.

Respublikamiz ilg‘or professor-o‘qituvchilarining tajribalarini o‘rganish va umumlashtirish hamda ma’naviy mazmun berilgan ekskursiyalarini tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha ishlab chiqqan ishlanmalarimiz asosida ekskursiya obyektlarini tanlashga doir asosiy talablar ishlab chiqilgan. Ushbu talablar majmuasiga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Ekskursiya obyektlari mamlakatimizda o‘zligimizni anglash bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy qoidalari asosida unitilib ketgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarimizni izlab topish, qayta tiklash hamda rivojlantirish bo‘yicha misli ko‘rilmagan ishlarni amalga oshirilayotganligini namoyish qilishi; yurtimizda xalqimizni ayniqsa, yoshlarni tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘rganishga ehtiyoji o‘sayotganligi tufayli ma’naviyatimiz negizi bo‘lmish islom dini axkomlari, uning ta’limotini Turkistonda astoydil targ‘ibot qilgan azizavliyolar, fozilu-olimlar, mangu orom topgan joylar-qabriston, masjid va ziyoratgoh joylarni ta’mirlash, obodonlashtirish, ko‘rkamlashtirish bo‘yicha amaliy ishlar hajmini oshib borayotganligini ko‘rsatish; dunyo musulmonlarining 90 foizi uchun Qur’ondan keyingi eng mo‘tabar va asosiy manba hisoblanmish “Al-Jome as-sahih” [4] asari muallifi Imom Ismoil al-Buhoriy yurtimiz farzandi ekanligini ko‘rsatish; islomda g‘oyaviy va nazariy parokandalik boshlanib, son-sanoqsiz oqimlar, firqalar paydo bo‘la boshlagan davrda yangi sharoitga moslab yaratilgan Kalom ta’limotining vatani bizning yurtimiz

ekanligini ko‘z-ko‘z qilish; respublikamiz dunyo bozoriga o‘zining sifatli, raqobatbardosh maxsulotlari bilan chiqishiga imkon beradigan korxona, kompaniya, fabrika, fermer xo‘jaliklar va h.k. ko‘lamini tobora oshib borishini talabalarga muntazam ravishda ko‘rsatib borish.

Kafedra professor-o‘qituvchilari navbatdagi ekskursiyaga tayyorgarlik ko‘rishganlarida birinchi galda ekskursiyaning maqsadi va bevosita talabalar o‘rganishi lozim bo‘lgan obyektlarni aniqlashi, so‘ngra ekskursiya o‘tkazish marshruti va rejasini ishlab chiqishlari kerak. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” kursining Shayx Yusuf Hamadoniyning shogirdi, uning ta’limotini turkiy zabon targ‘ibotchisi bo‘lmish “Ahmad Yassaviy xikmatlarining ahloqiy-ma’riifi ahamiyati...” [8] mavzusi bo‘yicha Chokardiza qabristonida mangu orom topgan tasavvuf tariqatining yetuk peshvosi Shayx Yusuf Hamadoniq qabriga uyushtiriladigan ekskursiyaning maqsadi: Tasavvuf olamida Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya nomi bilan olamshumul shuhrat byterlari, tariqat maktablarining tamal toshini qo‘ygan Shayx Yusuf Hamadoniy komil insonga, islom dinining yetuk ulamosiga, shariat qoidalarining buyuk himoyachisiga, tariqat yo‘lining asoschisiga xos ibrat olsa arziyadigan xislatlari bilan bakalavrлarni tanishtirish orqali ularning qalbini qamrab olish, talabalarni ma’naviy yuksaklikka ko‘tarishdan iborat.

Ushbu ekskursiyaning talabalarni ma’naviy shakllantirish bo‘yicha samaradorligini yanada oshirish maqsadida unga kafedra o‘qituvchisi rahbarligida talabalar ekskursiya obyektni chuqur o‘rganishlari hamda o‘zlarini qiziqtirayotgan masalalar bo‘yicha qo‘srimcha materiallar to‘plash uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rislari zarur bo‘ladi. Shu bois o‘qituvchining bu sohadagi faoliyatlaridan biri- bu talabalarga qo‘srimcha, o‘quv dasturidan tashqari, savollarni o‘rganish uchun Shayx Yusuf Hamadoniyning juda kam o‘rganilgan va jumboqli sohalarini, Samarqand shahridagi faoliyati bo‘yicha adabiyotlarni taqdim etishidir. Shu bois o‘qituvchi buyuk pir Yusuf Hamadoniyning to‘rtinch shogirdi Abduxoliq G‘ijduvoniy hazratlarining “Maqomati Yusuf Hamadoni” [1]. risolasini, M.Abramovning “Samarqand qabristonlari” risolasi [2]ni, prof. Orif Usmonning “G‘ijduvoniy ta’limoti” risolasi [8], Abu Toxir Hojaning “Samariya”, mulla Abdulhojaning “Kandiya” kitoblarini, sho‘rolar hukmronligi davrida nashr qilingan “O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi”[13]da Ahmad Yassaviy tariqati mazmun-mohiyatiga noobyektiv baho berish bilan bog‘liq materialni hamda Abduholiq G‘ijduvoniy risolasidan “Hidoyat” jurnalining 2003-yil 3-sonida nashr qilingan parchalarni o‘qib, o‘rganib qo‘srimcha bilimlar egallashni talabalarga tavsiya qilish joiz.

Kafedra professor-o‘qituvchisi, ekskursiya boshlovchisining Chokardiza qabristoni va unda tariqatning buyuk peshvosi Shayx Yusuf Hamadoniy hoki qo‘yilgan qabr tarixi to‘g‘risida keyingi vaqtarda ommaviy matbuotda boshlangan bahs-munozara materiallari haqida axborot berishi jarayonida ham turkiy ham forsiy zabon xalqlar yashaydigan hududlar xalqlari orasida tasavvuf tariqatini yoyish bo‘yicha buyuk hazrat va uning shogirdlarining qilgan xizmatlarini qanday bayon qilishini ham talabalarning ekskursiya boshlovchisi bilan muloqotini tashkil qilishni ham, ularga beriladigan topshiriq va savollarga mustaqil ravishda javob topishlarini ham nazorat qilib borish, zaruriyat tug‘ilganda talabalarga tezlik bilan yordam ishlarini ham boshqarib borishi zarur.

Talabalarga mustaqil bajarish uchun beriladigan o‘quv topshiriqlari va savollar sirasidan ayrim namunalarni keltirish mumkin:

- Chokardiza qabristoni qachon va aziz yurtimizning qaysi ulug‘ farzandi masjidi yonida tashkil qilingan?
- buyuk Shayxning tasavvuf matabiga muridlarni tanlash, tarbiyalash, komillikka yetkazishning o‘ziga xos usullari, talablari nimada namoyon bo‘lgan?
- ulug‘ hazrat qaysi shogirdi qulida va mahallada jon bergen?
- Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanida ul zotning qaysi shogirdi dafn qilingan?

- Alisher Navoiy o‘zining qaysi asarida Xoja Yusuf Hamadoniy vafoti munosabati bilan “Marv azimatiga murojaat qilganda, yo‘lda besh yuzi o‘ttiz beshta favt bo‘ldi va andani favt bo‘ldi dafn qildilar va necha vaqtidan so‘ngra Marvga naql qildilar va mozori Marvdadur” degan so‘zlarni bayon qilgan?
- Xoja Yusuf Hamadoniy tariqatining asosiy qoidalarini birma-bir yozib oling va ularning mazmun-mohiyatini yozma ravishda bayon qiling;
- o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy mafkurasida va ma’naviyatida tasavvuf, naqshbandiya qanday buyuk rol o‘ynaganligini yoritib bering (jamoa bo‘lib bajariladi);
- ulug‘ zotning shaxsiy fazilatlari, aqliy zakovatlari, mehnatsevarligi, sevgan kasbi va h.k. haqida ma’lumotlar to‘plang, tizimlashtiring va ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar kiriting;
- avtoritar tizim davrida dinni davlat siyosatidan ajratib qo‘yilishi tufayli bizning mafkuramizda, ma’naviyatimizda va milliy pedagogikamizda qanday salbiy oqibatlar sodir bo‘ldi?
- Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov qaysi asarida dinning jamiyat hayotidagi betakror ahamiyati [5] haqida qanday fikr bildirgan?

Talabalarda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni o‘z faoliyatlarida amalga oshirayotgan kafedra o‘qituvchilari o‘zları o‘qitayotgan predmetlar bo‘yicha ekskursiyalarni mutnazam ravishda o‘tkazish maqsadida ishchi dasturlariga har bir kurs bo‘yicha uyuştiriladigan ekskursiyalar soni va obyektlarini o‘quv yili boshlanishidan ancha avval qayd qilib qo‘yadilar. Ekskursiya obyektini tanlashda bir tomondan talabalarga unda o‘rganilayotgan aniq maqbara, mavzoley, madrasa, ashyo, xalqimiz aql-zakovati bilan yaratilgan diniy va dunyoviy asarlar, miniyatyura san’ati namunaları, mehnat predmetlari, uy-ro‘zg‘or predmetlari, qurol-aslaha, fizik va astronomik asbobolar, stanok, mexanizm va h.k. eksponavtlar misolida o‘quv predmet mavzusini mazmunini namoyon bo‘lishini ko‘rsatish bo‘lsa, ikkinchi tomondan mustaqillik yillarida tashlandiq joylardagi masjidu-madrasalarni muqaddas qadamjolarga aylantirish, tiklangan, ta’mirlangan tarixiy obidalar, o‘zbek xalqiga mansub bo‘lgan mustabid davrida talon-taroj qilingan asoru-atiqalar uzoq xorijning nufuzli kutubxonalari va muzeylarida saqlanib, hozirgi kunda esa tarixiy vataniga qaytarilgan, qaytarilishi kutilayotgan intellektual boyliklarimizning asl nus’halari bilan yuzlashtirishni ko‘zda tutadi. Faqat shunga erishgandagina ma’naviy mazmunga yo‘g‘irilgan ekskursiyalar talabalarga xalqimizning boy moddiy va ma’naviy qadriyatları, takrori yo‘q o‘tmishi, mustaqillik yillarida, tarixni yangi bosqichda o‘zligimizni qayta anglash bo‘yicha asrlarga tatigulik ishlarni hamda istiqbolimizning manguligiga asos bo‘lgan ma’lumotlarni Samarqand, Toshkent va Shahrisabzda Amir Temurga haykal o‘rnatalishi, Toshkentda “Temuriylar davlat muzeyi” ni barpo etilishi, Samarqandda Amir Temurning muborak nomi bilan ataladigan-maydonni vujudga kelishi, Urganchda va Termizda “Avesto”, “Alpomish” kabi buyuk asarlarimizning hamda qadimiy shaharlarimizning yubileyalarini o‘tkazish bo‘yicha asrlarga tatugilik ishlarni hamda mamlakatimizning kelajagi buyuk bo‘lishini, uni jahon hamjamiyati mamlakatları orasida tobora mustahkam o‘rin egallashini ta’minalash bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yaratuvchilik ishlarni, jahon andozalari darajasida mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar (Toshkent aviasozlik, Asaka avtomobilsozlik, Buxoro neftni qayta ishlash va h.k.) lar misolida ko‘rsatish mumkin.

Respublikamiz oliy o‘quv yurtlari faoliyatida ekskursiyalarni tashkil etish, o‘tkazish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan deb bo‘lmaydi. Buning asosiy sabablardan biri- bu oliy o‘quv yurtlarining deyarli barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida ekskursiyalarni tashkil etish va o‘tkazish masalasi ularning tuzuvchilari tomonidan asossiz ravishda chetlab o‘tilganidir. Shu bilan bir qatorda ekskursiyalarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishda talabalarni ma’naviy shakllantirish masalasini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Jumladan,

ekskursiyani tashkil etish, o'tkazish jarayonida talabalarning diqqat e'tibori moddiy madaniy yodgorliklar, badiiy san'at namunalari asori-atiqalar, nodir buyumlar bilan tanishishga jalg qilinib, talabalarga ularni yaratgan ota-bobolarimizning aql-zakovati, mehnatsevarligi, go'zallikka intilib yashaganliklari, irodasi, matonatini, bir so'z bilan aytganda ma'naviyatini o'rgatish esa ikkinchi darajali ish deb qaralmoqda.

Ba'zan tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganishni juda oddiygina jarayon deb tushunishadilar. Buni faqat yodgorlikni o'rganish deb ataydilar. Ammo, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni yaratishga jazm qilgan ajdodlarimizning, faqat ularning namoyondalarini emas, balki barcha xalqimizning aql-zakovati, mehnatsevarligini, go'zallikka intilib yashaganligini, irodasini, jasoratini o'rganishning ahamiyati bundan oz emas. Bu o'rganish talabalar ma'naviyatini shakllantirish uchun ma'lum darajada imkoniyat yaratib bergenligi uchun ham bu o'rganishning ahamiyati juda muhimdir.

Kafedra professor-o'qituvchilarining talabalarni ma'naviy shakllantirish bo'yicha faoliyatlarini takomillashtirish maqsadida o'zları o'qitayotgan predmetlar bo'yicha o'tkazilayotgan ekskursiyalarda turli metodik uslublardan foydalanishga intilishlarini tabiiy bir hol deb qarashi lozim. Jumladan, tarixiy va madaniy yodgorliklarga hamda mustaqilligimizning abadiyligini kafolatlovchi ulkan inshoat, zavod, fabrika, kommunikasiya tarmoqlariga va h.k. uyuştiriladigan ekskursiyalarda ushbu maqsad uchun quyida keltirilgan uslublardan foydalanish juda asqotadi:

- tarixiy va madaniy yodgorliklar hamda mustaqillik yillarda eng zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan zavod va fabrika, kommunikasiya tarmoqlarida fan asoslarining o'rmini izchil ko'rsatib berish;

- ekskursiya obyektlarida mashg'ul bo'lgan barcha xodimlardan, nafaqat kichik mutaxassislardan, balki muhandis hamda rahbar xodimlarning bilim, malakasi va ijodiy qobiliyatlariga talablarni to'xtovsiz o'sib borayotganligini his etish uchun talabalarga zarur sharoitlar yaratish;

- ekskursiya uyuştirilgan har bir tarixiy obida va har bir madaniy yodgorlik misolida respublikamizda milliy tiklanish prinsiplari asosida amalga oshirilgan, oshirilayotgan hamda istiqbolda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan amaliy ish rejalarini hamda bu sohada boshlab yuborilgan sa'y-harakatlarni talabalarga izchil ko'rsatib borish;

- ekskursiya obyektlarida tarixiy-me'moriy va madaniy yodgorliklar, insoniyatning turli davrlarda ularni yaratishdagi o'ziga xosliklari, me'mor, quruvchi, hunarmand, naqqosh, zargarlar va h.k. mehnatining umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlari va h.k. ni talabalarga alohida-alohida ko'rsatish uchun bunga dahldor predmetlarning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yish va b.q.

- unutilib, yo'qolib ketgan va ketayotgan yodgorlik, obidalarni qayta tiklash, xalqimizga, ayniqsa yosh avlodga ateistik zo'ravonliklar ko'rsatilgan davrda vayronalarga aylangan yodgorliklarni asli qadimiy holiga keltirish bo'yicha boshlangan ishlarga talabalarni, ayniqsa amaliy va tasviriy san'at, mehnat ta'limi yo'nalishidagi bakalavrлarni individual jalg qilish va h.k.

Ma'lumki, mutaxassis tayyorlashda, yuqorida ta'kidlanganidek, turli kafedralar ishtiroy etadi. Shu boisdan ham o'quv rejasida ko'zda tutilgan fanlar bo'yicha bir-biri bilan bog'liq predmetlarning ayrim mavzu va savollarini qayta-qayta o'rganishni oldini olish hamda u yoki bu jarayon, hodisa, predmet va h.k. ni turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganish maqsadida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish jarayonida ham predmetlararo, kafedralararo bog'lanishlarni hisobga olishni yoddan chiqarmaslik kerak.

Predmetlararo, turkumlararo bog'lanishlarning uzluksizligini ta'minlashda u yoki bu predmet o'qituvchisini tayyorlashning, o'quv kurslarining, ularni bo'lim va mavzularining mantiqiy-tuzilish sxemasini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'iladi. Buni amalga oshirishda N.Shodiyev tomonidan talabalarni

maktabda kasbga yo'naltirish ishiga tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan metodikadan [12] foydalanish asqotadi.

Shunga ko'ra, "Boshlang'ich ta'lim..." yo'nalishi bo'yicha "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani [9]. mavzulari bo'yicha ekskursiyalarning aniq obyektlarini tanlash, tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida 1-kursda o'rganiladigan "Ona tili", "Psixologiya", "O'zbekiston tarixi" kurslari bo'yicha rejalashtirilgan, o'tkazilgan ekskursiyalar natijalarini hisobga olgan holda ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. Chunki, mazkur fanlar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" kursini o'rganishda ta'minlovchi predmetlar hisoblanadi. O'z navbatida "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fani "Mehnat o'qitish metodikasi", "Ona tili o'qitish metodikasi", "Matematika o'qitish metodikasi" va h.k. fanlarining, mos ravishda, tegishli mavzu va savollari uchun ta'minlovchi fan bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida bayon qilinganlar bilan birgalikda kafedra professor- o'qituvchilarining talabalarni ma'naviy shakllantirish bo'yicha pedagogik faoliyatlarida akademik guruh murabbiylari bilan ma'naviyat soatlarida, ma'naviyat kunlarida uyushtiriladigan ekskursiyalarni tayyorlash va o'tkazishda hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki, umumkasbiy va maxsus fanlarga ajratilgan soatlar doirasida, hamda talaba va o'qituvchilarning vaqt byudjetini cheklanganligi tufayli bakalavrлarning o'zbek xalqi tomonidan bizga meros qilib qoldirilgan barcha tarixiy va madaniy yodgorliklarga ekskursiyalarni uyushtirish imkoniyati yo'q.

Miloddan avvalgi 313-235-yillarda yashab ijod etgan buyuk xitoy faylasufi, Konfusiyning izdoshi Syui Szi o'z shogirdlariga: "Avvalo yuz bergen narsalar albatta takrorlanib turadi. Bu takrorlanish doimiydir", - deya uqtirar ekan.

Xulosa qilib aytganda milliy tiklanish g'oyasi asosida respublikamizda amalga oshirilayotgan, asrlarga tatigulik yaratuvchilik ishlari zamirida ma'naviyatimiz, iqtisodiyotimiz va o'zbek davlatchiligi tobora yuksalib borayotganligini, O'zbekiston kelajagi buyukligiga mustahkam poydevor solinayotganligini, uni dunyodagi barcha davlatlar bilan teng, o'zaro hamkorlikka asoslangan siyosat olib borayotganligini kuzatish beixtiyor ulug' xitoy faylasufining hikmati yodimizga tushadi.

### Foydalananlgan adabiyotlar

1. Abduxoliq G'ijduvoniy. Maqomati Yusuf Xamadoniy. //muslim.uz, 23 okt. 2019.
2. Abramov M. Samarqand qabristonlari.– Samarqand: SamDU, 1985.
3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G'afur G'ulom, 1991.– 256 b.
4. Imom al-Buxoriy. "Al-Jome, as-Sahih". – [www.bukhari.uz](http://www.bukhari.uz), 3 fevr. 2022.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.–176 b.
6. Mavru洛 A. Ma'naviyat kuni. //Ma'rifat gazetasi, 2005-yil, 2-mart.
7. "Milliy istiqlol g'oyasi" fani dasturi.– T.: TDPU, 2003. – 40 b.
8. Orif Usmon. Abduxoliq G'ijduvoniy ta'limoti. – T.: Fan, 2003.
9. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanidan dastur. – T.: TDPU, 2003.– 40 b.
10. "Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi" fanidan dastur. – T.: TDPU, 2024. –20 b.
11. Shodihev N. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida talabalarni ma'naviy shakllantirish //Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni takomillashtirish va ularning tarbiyaviy ta'sirini oshirishning dolzarb masalalari. Ilmiy-uslubiy anjuman materiallari to'plami. –T.: 2010. – B. 50-56.
12. Shodihev N. Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 1987. –229 b. O'zbekiston ensiklopediyasi. – T.: Qomus nashriyoti, 1972. – 617 b.

# FUNKSIONAL SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARI VA ULARNI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISH USULLARI

## ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ГРАМОТНОСТИ И МЕТОДЫ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ

### FUNCTIONAL LITERACY COMPETENCIES AND METHODS OF FORMING THEM IN STUDENTS

*Tilyabov Maxsudjon Umurzokovich*

**Annotatsiya.** Maqolada funksional savodxonlik kompetensiyalari va ularni o'quvchilarda shakllantirish usullari tushuntirilgan. Funksional savodxonlik kompetensiyalari va ularni shakllantirish metodlari yoritilgan. Funksional savodxonlik kompetnsiyalariga alohida tushunchalar va ularni o'quvchilarda shakllantirish metodlari to'liq yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** funksional savodxonlik, metematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, global kompetensiya, kognitiv daraja, adaptiv, produktiv.

**Аннотация.** В статье объясняются компетенции функциональной грамотности и способы их формирования у учащихся. Освещаются компетенции функциональной грамотности и методы их формирования. Компетенции функциональной грамотности в полной мере освещены отдельными понятиями и методами их формирования у учащихся.

**Ключевые слова:** функциональная грамотность, математическая грамотность, естественно-научная грамотность, глобальная компетентность, когнитивный уровень, адаптивный, продуктивный.

**Abstract.** The article explains the competencies of functional literacy and the ways of their formation in students. Functional literacy competencies and methods of their formation are highlighted. Functional literacy competencies are fully clarified by individual concepts and methods of their formation in students.

**Keywords:** functional literacy, mathematical literacy, natural science literacy, global competence, cognitive level, adaptive, productive.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarning ta'limgan mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekani e'tirof qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar faoliyati o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta ishslashga qaratilgan. Ta'limgan sohasidagi sifat o'zgarishlari xalqaro ta'limgan talablarga mosligi, talabalarning o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashini rivojlanirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtiroy etib, ijobiy natijaga erishishi bo'yicha samarali

tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning uchun ta’lim oluvchilarning kompetensiyalardan foydalanish, o‘z qobiliyatlari, ijodkorligi, tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta’lim muhitini joriy qilishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya qilinmoqda.

Jahonda ta’lim oluvchilarning funksional savodxonlik tarkibidagi kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasiga oid olib borilgan tadqiqot ishlarida bir qator natijalarga erishilgan, jumladan, ta’lim oluvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish orqali shaxsiy-kreativ salohiyatni oshirishning edukologik jihatlari aniqlashtirilgan (Malayziyaning Utara universiteti); ta’lim oluvchilarni o‘qishdan o‘rganishga o‘tish va ularni hayot davomida rivojlanayotgan o‘zgaruvchan dunyoda adaptasiyaga o‘rgatish orqali yangi vaziyatlarda optimal qaror chiqara oladigan shaxs etib tayyorlashga erishilgan (Bryussel universiteti. Belgiya); ta’lim oluvchilarni savodxonliklari va kreativ fikrlash doiralarini rivojlantirish tuzilmasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta’lim akademiyasi ta’limni rivojlantirish strategiyasi institutining Ta’lim sifatini baholash markazi); ularda funksional savodxonlikni shakllantirish, tabiiy hodisalarni ilmiy talqin qila olish metodikasi takomillashtirilgan (Pedagogik tadqiqotlar kengashi (Avstraliya)), Milliy pedagogika instituti (Niderlandiya), Pedagogik test xizmati (AQSh), ta’lim sohasidagi tadqiqotlar milliy instituti (Yaponiya) va Vestat (AQSh); kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining savodxonliklarini baholash uchun moslashtirilgan texnologiya, tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish, ta’lim oluvchining shaxsiy ijobiy xususiyatlarini baholash metodikasi takomillashtirilgan (O‘zbekiston Respublikasining qator oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti).

**Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlanishi, funksional savodxonlikni rivojlantirish metodikasi maqsadi, vazifasi, usullari va natijalari.**

**Maqsad:** Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlanish jarayonida funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqishdir.

**Vazifalar:** Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy vazifalar belgilangan.

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash uchun tabiiy fanlar integratsiyasiga asoslangan ilmiy-metodik ta’minotni yaratish.

PISA tadqiqotida talqin etilgan funksional savodxonlikka asoslangan tabiiy-ilmiy va kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan kontekstual topshiriqlarni ishlab chiqish.

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va topshiriqlarni kognitiv darajalar bo‘yicha moslashtirish.

talabalar mustaqil faoliyatini produktiv barqarorlikda tashkil etish asosida, kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish.

talqaro baholash dasturlariga tayyorlashda noan’anaviy yondashuvlarni joriy etish orqali bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining ilmiy kompetentligini rivojlantirish.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi.

Falsafiy, psixologik, pedagogik va kasbiy adabiyotlar tahlili;

Pedagogik modellashtirish;

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilariga so‘rovnama, test va tajriba-sinov ishlari o‘tkazish;

Tashxis va bashorat qilish;

Statistik tahlil usullari yordamida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish.

**Natijalar:** Tadqiqot natijasida quyidagilar amalga oshirildi.

bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kreativ ta'minoti takomillashtirilib, malaka talablari, o'quv dasturlari va o'quv-kasbiy majmualar rivojlantirildi.

funksional savodxonlikning kreativ kompetentligini takomillashtirish mezonlari va darajalari belgilandi.

ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi.

funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan kontekstual topshiriqlar yaratildi.

*Zamonaviy dunyo maktab o'quvchilarini o'qitishda pedagogik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Maktab o'quvchilarida funksional savodxonlikni rivojlantirish zarurligi haqida fikrlar tobora ko'payib bormoqda. Maktab o'quvchilari orasida funksional savodxonlikni rivojlantirish zarur va ahamiyatli hisoblanadi [1].*

*Maktab o'quvchilari uchun funksional savodxonlik kontseptsiyasi 1970-yillarda paydo bo'lgan va real hayotiy muammolarni hal qilish uchun o'qish va yozish ko'nikmalari to'plamini nazarda tutgan. Keyingi 40 yil ichida funksional savodxonlik maktab o'quvchilarini o'rghanish va rivojlantirishda asosiy savodxonlikdan ko'ra muhimroq bo'ldi. Bugungi kunda funksional savodli talaba ta'lim sifati ko'rsatkichidir. Hayotda faqat akademik bilim yetarli emas. Asosiy e'tiborga olingan ma'lumotlar va ko'nikmalarni muayyan vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga qaratiladi.*

Funksional savodxonligi rivojlangan maktab o'quvchisining o'ziga xos xususiyatlari: turli kundalik muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladi, turli ijtimoiy vaziyatlarda muloqot qilish va chiqish yo'lini topishni biladi;

muloqotni o'rnatish uchun asosiy o'qish va yozish ko'nikmalaridan foydalanadi, bir xil fakt yoki hodisani o'rganib, so'ngra turli tomonlardan baholanganda fanlararo aloqalarni o'rnatadi [2].

*Vaziyatni baholash va olingan bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatni bir darsda rivojlanmaydi. Funksional savodxonlikni oshirish jarayoni bir necha yil davomida o'quv dasturiga kiritilgan.*

*Funksional savodxonlikning afzalliklari allaqachon isbotlangan. Mehnat bozori har qanday qiyinchiliklarga tezda javob bera oladigan, yangi bilimlarni o'zlashtirgan va ularni paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda qo'llay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. Bular funksional savodli odamlardir. Agar talaba bunday ko'nikmalarni egallashga muvaffaq bo'lsa, u zamonaviy haqiqatni osongina yo'naltiradi [3].*

*Ba'zi o'qituvchilar funksional savodxonlikni o'rgatish qiyin deb hisoblaydilar. Biroq, agar siz barcha pedagogik amaliyotlarga amal qilsangiz, o'quvchilarning o'qishi va o'qituvchining ishlashi yanada qiziqarli bo'ladi.*

*Olib berilgan tadqiqotlarni o'rghanish natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, funksional savodxonlikka e'tibor o'quvchilarni kognitiv jarayonga jalb qiladi, ma'lumotlarni tahlil qilish va segmentlash, xulosalar chiqarish va turli ta'lim yo'nalishlarida olingan ma'lumotlardan foydalanishga qodir. Bu tabiiy ravishda sinf ish faoliyatini yaxshilaydi.*

Umumiy ta'limning davlat ta'lim standarti talablarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning ta'lim yutuqlarining ajralmas xususiyati sifatida funksional savodxonlik o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Funksional savodxonlikni shakllantirish va baholash (o'qish, matematika, tabiiy fanlar, moliyaviy savodxonlik, shuningdek, global kompetentsiya va ijodiy fikrlashning barchasi funksional savodxonlik deb tasniflangan) murakkab va deyarli barcha o'quv fanlarida, sinfda va darsdan tashqarida amalga oshiriladi.

Funktsional savodxonlikni rivojlantirish uchun nafaqat sinfda, balki darsdan tashqarida ham maxsus ta'limgan muhitini yaratish kerak [4].

Quyidagi ko'rsatkichlar yordamida maktab o'quvchilarining funktsional savodxonligi ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin:

*Axborot savodxonligi*: kitoblar, ma'lumotnomalar, jurnallardan kerakli ma'lumotlarni topdi va tanladi.

*Muloqot savodxonligi*: jamoada ishlagan, maqsad va vazifalariga erishish uchun ijodiy vazifalarni bajarish uchun yangi noodatiy talablar hamda sharoitlarga moslashtirilgan.

*Faoliyat savodxonligi*: rejorashtirilgan va amalga oshirilgan o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tuzatish, taqdimot uchun tayyorlangan materiallardan iborat.

*O'qish savodxonligi*: dramaturg asarlaridan ma'lumotlarni topish, olish, foydalanish, birlashtirish va sharhlash, shaklini tushunib, baholagan, keyinchalik ular voqealarda ishlatilishi.

*Sog'liqni saqlash savodxonligi*: o'zlarining aqliy va jismoniy salomatligini saqlashga g'amxo'rlik qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun darsdan tashqari vaqtidan oqilona foydalanish, sinfdoshlari va tanishlariga salomatlik tejaydigan maslahatlar berishni o'rgandilar.

*Umumiy savodxonlik*: insho, referat yozish, kalkulyatorsiz hisoblash, iboralar tuzish yoki so'z tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmasdan savollarga javob berish, har qanday anketa yoki shakllarni to'ldirish.

*Favqulodda vaziyatlarda malaka ega bo'lish*: jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish, ixtisoslashgan xizmatlardan tez yordam so'rash, sog'lig'ingizga g'amxo'rlik qilish, shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan vaziyatlarda o'zini tutishdan iborat.

*Kommunikativ*: guruhda, jamoada ishslash, boshqa odamlar ustidan g'alaba qozonish, yangi, noodatiy talab va sharoitlarga moslashish, guruh ishini tashkil qilishdan iborat.

*Chet tillarini bilish*: oddiy matnni lug'at yordamida tarjima qilish, o'zingiz, do'stлaringiz, shahringiz haqida gapirib berish, turli tovarlar va maishiy texnika qadoqlari bo'yicha ko'rsatmalar matnlarini tushunish, turli kundalik mavzularda chet ellik do'star va tanishlar bilan muloqot qilishdan iborat.

*Matematik savodxonlik*: *amaliy hayot bilan bog'liq to'g'ri berilgan savollar matematik savodxonlikni rivojlantirishga yordam beradi*. Matematik savodxonligi bo'lgan o'quvchi turli kontekstlarda bilimlardan foydalanishga, matematik ma'lumotlarga asoslangan hodisalarini bashorat qilishga, haqiqiy foydalashga va oqilona qarorlar qabul qilishga qodir.

*Ilmiy savodxonlik*: *bu yerda tabiat hodisalarini, geografik xaritalar va atrof-muhitdagi jarayonlarni tahlil qilish va taqqoslash bo'yicha topshiriqlar yordam beradi*. Tabiiy fanlar bo'yicha kompetentsiyani rivojlantirish uchun ilmiy ma'lumotlarni malakali izohlash, amaliy tadqiqotlar o'tkazish, tabiat hodisalarini tushuntirish va mavjud dalillarni topish muhimdir. Tabiiy fanlar savodxonligi bo'lgan o'quvchi tabiiy jarayonlar bilan bog'liq hodisa va vaziyatlar to'g'risida o'z fikrini shakllantira oladi.

*Global kompetensiya*: *bu talabaning mustaqil ravishda yoki guruhda global muammolarni hal qilish uchun bilimlaridan foydalanish qobiliyatidir*. Uning rivojlanishiga hodisalar, hodisalar va tabiiy oqibatlar o'rtaqidagi sabab-natija munosabatlarini topish vazifalari yordam beradi. Talabalarga vaziyatni tahlil qilish va demografiya, iqtisod, ekologiya va boshqa dunyo muammolari sohasidagi savollarga javob berish taklif etildi.

*Ijodiy fikrlash*: *bu global ma'noda ijodkorlik bilan bog'liq barcha narsalarni o'z ichiga oladi*: o'z g'oyalarini yaratish va boshqa odamlarning g'oyalarini yaxshilash, samarali echimlarni taklif qilish, fantaziya va tasavvurdan foydalanish qobiliyati. Natija - takliflarni tanqidiy tahlil qilish, bu ularning

